

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti xabarлари

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to‘rt marta nashr etiladi

Bosh muharrir –

SHERMANOV Eldor Uralovich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Bosh muharrir o‘rinbosari –

JUMAYEV Sobirjon Saidovich

professor

TAHRIR HAY‘ATI

RUSHANIN Vladimir Yakovlevich –

Chelyabinsk davlat madaniyat instituti rektori, tarix fanlari doktori, professor

NURULLAYEV Abdulaziz Sirojiddinovich – Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

MAVRULOV Abduxalil Abdulxayevich – Tarix fanlari doktori, professor

TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna – San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

QODIROVA Sarvinoz Muhsinovna – San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

UMAROV Absalom Adilovich – Sotsiologiya fanlari doktori, professor

QOSIMOV Nozim Kozimovich – Filologiya fanlari nomzodi, professor

NISHONBOYEVA Qunduz Vahobovna – Tarix fanlari nomzodi, dotsent

MULLAJONOV Davlat Mavlonovich – San‘atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

YULDASHEV Ma‘rufjon Muxammadjonovich – Filologiya fanlari doktori, professor

FAYZIYEVA Feruza Xodjimuradovna – San‘atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

XALIKULOVA Go‘zal Erkinovna – San‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

ABDUJABBAROVA Musallam Lapasovna – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

XUDOYEV G‘ani Muhammadovich – Sanatshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ISMOILOV Hamdam – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KOSHELEVA Antonina Fedorovna – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

RASHIDOV Temur Maxmudovich – San‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

TURG‘UNOVA Nasiba Mamatovna – Sanatshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MAMATQOSIMOV Jahongir Abirqulovich – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.

TO‘YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna – Falsafa fanlari doktori

JAMOATCHILIK KENGASHI

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich – O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri,

O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti

AXMEDOV Bahodir Majitovich – O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vaziri o‘rinbosari, dotsent v.b.

MIRZAALIYEV Iqboljon Mirzakarimovich – O‘zbekiston xalq shoiri

AKILOVA Kamola Baltabayevna – San‘atshunoslik fanlari doktori, professor

KARIMOVA Nigora G‘aniyevna – San‘atshunoslik fanlari doktori

Maqolada keltirilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas‘uldir.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi
245/6-sonli qarori bilan San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

1. E.Shermanov. Loqaydlik va beparvolik yoshlar tarbiyasida illat sifatida.....	3
---	---

I. TEATR VA KINO

1. S.Qodirova. O‘zbek aktyorlik maktabi an‘analarining shakllanishida kulgi ustalarining o‘rni.....	6
2. Э.Джафаров. Драма звука и звуки драмы.....	10
3. M.To‘rayev. Musiqali drama – janr sifatida rivojlanishi	15
4. S.Xaitmatova. Роль исторической культурной памяти в документальном кино Узбекистана.....	18
5. E.Yarbekov. So‘z gavhari.....	21
6. Sh.Xamidova. Professional o‘zbek aktyorlik san‘atining shakllanishida an‘anaviy teatrning o‘rni.....	23
7. A.Mirzayev. O‘zbek musiqali teatrida aktyorlik izlanishlari hamda vokal ijrochiligi masalasi.....	25
8. A.Utayev. Animatsiya san‘atining rivojlanish bosqichlari.....	28
9. J.Chaqqonov. Film g‘oyasini ochishda konfliktning ahamiyati.....	31

II. MUSIQA SAN‘ATI

1. S.Jumayev. Cholg‘u ijrochiligi tarixi.....	33
2. M.Xodjaeva. O‘zbekiston musiqa san‘atida opera janri va uning milliy xususiyatlari.....	35
3. G‘.Xudoyev. “Yakkaxon qo‘shiqchilik”da Buxoro mavrigilarini o‘rganish.....	38
4. G.Munteeva. Musiqa san‘atining paydo bo‘lishi va unga xos atamalarining ildizlari.....	42

III. SAN‘AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. M.Abdullayeva. O‘zbek xalqining turmush tarzi bilan bog‘liq maqollari va ularning o‘zigaxosligi.....	44
2. O‘.Toshmatov. Baxshi doston kuylasin.....	48
3. I.Meliqo‘ziyev. Kinooperatorlik san‘atining shakllanish omillari va badiiy evolyusiyasi.....	52
4. T.Fayziyev. O‘zDSMI da madaniyat va san‘at menejerlarini kasbiy tayyorlash.....	57
5. N.Ahmedova. Rejissorlik etyudi yaratishdarassom asarlarining o‘rni.....	60
6. J.Mahmudov. Pahlavon Mahmud va Javonmardlik: ramzlar talqini.....	62
7. G.Orifjonova. San‘atning sehrli kuchi.....	65

IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. P.Алланбаев. Дистанционные образовательные технологии в системе музыкального обучения.....	68
2. M.Абдужаббарова, X.Хайдаров. Стратегии реализации воспитательного потенциала искусства в процессе модернизации образования.....	71
3. D.Malikova. Vokal-xor jamoalari bilan ishlash masalalari xususida.....	75
4. D.Mamirova. Физическая культура и «союз молодежи» как двигатель творческого потенциала в Узбекистане.....	78
5. M.Yuldashева, D.Абдужабборова. Социализация студенческой молодежи как социальное явление.....	83
6. B.Dosimbetov. Cholg‘u ijrochisini konsert va sahna namoyishiga tayyorlashning psixologik xususiyatlari.....	86
7. X.Umarov. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish korruptsiyaga qarshi kurashning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir...	89

V. E‘TIROF

1. B.Do‘stmurodov, O‘zbekiston xalq hofizini yod etib.....	91
2. O.Rizayev. Sahna nutqi bilimdoni	94
3. O.Alimbekova. San‘atga baxshida umr	99
4. M.Xolmo‘minov, A.Qolqanatov. Himmatning qiymati – ilm shamchirog‘i, ma‘naviyat sarchashmasi, ilmu zakovat xazinasi.....	102
5. N.Abraykulova, H.Alam. Service trip to Korea.....	105
6. S.Malikova, N.Baxritdinova. Человек большого сердца.....	107
7. Sh.Dadayev. Asrlarga tatirli ohanglar...	110

VI. YOSH TADQIQOTCHI

1. A.Nosirova. Origin and development of pragmatics as a linguistic science.....	112
2. X.Abdullayeva. Etnomadaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari va zamonaviy tendensiyalari.....	115
3. B.G‘aybulloyev. Buxoro teatri aktrisasi Nazokat Ne‘matova ijodiga chizgilar.....	118
4. M. Ahmetjanova. O‘zbekiston davlat va xususiy telekanallarining serial mahsuloti integratsiyasi.....	121
5. D.Tuyg‘unov. “Yillar armoni” spektaklidagi badiiy mushtaraklik.....	124

VII. KUTUBXONA

1. T.Bayturayev. Tarixiy o‘lkashunoslik nashrlarining yoshlar mutolaa madaniyatiga ta‘siri.....	126
2. O‘.Nosirov. Yangi ma‘naviy makonni yaratish va kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy vazifalari...	129
3. M.Maxmudov. Axborot-kutubxona muassasalarida o‘zbek mumtoz adabiyotini targ‘ib qilishda axborot-texnologiyalaridan foydalanish.....	133
4. Цай И.К. Роль библиотечно-информационных учреждений в развитии межкультурной коммуникации Республики Узбекистан.....	137
5. Н.Усманова. Пути формирования информационной культуры студентов гуманитарных специальностей...	140

LOQAYDLIK VA BEPARVOLIK YOSHLAR TARBIIYASIDA ILLAT SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda islohotlarga daxldorlik fazilatini rivojlantirish masalalari, yoshlar tarbiyasidagi kamchiliklar, ma'naviyatning qashshoqlashuvi, fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida daxldorlik tarbiyasiga e'tibor masalalari.

Kalit so'zlar: daxldorlik, loqaydlik, ijtimoiy faollik, islohotlarga daxldorlik, fashizm, missonerlik, diniy ekstremizm, "ommaviy madaniyat", ogohlik, tarbiya, loqaydlik, befarqlik.

ХАЛАТНОСТЬ И НЕЗАБОТЛИВЫЕ МОЛОДЫЕ ЛЮДИ ВОСПИТАНЫ КАК БОЛЬНЫ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития добродетели конформизма в формировании мировоззрения молодого поколения, недостатки в воспитании молодежи, оскудение духовности, вопросы внимания к воспитанию конформизма в процесс формирования гражданского общества.

Ключевые слова: актуальность, равнодушие, социальная активность, отношение к реформам, фашизм, миссионерство, религиозный экстремизм, «массовая культура», информированность, просвещение, равнодушие, индифферентность.

INDIFFERENCE AND NEGLIGENCE ARE CHARACTERIZED AS FAULTS IN EDUCATION OF YOUNG PEOPLE

Abstract. The article deals with the issues of developing the virtue of conformity to reforms in the formation of the worldview of the young generation, shortcomings in the education of young people, the impoverishment of spirituality, issues of attention to the education of conformity in the process of the formation of civil society.

Keywords: relevance, indifference, social activity, relevance to reforms, fascism, missionary work, religious extremism, "mass culture", awareness, education, indifference, indifference.

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-aprel kuni "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilingandan so'ng, olimlar tomonidan milliy g'oya konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Taqdim etilgan milliy g'oya konsepsiyasi dunyo ijobiy tajribasining nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy-axloqiy jihatlarini, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi, jumladan, shaxsning intellektual salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq eng muhim yutuqlarini ham o'zida mujassam etgan. Milliy mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'n-u sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib,

takomillashib boradigan pedagogik g'oyalar tizimi hamdir.

Yoshlarda milliy g'oya ro'yobiga daxldorlik fazilatini tarbiyalash bu pirovard holda uchta hokimiyat tarmog'ini birlashtirishga, ya'ni buni ta'minlovchi fuqarolik jamiyatining, demokratik huquqiy davlatning gullab-yashnashiga olib keladi. Bu haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday deydi: "...jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlarni ko'zda tutadi"¹.

Ilmiy ijodiy jamoatchilik oldiga davlatimiz tomonidan "Zamonamiz qahramoni" obrazini yaratish masalasini g'oyaviy-tarbiyaviy ideal masalasi, deb talqin qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu va shu yo'nalishdagi dasturiy fikrlar barcha fuqarolar va ularni birlashtirgan turli qarash va fikrga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning maqsadlarini o'zida uyg'un qilgan O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari", degan ulug' maqsad bosh g'oya sifatida maydonga chiqishi, bu har bir o'zbekistonlik yigit-qiz uchun birdek muqaddas bo'lishini tarbiyaviy ta'minlashning naqadar muhim va shartligi namoyon bo'ladi.

Shu sababli, mana shunday oliyanob tuyg'ular bir tomondan: milliy g'oya va milliy mafkuramizning

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. 03.08.2017. <http://uza.uz/oz/politics/adabyet-va-sanat>

ma'no-mazmuniga, ikkinchi tomondan: har bir o'zbekistonlikning hayot dasturiga aylanishiga erishishni ta'minlash vazifasi belgilab berildi. "Hayot dasturiga aylanishiga erishish" masalasida, murakkab pedagogik vazifa mujassamligi ko'rinib turadi.

Milliy g'oya ro'yobiga daxldorlik ikki yo'nalishga ega. Birinchisi, bunyodkor g'oyalar ro'yobini hamma joyda va doim dilda, tilda va amalda qo'llab-quvvatlash. Ikkinchi yo'nalish, bu, buzg'unchi g'oyalar ro'yobiga hamma joyda va doim dilda, tilda va amalda qarshi turishni taqozo etadi. Mana shu maqomda daxldorlik bilim, tuyg'u, ko'nikma, malaka, kompetentlikka tayanuvchi shaxsiy fazilat darajasida namoyon bo'ladi.

Ushbu yondashuv o'zining bir necha tayanch asoslariga ega. Shulardan biri daxldorlik bu – kishida bir qancha ma'naviy xislatlar, jumladan, vijdon, iymon, mas'uliyat, oriyat, nomus, javobgarlik, ogohlik, hushyorlik, manfaatdorlik, hozirjavoblik, tadbirkorlik, e'tiborlilik, prinsiplilik, g'urur, halollik va boshqa fazilatlaridir. Ya'ni daxldorlik yakka, sof holda namoyon bo'lmaydi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida uning namoyon bo'lishi uchun yuqoridagi xislat va fazilatlar omil sifatida xizmat qiladi.

Milliy g'oya mamlakatimizda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan yetti g'oya asosida yanada mustahkamlash yo'lida ijtimoiy hamkorlikka safarbar etadi. Biroq ogoh bo'lmasak, ong va qalbdan bo'shliq paydo bo'lsa, turli shakl va niqob, liboslarda vayronkor g'oyalar kirib kelaveradi. Bunday vaziyatda nima qilmoq kerak? Bunda daxldorlikning ikkinchi yo'nalishi ishga tushishi, ya'ni har bir yigit-qiz "*Fikrga qarshi – fikr, g'oyaga qarshi – g'oya, jaholatga qarshi – ma'rifat*" bilan kurashish, olishishga o'zini daxldor deb bilishi kerak. Aks holda, agarda loqaydlik ustun kelsa, oldini olib bo'lmaydigan fojialar kelib chiqishi tarixda ko'p bor o'z tasdig'ini topgan.

Shulardan biri sifatida, XX asrning 30-yillaridagi Yevropa butun dunyo jamoatchiligining fashizm g'oyasiga loqayd munosabati qanday fojialarga olib kelganini keltirish mumkin. Fashistlar loqayd odamlarning terisidan ayollar sumkachasi, tuffilar, galantereya mollarini yasab sotdi. Jasadlarini krematoriy(o'choq)larda yoqdi, yuz minglab odamlarni tiriklay ko'mdi. Ustiga tuproq tortilgan tiriklardan tepaliklar paydo qildi. Bu tirik tepaliklar ancha vaqt qimirlab turgan. Bular o'sha yillari, fashizm endi bosh ko'tarayotganida insoniyat yo'l qo'ygan loqaydligi uchun jazo edi.

Fashizmni to'xtatib bo'larmidi? Ha, albatta. Insoniyat, Yevropa jamoatchiligi loqayd bo'lmay, yuksak yakdillik va daxldorlik namunasini ko'rsatganida, shuningdek, ma'naviyat qudratli kuchga

aylanib, ishga tushsa, bu yovuz g'oyani to'xtatib bo'lar edi. Afsuski, bunday bo'lmadi. **Beparvolik, loqaydlik, "buning menga aloqasi yo'q", deb yashash ma'naviyatni ojiz va zaif qilib qo'ydi. Fashistlarga esa... xuddi ana shu kerak edi.** Toki vayronkor g'oyalarning targ'ibot-tashviqot girdobi aylanayotgan ekan, ularga har bir yigit-qizning yuksak daxldorlik bilan qarshi turishi talab etilmoqda. Ogoh insoniyat qaytib na milliy, na diniy shovinizmga, ekstremizmga va ularning targ'ibotiga yo'l qo'ymas.

Agar bundan bir asr muqaddam, Yevropa butun insoniyat endi nish chiqarayotgan fashizm g'oyasiga qarshi ana shunday kurashganida, loqayd bo'lmaganida, 60 000 000 ga yaqin insonning yostig'i qurimas edi. O'zbekistonning 500 000 bahodir farzandlari qurbon bo'lmas edi. Yurtimizning har bir tumani, mahallasi, oilasi azob chekmagan bo'lar edi.

Biz bugun xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O'zbekiston davlatini, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda, avvalo, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga eng muhim vazifa sifatida ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Bugun dunyoda va mintaqamizda, chegaralarimizda keskinlik, turli tahdid va xatarlar kuchayib borayotgan bir sharoitda, bu masalaning qanday beqiyos ahamiyatga ega ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Atoqli ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: "*Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir*", – degan hikmatli so'zlarini men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Keyingi yillarda masalaga mana shunday yondashuv bizning ushbu sohadagi faoliyatimiz mezoniga aylandi. Chindan ham agar biz ta'limni o'zgartirsak, ta'lim insonni o'zgartiradi. Inson o'zgarsa – butun jamiyat o'zgaradi².

Vatan ravnaqi – har bir kishi, shaxsning manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiradigan, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga da'vat etadigan bunyodkor g'oyadir. U milliy istiqlolning oliy maqsadlaridan biri bo'lmish barchamiz uchun muqaddas sanalgan Vatanimizning ravnaqini ta'minlash, uning jahon maydonida munosib o'rin egallashiga erishishini nazarda tutadi. Ya'ni Vatan ravnaqi avvalo, "**...Yoshlar haqida gap ketganda, men doim bir narsani o'ylayman. Mana, bugungi kunda qancha-qancha yoshlarimiz chet ellarda ta'lim olmoqda, mehnat qilmoqda. Albatta, ularning orasida o'z yo'lini topib, begona yurtida hech kimdan kam bo'lmay yashayotganlari ham ko'p. Lekin Vatan sog'inchi har qanday odamni ham qiynaydi**"³. Shunday ekan, biz bugun o'z Vatanimni sevadigan, uning rivojlanishiga va taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan yangi avlodni har tomonlama tarbiya qilishimiz lozim. Bu esa jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Bunda **birinchidan, hozirgi ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, jamiyatni boshqarishda ommaviy tashkilotlarning (xususan, mahallaning) mavqeini oshirish, aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyillari nihoyatda muhim.**

² Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag'ishlangan marosimdagil nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil, 31-avgust.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 23-dekabr.

Ikkinchidan, hayotda demokratik tamoyillarning ustuvorligi, muqobil partiyalar, jamiyatning barcha jabhalarini erkinlashtirish, davlatning islohotchilik funksiyasi, aholi siyosiy ongi va madaniyatini oshirishda katta ahamiyatga ega. **Uchinchidan**, bozor munosabatlariga xos mulkchilikning shakllanishi, iqtisodiyotning tarkibiy tizimidagi o'zgarishlar, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish bunda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. **To'rtinchidan**, tarixiy merosimizning tiklanishi, aholi intellektual salohiyatini oshirish, fan va ilmiy muassasalar, san'at va adabiyotni rivojlantirish, komil insonni tarbiyalash bo'yicha milliy ta'lim dasturining izchil amalga oshirilishi, xalqaro madaniy aloqalarni kuchaytirish ham Vatan ravnaqiga xizmat qiladi. **Beshinchidan**, mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida qonun ustuvorligiga erishish, huquqiy-demokratik jamiyat qurish sohasidagi tajribalar, davlatimizning xalqaro huquq normalariga amal qilishi – Vatan ravnaqini ta'minlaydigan shart-sharoitlardir⁴.

Millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda O'zbekiston hududida esa 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashamoqda. Har bir millat Yaratganning mo'jizasi bo'lib, o'z tili, dini, maslagi, qadriyatlari, an'alariga ega. Shu bois, mazkur ma'naviy omillarning amal qilishi millatlararo totuvlikning muhim shartlaridan sanaladi. Davlatlar bu borada ko'p millatli (polietnik) va bir millatli (monoetnik) tarkibga ega bo'lib, har biri o'ziga xosligi bilan bir-biridan farqlanadi. Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'ziga xos qadriyatlari ham bor. Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, bir mamlakat doirasida milliy manfaatlarni teng qondirish, ular rivojini ta'minlash juda murakkab masala ekanini ham anglamog'imiz darkor. Millatlararo totuvlik g'oyasi ana shu masalani to'g'ri hal qilishga yordam beradi. Bu g'oya – bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning

⁴ Nishonova. "Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi": Ped. fan. d-ri. ... dis. – Toshkent: 1998. – B.288.

⁵ Nazarov Q. va boshqalar. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

⁶ Mamashokirov S., Tog'ayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. – T.: "Ma'naviyat", 2007. – B.80.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning softligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. "Adolat" gazetasi, 2017-yil, № 24. – B.1–3.

ma'naviy asosidir. Bu g'oya – har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi. Mamlakatimizda ushbu g'oyani amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda⁵.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilishi jarayonlarida ham millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlash orqali tinchlik va barqaror taraqqiyot asoslarini mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Bunda barcha din vakillari orasida diniy asosda hech qanday mojarolar bo'lmaganiga tarix guvohdir⁶. Bu haqida fikr yuritganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: **"...Bizning davlatimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'ynamoqda"**⁷, – degan so'zlari zamirida naqadar katta ishonch mujassam ekanini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Ularga o'z diniy marosimlarini o'tkazish va mamlakat hayotida faol ishtirok etish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Konstitusiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Ma'lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasiga asoslanadi. Kishilarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lish, hamisha yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Xulosa qilib aytganda, haqiqiy diniy qarashlar ortida dinlararo bag'rikenglik yotadi. Ayniqsa, bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyati taraqqiy etishida diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo hamjihatlik muhitini hukm surishi o'z navbatida fuqarolarimizni, xususan, yosh avlodni Ona Vatanga fidoyi va sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'z navbatida mazkur omillar, O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 28-yanvarda "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni imzoladi. Mazkur farmon bilan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Ushbu farmon asosida 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi, ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlashni taqozo etadi. Aynan, mazkur omillar dunyoda global miqyosda tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikni ta'minlash orqali Vatan ravnaqi va taraqqiyoti uchun zamin yaratadi.



I BO' LIM

TEATR VA KINO

Sarvinoz QODIROVA,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

O'ZBEK AKTYORLIK MAKTABI AN'ANALARINING SHAKLLANISHIDA KULGI USTALARINING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada Yevropa rusumidagi o'zbek teatrida faoliyat ko'rsatgan kulgi ustalarining aktyorlik maktabi an'alarining shakllantirishdagi o'rni haqida so'z boradi. Kulgi ustalari, sahna qiziqchilari deb ta'riflangan aktyorlar yangi shakldagi teatrdan faoliyat yuritib, psixologik teatr qonuniyatlarini qabul qilgan bo'lsalar-da, tabiatlaridagi xalq maydon tomoshalari, an'anaviy teatr ildizlari, kulgi madaniyatiga umrlarining oxirigacha sodiq qoldilar.

Kalit so'zlar: an'anaviy teatr, dramaturgiya, yumor, komediya, aktyor, pedagog, shartlilik, improvizatsiya.

РОЛЬ МАСТЕРОВ КОМЕДИЙНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ УЗБЕКСКОЙ АКТЕРСКОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В статье речь идет о роли актеров с комедийным дарованиям в формировании узбекской актерской школы Европейского образца. Актеры, которых называют в народе мастерами комедийного искусства, работая в новом театре и принимая законы психологического театра, сохранили в себе преданность к народному традиционному театру устной формы, склонность к народной смеховой культуре.

Ключевые слова: традиционный театр, драматургия, юмор, комедия, актер, педагог, условность, импровизация.

THE ROLE OF MASTERS OF COMEDY ART IN THE FORMATION OF THE UZBEK ACTING SCHOOL

Annotation. The article deals with the role of actors with comedic talents in the formation of the Uzbek acting school of the European standard. Actors who are popularly known as masters of comedy art, working in the new theater and adopting the laws of the psychological theater, retained their devotion to the folk traditional theater of the oral form, a penchant for folk laughter culture.

Keywords: traditional theatre, dramaturgy, humor, comedy, actor, teacher, conventionality, improvisation.

Teatr san'ati haqida so'z borganda, dramaturgiya, rejissura, rassom-ssenograf, musiqa, xoreografiya komponentlari bilan bir qatorda spektaklning muvaffaqiyatini ta'min etuvchi asosiy omil – bu aktyordir. Yevropa rusumidagi o'zbek teatri shakllanish va rivojlanish bosqichlarida aynan aktyor teatri sifatida tanilgan. Zero, o'zbek an'anaviy teatrida masxaraboz hamda qiziqchilar avvalambor o'z tug'ma iste'dodi, hayotiy kuzatuv, so'ngra improvizatsiya, badihago'ylik, mubolag'aga tayangan holda ma'lum bir syujet asosida qahramonlarning kulgili qiyofalarini gavdalantirganlar. Tomoshalarda nafaqat kulgili holatlar, illatlar, qiyofalar ustidan kulingan, muqallid va tanqid qilingan, hajv vositasida fosh etilgan. Shundan bo'lsa kerak, ilk o'zbek sahna namoyandalari – aktyorlar xalq kulgi san'atiga moyil edi. Hoji Siddiq Islomov, Mirshohid Miroqilov, Rahim Pirmuhammedov, Soyib Xo'jayev, Abdurauf Boltayev, Sobir Rahmonov, Sa'dixon Tabibullayev, G'ani A'zamov, Nabi Rahimov va boshqa bir qator ijodkorlar komedik rollar ustasi

sifatida dovrug' qozondi. Bu aktyorlar avlodiga ta'rif berganda, mashhur fransuz dramaturgi, kulgi ustasi J.B.Molyerga vafotidan so'ng yozilgan nekrolog yodga tushadi: **“U boshidan oyog'igacha, kiprigidan tirnog'igacha aktyor edi. Unda go'yo bir necha ovoz bordek tuyulardi. A'zoyi badani so'zlardi. Birgina qadam tashlash, tabassum qilish, birgina nigoh, bir irg'ish bilan dunyodagi eng buyuk gapdonning bir soatda gapira oladiganidan ko'proq hikoya qilardi”** [1. B.749]. Biz mana shu ulug' ijodkorlar orasidan ikki buyuk aktyor – Hoji Siddiq Islomov va Mirshohid Miroqilovlarni ajratib olgan holda ularning ijod namunalari misolida xalq kulgi madaniyati, kulgi san'ati, sahna qiziqchilarning o'rni xususida fikr yuritmoqchimiz.

Ulug' aktyorlarimiz haqida gapirganda, ajoyib bir xususiyatga to'qnash kelamiz. Ularning insoniy va ijodiy umrlari bir-biriga juda o'xshash. Xususan, Hoji Siddiq Islomov qisqa umri davomida bir insonning bir asrda qilolmagan ishlarini bajarib ketgan.

Bu mubolag'a emas, haqiqat. U Farg'onaning Log'on qishlog'ida tug'ilib, eski maktabda ta'lim olgan, haj qilgan, lekin hojilik rutbasi nasib etmagan. O'ta qobiliyatli, tabiatan iqtidorli, musiqadan xabari bor, shirali ovoz sohibi, so'z ustasi edi. 1916-yilda mardikorlikka ketgan, 1918–1920-yillarda Hamza tashkil etgan O'lka sayyor dram truppasida faoliyat olib



Hoji Siddiq ISLOMOV

borgan, targ'ibot poyezdida butun O'rta Osiyoni kezib, Toshkentga ham kelgan. Uchqo'rg'onda militsioner bo'lib ishlagan davrlarida Moskvaga o'qishga boruvchilar ro'yxatiga tushgan.



Mirshohid MIROQILOV

Mirshohid Miroqilov so'lim Qo'qonda tug'ilib, she'riyat, xalq og'zaki ijodiyoti, iste'dodli sozanda, hofiz, raqqos, askiyachi, qiziqilar ijodidan ilhomlangan, ilk studiyachilarga o'xshab teatr ta'limini olmagan bo'lsa-da, eski maktab bilan cheklangan, hayotni kuzatgan va hayotdan saboq olgan. Qiziqchilik qon-qoniga singib

ketgan bu ustazodalar ularning o'yinlarini kuzatar, takrorlar ekan o'zlari ham atrofda qilarni muqallid va tanqid qilishga urinadi. Qiziqchilarga xos yengillik, chegara bilmaslik, erkin ijod, badihaga berilgan imkoniyat ularga ma'qul edi.

M.Miroqilov Qo'qonda Behbudiyning Samarqand truppassi sahnalashtirgan "Padarkush" spektaklini tomosha qilib, Ozarbayjon hamda Toshkentdagi "Turkiston" truppassi gastrollariga yaqindan ko'mak berib, sekin-asta yevropa rusumidagi teatr olamiga oshno bo'lganidan so'ng uning fazilatlarini, imkoniyatlari uni o'ziga rom etadi. U nafaqat yaxshi aktyor, balki yaxshi tashkilotchi va rahbar ham edi. Qo'qonda Hamza ochgan teatr to'dasiga rahbarlik qiladi, Yevropa shaklidagi teatrning ommalashuviga qo'lidan kelganicha ulush qo'shadi. Aktyor Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali teatriga tamal toshini qo'yganlardan biri.

Mirshohid Miroqilov haqida so'z borganda, zamondoshi va shogirdi Tamaraxonimning mana bu so'zlari e'tiborli: **"Mirshohid Miroqilov tug'ma artist edi, sahna qiziqiligi uchun yaratilgandi. Sahnaga fayz kiritardi. Sahnaga jilovini mahkam ushlardi. Mirshohid aka uchun ashyo, libos, grim – hech narsa kerak emas edi. O'zi bilan sahnani**

to'ldirib, tomoshabin qalbini gullatardi" [2.B.92]. Bu ta'rif to'liq Hoji Siddiq Islomovga ham birday tegishli. Aktyor studiyada Yevropa shaklidagi teatr qonuniyatlari asosida tahsil olish barobarida realistlik, psixologik teatr unsurlari va ifoda vositalari, aktyorlik sir-sinoatlarini o'rganish jarayonida ham xalq qiziqchilari an'analaridan chetlashmadi. Tayyor matn orasiga so'z qo'shish, partnyori bilan muloqotda matndan chetga chiqish, tomoshabin bilan muloqotga kirishish kabi an'anaviy teatr unsurlariga umri davomida sodiq qoldi. Hoji Siddiq Islomov o'ta qobiliyatli, bir necha tilni biladigan, studiyachilar orasida yoshi kattasi, ham ijrochilik tajribasi bor edi. Shu sabab, uning Yevropa tipidagi professional teatr negizlarini egallashi qiyin kechdi. U o'z ijrosi bilan boshqa aktyorlarning ham jonlanishiga sabab bo'lardi.

Studiyada sahnalashtirilgan spektakllar orasida komediyalar ko'p bo'lgani bejiz emas. Komediya janri o'zbek aktyorlariga yaqin bo'lib, ularga improvizatsiya qilish uchun keng imkoniyat, erkinlik yaratgan. Aynan komedik asarlar sahnaviy talqini va ijrosida o'zbek aktyorlari an'anaviy teatr uslubidan asta-sekin Yevropa teatr madaniyatiga o'tish jarayoni oson kechishi mumkin edi. O'zbek aktyorlari uchun "Revizor" (muallif: N.Gogol, rejissor: V.S.Kansel) ustida ishlash yangi teatr estetikasini o'zlashtirish bilan barobar edi. Ular obrazga singishlari, uning hayoti, fikr-o'ylari bilan yashashlari lozim edi. Asar ustida studiyachilar bir yil davomida qunt bilan ishladi. Birinchi bor asar ustida, uning mohiyatiga kirgan holda o'qildi. O'qish jarayonida juda ko'p muammolar, tushunmagan joylar hal etila bordi. Bu esa avvalgi o'zbek teatrida uchramagandi. Spektaklda ikki toifa aktyor qatnashdi. Avvalambor, an'anaviy teatr ijro uslublari qon-qoniga singib ketgan, bunday negizlardan tezlikda voz kecha olmagan aktyorlar. Bularning toifasiga Hoji Siddiq Islomov kirardi. Yana bir toifa aktyorlar o'z ijodlarida an'anaviy teatrning ijobiy tomonlari bilan yangi Yevropa shaklidagi teatr unsurlarini uyg'unlashtirdi. Bularga A.Hidoyatovni misol qilib ko'rsatish mumkin. Baland bo'yli, kelishgan qomatli aktyor H.Islomovga Osip roli topshirildi. Aslida asarda bu obrazga u qadar katta mas'uliyat yuklatilmagan. Biroq spektaklda Osipga kengroq ahamiyat berildi. Avval boshida aktyor qahramonini o'zbek og'zaki komediyalaridagi qiziqchilarni, sodda ko'ringan, biroq quv, uddaburon xizmatkor obrazini yaratadi. Bu rejissor Kanselni qanoatlantirmaydi. H.Islomov juda ko'p improvizatsiya qilar, o'zidan to'qir, so'zlar qo'shardi, kuldirishga mo'ljallangan qiliqlar qilardi. "Ayniqsa, – deb yozadi Mannon Uyg'ur, – **Osip rolini ijro etgan Hoji Siddiq ko'p qiynaldi, chunki Hoji Siddiq o'zining tabiiy talantiga ko'ra, komik plandagi rollarga layoqatli artist edi. Shuning uchun ham u har ikki so'zning birida o'zining suyak-suyagiga singib ketgan qiziqchilik hunarini ishga solaverardi. Ba'zan Hoji Siddiq o'z rolining tashqi tomoniga shu qadar berilib ketardiki, rejissor uni qattiq tanbeh bilan ham to'xtata olmas edi"** [3.B.162]. Aktyor hamda rejissorning tinimsiz izlanishlari, qayta-qayta takrorlashlari natijasida, Hoji Siddiq rolning mag'zini

tushundi. Uning Osipi xizmatkor, hech qanday huquqi yo'q, jamiyatning urilgan past tabaqasi vakili. Aktyor ma'lum bir muhitda va davrda yashovchi xizmatkorning tarixiy batafsil va badiiy umumlashma darajasiga yetgan obrazini yaratishga muvaffaq bo'ladi. Uning tashvishi bitta – bu qorin g'ami. Birgina Xlestakovning siri ochilib, bizlar jazoga tortilmasmikanmiz, degan o'y uni qiynaydi. Aktyor ijrosida u qo'rqqoq, odamlar bilan qo'pol munosabatda, to'ng'illab so'zlashadi. Ko'pincha gapirgandan ko'ra indamay turadi. Ma'lum bir pauza saqlash qobiliyati Hoji Siddiq va A.Hidoyatov ijrosida juda o'rniga tushgan. Aktyor Osip obrazida achchiq taqdirli, xo'rlangan krepostnoy taqdirini ko'rsata olgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek aktyorlari studiyada turli teatr uslub va oqimlari ta'sirida tarbiyalandi. Ayniqsa, K.Gotssining "Malikai Turandot" asarida aktyorning qanday ijrochi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu birinchi studiyaning yakuniy spektakllaridan edi. Asarning olinishiga bir necha sabablar bor, albatta. Birlamchi, K.Gotssi asari ertak bo'lib, mantig'i, g'oyaviy mazmuni va shakli jihatidan xalqimiz ruhiyatiga hamohang bo'lgan. Unda qatnashuvchi to'rtta niqobdor, improvizatsiyaga asoslangan ijro uslubi qiziqchi va masxarabozlar san'atini eslatgan. Bundan ko'rinadiki, "Malikai Turandot" asari qo'lga olinganda, asosan studiyachilarning intilishlari e'tiborga olingan. Buning ustiga aynan o'sha vaqtda Ye.Vaxtangov ham "Malikai Turandot" spektakli ustida ishlayotgan edi. Vaxtangov aslida anchayin jiddiy asarni tamomila boshqacha, kulgili, bo'rttirma uslubida talqin etadi. Spektaklda kulgi, hazil, sho'xlik, lirik kechinmalar, qayg'uli damlar, ehtiroslar qorishib ketib, o'tmishda kechgan voqealar ustidan kinoya bilan kulish va optimistik ruh ustuvorlik qilgan.

Studiyachilar bu spektakldan ruhlanib, ta'sirlanib, rejissor-pedagog R.Simonov, I.Tolchanov va O.Basovlar ko'magida tomoshaviy, improvizatsion yengil spektakl yaratdi. Spektakl davomida aktyorlar sahna mahorati, aktyorlik texnikasini egallashda katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Vaxtangov uslubining ta'siri ostida spektaklda davr bilan hamnafaslik, bayram kayfiyati, ruhiy hamda jismoniy erkinlik bo'lajak o'zbek professional aktyorlariga juda mos tushdi. Spektaklda o'zbek aktyorlariga tanish bo'lgan obrazga kinoyali munosabatda bo'lish, improvizatsiya, bo'rttirma, mubolag'a kabi uslub va vositalar ham qo'llanildi. Biroq avvalgi an'anaviy teatrdagi o'zboshimchalik, balki qo'llanilayotgan uslub va vositalar chegaradan chiqish emas, aktyordan mas'uliyatni talab etardi. Spektaklda qiziqchilar turmushdan olingan, pyesada yo'q, o'zbek hayotidan hikoya qiluvchi intermediyalar, kulgi hikoyalar aytib, tomoshabinni kuldirganlar. "Malikai Turandot" spektaklining qaysi uslubda o'ynalganini Cho'lpon juda chiroyli izohlagan: **"Asar bo'lg'on bir voqeaday emas, yaxshi, yengil, silliq va tekis o'ynolg'on bir o'yinday ko'rinadi. Shu uchun o'ynog'uchilar (qiziqlardan boshqalari) tugal sahna kiyimi kiyib, yuzlarini bo'yab chiqmaylar. To'g'ri, o'z kiyimlari bilan chiqolarda, tomoshachilar oldida mayda-chuyda lattalarni**

u yer-bu yerlariga ilib, tashlab, bog'lab ... Xitoy ertagisining qahramonlariga jindek o'xshab olalar ... Jindan! Biz, tomoshachilar, "Altaum" podshoh rolini o'ynog'on Uyg'urni, shohzoda rolini o'ynog'on Abror bilan Hojiqulni, qiz rolidagi Tursunni, Sora, Zamira, Bahriniso va boshqalarni bahuzur tanib o'ltiramiz... Bizni shu hikoyaga ishontirmaslik uchun, o'yin yo'li bilan ham bir muncha choralar ko'rilgan" [4].

Albatta, spektaklning formasi mazmunidan ko'ra kuchliroq edi. Spektaklda, ayniqsa, niqobdorlar obrazini yaratgan aktyorlar zimmasiga katta mas'uliyat tushdi. Ye.Bobojonov ijrosidagi Tartalya, Hoji Siddiq Islomov ijro etgan Pantalone, L.Nazrullayevning Brigellasi, Sh.Qayumovning Truffaldino obrazlari spektaklning yengil, o'ynoqi, jonli chiqishini ta'minladi. Sababi, aktyorlar bu obrazlarni yaratishda nafaqat Yevropa teatri san'ati uslub va vositalarinigina emas, balki an'anaviy xalq maydon teatri unsurlaridan ham unumli foydalandi. Ular nafaqat sahnada bo'layotgan voqealarga sharh beradi, balki o'z zamonasi oldinga surgan muammolar haqida so'zlaydi, kuladi va kuldiradi. Bu qiyofalar sahnada o'tmish bilan zamonaviy voqelikni bog'lab turuvchi ko'prik vazifasini o'tagan. Hoji Siddiq Islomov ham Mirshohid Miroqilov ham umrining oxirigacha sobiq Hamza nomidagi akademik drama teatriga (hozirgi Milliy teatrga) sodiq qoldi.

M.Miroqilovning kulgiga moyilligida, birlamchi, an'anaviy teatr ijrochilarining ta'siri bo'lsa, ikkilamchi, uning tashqi ko'rinishi ham katta o'rin tutadi. Uning katta bo'lmagan jussasi, sermazmun ko'z qarashlari komik qiyofalar yaratishga sabab bo'lgan. M.Miroqilov sahnada biror yangi qiyofa yaratishga kirisharkan, avvalambor, uning hayotiy chiqishiga intiladi. Atrofidagi insonlarni ularga sezdirilmagan holda kuzatarkan, hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda obrazini tasavvur etgan, tashqi qiyofasi, yurish-turishi va xarakterini yaratgan. Shu asnda sahnada obraz jonlangan. U yaratgan obrazlar shu qadar tabiiyki, bu rolmi yoki hayotdagi odamlarni ajratish mushkul edi. M.Miroqilov o'z aktyorlik biografiyasini bolalar, xizmatkor, ayollarning sahnaviy talqinidan boshlab, sekin-asta hajviy rollarga o'tgan. Hamzaning "Kim to'g'ri?" komediyasidagi Ruzvon, "Boy ila xizmatchi"dagi Hasan ellikboshi, "Maysaraning ishi"da Mullado'st, G'.Zafariyning "Halima" asarida Xolchaxon, M.Uyg'urning "Turkiston tabibi" komediyasida Eshimqul, V.Shekspirning "Gamlet" tragediyasidagi go'rkov obrazlari bunga misol bo'la oladi. Bu obrazlar pyesada yetakchi qahramonlar emas, balki epizodik rol bo'lib, aktyor ularning ham ichki, ham tashqi qiyofalarini boyitadi va ko'p o'rinlarda bosh qahramonlar qatoridagi qiyofalar darajasida talqin etadi.

Ijrochi atayin tomoshabinni kuldirishga harakat qilmaydi, balki jiddiy asarlarda ham kulgining turli jihatlarini bilan hajviy personaj tasvirini berishga, uning ijtimoiy mohiyatini ochishga harakat qiladi. Misol uchun 1928-yilda rejissor Mannon Uyg'ur "Hujum" musiqali buffonadasini (V.Yan va Cho'lpon asari) sahnaga qo'ydi. Bu o'zbek xotin-qizlarini "paranji" balosidan, qullik iskanjasidan ozod qilish shiori ostida

boshlangan, "hujum" nomini olgan ziddiyatlarga to'la ommaviy-siyosiy harakatga o'ziga xos javob edi. Pyesadagi voqealar mana shunday: Tabibning maslahati bilan sakson yoshli eshon Zululloxon o'n uchta darddan forig' bo'lish va umrini uzaytirish maqsadida, kambag'al qo'shnisi Ahmadjonning qizi Guljamolni qarzi evaziga xotinlikka olmoqchi bo'ladi. Biroq endi zamona o'zgargan. Yosh-yosh qizlarning endi boylikka uchib cholga tegishi qiyin, ular avvalgidek mute, g'arib emas.

"Hujum" spektaklida "Malikai Turandot"da ishlatilgan uslub, fojiani kulgi vositasi bilan ifodalash, obrazga kinoyali munosabat asos qilib olingan va ijobiy natijaga erishilgan. Spektakl mahobatli chiqqan va bunda uning ommaviy sahnalarga boyligi sabab bo'lgan. Spektakl o'zida professional teatr uslubiyati bilan an'anaviy teatr unsurlarini uyg'unlashtirgan. Natijada, zamonaviy mavzu tomoshaviy uslubda hal qilingan. Shu sababli spektakldagi qiyofalar, grim, xatti-harakatlar bo'rttirilgan. To'g'ri, spektaklda targ'ibot ruhi sezilib turgan, biroq rosmana badiiy yaxlitligi bilan e'tiborli bo'lgan edi. Ayniqsa, komediya iqtidoriga ega aktyorlar bu spektaklda yayrashgan. Chunki ularga erkin ijro, badihago'ylik, o'zidan qo'shish, ijroni so'z va harakat bilan boyitish uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgandi. Nafaqat salbiy personajlarni ijro etuvchi aktyorlar, balki ijobiy obrazlarni yaratuvchi aktyorlar ham bo'rttirmaga, kinoyaga, improvizatsiyaga murojaat etgan holda o'z rollarini yengil, sho'x o'ynashga muvassar bo'lishgan.

Xususan, eng ommaviy sahna hisoblangan bozor ko'rinishida juda ko'p kishi qatnashadi. Ular spektaklda epizodik, ko'plarining bir og'iz so'zi bo'lmasa-da, biroq har biri sahnada o'z o'rniga, aniq vazifasiga ega qilib gavdalanirilgan. Xullas, turli toifadagi, turli ijtimoiy tabaqaga mansub odamlar to'plangan gavjum sahna ko'rinishi. Har bir aktyorning ijrosi bir olam. Hoji Siddiq Islomov ijrosidagi chalasavod Mulla obrazini olib qarang. Bu aktyor komedik obrazlar yaratishda o'sha davrda tanilganlardan edi. Teatrshunos olim T.Tursunov shunday ta'riflaydi: **"Mana Mulla (H.Islomov) katta kitobni varaqlab, uni o'qishga tutinadi. Biroq o'qish jarayonida matnga shu qadar o'zidan so'z qo'shadiki, tomoshabinlarni kulgidan yig'lash darajasiga olib keladi. Shu payt u yo'tali tutib qolgan odamday ikkiyuzlamachilik qilib tuflaydi, Kozim aka esa o'rnidan tura solib "tabarruk tupukni" bundan oldin ko'zini artgan ro'molchasi bilan ilib oladi. Bu sahna butkul artistlar Hoji Siddiq Islomov va Karim Yoqubovlar tomonidan topilgan va satirik bo'yoqlar bilan ifodalangan"** [5. B.164].

Komedik rollar qiroli Mirshohid Miroqilov bu spektaklda ijroqo'm raisi obrazida mahorat ko'rsatgan. Bu bo'yi past, qorindor, qo'lida lavozimining baland ekanligiga ishora qiluvchi katta portfel, bir qo'lida dastro'mol, ko'kragiga juda band odam ekanligidan darak beruvchi budilnik soat taqib olgan kishini ko'rdi, deguncha tomoshabin kulavergan. O'zini katta mansabdor shaxs qilib ko'rsatuvchi bu odam aslida o'ta bekorchi, chalasavod, biroq o'zini hammadan ustun qo'yuvchi shaxs tarzida gavdalanadi. U bir-ikki o'sha zamonning shiorlarini bilib olib, ro'kach qilib o'rgangan. Sodda odamlarning miyasini qotirib, safsata sotadi.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, aktyorlar nafaqat milliy dramaturgiyada, balki tarjima asarlarda ham tugallangan obrazlari bilan tomoshabinlarni yodida qolgan. M.Miroqilovning klassik repertuarda Bobchinskiy (N.Gogol, "Revizor"), Tartalya (K.Gotssi, "Malikai Turandot"), Mehmonxona egasi (Lope de Vega, "Qo'zibuloq qishlog'i"), Forlipopoli (K.Goldoni, "Mehmonxona bekasi"), Gofmarshal (F.Shiller, "Makr va muhabbat"), Go'rkov (V.Shekspir, "Xamlet"), Samson (V.Shekspir, "Romeo va Julyetta"), Vali (U.Hojibekov, "Arshin mol olon") obrazlari shular jumlasidan. Ayniqsa, aktyorning ijodida Gogolning "Uylanish" komediyasi alohida o'rin tutadi. Zero, M.Miroqilov o'zbek teatrida bu asarni sahnalashtirgan va birinchi talqin etgan aktyordir. Xuddi shu kabi H.Islomov ham Gotssining "Malikai Turandot" asarida Pantalone, N.Gogolning "Revizor" komediyasida Osip, Hurshid qalamiga mansub "Farhod va Shirin"da Bayonchi, S.Shamsiddinning "Kovai ohangar"da Zohaki moron rollarini talqin etgan.

Darvoqe, aktyorlar rol ustida ishlash jarayonida hayotni o'rganar, yaratmoqchi bo'lgan obrazi uchun material izlardilar. Hoji Siddiq Islomov haqida mana bunday ta'rifga duch kelamiz: **"U bir ko'rgan odamining hamma fe'l-atvorini, yurish-turishini oqizmay-tomizmay o'rganar, o'sha topdayoq shu kishining o'zi bo'lib qolar edi. Bundan tashqari, u butun umrida bir martaba o'qigan yoki eshitgan bir narsasini esda saqlab qolar edi"** [6].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kulgi ustalari, sahna qizlari deb ta'riflangan bu ikki san'atkor, O'zbekiston xalq artistlari Hoji Siddiq Islomov va Mirshohid Miroqilovlar yangi shakldagi teatrdagi faoliyat yuritib, psixologik teatr qonuniyatlarini qabul qilgan bo'lsalarda, tabiatlaridagi xalq maydon tomoshalari, taqlid va tanqid, kulgiga moyillik, ijrodagi badihago'ylik, shartlilik, improvizatsiya ularni an'anaviy teatr ildizlari bilan umrlarini oxirigacha bog'lab turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хрестоматия по истории западноевропейского театра, т.1. – Москва: 1953. – С.749.
2. Qodirov M.X. Sahnamiz lochinlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1986. – B.92.
3. Ismoilov E. Mannon Uyg'ur. – T.: "Badiiy adabiyot", 1965. – B.162.
4. Cho'lpon. "Malikai Turandot". Maorif va o'qituvchi, 1927, №-5.
5. Турсунов Т. Октябрьская революция и узбекский театр. – Т.: "Фан", 1983. – С.164.
6. "Qizil O'zbekiston" gazetasi, 1935-yil, 5-mart.

Аннотация. Ускоренная трансформация критериев, системы ценностей в современном театральном процессе характеризуется возникновением новых жанров, стилей и методов. В последние годы этот процесс стал столь интенсивным, что порой теория не может идти в ногу, не «успевает» привлечь к исследованию новые творческие проявления. Одним из таких проявлений, оставшихся вне зоны внимания теоретиков, является саундрама. В данной статье анализируется понятие саундрамы, включенного с 2003-го года в «театральный словарь» Владимиром Панковым и его единомышленниками, исследуется новизна и значение саундрамы для современного театрального искусства.

Ключевые слова: саундрама, музыка, театр, жанр, актер, режиссер, звук.

OVOZLI DRAMA VA DRAMA OVOZLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy teatr jarayoni – yangi janrlar, uslublar va usullarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Teatrshunos olimlar e'tiboridan chetda qolgan ana shunday ko'rinishlardan biri saundramadir. Saundrama spetsifikasi bo'yicha ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: saundrama, musiqa, teatr, janr, aktyor, rejissor, tovush.

THE DRAMA OF SOUND AND SOUNDS OF DRAMA

Annotation. The accelerated transformation of criteria, value systems in the modern theatre process could be characterized by the emergence of new styles, genres, and methods. In recent years, this process has become so intense that sometimes theory can't catch up with, and it doesn't "have time" to attract new creative manifestations to research. One of these manifestations, which remained outside the attention of theoreticians, is the sound drama. This article analyzes the concept of soundrama, which has been included in the "theatrical dictionary" since 2003 by Vladimir Pankov and his associates, explores the innovativeness and significance of soundrama for modern performing arts.

Keywords: soundrama, music, theatre, genre, actor, director, sound.



Введение. В рамках IV Международного Молодёжного Театрального Форума, который прошёл в конце 2021 года в Ташкенте, я имел редкую возможность познакомиться с В. Панковым и его саундрамой, недавно включённый в глоссарий театроведения. В статье, которую вы только начали читать, я постараюсь найти ответы на два интересующих меня вопроса, а также поделюсь с вами информацией о тенденциях в мировом театральном пространстве.

Так что же такое эта саундрама и в чём заключается её новизна для театрального искусства? Прежде всего, я вынужден буду напомнить ту прописную истину, которую в своё время актуализировал сэр Вальтер Скотт в своей книге «Народные песни Южной Шотландии» - «новое — это хорошо забытое старое» [Scott, стр.113].

Иными словами, как бы банально это не звучало, ничто не ново в этом мире. Часто, то, что мы называем новым, есть ни что иное, как «старое» в новом облики. Это особо ярко выражено в общекультурном контексте 21-го века, который принципиально различается от предыдущих периодов. Современный культурный процесс, а также такой его основной и наиболее чувствительный к изменениям времени компонент как театральное искусство, стремительно меняется, само понятие «новое» в культуре, представления о нём претер-

певают серьезную трансформацию: теория, стиль или направление, которое вчера рассматривалось как нечто новое, сегодня уже устаревают и превращаются в часть истории. Такие понятия как новое и старое носят весьма условный характер и со временем меняют свои сущности лишь в незначительных оттенках.

Порой кажется невозможным найти что-то новое в искусстве, открыть «целинные земли, на которые не ступала нога человека». Все возможные величественные слова уже высказаны, всякая красивая одежда уже давно надета, всякая вкусная еда испробована. Говоря избитым языком: «всё самое хорошее осталось в прошлом».

После анонсированного появления пост-драматического театра сценическое искусство впало в аналогичную пустоту и не смогло выйти за пределы разных «пост»ов в театрах пост-драмы, пост-модернизма. А разве само выражение «пост-постмодернизм» не является симулякром?

Но В. Панкову и его единомышленникам удалось создать новый жанр, форму и театр в то время, когда ощущается «новый» дефицит в этой сфере. И назвали они это явление «саундрамой».

Методы. В этой статье, как отмечал сам Панков в своем мастер-классе, я постараюсь «судить художника по его же собственным законам» и «иг-

рать» по условиям, предложенным самим же режиссёром, когда буду рассказывать об этой новой форме театра.

4. Хайтматова С.А. Малик Каюмов. «Из прошлого в будущее». Журнал «ЎзДСМИ хабарлари», 2019. № 4 (2). – С.6–10.
5. Указ Президента Республики Узбекистан ПФ-6202 от 7 апреля 2021 года «О мерах по поднятию киноискусства и киноиндустрии на качественно новый уровень и дальнейшему совершенствованию системы государственной поддержки отрасли».
6. Мирзиёев Ш.М. Развитие литературы и искусства, культуры – прочный фундамент для развития духовного мира нашего народа. // Выступление на встрече с представителями творческой интеллигенции Узбекистана. // Газета «Народное слово», 2017.
7. Рагозина Т.Э. Культурная память versus историческая память // Наука. Искусство. Культура. 2017. № 3 (15). – С.12–21.

SO'Z GAVHARI

Annotatsiya. *Teatr aktyorining shaxs sifatida kamolga yetishi, kechinma san'atiga erishish ijodkordan aktyorlik mahorati va sahna nutqi ta'limini bir-biridan ajratmagan holda, uyg'unlikda o'rganishni talab etadi. Maqolada ijrochilik mahoratini egallashda so'z ustida ishlashning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *so'z xatti-harakati, teatr, aktyor, rejissor, kechinma, san'at, rol, ijro, tomoshabin, aktyorlik mahorati, ijodkor, xatti-harakat.*

ЖЕМЧУЖИНА СЛОВА

Аннотация. *Подлинное искусство переживание, как известно, требует слияние мастерство актера и сценической речи, а слияние закладывается школой, аккумулирующей в себе лучшие традиции и опыт многих поколений. В этой статье говорится о важности работы над словом в развитии исполнительского мастерства творческой личности.*

Ключевые слова: *словесное действие, театр, актер, режиссер, переживание, представление, искусство, роль, исполнение, мастерство актера, идея, творец, действие.*

WORD GEM

Annotation. *In order to obtain the art of experience it demands confluence of and harmony actor's mastery and speech of stage. It has preference to be based on heritage of great masters in this process. This article is about obtaining of capability of performance and importance of working on speech.*

Keywords: *theater, actor, director, hero, excitement, imitation, art, role, spectator, conception, acting skills, executive, image, action.*

Yangi insonni kamolga yetkazishda, uning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda, vatanni sevishtirish, unga daxldorlik tuyg'usini uyg'otishda san'atning o'рни beqiyosdir. Chunki, san'at har bir millatning madaniyati yuksalganligi va millatning balog'atga yetganligini yaqqol ko'rsatuvchi oynadir. Bunday g'oyatda muhim va mas'uliyatli vazifani amalga oshirish, san'atning barcha turlari qatori teatr san'ati maktabiga, shu maktabning bevosita hosilasi bo'lmish aktyor zimmasiga qator vazifalarni yuklaydi. Aktyorlik mahorati fanidan beriladigan darslarda albatta, ushbu fanga "egizak" bo'lgan sahna nutqi fani talablariga ham e'tibor qaratish, yoki aksincha, sahna nutqi darslarida aktyorlik mahorati nuqtai nazarini e'tibordan qoldirmaslik lozim. Ba'zan, "**so'z – natija, uni o'ynab bo'lmaydi**", – degan tushunchaga duch kelamiz. Vaholanki, sahnadagi sukunat hududi (зона молчания)da ichki fikr, o'y-mushohada bilan psixofizik xatti-harakatni amalga oshirayotgan aktyorning bora-bora fikrlari ichiga sig'may ketadi, bu qiynoqlardan ehtiroslar junbushga keladi, his-tuyg'ular qaynaydi.

Pedagog talaba bilan ishlayotganda ana shu sirli jarayon, aktyorlik san'atini egallashning gavhari bo'lgan "sukunat hududi"da talaba qanday xatti-harakat qilyapti, so'z tug'ilish jarayonini tezlashtirib yubormayaptimi, yoki soxta ibora paydo bo'lmayaptimi, mana shu jihatlarga jiddiy e'tibor berishi zarur. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy so'zga ta'rif berar ekan, jumladan, shunday degandi: "*So'z gavharining sharafi shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi. To'rt sadaf – suv, havo, yer, o't ichidagi gavharga quti ham shu so'z, yetti qavat osmon yulduzlarining burjlari ham shu so'zdir...*" [4-B.20].

Bo'lajak aktyorlarga pedagog xoh aktyorlik mahoratidan, xoh sahna nutqidani saboq bersin, sahna tili, sahnaviy **so'z xatti-harakatiga** juda katta e'tibor berishi kerak. Masalan, professor Abdurahim Sayfiddinov 1980-yilda "Fan" nashriyatida chop etilgan "Adabiy asar va ijrochilik mahorati" kitobida o'zbek teatr san'atining va teatr pedagogikasining spektakl tayyorlashdagi, aktyor tarbiyalash jarayonidagi badiiy so'zni o'zlashtirish va sahnada gavdalanirish, ya'ni tom ma'nodagi ijroga erishish borasida to'plagan tajribalarini umumlashtirib bergan. Muallif ushbu kitobda atoqli rejissor Mannon Uyg'ur faoliyatiga to'xtalib shunday yozadi: "*O'zbek sahna tilini yaratishga ulkan hissa qo'shgan atoqli rejissor Mannon Uyg'ur aktyorlardan so'zning ravon va sof talaffuz etilishini talab qilish bilan birga, uning mazmundorligi va obrazlilikiga ham e'tibor bergan. Uyg'ur sahna nutqining, adabiy tekst(matn)ning faqat mantiqiy asoslarigagina emas, balki uning texnik va metodik tomonlariga ham diqqat qilgan. U tekst(matn)ning aktyorlar tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilmayotganligi, o'zbek teatri sahna nutqida, badiiy so'z san'atini o'zlashtirishda oqsoqlanib qolayotganligi to'g'risida ko'p qayg'urgan*" [5.B.6].

Oliy darajadagi **so'z xatti-harakatini egallash** yo'lidagi izlanishlarda asosiy e'tiborni tanlangan adabiy asarning mantiqiy tahliliga qaratish lozim. Bu jarayonni bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan uchta bosqichda amalga oshirish lozimligiga ustozlar o'z tajribalarida urg'u beradi. Birinchi bosqich – badiiy asarni qabul qilish; ikkinchi bosqich – badiiy asarni o'zlashtirish, uning ustida fikr yuritish, **uchinchi bosqich** – konkret asardan tashqariga chiqish. Bu jarayonda yuqorida aytganimiz, **ikkinchi bosqichda**

– badiiy asarni o‘zlashtirish, uning ustida fikr **yuritish bosqichida** talaba bilan suhbat usuliga keng ahamiyat berish maqsadga muvofiq. M.O.Knebel o‘z izlanishlarida: *“K.S.Stanislavskiy yuqoridagi kabi suhbatlar o‘tkazishni ma‘qullagan”*, – deydi [6.B.23].

Abdurahim Sayfiddinov o‘zbek teatr san‘ati maktabida talabalarga saboq berish jarayonida suhbat usuli yangilik emasligini tan olgan holda, Mannon Uyg‘ur ham ana shunday suhbatlar tarafdori bo‘lganligini, o‘z faoliyatida bu usulga amal qilganligini ta‘kidlaydi. Mannon Uyg‘ur ta‘biridagi **“so‘z mazmundorligi va obrazlilik”** tushunchasi Abdurahim Sayfiddinov intilgan **“so‘z xatti-harakati”** tushunchasi bilan bir xil edi. Muallif o‘z ijodiy faoliyati davomida orttirgan tajribalariga asoslanib, suhbat usulining tartibi o‘zgarganligini ko‘rsatib o‘tadi. *“Bunda talabadan asarning qaysi joylari va nima uchun yoqqanligi, qaysi obraz va lavhalar esda qolganligi so‘raladi. Suhbatning shu tartibda olib borilishi talabaning diqqat-e‘tiborini asardagi eng muhim voqealarga jalb etadi, ularning fikr va tasavvurlarini boyitib, ma‘lum darajada aktivlashtiradi, ularda muallif tilini, uslubini o‘rganishga bo‘lgan moyillikni kuchaytiradi. Binobarin, bu tartib adabiy tekst ustida ishlashda keng joriy qilinsa, bunda ham o‘qituvchi, ham talaba yutadi”* [5-B.17].

Bo‘lajak aktyorning ijrochilik mahoratini shakllantirishda talabaning she‘r o‘qiy bilish qobiliyatiga alohida ahamiyat qaratish zarur. She‘r o‘qishni yaxshi o‘zlashtirgan talabada intellektual salohiyat kuchayadi, improvizatorlik-badihago‘ylik qobiliyati rivojlanadi.

Ichki fikrning yozma yoki nutqiy ifodalanishi – so‘z, gap yoki so‘zlar oqimi, deyiladi. Ana shu so‘zlar oqimida aytmoqchi bo‘lgan fikrning aniqligini ijroda tin olish (pauza) belgilaydi. Hayotda inson o‘z fikrini uqtirish uchun so‘zlar oqimidan foydalanayotganda tabiiy holatda, aynan kerakli joylarda tin oladi. Bu tin olishlarni inson aynan maqsad-muddaosidan kelib chiqib amalga oshiradi. Teatr san‘atida ana shu hayotiy haqiqatga erishish uchun nima qilish kerak?

Masalan, N.M.Bajenov va R.A.Cherkashinning “Ifodali o‘qish” kitobida pauzaga shunday ta‘rif berilgan: *“So‘z oqimini intonatsiya jihatidan shakllangan qismlarga ajratishga imkon beruvchi nuqtaga to‘xtash, pauza deb ataladi”*. A.Sayfiddinov esa bunday yozadi: *“Garchi bu ta‘rif pauzaning hamma xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab olmasa-da, asosan to‘g‘ri. Haqiqatan ham pauza uzluksiz so‘z oqimini ma‘lum bo‘laklarga bo‘ladi. Ammo pauzaning vazifasi bu bilan tugamaydi. Negaki, pauzalar so‘z oqimini faqat **“intonatsiya jihatidan shakllangan qismlarga ajratish”** bilan chegaralanib qolganda nutqimiz bir-biriga uzviy bog‘lanmagan uzuq-yuluq gaplardan va gap bo‘laklaridan iborat bo‘lib qolardi. Vaholanki, inson nutqi bir-biriga uzviy bog‘langan so‘z oqimidan iborat. Demak, pauzalarning intonatsiya jihatidan shakllangan qismlarga ajratish xususiyati to‘g‘risida gapirish bilan birga, uning shu ajratilgan qismlarni ma‘no va intonatsiya jihatidan bir-biriga bog‘lash xususiyatiga ega ekanligini ham qayd etish lozim. Ana shunda pauzaning mohiyati to‘g‘ri ko‘rsatilib, quyidagi ta‘rif hosil bo‘ladi: **So‘z oqimini intonatsiya jihatdan shakllangan qismlarga ajratuvchi va shu ajralgan qismlarni ma‘no jihatidan intonatsiya yordamida bir-biriga bog‘lashga imkon beruvchi nutqdagi to‘xtalish pauza deb ataladi”** [5.B.48]. Demak, ijroda to‘g‘ri qo‘llanilgan tin olish (pauza) bir paytning o‘zida ham so‘zlar oqimini qismlarga ajratadi, ham ularni bog‘laydi.*

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda zamon qahramoni timsolini to‘laqonli yarata oluvchi ijodkor – aktyor shaxsini tarbiyalashda, aktyorlik mahorati va sahna nutqi fanlarining bir-biriga **“egizak”** fan ekanligini unutmagan holda ish olib borish kerak. Buning uchun, **birinchidan**, sahna nutqi uchun ajratiladigan soatlar hajmini ko‘paytirish, **ikkinchidan**, talabalar orasidan “mikrofonbop” ovoz sohiblarini saralab olib, ulardan aynan radio va televideniye uchun badiiy so‘z ijrochilarini tarbiyalashga e‘tibor qaratish, **uchinchidan**, badiiy so‘z san‘ati ijrochiligi bo‘yicha yangi qo‘llanmalar yaratish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Vazirlar Mahkamasining Respublika “Yosh suxandonlar tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qarori. 2017-yil 1-fevral.
3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Respublika “Yosh suxandonlar” tanlovi nizomi. 2017-yil 7-fevral.
4. Alisher Navoiy. “Hayrat-ul Abror” dostonining “So‘z ta‘rifida” bobidan. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 1989.
5. Sayfiddinov A.S. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. – T.: “Fan”, 1980.
6. Кнебел М.О. Слово в творчестве актёра. – Москва:1964.
8. Станиславский К.С. Работа актёра над собой (часть-2) – М.: «Искусство», 1965.
9. Inomxo‘jev S. Badiiy o‘qish asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 1973.
10. Nosirova A. Jonli so‘z san‘ati asoslari. – T.: 2005.
11. Xo‘jayeva L. Notiqlik san‘ati. – T.: 1967.

PROFESSIONAL O'ZBEK AKTYORLIK SAN'ATINING SHAKLLANISHIDA AN'ANAVIY TEATRNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yevropa tipidagi o'zbek aktyorlik san'atining shakllanishida an'anaviy o'zbek teatri aktyorlik san'atining o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: teatr, aktyor, spektakl, korfarmon, an'ana, tomosha.

РОЛ ТРАДИЦИОННОГО ТЕАТРА В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО УЗБЕКСКОГО АКТЕРСКОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной научной статье говорится о роли актерского искусства традиционного узбекского театра в формировании узбекского актерского искусства европейского типа.

Ключевые слова: театр, актер, спектакль, корфармон, традиция, зритель.

THE ROLE OF TRADITIONAL THEATER IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL UZBEK ACTING ART

Annotation. This scientific article talks about the role of the acting art of the traditional Uzbek theater in the formation of the Uzbek acting art of the European type.

Keywords. theatre, actor, performance, korfarmon, tradition, spectacle.



O'zbek teatrida aktyorlik san'atining tarixiy ildizi qadimiy davrlarga borib taqaladi. Akademik Mamajon Rahmonov IV–VII asrlarda Markaziy Osiyoda teatr san'ati taraqqiy etganligini qayd etadi. Bu esa keyinchalik qo'shni mamlakatlarda ham teatrning ommalashuviga sabab bo'ldi.

O'zbek teatrida aktyor tushunchasi masxara, masxaraboz, qiziqchi kabi terminlarda anglashiladi. Teatrshunos olim Muhsin Qodirov ta'kidlashicha: "Masxara" atamasi temuriylar davrida ham an'anaviy teatrning o'ziga xos turi, ham shu turda faoliyat olib boruvchi ijrochi ma'nosida qo'llanilgan. Temuriylar davrida ham masxaralar guruh bo'lib yurishgan va ularda yetakchi masxara barcha masxaralarni boshqargan. "Ular o'ziga xos dramaturgiya – og'zaki komediyalarni maxsus kiyim-kechak, buyum va niqoblardan foydalangan holda, so'z, harakat, yuz ifodalarni bo'rttirish, badihago'ylik bilan yangi sahnalar, savol-javoblar to'qib, to'yxona va tarabxonalarda odamlarni kuldirishgan"¹. Bu esa o'sha davr aktyoridan katta mahorat va iqtidor talab qilar edi. Sabab, o'zbek an'anaviy teatrining asosiy unsurlaridan biri og'zaki dramaturgiya edi. Tomoshabin namoyish etiluvchi tomosha syujetini ko'p hollarda bilgan. Lekin u uchun qiziqarli jihati, masxara ijro vaqtida improvizatsiya orqali tomoshabinni hayratlantira olishi va yaratayotgan qiyofasini boshqa masxara ahamiyat qaratmagan o'ziga xos jihatini

olib chiqishida edi. Bu uchun masxara ko'p izlanishi, o'zidan oldingi masxaralarning ijrolarini kuzatishi va o'zi yaratayotgan qiyofani to'g'ri angalay olishi zarur edi.

XVII–XVIII asrlarda O'rta Osiyoda xonliklarga bo'linish hamda ularning o'zaro jangalarini keskinlashuvi sababli, ushbu davr xalq tomoshalari, jumladan, masxara va muqallidlar san'ati haqida juda ham oz ma'lumot saqlangan. Lekin bu davrlarda ham masxara teatri og'zaki an'analarda yashab, siyosiy va ijtimoiy hayot taqozosi bilan birmuncha o'zgarib, yangilanib kelgan.

Yangi tipdagi o'zbek teatrining shakllanishi va rivojlanishida Farg'ona qiziqchilari teatrining o'rni katta bo'lgan. Shuningdek, an'anaviy teatr tizimida alohida ajralib turadi. Aynan mana shu maktab qiziqchilari o'zbek teatri va aktyorlik san'ati to'g'risidagi qarashlarning shakllanishiga hamda ularning professional aktyor tayyorlashda ilk qadamlarni qo'yishga turtki bo'ldi. Shunday artistlardan biri Bidiyorshum bo'lib, u Qo'qonda aktyorlik va "Kasabai sozanda" uyushmasining rahbari (korfarmoni) bo'lgan. Bidiyorshum orqali biz XVIII–XIX asr o'zbek aktyorlik san'atining rivojlanish yo'lini aniqlab olishimiz mumkin. "Bidiyorshum aktyorlik ta'limotining yana eng muhim tomoni – aktyorning nutq san'atiga, talaffuziga katta e'tibor berishidir"². U teatr an'analarni isloh qilishga va bu orqali aktyorlik san'atida realistlik prinsiplarni rivojlantirishga intildi. Uning bu izlanishlari o'zbek teatri taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi.

XVIII asrda Qo'qon maktabi aktyorlik san'atida yuz bergan o'zgarishlar Xorazm va Buxoro maktablarida hali shakllanmagan, ularda hali ham eski an'analarga

¹ Qodirov M., Qodirova S. O'zbek teatri tarixi. – Toshkent: "Niso Poligraf", 2019. – B.13.

² Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi (XVII asrdan XX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari). – T.: – B.90-91.

tayangan holda aktyor ahli niqoblar orqali o'z ijrolarini namoyish etmoqda edi. So'z san'atiga o'zbek aktyorlik san'atida katta e'tibor qaratilgan. Har bir aktyor, albatta, hozirjavob bo'lishi zarur. Shu bilan birgalikda aktyordan shirali va baland ovoz ham talab etilgan. Har bir aktyor boshqa jins vakillarining, hayvonlarning o'ziga xos tovushlariga taqlid qila olishi lozim bo'lgan. Uning professionalligi o'zbek mumtoz adabiyotini bilganligi, turli kasb egalari bilan bog'liq terminlarni yaxshi o'zlashtirganligi hamda xalq tilini mukammal egallaganligi bilan ham baholangan. Aktyor o'zi yaratayotgan xarakterni ochishda unga avvalo so'z asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. *"Shuning uchun ham o'zbek aktyorlik san'atida badiiy so'z ustalari, hikoyachilar ham ko'p yetishib chiqdi. Ular katta yig'inlarda dramatik xarakterdagi hikoya va dostonlarni, yumoristik naqllarni juda katta mahorat bilan ijro etar, hikoyadagi qahramonlarning sahnaviy obrazlarini yorqin ifodalay olardilar. Ayrim hollarda aktyor biron komediyani yakka o'zi o'ynashi, bir o'zi bir necha tiplarni talqin qilish qobiliyatiga ega bo'lib, ularning bu xildagi san'atlari hikoya-spektakl xarakteriga ega bo'lardi"*³.

*"O'zbek aktyorlik san'atining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri uning improvizasion xarakterga egaligi hamdir. Umuman teatr san'atida improvizasiya priyomidan foydalanmagan aktyor bo'lmaydi. Ayniqsa, og'zaki dramaturgiya asosiga qurilgan aktyor o'yinida improvizasiya priyomi asosiy o'rinni egallaydi"*⁴. Sababi, o'zbek an'anaviy teatr aktyori tomoshadagi vaziyatga qarab, uning syujet va fabulasiga, obraz talqiniga o'zgartirishlar kirita olgan. Voqeani o'zi xohlagan tarafdagi burishi undagi satirik ruhni oshirishi yoki yumshatish imkoniyatiga ega bo'lgan. O'zbek aktyorlik san'atida improvizasiyaning rivojlanishi ushbu san'atdagi haroratli aktyorlarning hozirjavobligi va xalq tilini mukammal bilganliklari bilan ham bog'liq. Obraz yaratishda hamda aktyorlik interpretasiyalarini shakllanishida aktyordan katta mahorat talab etilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda bo'lgan o'zgarishlar, aktyorlik san'atiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Sababi, Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi ortidan an'anaviy

teatr truppalari deyarli tarqala boshladi. 1876-yil Qo'qon xonligi tugatilgach, saroy aktyorlar truppasi ikki mustaqil truppa bo'linib ketdi. Ular Turkistonning turli shaharlarida tomosha ko'rsatishar edi. Qo'qon ushbu davrda ham xalq san'atining markazi sifatida qolaverdi. Rossiya istilosidan so'ng, Turkistonga kelgan ruslar uchun maxsus tashkil etilgan teatrlar asta-sekinlik bilan Turkistonda ham ommalasha boshladi.

Yangi tipdagi teatr Turkiston ahli uchun ham zarur ekanligini va bu tomoshalar an'anaviy teatr tomoshalaridan farqlanishi bo'yicha bir qator o'zbek ziyolilari chiqishlar qiladi. Bulardan biri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ko'rgan tomoshalaridan ta'sirlanib, o'zining kechinmalari bilan o'rtoqlashadi va bu teatr haqida shunday fikr bildiradi: *"Necha marotaba teatr nom Russiya xalqining tomoshaxonasiga borib, andagi o'yun taqlid tartiblarini ko'rdim. Alarning ko'rsatgan tomoshasi – hunarlar bizning masxarabozidek mahz kulgu uchun emas ekan, balki ibrat uchun ekan. Bu tariqad kim, o'tgan zamondagi odamlarning ahvolini va kechurgan tirikchiliklarini va ul mardum arolarida bo'lg'on muammolarni taqlid qilib ko'rsatur ekan va ba'zi kulgulik o'nlar bo'lsa, borganlar andin ham ibrat va ham xursandlik istifoda qilur ekan. Ul tomoshaxona katta bir oliy imorat o'lib, anda erkak va xotunlar kelib hammalari kursida yaxshi odob tutib o'lturar ekanlar. Bu sababdin anda uyotlik o'yun va uyotlik so'z mutlaqo bo'lmas ekan"*⁵. Ushbu ta'rif orqali shuni anglash mumkinki, yevropa tipidagi teatr aktyorlarining ijrosi ham o'zbek an'anaviy teatr aktyori ijrosidan farq qilib turgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yevropa tipidagi aktyor ijrosi yozma dramaturgiyaga asoslanganligi sababli, u yaratayotgan obraz psixologik jihatdan tahlil qilinadi.

Jadidlar tomonidan yevropa tipidagi teatrnin g tashkil etilishi aktyorlik san'atiga ham yangilik olib kirdi. Yozma dramaturgiyaga asoslangan teatrd a aktyor ijrosi an'anaviy teatr masxara va qiziqchilarining ijrosidan farq qilar edi. An'anaviy teatrd an ortirilgan tajriba, improvizatsiya, so'z va nutq ustida ishlash professional o'zbek aktyorlik san'atining shakllanishida asos bo'lib xizmat qildi.

³ Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi (XVII asrdan XX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari). – B.107.

⁴ Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi (XVII asrdan XX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari) – B.105.

⁵ "Turkiston viloyatining gazetasi", 1981-yil, 6-fevral.

O‘ZBEK MUSIQALI TEATRIDA AKTYORLIK IZLANISHLARI HAMDA VOKAL IJROCHILIGI MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek musiqali teatrining o‘ziga xos xususiyatlari, shakllanish va rivojlanish bosqichlari, uzoq yillik faoliyati davomida orttirgan tajribalari hamda vokal ijrochiligi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: drama, rejissor, sahnaviy obraz, vokal ijrochiligi, obraz, xarakter, ariya, liberetto, dramaturgiya, orkestr.

АКТЕРСКИЕ ПОИСКИ И ВОКАЛЬНОЕ ИСПОЛНЕНИЕ В УЗБЕКСКОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ТЕАТРЕ

Аннотация. В данной статье рассказывается о специфических особенностях узбекского музыкального театра, этапах его становления и развития, а также об опыте, накопленном за время его многолетней деятельности.

Ключевые слова: драма, режиссер, сценический образ, вокальное исполнение, образ, персонаж, ария, либретто, драматургия, оркестр.

ACTING SEARCHES AND VOCAL EXECUTION IN UZBEK MUSICAL THEATER

Annotation: This article talks about the specific characteristics of the Uzbek musical theater, stages of its formation and development, and the experiences gained during its long-term activity.

Keywords: drama, director, stage image, vocal performance, image, character, aria, libretto, dramaturgy, orchestra.

Musiqali teatr o‘zbek xalqining eng sevimli san‘at turlaridan biri hisoblanadi. XX asr boshlarida bu san‘at turini shakllanishi va rivojlanishida ko‘plab ijodkorlarning xizmati katta bo‘ldi. O‘zbek xalqining yirik san‘at va adabiyot namoyandalari Mannon Uyg‘ur, G‘ulom Zafariy, Xurshid, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Muhiddin Qori Yoqubov, Halima Nosirova, To‘xtasin Jalilov, Komil Yashin, Mirshohid Miroqilov, Razzoq Hamroyev, Hamza Umarovlar musiqali teatrning milliy qiyofa kashf etishida samarali mehnat qildi.

Ma‘rifatparvar jadidlar e‘tirof etganidek, teatr bu – ibratxona, madaniyat, ma‘naviyat va ma‘rifat o‘chog‘idir. Mahmudho‘ja Behbudiy teatrni inson ruhini poklaguvchi – tarbiya maktabi, deb bejiz aytmagan. San‘atshunoslik fanlari doktori, professor Muhsin Qodirov o‘zbek milliy musiqali dramasiqa quyidagicha ta‘rif beradi: “O‘zbek musiqali dramasi – ko‘p tarmoqli, murakkab san‘at. Drama janrida yozilgan asarni rejissor rassom bilan bamaslahat o‘zi sahnalashtirishi mumkin. Ammo musiqali dramaning matni tayyor bo‘lgani bilan ish yurishib ketavermaydi. Pyesa bastakor ixtiyoriga o‘tib, musiqa yozilishi kerak. Mana shu bir-biriga chambarchas bog‘langan va ayni chog‘da, nisbatan mustaqil asarlar “teatr qozoni”ga kelib tushadi. Rejissor, dirijor, konsertmeyster, baletmeyster, rassomlardan iborat ijodiy guruh tomonidan katta ish olib boriladi. Musiqali teatrning o‘z yo‘nalishi, o‘ziga xos qonuniyatlari shu jarayonni talab qiladi. Musiqali drama – pyesa, shu asosda yozilgan musiqa va rejissorning sahnaviy talqini kabi uch asosiy komponentdan iborat. Ana shu pyesa, musiqa, shuningdek, baletmeyster tomonidan sahnalashtirilgan raqslar teatrning ijodiy jamoasi, ijrochilar va orkestr tomonidan o‘zlashtirilib,

sahnaviy xatti-harakatga aylantirilgandagina, musiqali drama hosil bo‘ladi. Ya‘ni, sahnaviy xatti-harakat tufayligina, ikki yirik manba – pyesa bilan musiqa bir-birini topadi, birikadi, to‘ldiradi va aktyorlardagi imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi, dramaturg bilan bastakor ko‘zlagan g‘oyaviy maqsad amalga oshadi”¹.

Qo‘shiq san‘ati o‘z zamonining ruhiyatini, muammolarini, armonlarini, dardini, shuning bilan birgalikda inson orzu-umidlarini namoyish etadigan vosita sifatida paydo bo‘lgan. Insonlarning orzu intilishlari, armon tashvillari xatti-harakatda ifodalanganda tomosha ko‘rsatuvchi, ya‘ni ijrochi aktyor iste‘dodi, mahorati asosiy talab hisoblangan.

Musiqali spektakllarning asosiy yutug‘i – janrning hamma shartlari asosida musiqaning mukammalligi, umumiy ruhiyatning musiqiy ohanglarga boyligi, xor, raqs, duet, ariyalarning to‘la-to‘kisligi-yu, tinglovchi qalbini to‘lqinlantirib, uni tinglashga ehtiyoj tug‘dira olganligi, tomoshabin uchun alohida kayfiyat hamda hissiyotli tasavvurlarni uyg‘ota olishidadir. Bu esa musiqali spektakl komponentini ta‘minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu bois musiqali spektakllar dramatik tomoshalardan emotsional ta‘sir kuchi bilan ajralib turadi.

O‘zbek musiqali dramasi deganda, birinchi galda drama va komediya xususiyatlariga ega musiqali dramatik asarlar tomoshabin ko‘z o‘ngida namoyon bo‘ladi. O‘zbek musiqali dramasi bu – eng avvalo, musiqali-nutqiy janr bo‘lib, unda so‘z va musiqa teng huquqli, va bir-birini to‘ldiruvchi komponentlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Yevropa shaklidagi yangi o‘zbek musiqali teatri, jumladan, professional musiqali drama janriga poydevor qo‘ygan rejissorlardan biri – Mannon Uyg‘urdir. 1920 yilda o‘zbek musiqali dramasi yaratish uchun bo‘lgan

¹ Qodirov M. Sehr va mehr. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 1994. – B.6.

harakatlarda shoir va dramaturg G'ulom Zafariy va Xurshidlarning xizmati katta. Zero, o'z davrining bilimdon va iqtidorli kishilaridan hisoblangan bu ikki san'atkor klassik poeziyani, xalq professional musiqasini yaxshi bilgan. Ular Ozarbayjon musiqiy teatridan andaza olib, milliy musiqali drama janri poydevoriga, ya'ni dramaturgiyasiga asos solishgan. Ilk musiqali dramalarda, janrning asosiy komponentlaridan biri bo'lgan musiqa, milliy merosimizda mavjud bo'lgan maqomlardan saralab olinib, spektakllarning ariya va duetlar lozim bo'lgan o'rinlarida mantiqli ravishda foydalanilgan.

Musiqali drama teatrlarining sahnaviy ijro uslubini yaratishda rejissorlar Mannon Uyg'ur, Zuhur Qobulov, Muzaffar Muhammedov, Javad Obidov, aktyorlardan Muhiddin Qori Yoqubov, Abror Hidoyatov, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova, Vahob Azimov, Mashrab Yunusov kabi ulug' san'atkorlarning ijro mahorati, ijodiy izlanishlari, tinimsiz mehnatlari muhim poydevor bo'lib xizmat qildi. Yillar davomida milliy qiyofa kashf etgan, professional o'zbek musiqali drama teatrlarining shakllanishi va oyoqqa turib kamol topishida bastakorlar To'xtasin Jalilov, Georgiy Mushel, Tolibjon Sodiqov, Yunus Rajabiy, Ikrom Akbarov, Manas Leviyev kabi san'atkorlarning xizmatlari katta bo'ldi. *“Sahnaning yagona shohi va hukmroni – iste'dodli aktyordir. Dramaturg fikrini izhor qiladigan ham, rejissor talqiniga jon kiritadigan ham, tomoshabin bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lib, unga zavq-shavq bag'ishlaydigan ham, uni fikr yuritishga majbur qiladigan ham aktyordir”*².

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sahnaning sultoni bo'lmish aktyor bilan tomoshabinlar o'rtasida bevosita muloqot bo'ladi. Aktyorlar o'zlarini ijro etayotgan rol orqali tomoshabinni ma'nan boyitadi, ko'nglini ko'taradi, ruhini poklaydi. Aynan mahoratli aktyor, o'z ijrosi orqali bir yoki ikki soat vaqt mobaynida tarix yoki zamonaviy hayotdan hikoya qilib, o'z ijrosi orqali tomoshabin qalbida o'chmas iz qoldirishi shubhasiz.

Musiqali teatr aktyorining dramatik teatr aktyoridan farqi nimada? Dramatik aktyorni spektaklning tempo-ritmi boshqaradi. Uni his qilgan aktyor shunga asoslanib, o'z obrazini yaratadi. Dramatik aktyorda so'z san'ati muhim ahamiyatga ega. Musiqali teatrdagi musiqa spektaklga jon bag'ishlaydi. Musiqa bilan boyitilgan asarning voqealari kuy va qo'shiqlar orqali bir-biri bilan bog'lanadi. So'zdan asar dunyoga keladi, so'zdan qo'shiq yaraladi. Sahnadagi qahramonning ichki iztirobi kuchayib, quvonch yoki hasrat cheksiz bo'lganda, so'z bilan ifodalab bo'lmas holat – qo'shiq va kuy orqali tomoshabiniga yetkazib beriladi. Musiqali teatr aktyori qahramon nutqi orqali dardini ochadi, dardning avj pardalarida kuylash orqali yaxlit holatni sahnada yarata oladi. U sahnada obraz yaratishga kirishar ekan, o'z qahramonining bosh maqsadini va yetakchi xatti-harakatini belgilab, shu asosda roldagi so'z va musiqaviy qismlarning o'rni va ahamiyatini aniqlab oladi. Musiqali teatr aktyorining so'zdan kuyga yoki kuydan so'zga o'tishda uzviylikni yo'qotmasligi, uning mahorat darajasini belgilaydi. Bu jarayonda organik holat buzilsa, xatti-harakat izchilligi yo'qoladi, ijroda sun'iylik va yuzakilik paydo bo'ladi.

Musiqali drama teatri aktyori oldida yana ovoz bilan

bog'liq o'ziga xos murakkab ijodiy qiyinchiliklar turadi. Agar musiqali spektaklda aktyorning sayqallangan, chiroyli ovozi bo'lmasa, a'lo darajada bajarilgan rol ham ahamiyatini yo'qotadi. Drama teatrida qahramonlarning holati, ichki kechinmalari ta'sirli monolog orqali ifoda etiladi. Ayni paytda, musiqali teatrdagi monolog vazifasini ariya bajaradi. Musiqali teatr aktyori obraz xarakterini dramatik va vokal ifodalarni bir-biriga singdirib yuborish orqali ochadi.

Musiqali dramadek murakkab sintetik san'at janrining paydo bo'lishi ham o'zbek xalqining benihoya boy badiiy merosga egaligi va shu merosni zamonaviy teatr tiliga ko'chira oluvchi sohibi talantlar borligi bilan bog'liq. Dastlab kichik musiqali sahnalar tarzida ko'ringan bu janr “Halima”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” asarlarining yaratilishi bilan o'zbek teatrida alohida san'at yo'nalishi tarzida taraqqiy topdi. Nurxon spektaklida postanovkachi rejissor Razzoq Hamroyev barcha komponentlar – so'z, musiqa, tasvir, raqsn bir-birini uzviy bog'lashga, obrazlarni murakkabroq talqin etishga intildi. Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali drama teatri aktyorlari Mahmudjon G'ofurov, Hamza Umarov, Razzoq Hamroyev, Sur'at Po'latovlar spektaklda rol ijro etganda nutqining tozaligi, ravonligi bilan hammani ta'sirlantirgan. Ularning ba'zilari dublyaj qiroliga aylangan. Hamza Umarovning ovoz tembr juda kuchli, ta'sirchan bo'lgan. Tomoshabinlar aynan uning ovozini eshitish uchun spektaklga kelgan ekan. U so'zlarini tinglovchiga yetkazishda nimalarga e'tibor qilish haqida muttasil bosh qotirgan, o'z ustida tinmay ishlagan betakror aktyor hisoblanadi.

Bugungi kunda yurtimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni ham ma'nan, ham ruhan barkamol qilib tarbiyalash davlatimiz tomonidan ustuvor vazifa qilib belgilangan. Bu maqsad sari teatr san'ati ijrokorlari ham dadil izlanib, davr talabiga mos sahna asarini yaratish yo'lida astoydil mehnat qilmoqda. Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan musiqali teatr jamoalari mustaqillik yillarida ko'pgina yutuqlarga erishdi. Bu bir qator teatr jamoalarining zamon talablariga mos badiiy yaxlit sahna asarlarini yaratish yo'lida fidoyilarcha qilayotgan ijodiy izlanishlarida namoyon bo'ladi. Bunga misol tariqasida, respublikamizdagi tajribali, viloyat musiqali drama teatrlari uchun ijodiy laboratoriya vazifasini bajaruvchi, Muqimiy nomidagi Respublika musiqali teatrlarining repertuar siyosatini ko'rsatish mumkin. Bu muqaddas dargohda o'zlarining betakror ijrolari va yaratgan obrazlari bilan xalqimiz qalbidan joy olgan Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, E'tibor Jalilova, Tursunoy Jafarova, Mahmudjon G'ofurov, Hamza Umarov, Farog'at Rahmatova kabi mahorat sohiblari o'zbek musiqali teatri an'analarni shakllantirdilar.

Keyingi yillarda musiqali teatr repertuari zamonaviy sahna asarlari bilan boyidi. Repertuardan o'zbek xalqining o'ziga xos tabiati, orzu-istaklari, milliy qiyofasini aks ettiruvchi, zamonaviy mavzudagi, bugungi kun yoshlari hayotidan hikoya qiluvchi, ularning yutuq va muammolarini yoritib beruvchi sahna asarlari joy olmoqda. “Otabek va Kumushbibi”, “Ayrim nusxalar”, “Baxtli bo'l, dugonajon”, “Osmonning bag'rikeng”, “To'da” “Oyonam – qaynonam” kabi spektakllarda teatrlarining badiiy qiyofasi o'z aksini topdi. Bu spektakllarda o'zbek musiqali teatrlarining o'ziga xos milliy ruhda an'analari ko'zga tashlanadi. An'analarni saqlab qolish va davom

¹ Rizayev O. Nabi Rahimov – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-uyi, 1997. – B.5.

ettirib rivojlantirish uchun zamon ruhiga mos sahna asarlari zarurligini anglab yetgan ijodkorlar, buning asosi milliy dramaturgiya ekanligini tushundi. Bunga Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari asosidagi, O'zbekiston xalq shoiri Jumaniyoz Jabborovning "Otabek va Kumushbibi" nomli inszenirovkasini misol qilish mumkin.

Asar qahramonlari o'rtasidagi cheksiz muhabbat, Zaynabning dardi, Yusufbek hojining o'zbek otalariga xos ichki dardi, O'zbek oyimning o'zbek onasiga xos orzu-havasi namoyon bo'ladi. Parda ochilgandan so'ng, spektakl "qizlar bazmi" sahnasi bilan boshlanadi. To'y arafasi. Qizlar o'yin-kulgu qilishmoqda. Ularning o'rtasida Kumush – Zulfiya Umarova o'tiribdi. Boshiga oq ro'mol tashlagan. Qizlar ariyasi va shu ariyaga mos ikki qizning xirom aylashi, bazm muhitini paydo qiladi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, musiqali dramada dramatik sahnalardan ko'ngil to'lmasa ham spektaklning har bir sahnasida aytilgan ariya va duetlar, ularga hamohang yozilgan musiqalar tahsinga sazovordir.

Yosh iste'dodli aktrisa Ma'rifat Ortiqova bu spektaklda Zaynab rolini ijro etgan. Aktrisa rejissor tomonidan berilgan vazifani to'g'ri bajarishga harakat qilgan. Voqealar davomida tomoshabin Zaynabga mehr qo'yadi. Uning nozik harakatlari, Otabek bilan bo'lgan suhbatda yorining qo'rs muomalasiga muloyimlik bilan javob berishlari, tomoshabin dilini yayratadi.

Spektaklning final sahnasi. Buko'rinish kinotasmalarda shu kungacha tomoshabinni larzaga solgan eng hayajonli sahnadir. Bu ruhiyat musiqali teatrning final sahnasiga ko'chmagan. Kumushning farzandli bo'lishi aniq bo'lgani uchun, maxsus moslangan joyda yotibdi. Bu sahnadagi voqealar hammaga ma'lum. O'zbek oyim Zaynabga atala tayyorlashni buyuradi. Zaynab atalaga zahar qo'shib, uni Kumushga beradi. Kumush esa, zahar ta'siridan jon beradi. Kitobxonni larzaga solib kelgan mazkur sahnada, aktyorlarning ijrosi u qadar meyoriga etmagan.

Musiqali teatrning o'ziga xos imkoniyatlari bor. Bunda ijrochilar ovoziga, ya'ni ariya va duetlarni aytish imkoniyatiga qarab tanlanadi. Spektaklga yozilgan ariyalar ta'sirli chiqqan. Xususan, "qizlar bazmida" aytilgan ariyalar, Kumush ariyasi, yoki Otabekning Marg'ilonda Kumush bilan aytgan dueti iztirobli va go'zal chiqqan. Shuningdek, Otabekning spektakl finalida alamli holatda aytgan ariyasi badiiy ta'sirchan natija topgan.

Musiqali teatr aktyorining obraz xarakterini ochishda dramatik va vokal ifodalarini bir-biriga singdirib yuborish imkoniyati bor. So'z yoki vokaldan birontasi kuchsiz ijro etilsa, so'zdan kuyga yoki kuydan so'zga o'tishda organik holat buzilsa, xatti-harakat izchilligi yo'qoladi, sun'iylik va yuzakilik paydo bo'ladi. Yuqorida tahlil qilgan spektaklimizdagi yosh aktyorlar ijrosida

aynan shunday holatlar, ya'ni ariyadan so'zga o'tishda tajribasizlik kuzatiladi. Yosh aktyorlarning ijrosi davomida qahramonlarning ichki olami – dramatik holatlarini ochib berishda, ma'lum sustliklar ko'rinib turadi. Har qanday musiqali spektaklda – so'z, harakat, dramatik holat, musiqa, ijro etilayotgan ariya va duetlar uyg'unlasha olsagina, kutilgan badiiy yaxlitlikka erishish mumkin.

Sahna ijodkorlari o'z tomoshalari bilan tomoshabinlarni ma'nan boyitadi, ruhini poklaydi, ko'nglini ko'taradi, ertangi kunga ishonch paydo qiladi. Tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi shart deganlaridek, musiqali teatr san'atining bo'lg'usi namoyondalari ham bu javobgarlikni his qilib, o'z ustida tinimsiz izlanishi, musiqali teatrning sir-asrorlarini yaxshi anglagan holda ish tutishlari hozirgi davr talabidir. Zero, aktyorning sahnadagi bu harakatlarini ko'rgan tomoshabin uni haqiqiy san'atkor, deb tan olsin.

Milliy san'atimiz darg'alarining benazir xizmatlari evaziga o'zbek musiqali drama teatri san'ati shakllandi va shu kungacha rivojlanib, taraqqiy etishda davom etdi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ko'pchilik o'zbek rejissorlari aslida aktyor bo'lishgan. M.Uyg'ur ham salohiyatli aktyor bo'lib, ko'plab obrazlar yaratgan. Ye.Bobojonov, Sh.Qayumov, R.Hamroyev, S.Xo'jayev, Z.Qobulovlar rejissura bobida iste'dodli bo'lishgan. Negaki, ular ham o'z faoliyatini aktyorlikdan boshlashgan. Jumladan, Muqimiy teatrida M.G'ofurov, S.Xo'jayev, L.Sarimsoqova, H.Sharipovlar o'z faoliyatini musiqali teatr aktyori bo'lib boshlashgan. Bu jarayon esa musiqali teatr takomiligi xizmat qildi. Albatta, musiqiy teatrdagi faoliyat yuritishni maqsad qilgan aktyorga mas'uliyat yanada ko'proq yuklanadi. Musiqiy teatr aktyori eng avvalo, noyob musiqiy ovozga ega bo'lishi, spektakldagi ariyalarni maromiga yetkazib kuylay olishi, yuqori darajada sahna nutqi mahoratini egallagan bo'lishi shart. Shuning uchun ham, musiqali teatr san'ati sohasida ana shunday noyob xususiyatlarga ega bo'lgan yosh, iqtidorli ijodkorlarga hamisha ehtiyoj yuqori bo'lib kelgan.

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri faoliyatida bugungi kunda ko'zga tashlanayotgan ijobiy jarayonlar bilan birga, ba'zi kamchilik va nuqsonlar ham seziladi. Aksariyat spektakllarda fonogrammadan foydalanishdek kasallikning avj olib borayotgani, sahna nutqiga mas'uliyatsizlik bilan qaralayotganligi, aktyorlarning ham jismoniy, ham professional charxlanib borishlarida sustkashlik va befarqlikka yo'l qo'yilayotganligi, spektakllarning nazoratsiz qoldirilayotganligi tashvishga soladi. Bu kamchilik va nuqsonlardan holi bo'lishga intilish, ijodiy jamoa faoliyatini doimiy tahlil qilib borish, ertangi kun musiqali teatr san'atining istiqbolini ta'minlashda, eng muhim, ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompazitorlarining ijodiyotida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.
2. Hamidova M. Halima Nosirova. – T.: "Fan", 1998.
3. Abdullayeva O. Musiq va hayot falsafasi. – T.: 1998.
4. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: "Sharq", 1997.
5. Ahmedov M. Doni Zokirov. – T.: "Ibn Sino", 1994.
6. Qodirov M. Tomosha san'atlari o'tmishda va bugun. – T.: "Mumtoz so'z", 2011.
7. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1981.
8. Mamadaliyev F. Milliy musiq ijrochiligi masalalari. – T.: "Yangi asar avlodi", 2001.
9. Nurmatov X. Musiq san'ati axloqiy-estetik tarbiyaning muhim vositasi. – T.: "O'zbekiston" 1989.

ANIMATSIYA SAN'ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek animatsiya san'atining rivojlanish bosqichlari, undagi ilmiy ijodiy izlanishlar va uning istiqboli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: animatsiya, kompyuter, grafika, kino, televedeniye, vedio, disk, plyonka, anime, qo'g'irchoq, After Effect, Anime Studio Pro, Toon Boom, 2D, 3D.

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ АНИМАЦИОННОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие узбекского анимационного искусства, научные и творческие исследования в этой области и его будущее.

Ключевые слова: анимация, компьютер, графика, кино, телевидение, прaxиноскоп, видео, диск, пленка, аниме, мультипликация, After Effect, Anime Studio Pro, Toon Boom, 2D, 3D.

STAGES OF DEVELOPMENT OF THE ART OF ANIMATION

Annotation. This article discusses the stages of development of Uzbek animation art, includes scientific and creative research and its prospects.

Keywords: animation, computer, graphics, film, television, praxinoscope, video, disk, film, anime, doll, After Effect, Anime Studio Pro, Toon Boom, 2D, 3D.



Animatsion filmlar yosh tomoshabinlar orasida personajlarning qiziqarli tasviri, jo'shqinligi, rang-barang ko'rinishga ega ekanligi bilan mashhurdir. Ulug' rejissor S.Eyzenshteynning fikricha, animatsiya san'ati (multiplikatsiya)ning eng muhim vazifalaridan biri – inson tushunchasi, dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlar, tabiat hodisalarining animizm fenomeni vositasida jonlanishidir. Bunday filmlarni yaratish nihoyatda murakkab jarayonni qamrab oladi. Mashhur kino nazariyotchisi I.Vaysfeld animatsiya san'ati kinoga qaraganda, ko'proq jihatlariga ega ekanligini ta'kidlaydi. U tomoshabinga jismoniy harakatning tasodifiy jihatlarini, allegorik va ramziy konstruksiyaning muhimligini, mavhum va birlashtiruvchi fikrlar ahamiyatini anglashga yordam berishini ta'kidlaydi

So'nggi yillarda kino ijodkorlari zamonaviy yo'nalishlar, innovatsion yangilanishlar, kreativ yondashuvlarga ko'proq e'tibor qaratmoqdalar. Va bu jarayon jahon kino san'atining ilg'or tendensiyalarini o'rganish asosida kechayotgani diqqatga molik. Ma'lumki, kino badiiy jarayonlariga kompyuter grafikasi, animatsiya vositalarining kirib kelishi tasviriy ifoda ko'lamini kengaytirish, badiiy obrazlilikni kuchaytirish, metaforik talqinga e'tiborni qaratishga xizmat qiladi.

"O'zbekfilm" kinostudiyasi qoshidagi Multibirlashmada yaratilayotgan animatsion filmlar tizimi ham bugungi kunda yangicha o'zgarishlar ruhida kechmoqda. O'zgarishlar animatsiya texnikasini zamonaviy texnologiyalar bilan birlashtirish hamda ijodiy jarayonlardagi akmeologik yondashuv negizida kechayotganligi diqqatga molik. Ma'lumki, ertangi kinoning, qolaversa, yaxlit madaniyat sohasining kelgusi taraqqiyoti bugungi bolalarning badiiy


didini to'g'ri shakllantira bilishga chambarchas bog'liq. Bolajonlarning yoshligidan didi, saviyasi, dunyoqarashini tarbiyalashda animatsion filmlarning ta'siri nihoyatda salmoqlidir. Animatsiya vositasida xayolot olamini boyitish, bolalarning jajji tasavvuriga ulkan ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan yuksak ma'naviyatni singdirish, ularda vatanni sevish, o'z xalqi va millati bilan faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash bugungi globallashuv davrida nihoyatda muhim.

Animatsiya sohasining dolzarbligi bugungi kunda hech qanday shubha qoldirmaydi. Bundan taxminan bir asr oldin dastlabki multfilmlar paydo bo'lib, hammani hayratga solgan edi¹. Zamonaviy animatsion texnologiyalarning vujudga kelishi, multimedia proyektlar va prezentatsiyalarning asosiy elementiga aylandi va ular borgan sari internet sahifalarida ko'payib bormoqda. Shuningdek, animatsiya televideniya ham keng ko'lamda qo'llanilmoqda.

Uzluksiz harakatdan foydalanuvchi videodan farqli o'laroq, animatsiya bir-biriga bog'liq bo'lmagan rasmlar to'plamidan iborat. "Animatsiya", "multiplikatsiya" sinonimi juda keng tarqalgan. Animatsiya va multiplikatsiya – san'at turining ikki ko'rinishdagi ta'rifidir. Bizga ko'proq ma'lum bo'lgan termin "multi" lotincha so'z – ko'p so'zidan olingan bo'lib, ko'p rasm ma'nosini anglatadi. Qahramonni "jonlantirish" uchun rasmlarni kerakli miqdorda takrorlash zarur: sekundiga 10 dan 30 gacha chizilgan kadrlar. Ammo shuni ta'kidlash joizki, jahonda "animatsiya" (lotinchadan tarjima qilinganda "anima" – jon) – jonlantirish tushuniladi. Animatsion kinoning zamonaviy texnik va badiiy imkoniyatlarini bundan ortiq ta'riflash mumkin emas, chunki animatsiya ustalari o'z qahramonlarini yaratishda, jonlantirishda o'z mehrlarini ham berishadi.

¹ Ulin.ru // День мультипликации.

Ixtiyoriy san'at singari animatsiya ham o'z tarixiga ega. Animatsiyaga asoslangan ko'rish orqali qabul qilishning inertlik prinsipi 1828-yil birinchi bo'lib, fransuz olim P.M.Roje tomonidan namoyish etilgan. Namoyish



obyekti sifatida disk olingan va uning bir tomonida qush, ikkinchi tomonida esa qafas surati tushirilgan. Diskni aylantirishda tomoshabinda qush go'yoki qafasda joylashgandek illyuziya hosil qilgan.

Har yili 28-oktabrda nishonlanadigan Xalqaro animatsiya kuni Xalqaro animatsion filmlar uyushmasi (ASIFA) Fransiya bo'limi tashabbusi bilan 2002-yilda birinchi animatsion texnologiyalari ommaviy namoyishining 110 yilligi sharafiga tashkil etilgan. Ushbu muhim kunda, 1892-yil 28-oktabrda Parijda rassom va ixtirochi Emil Reynaud tomoshabinlarni yangi, hozirgacha misli ko'rilmagan tomosha – "optikali teatr"ga chorladi. Iqtidorli ixtirochi birinchi marta o'zining harakatdagi suratlarni namoyish etuvchi praxinoskop apparatini havola qildi. Shundan so'ng, ushbu sana zamonaviy multfilmlarning tug'ilishi va animatsion filmlar davrining boshlanishi bo'lib qoldi.

Animatsiya yaratishning birinchi amaliy usulini T.Edison tomonidan fotokamera va proyektorning yaratilishi asos bo'lgan. 1906-yil S.Blakton tomonidan "quvnoq yuzlarning kulgili ifodalari" qisqa film yaratildi. Muallif doskada rasm chizadi, uni suratga oladi va o'chiradi, rasm chizadi, uni suratga oladi va o'chiradi...

Animatsiya olamida amerikalik rejissor-animator U.Disney (1901-1966) va u asos solgan studiyaning o'рни beqiyos. U 1923-yilda "**Alisa mo'jizalar mamlakatida**" multfilmini namoyish etdi. 1928-yilda esa "**Mikki Maus**" qahramon asosida musiqaviy multfilm "**Villi Kemachi**"ni keyinchalik, "**Donald Dak**" o'rdakcha qahramonini yaratdi. Disney studiyasi ijodkorlari qilingan ishlari uchun 12 ta "Oskar" mukofotini olishgan.

Yaponiyada 1913-yil animatsion filmlar yaratish bo'yicha ilk eksperimentlari o'tkazilish boshlandi. 1917-yilda esa 5 daqiqagacha bo'lgan animatsion film ishlab chiqildi. Bu filmlarning har biri rassomlarni ishlari bo'lib, Yevropa, Amerika multiplikatorlari tajribalarini birlashtirib, yapon stilidagi "anime" deb nomlangan

animatsiya dunyoga keladi. 1917-yillarda ilk marotaba yapon an'anviy stili grafidida chizilgan yapon, xitoy ertaklari asosida klassik anime ekranlashtirilgan³. Ushbu davrlarda ijod qilgan Simokava Dekoten, Koti Dzyuniti, Kitayno Seytaro, Yamomota Sanaye, Murata Yasudzi va Ofudzi Noborular istedadli animatlardan hisoblanadilar. Yaponiyada birinchi animatsiya studiyasi 1932-yili tashkil etilib, birinchi ovozi animatsion film 1933-yilda yaratilgan. 1943-yilda hukumat qaroriga asosan birinchi to'liq metrajli "**Momoto, dengiz burguti**" nomli animatsion film ishlab chiqarilgan. 60–70-yillarda yapon animatsiyasi Tudzuki Osamu nomi bilan bog'liq. U tomoshabin ommasini yorib kirishda ta'sirchan anime filmlari bilan dong qozongan. Shu asnoda 70-yillarda anime Yaponiyada eng ommabop pullik tijorat san'atiga aylangan. O'sha yillarda anime televizion seriallari ishlab chiqildi va turli davlatlarda, jumladan Rossiya teleekranlarida namoyish etildi. Bulardan: "**Jodugar Salli**", "**Etik kiygan mushik**", "**Sharpalar kemasi**", "**Asalari Maya sarguzastlari**", "**Konan-kelajakdan kelgan bola**" va boshqalar⁴.

Animatsiyani audiovizual san'at kategoriyasiga kiruvchi badiiy ijodkorlikning bir turi sifatida ajratib ko'rsatish mumkin, uning ajralib turadigan xususiyati "jonlantirish", turli xil texnik vositalar yordamida sun'iy ravishda yaratilgan tasvirga "ruh" berish⁵. Animatsiya harakatlanuvchi tasvirlarni yaratish usullari bo'yicha quyidagi asosiy turlarga ajratiladi: grafik animatsiya; volumetrik – qo'g'irchoq, plastilin; o'zaro faoliyat – tekis qo'g'irchoqlar, qirqishlar; ommaviy uskunalar, chizma animatsiya, shisha rasmlar, kompyuter rasmlari, shuningdek, noan'anaviy animatsiyaning turlari mavjud (igna ekrani, soyali animatsiya va boshqalar).

Yana katta hajmli va murakkab animatsiya turlaridan biri, qo'g'irchoq animatsiyasi hisoblanadi. Bu turning dastlab teatr sahnalarda namoyish etilgan turli ko'rinishlari mavjud. Qo'g'irchoq teatri paydo bo'lishi Gerodot, Ksenofont, Aristotel, Goratsiy, Avreliy va boshqalarning malumotlari bo'yicha V–VI asrlarga borib taqaladi. Qo'g'irchoq teatri tabiatni ilohiylashtirish kabi marosimlarda namoyish etilgan. Sharqda qo'g'irchoq teatrlarining barcha shakllari mavjud bo'lgan. O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri o'tmishda taraqqiy etgan bo'lib, uning "**Chodir xayol**", "**Chodir jamol**", "**Fonus xayol**" turlari faoliyat ko'rsatib kelgan. Shundan soya teatri ("**Fonus xayol**") keng tarqalgan⁶. Shuningdek, "Fonus xayol" Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida berilgan va boshqa ma'lumotlarga qaraganda, "**Fonus xayol**" XIV–XVI asrlarda keng taraqqiy etgan. Qo'g'irchoqlar charm yoki taxtadan yassi qilib ishlangan, kiyimchalar tikilgan yoki rang bilan belgilangan. Qo'g'irchoqlar dastcho'plarga o'rnatilgan. Qo'g'irchoqlarni harakatlantirish va ularning bo'g'inlariga bog'langan iplarini tortish orqali ular jonlangan. Tomoshalar kechqurun va tunda bino ichida ko'rsatilgan. Ular yupqa oq parda ortida, unga juda yaqin masofada (5-7 sm) harakatlantirilgan. Qo'g'irchoqlarning ortidan sham o'rnatilgan yoki zig'ir yog'i quyilgan bir necha fonuslar yoritib turgan. Natijada, qo'g'irchoqlarning

² http://en.m.wikipedia.org/wiki/Peter_Mark_Roget

³ Japan's oldest animation films/imprintTALK/29.03.2020.

⁴ Иванов Б. Введение в японскую анимацию – Москва: РОФ, 2001. – С.64.

⁵ Куркова Н. Анимационное кино и видео: азбука анимации. /Кем-ГИК, 2016. – С.235.

⁶ Gavrilov M. Kukolniiy teatr Uzbekistana, T., 1928 – 59 s

aksi pardaga tushgan. Fonus xayol tomoshalarida qahramonlik dostonlarining syujetlari aks ettirilgan va u ko'pincha saroylarda ko'rsatilgan⁷.

Xohlaymizmi yoki yo'qmi, eski animatsiya o'rnini yangilari egallaydi. U ham bo'lsa kompyuter grafikasidir. Kompyuter animatsiyasining asosini grafik tasvirlar tashkil etganligi sababli, uni ikki turga bo'lish mumkin:

- Rasterli (taqdimotlarda animatsiya, Gif-animatsiya);
- Vektorli (Flash animatsiya).

Kadrama-kadr yaratiladigan animatsiya odatda flash animatsiyasi, deb ham nomlanadi. 2D animatsiyani yaratish uchun tajribada sinalgan bir qancha kompyuter dasturlarini sanash mumkin. Masalan: **After Effect, Anime Studio Pro, Toon Boom Studio** va boshqa ko'plab pullik va bepul dasturlar. Hozirgi kunda deyarli barcha studiyalar kompyuterning 2D animatsiyasi bilan shug'ullanadi. Bugun biz televizion ko'rsatuv ilovalarida, internetda, kompyuter o'yinlarida ushbu animatsiya turini ko'ramiz.

3D grafika texnologiyasi animatorga tasvirni istalgan rakursidan ko'rish imkoniyatini beradi. Personajlar deyarli haqiqiy odamlar singari ekranda harakatlana oladi; tekis tasvir o'rniga uch o'lchovli dunyo yaratiladi. Kompyuter ko'p asrluk animatsiya tarixi davomida ishlab chiqilgan har qanday uslubda chizishga imkon beradi. Va nihoyat, kompyuterda bo'yash yanada yorqinroq, to'yingan ranglardan foydalanish mumkin. 90-yillardan boshlab kompyuter tomonidan ishlab chiqarilgan animatsion filmlar kino san'atida o'z o'rnini egalladi.

Mustaqillik davrida ulug' ajdodlarimizdan meros bo'lgan ulkan tariximiz, xalq ijodining afsonaviy epik qahramonlari va buyuk ajdodlarimiz siymolari multiplikatsiya ekranida gavdalana boshladi. Milliy qahramon, milliy xarakter va obrazlar buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiyning **“Xamsa”**, **“Bahrom va Dilorom”** (1996), **“Farhod va Shirin”** (2010) dostonlari asosida yaratilgan, **“Jaloliddin haqida doston”** (1999), **“Alpomish”** (1999), **“To'maris”** (2002), **“Spitamen”** (2010), **“Shiroq haqida afsona”** (2011) kabi filmlarda o'z aksini topdi.

D.Vlasovning **“Kulol”** animatsion filmi dunyoning o'nga yaqin xalqaro kinofestivallarida ishtirok etgan. U 2005-yil Tehron xalqaro kinofestivalida “Oltin tanga”, Ukrainaning “Krok” xalqaro kinofestivalida esa “Animatsiya an'alariga sodiqligi uchun” va Xirosimada “Eng yaxshi milliy film” sovrinlariga ega bo'lgan. **“Oq tovuq”** filmi uchun D.Vlasov bir necha xalqaro animatsion festivallarda oliy mukofotlar bilan taqdirlangan.

Iqtidorli yosh rejissorlardan Aziz Muhamedovning **“Ikki qo'shni va qovun”** animatsion filmi ham 2009-yilda Olmaota shahrida bo'lib o'tgan “Shaken yulduzi” va “Animayovka” xalqaro kinofestivallarda “Eng yaxshi hajviy qahramon” nominatsiyasi bo'yicha munosib baho oldi. Aynan shu yosh rejissorning

yana bir filmi **“Uddaburon shogird”** ham 2016-yilda Oryol shahrida bo'lib o'tgan “O'talar va bolalar” xalqaro kinofestivalda “Eng yaxshi chet el filmi” nominatsiyasiga sazovor bo'ldi.

Milliy kinematografiya tarixida ilk marta 2014-yil “O'zbekfilm” kinostudiyasi qoshidagi Multiplikatsion filmlar ishlab chiqarish birlashmasi “O'zbekkino” Milliy agentligi buyurtmasiga binoan **“No'xat polvon”** to'liq metrajli (1,5 soat) multiplikatsion filmi ishlab chiqarishga kirishdi. Dastavval to'liq metrajli multfilm adabiy ssenariysi uchun ijodiy tanlov shartlari ishlab chiqilib, matbuot va internet nashrlarida e'lon qilindi. Tanlovda ko'plab ijodkorlar, mualliflar ishtirok etdi. Ular taqdim etgan asarlar belgilangan mezonlar asosida o'rganib chiqildi. Agentlik badiiy kengashi qaroriga binoan, taniqli ijodkor Ismoil Shomurodovning o'zbek xalq ertaklari asosida yozilgan **“No'xat polvon”** adabiy ssenariysi g'olib deb topildi.

Multbirlashma rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi M.Mahmudovning ta'kidlashicha, bu ishga N.To'laxo'jayev, D.Vlasov singari taniqli rejissorlar boshchiligidagi multiplikatorlar guruhi jalb etildi. E'tiborlisi, mazkur ijodiy loyihaga ko'plab iste'dodli yosh animator va rassomlar ham jalb qilindi. Ularning animatsiya sohasidagi bilim va malakasini oshirish maqsadida, multbirlashmada maxsus o'quv kurslari ham tashkil etildi⁸.

Bilamizki, sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmi kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalarda yoshlikdan mafkuraviy qarashlarning to'g'ri shakllanishida qo'l keladi. Masalan, **“Zumrad va Qimmat”**, **“Yoritosh”**, **“Xo'ja Nasriddinning sarguzashtlari”** kabi qator ertaklar orqali bolalarda yaxshilik qilishga intilish, adolat tantanasiga ishonch hissini uyg'otish mumkin. Bolalar uchun yaratilayotgan har bir asar murg'ak qalblarning ma'naviy olamini boyitishga, ezgulik, insoniylik kabi oliy xislatlarga oshno etishga xizmat qilmog'i lozim. Shu bois, farzandlarimiz qanday ertak eshitib, qanday multfilm ko'rayotganiga doim e'tibor berishimiz zarur.

Animatsiya san'atining ildizlari tasviriy san'at, teatr, haykaltaroshlik, pantomima sohalaridan kelib chiqqan bo'lib, ko'plab san'at turlarining sintezi jarayonidan shakllangan. Shuning uchun multfilm qahramonlari va syujetlar haqiqiy va hayajonli holga keladi. Multfilmdagi badiiy tasvir ko'p qirrali va juda murakkab, ammo ayni paytda sodda va tushunarilligi bilan tomoshabinlarni o'ziga rom etadi. Uzoq yillar davomida tasvirni harakatlantirish tajribalari amalga oshirilib, 1828-yilda animatsiyaning eng sodda ko'rinishlari qog'oz diskda chizilgan bo'lsa, 1892-yilga kelib, tomoshabinlar “optikali teatr” animatsiyasidan bahramand bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, animatsiya san'atining yuzaga kelish bosqichlari qariyb bir asrdan ziyod tarixga ega bo'lib, bu davr mobaynida boshqa sohalar bilan sintezlashish jarayonida yangi ko'rinish va o'ziga xos tasviriy uslublarga erishdi. Animatsiya san'ati kinematografiyada uzoq davr mobaynida shakllanib, o'z o'rnini va muxlislariga ega bo'ldi.

⁷ Qodirov M. Xalq qo'g'irchoq teatri. – T.: 1972. – B.40.

⁸ <https://daryo.uz/2014/10/16/ozbekfilm-kinostudiyasi-toliq-metrajli-no'xat-polvon-multfilmi-ustida-ish-boshladi>.

FILM G’OYASINI OCHISHDA KONFLIKTNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada biz badiiy film g’oyasini ochishda konfliktning roli haqida to’xtalamiz. Kinoda konfliktndan qanday foydalanish kerak? Shuningdek, bugungi filmlarda ziddiyatning qay darajada yoritilishi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: kino, ssenariy, dramaturgiya, aktyor, rejissor, konflikt, badiiy g’oya.

ЗНАЧЕНИЕ КОНФЛИКТА В РАСКРЫТИИ ИДЕИ ФИЛЬМА

Аннотация. В статье остановимся на роли конфликта в раскрытии идеи художественного фильма. Как использовать конфликт в кино. Кроме того, обсуждается степень освещения конфликта в современных фильмах.

Ключевые слова. фильм, драма, актер, режиссер, конфликт, художественные идеи.

THE IMPORTANCE OF CONFLICT IN REVEALING THE IDEA OF A FILM

Annotation. In the article, we will dwell on the role of conflict in opening the idea of a feature film. How to use conflict in movies. In addition, the extent to which the conflict is covered in today's films is discussed.

Keywords. Theater, drama, actor, director, composition, artistic ideas.



Kino, barcha san’at turlarini o’zida mujassamlashtirgan sintetik san’atdir. Unda adabiyot, fotografiya, tasviriy san’at, rejissura, operatorlik, aktyorlik, musiqa kabi san’atlarning badiiy sintezini ko’ramiz. Badiiy adabiyot hayotiy voqealarni keng ko’lamda tasvir qiladi. Unda qo’l bilan ushlab bo’lmas, ammo aql bilan idrok etuvchi g’oyani ochishda xizmat qiladigan ruhiy kechinmalar ifodalanadi. Teatr barcha san’at turlarini o’z maqsadi yo’lida sintezlashtirgan o’ziga xos san’at turi bo’lsa, badiiy kino esa rejissor aql zakovatiga, operator o’tkir zehniga va aktyor mahoratiga bog’liq. Shuning uchun badiiy kinoning ommaviy san’at bo’lib shakillanishida unda mujassam barcha san’at turlarining ahamiyati benihoya kattadir.

San’at turlari orasida badiiy kino nisbatan “yosh” bo’lsa-da, ilmiy-nazariy jihatdan faol o’rganib kelinayotgan soha sanaladi. Binobarin, mazkur san’at turi auditoriyasining kengligi va ommaviyligi bilan ahamiyatlidir. Shu ma’noda, kino tadqiqotchilarining filmlarda konflikt masalasi haqidagi qarashlari o’rinli va ahamiyatlidir.

Tomoshabin biror filmni katta ishtiyok bilan ko’rmoqdami, biling-ki, bu kartina qiziqarli. Nega? Chunki undagi voqealar asosida konflikt, ya’ni qarama-qarshi kuchlar kurashi mavjud. Axir bozor rastasidagi odatiy oldi-sotdiga kim ham bir soatlab mahliyo bo’lishi mumkin? Agar shu holatda qandaydir ziddiyat aniqlansa, deylik, sotuvchilardan birining kunlik savdo puli yo’qolib qolsa-yu, butun bozorni boshiga ko’tarib, janjal boshlasa, ana unda kuzatuvchilarda chinakamiga qiziqish uyg’onadi. O’g’ri kim ekan? Topilmikan? Buyog’i esa ijodkorning mahoratiga bog’liq. Xuddi yonayotgan olovga kerosin sepib, uni yanada “jonlantirib” voqealarga rivoj bag’ishlovchi ziddiyat tomoshabin e’tiborini jalb qiladi, filmning qanday yechim topishini intiqlik bilan kuta boshlaydi.

“Konflikt – dramaning qalbi, asar syujetini ishga soluvchi prujina (o’zak), unga alohida kuch beruvchi richag, asar g’oyasini, muallifning ijodiy niyatlarini, personajlarning o’zaro aloqalari va ular o’rtasida yuz bergan kurashni ifoda etadi” [1.B.26]. Badiiy kinoning muhim jihati hayotdan olingan ziddiyatlarni obrazli tarzda ma’lum g’oyaga tayanib, tomoshabiniga havola qilishdir. Istalgan badiiy filmdan konfliktni chiqarib tashlaylik. Unda nima qoladi? Mazmun kasb etmaydigan voqealar. Hayotning yaratilishidayoq qarama-qarshilik bor ekan konflikt doimo

mavjud. Bu o’zgaras qonuniyat badiiy filmni tomoshabin qalbiga olib kiruvchi “oltin kalit” hisoblanadi.

Badiiy kino haqida so’z yuritganda, konflikt masalasini esdan chiqazmaslik zarur. Chunki, mazkur atama ostida – “asarda tasvirlangan xarakterlar, ifoda etilgan g’oyalar, kayfiyatlarining kurashi” [2.B.174] namoyon bo’ladi. Aksariyat tomoshabinlar ayni shu ziddiyatlar “olovida toblangan” qahramonlarni yaxshi ko’rib qoladi. Demak, konflikt bu nafaqat voqealarni keskinlashtiruvchi murakkab va chigal vaziyatlar, balki badiiy film personajlari xarakterini ochib beradigan, ularning kuchli yo zaif tomonlarini yuzaga chiqaradigan muhim unsurdir. “Syujet motori” [3.B.200] sanaluvchi mazkur element badiiy film g’oyasini, qahramonlar xarakterini, voqealar mazmunini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Konflikt bo’lmasa, silliq syujetdan iborat voqealar tomoshabinni qiziqitira olmaydi.

Jahon va milliy kinematografiya “oltin fondi”da saqlanib kelayotgan badiiy filmlar ayni konflikt qurilmasidan unumli foydalanganligi bilan e’tirofqa sazovor bo’lgan. Masalan, “O’tkan kunlar”, “Sen yetim emassan”, “Toshkent non shahri”, “Kelinlar qo’zg’oloni”, “Mahallada duv-duv gap” singari o’zbek kinosining durdonalari qarama-qarshilik asosiga qurilgan qiziqarli voqealar va yuqori dinamika bilan e’tiborga molik. Har bir badiiy film zamirida jamiyat yoki alohida shaxslar hayotiga daxldor ma’lum og’riqli nuqtalar yotadi. Zero, kino san’atining bosh obyekt ham insondir. Ana shunday muammolar faqatgina qahramonlar to’qnashuvi, voqea-hodisalardagi ziddiyatlar orqali namoyon bo’ladi. Zamonaviy o’zbek kinosidagi og’riqli jihatlardan biri ziddiyatlarni qurishdagi sustkashlik va o’sib boruvchi qarama-qarshilikning yetarlicha ko’rib chiqilmagani ko’rinadi. Estetik talablar va ijtimoiy funksional ahamiyatiga ko’ra, tomoshabin ruhiyati va hissiy jarayonlarga ta’sir etishda badiiy filmning uch muhim mavjud. Bular g’oya, qahramon va voqea. Kartina muvaffaqiyati mazkur unsurlarning qay darajada yoritilishi bilan chambarchas bog’liq. Buni ta’minlovchi bosh omillardan biri esa konfliktidir.

Ma’lum g’oya ifodasi uchun tanlangan voqeani harakatga keltiruvchi, individual xarakter shakllanishiga turki beruvchi qarama-qarshilik, ziddiyat orqali voqealar dinamikasini yanada kuchaytirish imkoni mavjud.

“Syujetida konflikt bo‘lmagan asar ta’sirchan emas, chunki unda hayotiy haqiqat to‘la va izchil ifodalanmaydi” [4.B.174]. Shu bois, milliy kinematografiya saviyasi (istiqboli) xususida fikrlay turib, badiiy filmlardagi konflikt masalasiga alohida e’tibor qaratish o‘rinli. Yana bir muhim jihat, milliy badiiy filmlarda umuminsoniy ahamiyatga molik, boy va ibratli tariximizga daxldor zalvorli konfliktlarni olib chiqish talab qilinmoqda. Chunki, konflikt masshtabi qanchalik keng bo‘lsa, film g‘oyasi va mazmuni ham shunchalik chuqur va teran bo‘ladi.

Zamonaviy o‘zbek badiiy kinosidagi mazkur jarayonni turli kesimda baholash maqsadga muvofiq. Xususan, so‘nggi yillar davlat buyurtmasi bilan suratga olingan “Gumrohlar”, “Sotqin”, “Ajal jodusi”, “Baron”, “Hayotda”, “Xazonrezgi”, “Tinchlik ortida”, “Issiq non”, “Avloniy”, “Qo‘qon shamoli”, “Birinchi avgust” singari ijtimoiy dolzarb, tarixiy va falsafiy-psixologik mazmundagi badiiy filmlarda asosan umumjamiyat muammolariga oid konfliktlar voqealarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ldi. Tijoriy kartinalarda esa qarama-qarshilik qaynona-kelin, yigit va qiz o‘rtasidagi munosabatlardan iborat maishiy ziddiyatlar doirasida hal etilmoqda. Garchi konflikt qamrovida bu kabi tafovutlar ko‘rinsa-da, *“asar g‘oyasini, muallifning ijodiy niyatlarini, personajlarning o‘zaro aloqalari va ular o‘rtasida yuz bergan kurashni ifoda”* [5.B.26]lash bo‘yicha bir xil vazifani bajaradi.

Konfliktning qanchalik keskin va tabiiy chiqishi unga zamin hozirlovchi voqealar hamda qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarning mantiqiy va hayotiy yechimiga bog‘liq. Aynan mazkur jihat tomoshabinni o‘ziga jalb qiluvchi qarama-qarshilikning birlamchi omillaridandir. Masalan, Hilol Nasimovning “Ajal jodusi” filmi real voqealarga asoslanib, bir oila misolida jamiyat hayotiga daxldor eskirgan odatlar oqibatiga taalluqli muammolarni ko‘tarib chiqqani bilan qizg‘in qarshi olingan edi. Dabdabali to‘y sabab, katta qarzga botgan otaning ikki farzandi bilan chet elga ishlashga ketishi, o‘g‘illarning din mutaassiblari ta’siriga tushib, jinoiy guruhlar qo‘shilishi oqibatida otadan ajrab, ayanchli ahvolda yurtga qaytishi asnosida film konflikti namoyon bo‘ladi. Qarama-qarshilik *“markazida eng muhim hayotiy manfaatlarga chuqur ta’sir etadigan”* [6.B.85] unsur oilaning qarzdorligi va pulga ehtiyojmandligidir. Qahramonlarning keyingi xatti-harakatlari, qilmishlari va voqealar tadriji mana shu ziddiyat zamirida rivojlanib boradi.

Konfliktning yuzaga chiqishi uchun ta’sir etadigan jihatlarni shartli ravishda quyidagilarga ajratish mumkin:

- odatga aylangan dabdabaga intilish;
- sharoit (muhit);
- qahramonlar qilmishi;
- boshqa kishilar tomonidan ta’sir;
- hayotiy vaziyatlar.

Film misolida shunga amin bo‘lish mumkinki, voqealar tizimini mantiqiy va hayotiy qurmasdan turib, konfliktni yetarlicha ta’sir kuchiga ega darajada keskinlashtirib bo‘lmaydi. Konfliktni sun‘iyligi – mayitni o‘g‘irlatib qo‘yishi, kelinning yigit tuzog‘iga tushishi, o‘g‘illarning jinoiy ishga shunchaki qo‘shilib qolishi, voqealardagi

sun‘iylilik, masalan, kech bo‘lganda kelinning begona yigit bilan mashinada ketib, erining ish joyiga borishi va u yerda yigitning maosh olishi (kechasi-ya), xorijga ishlashga ketishga avvaliga qat’iy qarshi bo‘lgan otaning fikri o‘zgarishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan sabab yo‘qligi, otaning o‘g‘illari jamoa bilan qo‘shilib diniy amallarni bajarib yurganiga sovuqqonlik bilan qarashi, o‘g‘illarning talon-taroj qilishga undovchi jiddiy sabab topilmaganida ko‘rish mumkin. Voqealarning mantiqan asoslanmagani, konfliktning kutilganidek ochilmaganiga sabab bo‘lgan.

Afsuski, konfliktning to‘liq hal etilmayotgani zamonaviy o‘zbek badiiy filmlari salmog‘iga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Badiiy film yechimi, bevosita konfliktga barham berishishiga bog‘liq. Aksar syujetlarni tomoshabin kartina avvalidayoq qanday yakunlanishini oldindan bashorat qilishining sababi ham konfliktning sust qurilganida va mayshiylikida, deb bilimiz. Murakkab va keskinlashib boruvchi qarama-qarshiliklariga tomoshabin diqqatini tortadi. Voqealar ortidan ergashishga, qahramonlar taqdiriga qayg‘urishga, ularga hamdard bo‘lishga undaydi. Yechimi aniq bo‘lgan har qanday film tomoshabinga qiziqarli emas. Masalan, turli tushunmovchiliklar bilan ziddiyatga kirishgan yigit-qiz munosabatlarining oxiri ijobiy yakun topishi, boy xonadon egalarning ko‘p qarshiliklardan so‘ng xatolarini tushunib, to‘g‘ri qaror qabul qilishlari kabi mayshiy qolipga solingan yechimlar tomoshabinga yaxshi tanish bo‘lgani bois badiiy film konflikti ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Mustaqillik yillari yaratilgan “Abdulla jaon”, “Masxaraboz”, “Otamdan qolgan dalalar”, “Kichkina tabib”, “Chimildiq”, “Oyijon”, “Tanka”, “O‘yin”, “Chashma”, “Suv yoqalab”, “Chol va nabira”, “Telba” kabi badiiy filmlarda konflikt va uning yechimi qanday ochib berilganligi yorqin misol bo‘la oladi.

Yana bir muhim jihat, milliy badiiy filmlarda umuminsoniy ahamiyatga molik, boy va ibratli tariximizga daxldor zalvorli konfliktlarni olib chiqish borasida fikr yuritish ham o‘rinli. Chunki, konflikt masshtabi qanchalik keng bo‘lsa, film g‘oyasi hamda mazmuni ham shunchalik chuqur va teran bo‘ladi. *“Konflikt – bu turli qahramonlar manfaatlari o‘rtasidagi kurash, to‘qnashuvdir. Konfliktning mazmuni esa u yoki bu ziddiyatlardan iborat. Konfliktsiz ssenariy (kinodramaturgiya) bo‘lishi mumkin emas”* [7.B.23].

Ma’lumki, ssenariyda yozilgan voqealarni to‘lig‘icha ekranga olib chiqish murakkab jarayon. Sababi, badiiy kino san’atining o‘z “tili” bor. Mana shu tilga moslasha olgan lavhalargina ekranga chiqadi. Bunda, albatta, asarda aks etgan konfliktning ahamiyati juda katta. Tahlil davomida konflikt har qanday asar yoki ssenariyning yuragi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Biz bu qonuniyatlarga amal qilsak, shundagina ko‘zlagan maqsadimizga erishamiz.

Muxtasar qilib aytganda, badiiy kinoda konflikt va uning badiiy yechimi masalasini tizimli va fundamental asosda ilmiy o‘rganish, shu orqali milliy kinematografiyamiz sohasidagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, ayrim muammo va nuqsonlarni bartaraf etish, ilmiy-amaliy natijalarni hayotga tatbiq etsak, biz shundagina ko‘zlagan maqsadimizga va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo‘lamiz.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – Toshkent: “Adabiyot va san’at”, 2000. – B.26.
2. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1980. – B.174.
3. Нехорошев Л.Н. Драматургия фильма. – Москва: «Искусство», 1971. –С. 200.
4. Митта А. Кинода режиссура ва драматургия. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. – B.85.
5. Abulqosimova X. Kino san’ati asoslari. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2009. – B.23.



II BO' LIM

MUSIQA SAN'ATI

Sobirjon JUMAYEV,

O'zDSMI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

CHOLG'U IJROCHILIGI TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqiy cholg'ularning ayrimlari to'g'risida ma'lumot va cholg'ularning yaratilish tarixi haqida so'z boradi. Afrosiyob (Samarqand) xarobalaridan topilgan mehnat qurollari, turli jang qurollari, maishiy va badiiy sopol buyumlar, tangalar va boshqa ashyolar qatorida topilgan sopol terrakotalar (loydan yasalib, keyin olovda pishirilgan, orqa tomoni yassi, yuza qismi esa bo'rttirilgan ko'rinishdagi, bo'yi va eni taxminan 9-10 sm bo'lgan sopol)da aks ettirilgan musiqachi erkak va ayollarning tasvirlari o'sha davr musiqa cholg'ulari haqida juda qimmatli ma'lumotlarni beradi va ushbu ma'lumotlarning bir qismi tarixiy manbalar asosida yoritilgan.

Калит сўзлар: cholg'uchilik, Afrosiyob, Parfiya, kifara, ud, avlos.

ИСТОРИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье дается сведение о некоторых музыкальных инструментах и об истории их создания. На городище Афрасияб (Самарканд) были найдены орудия труда, различные боевые оружия и другие терракоты изделия (керамические изделия, сделанные из глины, затем сдержанные в огне, сзади плоские, спереди выпуклые, высота и длина около 9-10 см.) где изображены музыканты-мужчины и женщины, играющие на различных музыкальных инструментах, эти изображения дают ценные сведения о древних музыкальных инструментах и некоторые эти сведения освещены в исторических источниках.

Ключевые слова: музыкальное исполнение, Афросияб, Парфия, кифара, уд, авлос.

HISTORY OF MUSICAL PERFORMANCE ARTS

Annotation. This article provides information about some musical instruments and the history of their creation. At the site of Afrasiyab (Samarkand), tools, various military weapons and other terracotta products were found (ceramic products made of clay, then kept in fire, flat at the back, convex at the front, height and length about 9-10 cm), which depict male and female musicians playing various musical instruments, these images provide valuable information about ancient musical instruments and some of this information is covered in historical sources.

Keywords: musical performance, Afrasiyab, Parthia, kifara, ud, avlos.

O'rta Osiyo hududida tarixiy jarayon eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning yarmidan boshlab o'z o'rnini davlatchilikning shakllanishiga bo'shatib berdi. Buning natijasida, ushbu hudud va Eron zaminida eramizdan avvalgi IV–III asrlardayoq bir nechta davlat paydo bo'ldi. Ushbu davlatlardagi shahar madaniyati asosan o'troq dehqonchilik va hunarmandchilikka asoslangan bo'lib, aholining boshqa bir qismi ko'chmanchilik turmush tarzini saqlab qoldi va ularning asosiy faoliyati chorvachilik bilan bog'liq bo'lganligini tarixdan bilamiz. Bu yerda yashagan aholining musiqa madaniyati, cholg'ulari va cholg'uchilik bilan bog'liq tomonlari turmush tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli, cholg'ular ajdodlardan avlodlarga o'tib rivojlanib keldi.

Eramizdan avvalgi 330–327-yillarda O'rta Osiyoni zabt etgan Aleksandr Makedonskiy bu yerdagi mustahkam qal'alar ko'rinishidagi shaharlar, qizg'in ijtimoiy va madaniy hayotni ko'rib hayron bo'lgan. Zaminning istilosi davrida tabiiy ravishda mahalliy aholi madaniyati va turmush tarzi juda katta yo'qotishlarga uchrashi qatorida ellin madaniyatiga xos yangiliklar ham kirib kelib, aholining ijtimoiy va madaniy turmush tarzini

boyitdi. Tarixchilarning ta'kidlashlaricha, bu davrda o'z mustaqilligini saqlab qolgan Xorazm madaniyati Parfiya va Baqtriyaga qaraganda kamroq o'zgarishni sezgan.

Afrosiyob (Samarqand) xarobalaridan topilgan mehnat qurollari, turli jang qurollari, maishiy va badiiy sopol buyumlar, tangalar va boshqa ashyolar qatorida topilgan sopol terrakotalar (loydan yasalib, keyin olovda pishirilgan, orqa tomoni yassi, yuza qismi esa bo'rttirilgan ko'rinishdagi, bo'yi va eni taxminan 9-10 sm bo'lgan sopol)da aks ettirilgan musiqachi erkak va ayollarning tasvirlari o'sha davr musiqa cholg'ulari haqida juda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Ularning taxminiy yoshi eramizdan avvalgi III–I asrlarga oidligi aniqlangan. Afrosiyob terrakotalarida eng ko'p tasvirlangan musiqiy cholg'u ud hisoblanadi. Bu esa ushbu cholg'uning o'sha davrda juda keng tarqalgan sevimli cholg'u ekanligidan dalolat beradi. Qadimiy tasvirlarda udning uch va to'rt torli ko'rinishda ifodalangani kuzatiladi. Terrakotalar yaratilgan davrdan keyingi o'tgan VII–VIII asr davomida ham bu cholg'ularning ko'rinishi va torlarining sonida deyarli o'zgarish bo'lmagan. Abu Nasr Forobiy tomonidan yaratilgan "Musiqqa haqida katta kitob"da ham ud cholg'usi xuddi shunga yaqin tasvirlangan¹. Taniqli musiqashunoslarning yozishicha, udning

¹ Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии (исторические очерки). – Москва:1980.

to'rtinchi toriga qo'shimcha ravishda Forobiy tomonidan beshinchi tor kiritilganligi va uning sozi kvarta oralig'ida sozlana boshlanganligi e'tirof etilgan.

Afrosiyob xarobalaridan topilgan cholg'ular tasviri orasida arfa cholg'usi ham o'z aksini topganligi, bu cholg'uning vatani ancha davrgacha Misr hisoblanib kelinganligi, lekin Old Osiyoda olib borilgan qazilmalar natijasida, Shumer malikasi xilxonasidan (eramizdan avvalgi 3-ming yillik) topilgan 11 torli nafis bezakli arfaning topilishi uning tarqalish hududi (geografiyasi) ni kengaytirish qatorida nafaqat Misrga, balki Old Osiyoga ham tegishli ekanligi manbada keltirilgan. Unda yozilishicha, burchakli arfa yoysimon arfadan keyin paydo bo'lgan va u Misrga Osiyodan keltirilgan. Shuning uchun ham uni "Osiyo arfasi" deb atashgan. Afrosiyobdan topilgan terrakotalar orasida damli (puflab chalinadigan) cholg'ular guruhiga oid bir qator naysimon cholg'ular tasviri ham uchraydi. Bu cholg'ularning aksariyati bo'ylama naylar bo'lib, ularning ijrochilari sifatida ko'p hollarda ayollar tasvirlangan.

Afrosiyob topilmalari orasidagi yonlama nay tasviri eramizdan oldingi III–I asrlarga taalluqliligidan kelib chiqib, yonlama nayning vatanini ham O'rta Osiyo deb belgilash mumkinligi ko'p manbalarda keltirilgan. Bu topilmalar orasida kichik hajmdagi bo'ylama cholg'u tasviri ham uchraydi. Shu bilan birga Afrosiyobda topilgan terrakotalarda tanbursimon cholg'ular va zarbli cholg'ular (baraban, tarelka) tasviri ham uchraydi.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Parfiya davlatining (hozirgi Turkmaniston hududi) poytaxti bo'lgan Naysa (Nisa) joylashgan hududda olib borilgan qazilmalar chog'ida topilgan ritonlar (fil suyagi bilan bezatilgan shoxsimon idishlar) da ishlangan rang-barang tasvirlar mutaxassislarni lol qoldirganligi ham bayon etiladi. Ushbu tasvirlar orasida musiqa cholg'ularidan – kifara, tanbursimon cholg'u, pan fleytasi, avlos, doyrasimon cholg'u va tarelkalarining aniq aks ettirilishini kuzatish mumkin. Manbaga tayangan holda shuni aytish mumkinki, kifara ham lira (hozirda tasviri musiqani ifodalovchi musiqa cholg'usi) simon cholg'udir. Kifara professional cholg'u bo'lsa, lira havaskorlar tomonidan foydalanilgan. Avlos (grekcha nomlanishi) – surnaysimon cholg'u bo'lib, uning quvur hamda puflanadigan qismi alohida tayyorlanadi. Ya'ni asosiy tovush surnay va goboydagi singari "nay pachoq" qismi bilan bog'liq. Pan fleytasi (grekcha) esa bir-biriga birlashtirilgan quvurlardan iborat bo'lib, ularning har birida alohida tovush hosil qilinadi. Uning nomlanishi grek xudosi Pan nomi bilan bog'liq bo'lib, ushbu xudo doimiy ravishda mazkur cholg'uni ushlagan holda tasvirlanadi. Grek mualliflarining guvohlik berishicha, har ikki cholg'u ham ularga Sharq mamlakatlaridan kirib kelgan. Hozirda juda ko'p Sharq xalqlarida (Xitoy,

Indoneziya, Koreya, Yaponiya va boshqa) avlos tipidagi va pan fleytasi tipidagi cholg'ular uchraydi.

Naysa ritonlarida tasvirlangan zarbli cholg'ulardan biri – doyralardir. Bu tasvirlardagi doyralarning ko'rinishi va hajmi hozirgi o'zbek doyralaridan juda kam farqlanadi. Shunisi e'tiborliki, aksariyat hollarda doyra ijrochilari sifatida ayollar tasvirlangan. Bu holat diniy marosimlar bilan bog'liq bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

Bundan tashqari naysa ritonlarida tasvirlangan musiqa cholg'ularining boshqa turlari, ya'ni tarelkalar ikki xil ko'rinishga ega bo'lgan. Birinchisi – raqqosa ayollar qo'lga maxsus tasma bilan bog'langan piyolasimon shaklda bo'lsa, ikkinchisi – cholg'uchilar qo'lidagi yassi ko'rinishdagi tarelkalardir. Rossiyadan O'rta Osiyoga kelib (XIX asrning oxiri) kapelmeyster lavozimida faoliyat ko'rsatgan Avgust Eyxgorn tomonidan jamlangan kolleksiyadagi tarelka yassi tarelkaga yaqin ko'rinishga ega. Arxeologik qazilmalar paytida topilgan Turkmanistonning janubiy qismida muqaddam hukm surgan Marg'iyona davlatining markazi Marv (hozirgi Bayram Ali shahri yaqini) o'rnida topilgan terrakotalarda ham musiqa cholg'ularining tasviri uchraydi. Bu yerda Afrosiyob udiga o'xshash ud cholg'usi va undan farqlanadigan, suvoriy (otliq) qo'lida tasvirlangan do'mbirasimon cholg'uni alohida ko'rish mumkin. Mutaxassislarning fikricha, suvoriy qo'lidagi cholg'u Tog'li Oltoy va Xakasiya o'lkalarida "toshpur", "xomus" kabi nomlanadigan baxshilar cholg'ulariga juda o'xshab ketadi. Makedonskiy istilosidan omon qolgan antik Xorazm madaniyatiga oid yodgorliklar tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari, sopol buyumlar va terrakotalardagi musiqa cholg'ularining tasviri (Qo'y qirilgan qal'a va Tuproq qal'a topilmalari) eramizdan oldingi IV–III asrlarga oid ma'lumotlarni beradi. Bu yerda eng qadimiy davrlarga oid arfa va kifarani, keyingi davrlarga oid ko'plab tirnama cholg'ularni keltirish mumkin. Tirnama cholg'ular ichida do'mbirasimon yoki dutorsimon cholg'ular uchraydi va musiqashunoslar bu cholg'ularni ko'chmanchi xalqlar cholg'usiga, Afrosiyob udlarini esa shahar cholg'usi sifatida bayon qilishadi².

Hozirgi Surxondaryo viloyati hududida hukm surgan Kushon davlatining eski shaharlari o'rni (hozirgi Xolchayon va Dalvarzintepa)da olib borilgan qazilma ishlari natijasida ham musiqa cholg'ulariga oid (eramizdan avvalgi I asr) artefaktlar topilgan. Xususan, Xolchayondagi saroy xarobalarida topilgan loydan ishlangan va yupqa bo'yoq berilgan haykallar majmuasi ichida ud ushlagan ayolning tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, to'la saqlanmagan bo'lsa-da, uning libosi va yuz tuzilishiga ko'ra bu ayol mahalliy aholi vakili ekanligini aniqlash mumkin. Dalvarzintepadan topilgan terrakotalarda ham ud va arfa ijrochilarining tasviri uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev S. Qonun (darslik). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, – Toshkent: 2004.
2. Akbarov I. Musiqa lug'ati. – T.: "San'at", 1997.
3. Asqarov A. O'zbekiston xalqlari tarixi. – T.: "Fan", 1992.
4. ВизгоТ.С. Музыкальные инструменты Средней Азии (исторические очерки). – Москва:1980.
5. Irgashev G'. Afg'on rubobi (darslik). – T.: "San'at", 2004.
6. Matyoqubov O. Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida. – T.: 1986.
7. Nurmatov H.N. Rubob (darslik). – T.: "O'qituvchi", 2002.
8. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. – T.: 1995.
9. Odilov A. Chang (darslik). – T.: "San'at", 2002.
10. Petrosyans A.I. Cholg'ushunoslik (3-nashr). – T.: "San'at", 1990.

² Matyoqubov O. Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida. – Toshkent: 1986.

O'ZBEKISTON MUSIQA SAN'ATIDA OPERA JANRI VA UNING MILLIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada insoniyatning buyuk kashfiyoti – musiqa san'ati va unda opera san'atining o'rni beqiyos ekanligi, o'zbek operasida milliy yondashuv, uning ohang doirasi va ijrochilik yo'nalishlarida milliylik xususiyatlari ochib berilgan. Bunda opera janrining rivojlanish yo'li, tendensiyalarining XXI asrda yangi qirralar, shakllarda ask etishi, milliy opera namunalari mamlakatimiz madaniyatining bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotida ulkan milliy salohiyatga ega ekanli yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy yondashuv, opera san'ati, kompozitorlik ijodi, opera-seriya, opera-buffa, milliy opera, musiqiy iqtibos.

ЖАНР ОПЕРЫ И ЕГО НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ В МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье говорится о великом открытии человечества – музыки и несравненной роли в ней оперного искусства, национальном подходе, особенностях, отраженных в мелодическом диапазоне и исполнительских направлениях. В ней освещены пути развития оперного жанра, его тенденции в XXI веке, новые аспекты и формы, образцы национальных опер, большого творческого потенциала композиторов нашей страны.

Ключевые слова: национальный подход, оперное искусство, композиторское творчество, опера-сериа, опера-буффа, национальная опера, музыкальная цитата.

OPERA GENRE AND ITS NATIONAL CHARACTERISTICS IN THE MUSICAL ART OF UZBEKISTAN

Annotation. The article talks about the great discovery of mankind - music and the incomparable role of opera art in it, the national approach in the Uzbek opera, national features reflected in its melodic range and performing directions. It highlights the development of the opera genre, its trends in the 21st century, new aspects and forms, examples of national operas, the great creative potential of our country's composers.

Keywords: national approach, opera art, composer creativity, opera-serial, opera- buffa, national opera, musical quotation.

Istiqlolning hur shamoli milliy musiqa san'ati taraqqiyoti uchun ham ulkan imkoniyatlar davrini boshlab berdi. Jahonning ko'plab xalqlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamkorliklarning yo'lga qo'yilishi va xalqaro aloqalarning kengayib borishi jarayonida musiqa olamida ham butunlay yangicha muhit hukmronlik qila boshladi. Dunyo mamlakatlari ohanglarining to'siqsiz kirib kelishi va ta'siri musiqa madaniyati rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqdi.

Yurtimizda har bir yosh, u keyinchalik qaysi kasbni tanlashidan qat'i nazar, musiqa san'atini o'rganishi va undan yetarlicha bilimlarga ega bo'lishi zarur. Bunda, albatta, opera san'atining o'rni beqiyos. Opera nihoyatda murakkab badiiy ijod turi ekanligi, musiqaning bir qator shakl va janrlari, xususan, vokal, cholg'u musiqasini, she'riyat, teatr va tasviriy san'at, raqs va plastik harakatni o'zida birlashtirishi, keng doiradagi ijodiy estetik va texnologik masalalarni o'zida mujassamlashtirishi ko'p asrlardan beri ma'lum.

Mamlakatimizda musiqa, jumladan, opera san'ati rivojiga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor ayni sohadagi yangi-yangi ijodiy g'oyalar, madaniy-ma'rifiy loyihalar ro'yobiga turk bermoqda. Opera san'atida milliylik xususiyatlari, ijrochilik muammolari jahon musiqashunos-nazariyotchi olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, Rossiyada A.N.Serov, V.V.Stasov (XIX asr), A.Gavrilov (XXI asr), Qozog'istonda

U.R.Djumanovlar operada milliylikni tushunish va idrok etishning o'ziga xosligini risolalarda yoritib berganlar. "Milliylik – madaniyatning joni, uning millat bilan bog'liqligi, yashash usuli, millatning unda namoyon bo'ladigan ruhidir" [1.260].

"Musiq – millat ruhining tili, musiqa – millat his-tuyg'ularining tarjimoni erur. Shuning uchun faqat estetik tarbiyada emas, axloqiy, ma'naviy, ruhiy, hattoki, diniy-ilohiy tarbiyada musiqaning xizmatlari beqiyosdir", – deydi adabiy suhbatning birida filologiya fanlari doktori, adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul [2].

O'zbekistonda XX–XXI asrlarda musiqali sahna asarlari yaratilish tarixi, ularning rivojlanish tendensiyalari, opera ijrochiligi xususiyatlari T.S.Vizgo, T.Jumayev, A.H.Jabborov, T.Ye.Solomonova, D.Murodova, V.Plungyan, E.Mamajonova kabi yetuk musiqashunoslarning ilmiy risolasida yoritib berilgan. Shu bilan birga ilmiy tadqiqotlarda o'zbek operasida milliy yondashuv, uning ohang doirasi va ijrochilik yo'nalishlarida milliylik xususiyatlarni aks etish masalalari o'z yechimini hali to'liq topmagan va milliylik xususiyatlari tahlilini talab etadi. O'zbek operasining rivojlanish yo'llari, kompozitorlarning shu janrdagi yorqin namunalarni o'rganib chiqish va tahlil qilish asosida opera san'atida milliylik, opera san'atini o'rganish orqali yoshlar ma'naviyati, madaniyatini shakllantirishning

ahamiyatini ko'rsatib berish bugungi kunda juda muhim bo'lgan masalalardan biridir.

Opera san'ati inson tafakkurining yuksak namunalari biri hisoblanadi. Musiqqa tarixida operaning taqdiri muhim va alohida ahamiyatga molik. Evropada XVII asrda uzoq davom etgan dunyoviy va cherkov professional musiqasi bilan chegaralanish jarayoni yakunlanadi va natijada, **opera** yaralishi imkoni paydo bo'ladi. **Opera** – bu teatr, she'riyat, raqs va musiqani o'zida birlashtirgan sintetik janr (operaning adabiy dramatik asosi – **libretto**). Uning keng badiiy ta'sir vositalariga egaligi, operani musiqqa sohasida etakchi o'ringa olib chiqadi. Boshqacha aytganda, opera – kompozitorlik ijod uslubining eng yuqori cho'qqisi hisoblanadi.

Opera Italiyaning Florensiya shahrida XVI asr so'ngida Uyg'onish davrining gumanistik g'oyalari ta'sirida paydo bo'ldi. Florensiya saroyida 6-oktabr 1600-yil qo'yilgan kompozitor Yakopo Perining "Evrudika" asari birinchi opera hisoblanadi. Bu san'at turining paydo bo'lishi va bir necha turda rivojlanishi Italiya milliy madaniyati bilan bog'liq bo'lgan. Uning **opera-seriya** (qahramonlik-mifologik yoki tarixiy syujet asosida, A.Skarlatt) va **opera-buffa** (xalq qo'shiq ijodi va real komediyalar asosida, D.J.Pergolezi) turlari tarixan shakllanib kelgan. Janr paydo bo'lishi bilan o'z eng yirik, demokratik hamda insonlarning ma'naviy madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan san'at turi sifatida rivojlandi. Opera klassik davrda o'ziga xos, romantizm davrida o'zgacha, XX asrda esa turli "Qiyofalar"da o'zini namoyon qildi. Evropa san'atida shakllangan kompozitorlik ijodi opera, simfoniya, oratoriya, balet, sonata, kino musiqasi kabi ko'povozli musiqqa turlarini o'z ichiga qamraydi. O'zbek musiqasi uchun **kompozitorlik** sohasi nisbatan yangi uslub bo'lib, u asosan XX asrning 30-yillar oxirida shakllana boshladi.

1930-yillar oxirida o'zbek va rus kompozitorlarining hamkorlik ijodiyotida yirik sahnaviy janrda asarlar yaratilish jarayoni boshlandi. Alisher Navoiy qalamiga mansub "Farhod va Shirin" poemasi asosida yaratilgan V.Uspenskiyning "Layli va Majnun" poemasi asosida T.Sodiqov va N.Mironovning spektakllari, M.Muxamedov va K.Yashin, T.Jalilovlarning "Gulsara" musiqiy dramalari milliy opera va balet asarlari yaratilishi uchun zamin hozirladi.

V.Uspenskiy "Farhod va Shirin" spektakli yaratilishi haqida so'zlar ekan, oldida ko'p sonli kuylarni notaga olish, ularni garmoniyalash va orkestrlash zarurati bilan bog'liq qator murakkab masalalar turganligini ta'kidlagan: "...Men faqat bir ovozlilikdan ko'povozlikka o'tish ma'lum vaqtni, katta tayyorgarlikni talab qilishini hisobga oldim, shuning uchun ham gap birdaniga o'zbek opera musiqasini yaratish to'g'risida borayotgani yo'q, gap bu qiyin yo'ldagi birinchi qadam haqida ketyapti" [3.71].

Shunday qilib, musiqqa san'atining yirik, monumental janrlaridan biri bo'lgan opera O'zbekistonga XX asrning boshlarida kirib keldi. 1930-yillar oxirida o'zbek va rus kompozitorlarining hamkorlik ijodiyotida yirik sahnaviy janrda asarlar yaratilishining ilk qadamlari qo'yildi. O'sha yillari respublikada milliy kadrlar hali etilmaganligi, rus kompozitorlarining ko'pchiligi o'zbek tili va musiqasini

yaxshi bilmaganligi uchun bu hamkorlik o'zbek musiqali teatrlari repertuarini ta'minlovchi yagona yo'l edi.

Birinchi o'zbek operasi – M.Ashrafy va S.Vasilenkoning "Bo'ron" asari bo'lib, uning 1939-yil 11-iyundagi premerasi **milliy musiqqa san'ati va teatri** tarixining yangi sahifasini ochib berdi. Shu kundan boshlab O'zbek musiqali drama teatri O'zbekiston davlat opera va balet teatri deb nomlandi.

"Bo'ron" operasining asosiy mazmuni o'zbek xalqining chorizmga qarshi 1916-yil qo'zg'oloni bilan bog'liq. K.Yashin o'z librettosida syujet rivojiga yetarlicha dinamizm bera olgan. "...Ungacha ham opera yo'nalishida ayrim asarlar yaratilgan, biroq ular janr talablariga to'liq javob bermasdi. "Bo'ron" haqiqiy opera sifatida dunyoga keldi va uning syujeti mazmunidan qat'i nazar bugungi kunda ham haqiqiy milliy opera sifatida barcha talablarga javob beradi", – deb yozadi B.Izayev [4.25].

Bu operaning bosh qahramoni bo'lib, sahnaga **xalq** chiqdi. Ommaviy sahnalar va syujetni musiqali ifodalashda xorning muhim ahamiyati ham shunda bo'ldi. Deyarli har bir pardaning kulminatsiyasini xalq sahnalari tashkil etdi. Xorning kuy materiallari ko'pincha "iqtibosli": u yo xalq kuylaridan, yoki Hamza qo'shiqlaridan olingan edi. Masalan, birinchi pardadagi dehqonlarning xotima xori musiqasi asosida Hamzaning "Ishchi bobo" qo'shig'i, ikkinchi pardaning final sahnasida g'azablangan xalq xori asosida Hamzaning "Biz ishchimiz" qo'shig'i yotadi. Opera mualliflari uchun xalq qo'zg'oloni rahbari Bo'ronning musiqali obrazini yaratish vazifasi qiyin kechdi. Xalq orzu va intilishlarining ifodachisi bo'lgan Bo'ronning musiqali xarakteristikasi musiqashunoslar fikriga ko'ra, ishonchsiz bo'lib chiqdi, ya'ni davrning qahramoni musiqiy intonatsiyasi yangi ruhi yetarli darajada ifodalay olmadi.

Operada Norgul obrazi xarakteristikasida mashhur o'zbek xalq qo'shig'i "Tanovar" muhim rol o'ynaydi. Bu alamli qo'shiqning teran ifodali kuyi Norgulning og'ir kechinmalarini ochib beradi:

Adagio

Qo-ra so- chim o'- si -
b(o) - shim -
ga tush - di,

Bu operaning rejissori Emil Yungvald-Xilkevich tomonidan sahnalashtirilishi respublika madaniy hayotida yorqin voqealaridan biri bo'ldi. Asosiy qahramon – Bo'ron rolini Karim Zokirov va Mixail Davidovlar ijro etishdi. Norgul partiyasini Halima Nosirova, Shahodat Rahimova, Sora Samandarova va Nazira Ahmedovalar kuylashdi. General-gubernator rolini esa Muhiddin QoriYoqubov ijro qildi.

Opera janri milliy musiqamizning Evropa opera ijrochiligi san'ati uyg'unligida vujudga keldi. Bu janrni rivojlantirishda R.Glier, S.Vasilenko, T.Sodiqov, M.Ashrafiy, S.Boboyev, R.Hamroyev, M.Burhonov, S.Yudakovlarning xizmati katta bo'ldi. 30–40-yillar oxirida yaratilgan “Bo'ron”, “Layli va Majnun”, “Gulsara”, “Tohir va Zuhra” kabi operalar mavzu jihatdan milliylik tamoyiliga asoslanganligi ijobiy holat, deb aytish mumkin. Ularda original kompozitorlik kuylaridan ko'ra, ko'proq xalq ijodi va maqom kuylaridan iqtiboslar keltirish, ularning Evropa kompozitorlari tomonidan orkestrlashtirilishi asosiy tendensiyalardan biri bo'ldi. R.Glier va T.Sodiqovlarning “Gulsara” va “Layli va Majnun”, M.Ashrafiyning “Dilorom”, S.Yudakovning “Maysaraning ishi”, S.Boboyevning “Hamza”, M.Burhonovning “Alisher Navoiy”, S.Jalilning “Zebunniso”, R.Hamroyevning “Zulmatdan ziyo” opera asarlari Toshkent va Samarqand opera teatrlari sahnalaridan doimiy o'rin olib keldi.

Mustaqillik yillarida opera janrida ham qator yangiliklar – musiqa uslubiyo'tida, syujetlar tanlashda, dramaturgiyada, intonation xususiyatda, orkestrning dramaturgiyadagi roli o'sishida sezila boshlandi. Bu davr operalarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri kompozitor va dramaturglar tomonidan janrning yangi ko'rinishlarini izlash, turlicha janrlar sintezini qo'llashga bo'lgan qiziqishlarida aks etdi. Yangi texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyati, tele va radio tizimlarni qo'llash kompozitor, rejissorlarning ko'plab hammualliflik rejalarini – **teleopera** janrining paydo bo'lishiga olib keldi. Bularning ichida eng qiziq reja-proektlardan M.Bafoevning so'z ustasi, xor, xalq cholg'ulari orkestri, raqqoslar guruhi uchun “Buxoroi-sharif” **opera-dostoni** (1997), I.Akbarovning “Ibtido xatosi” **opera-oratoriyasi** (1995), M.Bafoevning “Hamsa” **opera-baleti** (2017) asarlarini aytish lozim. Bunday spektakllarning paydo bo'lishi xalq ichida musiqiy spektakl, tomosha san'atiga qiziqishning oshganini ifodaladi. Dunyo mamlakatlarida musiqiy komediya, myuzikl kabi janrlarning juda ommaviyligi bizning kompozitorlarni ham shu janrda ishlashga undadi. Bu ma'noda “Devona”, “Super qaynona”, “Kuyovlar konkursi” kabi spektakllar qiziqish uyg'otdi. S.Yudakovning opera musiqasi ham “Maysaraning ishi” filmida yangicha jarangladi.

Ko'rib chiqilayotgan bu davrda jiddiy opera janrida yozilgan, an'analari jihatdan oldingi operalarga yaqin bir necha asarlar yaratildi. Bu yillarda “Buyuk Temur” (A.Ikramov: 1996), “Al-Farg'oniy” (M.Bafoev: 1998), “Alisher Navoiy” (M.Burhonov: 1998), “Ona qalbi” kamer operasi (H.Rahimov: 1995) yaratildi. Bu asarlarda ham 40–60-yil opera an'analari – buyuk ajdodlar siymosiga murojaat qilish bo'ldi. Bundan tashqari, A.Navoiy

nomidagi teatrda avval yaratilgan operalar yangi tahrir bilan qaytadan sahnaga olib chiqildi. R.Glier va T.Sodiqovning “Layli va Majnun” (1995), M.Ashrafiyning “Dilorom” (2001) operalari qaytadan qo'yildi. Teatr repertuaridan I.Akbarovning “So'g'd elining qoploni” va S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operalari muntazam joy oldi.

2015-yilning oxirida o'zbek shoirasi Zulfiya tavalludining 100 yilligiga bag'ishlab, R.Abdullayevning “Sadoqat” operasi premerasi bo'lib o'tdi. “Sadoqat” operasi kompozitor tomonidan 1981-yil yozilgan bo'lishiga qaramasdan, teatr sahnasida premera 2015-yil 19-dekabrda bo'lib o'tdi. Libretto muallifi O.Matchon. Opera janri lirik-psixologik drama bo'lib, unda o'zbek adabiyotining ikki yorqin namoyandalarning munosabatlari, muhabbat va sadoqatlari tarannum etilgan.

“Sadoqat” operasi o'z xususiyatiga ko'ra milliy asar bo'lib, u o'zbek intonation-ritmik asosiga qurilgan va o'zbek xalq cholg'ularidan doyra va nog'ora qo'llanilgan. Opera sahna yangi texnologiyalarni hisobga olgan holda yaratilgan: ishtirokchilarning chiqishi, sahnalar almashinuvi o'n yil oldin yaratilgan operalardan ham jadalroq kechadi. Sahnaga chirog'i, rassom va dirijor ishlarida yangi yechimlarni ko'rish mumkin. Opera voqea rivojidadagi avval navbahor (Navro'z bayrami misolida), so'ng kech bahor (majnuntollar va bahor yomg'iri misolida), saraton yoz (ayni pishiqchilik, ishkamlardagi uzumlar misolida), sovuq urushning nafasi (qizil va qora ranglar, tutun misolida), so'nggi ko'rinishda esa shoiraning qayta tug'ilishi, ardoqlanishi zumrad bahor ko'rinishida sahnalashtiruvchi rassom Zubaydulla Botirov sahnaga ishlagan bezak dekoratsiyalari orqali tomoshabinni bevosita voqealar ishtirokchisiga aylantiradi. Yaqin o'tmishda yashab o'tgan ijodkorlar Zulfiya (Malika Normatova) soprano, Hamid Olimjon (Rustam Alimardonov) tenor, G'.G'ulom (Rahim Mirzakamolov) bariton, Oybek (Jabroil Idrisov) bas ovozda, Zulfiya izdoshlari yosh shoir qizlarning metstso soprano ovozda kuylagan ariya, duetlar melodik va garmonik rivojlanishning uzluksizligi musiqiy hamda mantiqiy rivojlanishni ta'minlagan.

O'zbekistonda XX asr mobaynida shakllanib, XXI asrda ham muayyan o'ziga xoslikni mujassamlashtirgan o'zbek milliy opera (S.Yudakovning “Maysaraning ishi”, M.Ashrafiyning “Dilorom”, T.Jalilov va B.Brovsinlarning “Tohir va Zuhra”, R.Glier va T.Sodiqovlarning “Layli va Majnun”, R.Abdullayevning “Sadoqat”, M.Mahmudovning “Kumush”) namunalarini mamlakatimiz madaniyatining nafaqat bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti, balki vokal va an'anaviy ijrochiligi, vokal ta'limi ham ulkan milliy salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Falsafa. Ma'ruzalar matni. – Toshkent.: 2000.
2. “Musiqqa – millat zavqi” (jurnalist Ilhom Ahrorning filologiya fanlari doktori Ibrohim Haqqul bilan suhbat). “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 1998-yil, 9-yanvar.
3. O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi: T.Ye.Solomonova. – T.: “O'qituvchi”, 1981.
4. Irzayev B. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda musiqa madaniyatining rivojlanishi. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2015 (341).
5. Muhamedova G. Kuylovchi aktyorning shakllanishi. O'zbekiston davlat konservatoriyasining nashriyot bo'limi. – T.: 2008.
6. Pokrovskiy B.A. Opera rejissurasi haqida. VTO, – Moskva: 1973.

“YAKKAXON QO'SHIQCHILIK”DA BUXORO MAVRIGILARINI O'RGANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarining “Yakkaxon qo'shiqchilik” fanida Buxoro “Mavrigi” turkum qo'shiqlarini o'rganishning o'ziga xos usullari tarixiy kesimda bayon etilgan. Shuningdek, Buxoro mavrigilarining nazariy va amaliy jihatlari ilmiy mushohada qilingan.

Kalit so'z: musiqqa san'ati, mahalliy uslub, mavrigi, mavrigixon, payt, bo'lim, folklor, qo'shiq, yakkaxon.

ИЗУЧЕНИЕ БУХАРСКИХ МАВРИГИ ПО ПРЕДМЕТУ “СОЛЬНОЕ ПЕНИЕ”

Аннотация. В данной статье в историческом ракурсе излагаются методы изучения бухарских песен из цикла “Мавриги” на уроках “Сольное пение” в высших учебных заведениях. Также раскрыты теоретические и практические аспекты Бухарских Мавриги.

Ключевые слова: музыкальное искусство, локальные зоны, мавриги, исполнитель мавриги, момент, раздел, фольклор, песня, солист.

STUDY OF BUKHARA MAVRIGI IN SOLO SINGING

Annotation. This article examines the original methods of teaching Bukharian songs from the “Mavrigi” series from a historical perspective in the lessons of “Solo Singing” in higher educational institutions. Scientific observations of the theoretical and practical aspects of the Bukhara mavrigi have also been carried out.

Keywords: mavrigi, performer of mavrigi, moment, section, folklore, song, soloist.



Yangi O'zbekistonda mumtoz va xalq musiqasiga bo'lgan yuksak e'tibor Hukumat darajasida ahamiyatli bo'lib bormoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 17-noyabrdagi 3391-PQ-sonli “O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori mumtoz musiqamizni nafaqat chuqur o'rganishga, keng targ'ib va tashviq qilishga, yoshlarimizni mumtoz musiqqa san'ati asosida yuksak tafakkurli qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan zamin bo'ldi. Alalxusus, oliy ta'lim muassasalarida maqom va xalq musiqasini o'rganishga qaratilgan “Yakkaxon qo'shiqchilik” fani mavjudki, bunda bevosita an'anaviy musiqqa ijrochiligiga alohida e'tibor qaratiladi.

“Yakkaxon qo'shiqchilik” fani respublikamizda milliy musiqiy meros, folklor qo'shiq ijrochiligini yanada mukammal va chuqur o'rganish, ijrochilik uslublarini egallash hamda targ'ib qilish masalalarini yoritadi. Yoshlar orasida ijrochilikka bo'lgan qiziqishni qondirish maqsadida badiiy havaskorlik ishlarini tashkil etish yo'llari o'rganiladi¹. Jumladan, “hududlarga xos bo'lgan folklor qo'shiqlarini o'rganish, ijro mahoratini oshirish, folklor qo'shiqlari ohanglarida xalq tafakkuri, dunyoqarashi, qo'shiqlarning go'zal shakli, teran

mazmuni, chuqur falsafasini, shuningdek yakkaxon ijrochilikning nazariy va amaliy jihatlari o'rgatishdan iboratdir”².

Biz mazkur maqolamizda “Yakkaxon qo'shiqchilik” fanida Buxoro mavrigi qo'shiqlarini o'rganishning o'ziga xos usullari haqida ilmiy mulohaza yuritishga jazm etdik. Avvalambor, “Yakkaxon qo'shiqchilik” fanida o'rganiladigan to'rt mahalliy musiqqa uslub xususida qisqacha izoh berib o'tamiz.

Ma'lumki, respublikamizda “Farg'ona-Toshkent”, “Surxondaryo-Qashqadaryo”, “Buxoro-Samarqand”, “Xorazm” to'rt “lokal uslublar” (Fayzulla Karomatli) mavjud bo'lsa, yana bir o'zining betakror milliy an'alariga ega Qoraqalpog'iston vohasining o'ziga xos mahalliy musiqqa uslubi mavjud.

Mazkur mahalliy uslublarning nazariy jihatlari teran anglashda F.Karomatlining “O'zbek xalq musiqqa merosi”³ hamda O.Ibrohimov va R.Yunusovlarning “O'zbek xalq musiqqa ijodi” nomli ikki qismdan iborat qo'llanmalari juda e'tiborlidir⁴.

Shuni ham aytish joizki, mazkur to'rt mahalliy uslublarning o'xshash an'alarini bilan birga o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, “Farg'ona-Toshkent” mahalliy musiqqa uslubida “Yor-yor”, “Yalla”, “Lapar”, “Alla” va boshqa bir qator musiqiy aytimlarni qamrab olsa, “Surxondaryo-Qashqadaryo” lokal uslubiga xalq termalarini do'mbira jo'rligida ijro eta oladigan “baxshi” san'ati keng namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, kasbiylik darajasidagi yirik dostonlar ijrochisi bo'lgan “baxshi” san'atini ham keltirish mumkin. “Xorazm” mahalliy musiqqa uslubida ham xalq qo'shiqlaridan iborat termalarni ijro etuvchi san'atkor “baxshi” ijrochisi bilan birga, ayollar qo'shiq ijrochiligining o'ziga xos ko'rinishi – “xalfachilik san'ati” mavjud. Shuningdek,

¹ Yakkaxon qo'shiqchilik. O'zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasini fan dasturi. /Tuzuvchilar: R.Abdullayev va boshqalar. – Toshkent: 2019. – B.4.

² Yakkaxon qo'shiqchilik. O'zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasini fan dasturi. /Tuzuvchilar: R.Abdullayev va boshqalar. – T.: 2019. – B.4.

³ Karomatov F. O'zbek xalq musiqqa merosi (XX asrda). – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B.156.

⁴ Bu adabiyotlarga qarang: Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqqa ijodi (1-qism). – T.: 1994. Yunusov R. O'zbek xalq musiqqa ijodi (2-qism). – T.: 2000.

Surxondaryo va Qashqadaryo baxshichiligidan umuman farqli, Xorazm baxshi ijrochiligi o'ziga xos ijro an'anada – ochiq ovozda va tor cholg'u sozi (dutor, garmon, qo'shnay, doyra) jo'rligida ijro etilishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida esa, doston ijrochiligining o'ziga xos uslubi – "jirov" (baxshi) ijrochiligi rivojlanganligini ko'ramiz. Bunda asosan, "Alpomis", "Yedege" va boshqa dostonlarning qo'biz cholg'usi jo'rligida ijro etish an'anasi yorqin namoyon bo'ladi. Bularni talabalarga nazariy va amaliy o'zlashtirishda "O'zbek xalq musiqasi" nomi ostida nashr etilgan ko'p tomlik nota to'plamlarining "Qaraqalpaq xalq namalari"ni 8-tomidan foydalanish mumkin⁵.

O'zbekistondagi mahalliy musiqa uslublaridan yana biri "Buxoro-Samarqand" uslubi bo'lib, bunda har ikkala hudud Buxoro va Samarqand folklor musiqasida bir-biriga o'xshash mushtarak ohanglar o'z ifodasini topadi. Jumladan, tojik tilida ijro etiladigan folklor qo'shiqlar har ikki vohada ham deyarli bir xil ijro etilishi bilan namoyon bo'ladi. O'zbek va tojik tilida so'zlashuvchi bu ikki vohaning mahalliy musiqa uslublari ham har ikkala vohada aynan ikki tilda namoyon bo'ladi. Biz yoritayotgan "Mavrigi" ayimlari kelib chiqishi Buxoro hududiga taalluqli bo'lsa-da, ayni vaqtda ijrochilik xususiyatlari bilan har ikkala vohada bir xil sevib ijro etiladi.

Buxoro folklor musiqasi va qisman mumtoz musiqa uslubiga xos bo'lgan "Mavrigi" ayimlarining paydo bo'lish tarixi, rivojlanish bosqichlari va ijrochilik an'analari bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni o'rganish asnosida ulardan iqtiboslar keltirdik. Shu jumladan, Fayzulla Karomatovning "O'zbek xalq musiqasi merosi XX asrda"⁶ nomli ilmiy monografiyasi, tojikistonlik san'atshunos olim Nizom Nurjonovning "Somoniyar davlati poytaxtida teatr va musiqiy hayot (XIX–XX asrlar)"⁷ nomli monografiyasi hamda buxorolik bir qator olim va san'atkorlar (O.Safarov, F.To'rayev, O.Atoev) tomonidan tayyorlangan nota va matn tarzida chop etilgan "Buxorcha va Mavrigi taronalari"⁸ nomlanishdagi adabiyotlardan maqsadli foydalanildi. Shuningdek, "Buxoro Mavrigi" turkum ayimlarini puxta o'rganish uchun mualliflar G'.Xudoyev va X.Xudoyev tomonidan nashrga tayyorlangan "Yakkaxon qo'shiqchilik" (Buxoro mavrigilari asosida) o'quv qo'llanmasini, O.Safarov va boshqalar tomonidan nashr etilgan "Buxorcha va Mavrigi taronalari"ni ham tavsiya etamiz.

⁵ Bu haqida qarang: Qaraqalpaq xalq namalari. /"O'zbek xalq musiqasi" seriyasidan 8-tom. To'plovchi va notaga oluvchi: A.Xalimov. – T.: "Badiiy adabiyot", 1959.

⁶ Karomatov F. O'zbek xalq musiqasi merosi (Yigirmanchi asrda). II tom. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – B.208.

⁷ Нурджанов Н. Театральная и музыкальная жизнь столицы государства саманидов (XIX–XX вв.). – Душанбе: "Мағбуот", 2001. – С.292.

⁸ Safarov O., Atoev O., To'rayev F. Buxorcha va Mavrigi taronalari. – T.: "Fan", 2005. – B.277.

⁹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2-jild). – T.: "O'zbekiston", 2001. – B.51.

¹⁰ Safarov O., Atoev O., To'rayev F. "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari. – T.: "Fan", 2005. – B.277.

Maqolada keltirilayotgan mavrigi asarlarining ketma-ketligi buxorolik olim va san'atkorlar Oxunjon Safarov, Orif Atoev, Fayzulla To'rayevlar hammuallifligida nashr etirilgan "Buxorcha va Mavrigi taronalari" o'quv qo'llanmasidagi tartibot asosida shakllantirilgan bo'lsa-da, biroq turli davrlarda ustoz mavrigixon-xonandalar tomonidan "mavrigicha" uslubda ijro etilgan qo'shiq va ashula yo'llari ham kichik-kichik mavzular kesimida o'rganildi.

"Mavrigi" san'atining kelib chiqish tarixi xususida mulohaza yuritish ekanmiz, dastlab Buxoro mahalliy aholisining "zullisonayn" ("shir-u shakar") uslubiga asoslangan musiqa ijodiyotining xilma-xil janrlari, oilaviy marosim to'ylari, xalq bayramlari va Navro'z sayllaridan o'rin olgan qo'shiqlarda ufurib, ularga betakrorlik bag'ishlab kelayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, Buxoro shahri va viloyatining asosiy qismini o'zbek va tojik xalqlari tashkil etadi. Bu birodar ikki xalq ijodiy hamkorligi natijasida, ko'plab musiqiy folklor janrlarida "zullisonayn" (ikki tillik "shir-u shakar") an'anasi qaror topganligini ko'rishimiz mumkin. *"Chunonchi, ayrim xalq qo'shiqlari ayni vaqtning o'zida ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylangan. Odatda, qo'shiqning bandlari o'zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba'zan esa aksincha ham keladi. Shuningdek, faqat bir tilda – yo o'zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo'shiqlari ham uchraydi"*⁹.

Qadim Buxoro saroy musiqasi haqida so'z borganda, "Mavrigi" nomi bilan yuritilayotgan musiqiy turkum namunalari ham diqqatni o'ziga tortadi. Olimlarning fikriga ko'ra, "mavrigi" so'zi Markaziy Osiyo xalqlari polietnik jihatlarining mushtarak hosilasi, turkiy va eroniy xalqlar madaniyatining sintezi bo'lib, buxorolik ijodkorlar ijrochiligidagi sayqal topgan mahalliy koloritga ega, faqat doyra jo'rnavozligida ijro etiladigan, kompozitsion jihatdan yaxlit ichki tizimga ega bir butun turkumdur¹⁰. Bundan tashqari, shunday ilmiy asoslangan ma'lumotlar ham borki, unda "Eronning mavrigi qabilasidan bo'lgan mashshoqlar Buxoroga savdo-sotiq va turli yumushlar bilan kelishib, hordiq chiqarish ilinjida xirom aylab qo'shiq aytishadi. Ularning qo'shiqlariga shaydo bo'lgan ulus, so'rashadi: – Qayerliksizlar? Shunda ular: "Mavrigilikmiz", deb javob berishadi. Shu-shu ular aytgan qo'shiqlar xalq orasida "mavrigi" nomi bilan yangray boshlaydi.

"Mavrigi" so'zi bevosita Turkmanistonning Mari shahri bilan bog'liq degan taxminlar ham yo'q emas. IX–X asrlarda Mari shahri Marv deb yuritilgan. Buxoroga eroniyliklar ilk bor tijorat hamda boshqa aloqalar maqsadida, Marv orqali kelishgan. Mana shu yerdan kelib Buxoroda sokin o'rnamshib olgan kishilar aytgan ohanglar, qo'shiqlar "Ohangho'i Mavrigiho", ya'ni "Mavrigiliklar ohangi" deb yuritilgan. Ustozlarning aytishlaricha, bunga kamida 200–250 yillarcha bo'lib qolgan. Shu bilan ular aytgan qo'shiqlar ohang tizimiga Buxorocha ohanglar qo'shilib, keyinchalik ustuvorlik qilgan va "Buxorocha mavrigi" nomini olgan. Xususan, filolog olim Oxunjon Safarov bu masalani quyidagicha izohlaydi: *"Mavrigi nomi ro'yirost ifodalab turganidek, tarix taqozosiga ko'ra ko'chirilib keltirilgan elatlarning qo'shig'i. "Mavrigi" aslida marvliklarning qo'shig'i bo'lib, tovush o'zgarishiga uchrab "Mavrigi" shaklini*

olgan"¹¹. Buyuk musiqachi Borbad ham aynan Marvda yashagan, unga Borbadi Marviy yoki Marvaziy nisbasi ham shu boisdan berilgan. Shuning uchun ham Mavrigi san'atining kelib chiqish ildizi Borbad Marviy ijodiga borib taqalishi ehtimoldan holi emas.

O.Safarov, O.Atoev va F.To'rayevlarning yozishicha: "qo'shiq va raqslarni turkum tarzida ijro etish Turon va Eron sarhadlarida yuzaga kelgan an'ana sifatida olis tarixga ega. Qadimgi ajdodlarimizning otashkada – ehromlarda "Avesto" gosa (qo'shiq)larini turkum-turkum holda kuylab, shu asnoda raqsga tushib, o'zlarining zardushtiy e'tiqodlarini toblaganlari tarixiy manbalardan ma'lum. Bu an'ana, xususan, eramizning IV–VII asrlarida yangi bir yuksalish kasb etgan. Bunda, ayniqsa, Turon va Eronda musiqqa va qo'shiq ijrochiligida benazir buyuk hofiz sifatida tanilgan Borbadning hissasi beqiyos bo'lgani manbalarda e'tirof qilingan"¹².

Borbad yaratgan kuy va qo'shiqlar ijrosi asosida shakllangan an'analar bora-bora "Marvisra'f" (Marvisrang) yo'li sifatida e'tirof etila boshlandi, davrlar o'tishi bilan bu ibora shaklan o'zgarib: "Mavriy", "Mavrisaroy" (Mavricha ijro), "Mavrigiy", "Mavriycha" qabilida iste'mol etila boshlangan. Bu jihatdan VI va VII asrlarda yuzaga kelgan "Daruki xursandik" (Dar odobi xursandiho – "xursand qiluvchi odoblar") va "Farhangi pahlavik" ("Pahlaviy lug'ati") risolalarida qayd etilgan kuy va qo'shiqchilik uslubini ifodalovchi "murvakrsay", "murvakrsang" va "marvak" istilohlariga oid ma'lumotlar alohida qimmatga ega.

Olimlarning fikrlariga tayanib, Borbadning sosoniylar saroyida kechgan musiqqa faoliyati bilan bog'liq ayrim an'analar Buxoro saroyiga ham ko'chganligini taxmin qilish mumkin. Har holda manbalarda Buxoro amiri Abdulahadxon (1885-1910) saroyida xizmat qilgan xushovoz hofiz Hasan Garoyli (vafoti 1900-yil) "Mavrigi"ni meyoriga yetkazib ijro etgani haqida xabarlar keltiriladi¹³. Keyinchalik mavrigilar ko'chalarda, bozorlarda, xohlagan odam tomonidan, xohlagan pardadan ba'zan qichqirib, ba'zan yumshoq ovoz bilan aytila boshlangan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, Mavrigi aytmilari yuzaga kelishida turli xalqlar (eron, o'zbek, turkman, tojik)ning musiqiy an'analari bir makonda tutashib "Buxoro mavrigisi" nomlanishi hamda bu holat mazkur namunalarining o'ziga xos sifatlarini belgilashda ustivor ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ladi.

"Mavrigi"ni ilmiy o'rganish ishida yuqorida qayd etilgan "Buxorcha" va "Mavrigi taronalari" to'plami katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu to'plam mualliflari "Mavrigi" taronalari ustozlar ijrosida nafaqat yozib olishga, balki ma'lum darajada tasniflab berishga ham muvaffaq

bo'lganlar. Unga ko'ra, "Mavrigi" turkumi uch paytga (yoki bo'lim) bo'linib, ularning har biriga shartli ravishda maxsus nomlar ham berilgan. Shunga ko'ra birinchi payt "Shahd" deb nomlangan. Bu nom esa "Mavrigi" turkumining boshida kelgan (1-qism) hamda ijro etilishi erkin uslubda bo'lgan (ustoz va shogirdlar tomonidan cho'zib aytiladigan) "Shahd" nomidan olingan. Mazkur turkum yuqorida ko'rib chiqilgan "Mavrigi" namunasi tartibiga o'xshash ishlangan bo'lib, doyra usulisiz kelgan sekin sur'atli qism bilan boshlanadi. Shu o'rinda "Mavrigi" turkumi 1-bo'limining 1-qismida keluvchi "Shahd" nomli ashulaning daromadidan bir parcha keltiramiz:



Keyingi qismlar davomida dastlab 3/4 o'lchovli doyra usullari ("Gardon", "Dilbari yagonayiman") kelib, so'ngra yengil (6/8) ufar usullari bilan almashinadi, "sekin-asta doyralar jazavaga minib, raqsga tushish qadar jo'shqinlik kasb eta boradi"¹⁵.

Endi "Mavrigi" turkumining quyidagi uch payt yoki uch bo'limda namoyon bo'lishi bilan ularning tarkibiy tuzilishini yaqindan o'rganamiz. Birinchi payt (bo'lim) ning nomlanishi "Shahd" nomi bilan yuritilib, ijro etilishi ko'zda tutilgan qismlar jami quyidagi 10 ta asarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, 1) "Shahd", 2) "Gardon", 3) "Xumor dorad", 4) "Dilbari yagonayiman", 5) "Man dar ajabu...", 6) "Soqi, man mastam...", 7) "Dar bog' anjil ast" va shu qo'shiqning 8) Furovardi, 9) "Yorakam dar xob, bedorash makun", 10) "Sarvi ravoni kistū?" kabi qo'shiqlardan iborat bo'ladi.

Ikkinchi paytga berilgan "Chorzarb" nomi ham shu turkumning birinchi qismidagi maxsus atamadan kelib chiqadi. Musanniflar bu paytni ikki sho'baga, ya'ni qaysi tilda ijro etilishiga qarab tojikcha va o'zbekcha sho'balarga ajratib berganlar. Binobarin, tojikcha sho'bada butkul tojik tilida ijod qilingan she'rlar qo'llanilsa, ikkinchi payt o'zbekcha sho'basida esa o'zbek va tojik she'riyatidan keng foydalanilgan. Ikkinchi payt tojikcha sho'baning ro'yxati esa quyidagicha keladi: 1) "Chorzarb" (tojik tilida), 2) "Gardon" (tojik tilida), 3) "Gula burdan ba haram", 4) yuqoridagi qo'shiqning "Furovardi" (tojik tilida), 5) "Uf.. dilam" (Oh dilim), 6) "Safedi man" (Oppog'im mening), 7) "Soqiy-soqijjon" (tojik tilida), 8) shu qo'shiqning "Gardon"i (tojik tilida), 9) "G'amxore doram" (G'amxo'rim bor), 10) "Dardi dili man" (Dilim dardi), 11) "Hasanjon" (tojik tilida), 12) "Kam-kamak" (Oz-ozgina). 13) "Mehmon shudam" (Mehmon bo'ldim), 14) "Dar bog' budam..." (Bog'da edim...).

O'zbekcha sho'bada asosan (1- va 6-qismlardan tashqari) o'zbek she'riyati namunalarini kuylanadi, bular quyidagicha: 1) "Ey labad pur xandaya..." (Ey labing kulguga moyil ...), 2) Shishani zargarga berdim, 3) Gardon, 4) Ey sanami parilqo, 5) Olmaning bargidakkina, 6) "Qaddu bastatba muram" (Qaddu bastingga o'lay), 7) Asiri ayladi dilbar. 8) Gardon, 9) Endi mani yor o'ldirsin, 10) Gardon¹⁵.

"Mavrigi"ning "avji" sifatida ko'rsatilgan "Shikan-shikan" (tojik tilida) nomi bilan atalgan uchinchi payti quyidagi o'n qismdagi asarlardan iborat: 1) "Shikan-

¹¹ Safarov O. "Buxorcha" va "Mavrigi" turkumi. "Guliston" jurnali, 1998-yil №3. – B.32-33.

¹² Safarov O., Atoev O., To'rayev F. "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari. – T.: "Fan", 2005. – B.9-10.

¹³ Safarov O., Atoev O., To'rayev F. "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari. – T.: "Fan", 2005. – B.32.

¹⁴ Safarov O., Atoev O., To'rayev F. "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari. – T.: "Fan", 2005. – B.150.

¹⁵ Safarov O., Atoev O., To'rayev F. "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari. – T.: "Fan", 2005. – B.35.

¹⁶ Safarov O., Atoev O., To'rayev F. "Buxorcha" va "Mavrigi" taronalari. – T.: "Fan", 2005. – B.36.

shikan”, 2) “Shirin labonat”, 3) “Ey kaftari Shom”, 4) “Dilakam dilbarakam”, 5) “Noz-noz”, 6) “Dilbar labi bom omad”, 7) “Gardon” (yuqoridagi qoʻshiqni xotimalovchi sifatida), 8) “Maza dorad labi yor”, 9) “Guli surxu safed”, 10) “Chashmoni siyoh dorā..”¹⁶.

Mavrigi turkumi toʻrt doyrachining chorqars usulida rez qilishi bilan nola-yu faryod solingan holda boshlangan boʻlsa, boʻlimdan-boʻlimga oʻtgan sari tantanavorlik, joʻshqinlik ortib 6/8 takt oʻlchoviga asoslangan doyra usuli joʻrligiga qadar yuksalib, qoʻshiq aytib raqsga tushiladi. Oxir-oqibat butun turkum shodlik tuygʻulari tantanasi oʻlaroq oʻz poyoniga yetadi.

Yuqoridagi “Buxoro Mavrigi” ijrochiligi anʼanalariga tayanib, quyidagi ilmiy xulosalarni taʼkidlash lozim:

Ayni paytda Mavrigixonlik anʼanalarida yangi tamoyillar, bular ijro shakllari turlicha kelishida, turkumlanish xususiyatlari har bir vaziyatga (sahna, musiqa festivali, toʻy marosimi va b.) mos kichik-katta yoxud turkumdan olingan alohida namuna, shuningdek, inson ovozdin tashqari yana musiqiy cholgʻularda ham chalinishi kuzatilmogda.

Mavrigixonlikda xalq orasidan chiqqan isteʼdodlarning mumtoz anʼanalarni ijodiy egallay bilishlari, shu asosda oʻziga xos ashula va raqs turkumlarini yuzaga keltirish qobiliyatlari mujassam namoyon boʻlishi hamda aynan shu kabi jarayonlarda mumtoz musiqiy anʼanalarning xalqchil yoʻllari yuzaga kelishida ham yuksak ahamiyat kasb etmogda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov O. Oʻzbek xalq musiqa ijodi (1-qism). – Toshkent: 1994.
2. Karomatov F. Oʻzbek xalqi musiqa merosi (XX asrda). – T.: “Adabiyot va sanʼat”, 1978. – B.156.
3. Karomatov F. Oʻzbek xalqi musiqa merosi (Yigirmanchi asrda). II tom. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1985. – B.208.
4. Khudoev, G.M. (2015). Peering Into Culture of Ancient Bukhara. *Journal of Literature and Art Studies*, 5(8), 630–633.
5. Нурджанов Н. Театральная и музыкальная жизнь столицы государства саманидов (XIX-XX вв.). – Душанбе: «Матбуот», 2001. – С.292.
6. Safarov O., Atoyev O., Toʻrayev F. Buxorcha va Mavrigi taronalari. – T.: “Fan”, 2005. – B.277.
7. Xudoyev Gʻ. Buxoro mumtoz musiqa anʼanalari. Sanʼatshunoslik fanlari boʻyicha falsafa (PhD) doktorlik dissertatsiyasi. – T.: OʻzRFA Sanʼatshunoslik instituti. 2018. – B.160.
8. Xudoyev Gʻ.M. “Zarraga jo boʻlgan olam”. “Tafakkur” jurnali, 2019. – B.122-123.
9. Xudoyev Gʻ.M. “Nozanin” namoyish etadi”. “Teatr” jurnali, 2014. 6(6), – B.37-38.
10. Yunusov R. Oʻzbek xalq musiqa ijodi (2-qism). – T.: 2000.
11. Yakkaxon qoʻshiqchilik. OʻzDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasini fan dasturi. Tuzuvchilar: R.Abdullayev va b. – T.: 2019.
11. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi (2-jild). – T.: “Oʻzbekiston”, 2001.
12. Худоев Г.М. (2019) «Об исполнительских традициях Бухарского Шашмакома». *Журнал «Интернаука»*, 4(244), – С.32–35.
13. Худоев Г.М. (2020). Эволюция музыкальной культуры Бухары (Узбекистан). *Ученые записки (Алтайская государственная академия культуры и искусств)*, (2 (24)), – С.50–57.
14. Худоев Г.М. Вглядываясь в культуру Древней Бухары. *Журнал литературы и искусствоведения*, 2018. 5(8), – С.630–633.

MUSIQA SAN'ATINING PAYDO BO'LISHI VA UNGA XOS ATAMALARNING ILDIZLARI

Annotatsiya. Musiqiy san'atning paydo bo'lishi va uning o'ziga xos atamalarining ildizlari asrlarga borib taqaladi. Ma'lumki, til xalq tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'z tarixining tirik guvohi sifatida u bilan birga bosqichma-bosqich rivojlanib, taraqqiy etib boradi. Qoraqalpoq xalqi hayotidagi keyingi o'zgarishlar uning tilida ham, xususan, musiqa madaniyatida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Kalit so'zlar: musiqiy san'at, atama, xalq, ibora, tilshunoslik.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА И КОРНИ РОДСТВЕННЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация. Возникновение музыкального искусства и корни его специфических терминов уходят в глубь веков. Известно, что язык тесно связан с историей народа, как живой свидетель его истории, он развивается и прогрессирует шаг за шагом вместе с ней. Последующие изменения в жизни каракалпакского народа вызвали большие изменения как в его языке, так и, в частности, в его музыкальной культуре.

Ключевые слова: музыкальное искусство, термин, народ, словосочетание, языковедение.

THE ORIGIN OF MUSICAL ART AND THE ROOTS OF RELATED TERMS

Annotation. The emergence of musical art and the roots of its specific terms go back centuries. It is known that the language is closely connected with the history of the people, as a living witness to its history, it develops and progresses step by step along with it. Subsequent changes in the life of the Karakalpak people caused great changes both in their language and, in particular, in their musical culture.

Keywords: musical art, term, people, phrase, linguistics.



Musiqa san'atining paydo bo'lishi va unga xos atamalarning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Masalan, turkiy xalqlar vakili hisoblangan qomusiy olim Abu Nasr Al-Forobiy (870-950) musiqaga doir "Musiqaga haqida katta risola", "Musiqaga haqida so'z", "Musiqaga fani elementlari" kabi asarlar yozgan. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy asarlarida san'atga, musiqaga doir so'zlarni uchratish mumkin. Mahmud Qoshg'ariy nazm ijodkorlarini *jiraw* va *shoir* nomi bilan ataydi. U *jiraw* (*jiragu, jirau*) so'zini "*musiqaga asbobini cholg'uchi*", "*qo'shiqchi*" so'zlari bilan tushuntiradi. *Jir* so'zini g'azal, maqom, kuy so'zlariga sinonim sifatida qo'llaydi. U davrda qo'shiq, musiqa so'zlari o'rinda *kok* so'zi qo'llangan: *jir ko'klepti – odach qo'shiq, aytdi*¹.

Turkiy tili xalqlar adabiyotida "*jiraw*" so'zi qadimdan qo'llanilib kelinmoqda. Qozoq olimi E. Ismailov *jiraw* qozoq xalqida shoirlikni eng qadimgi turi ekanligini ko'rsatadi. Bu so'z qoraqalpoqlar bilan qirg'izlarda ham saqlanib qolganligini ta'kidlaydi. O. Bekbaulov va K. Mambetnazarovlar "*baqsi*" so'zining sanskrit tilidagi "*bishiku*"dan o'zlashtirilganligini, uning asosiy ma'nosi "*ruhoniyy*", "*din insoni*" ekanligini qayd qiladi. Professor K. Jubanov esa qozoq tilidagi musiqa terminlarini o'rganib, qadimgi Oltay xalqlarida ruhoniylar (urug'larning rahbarlari) barcha mutaxassislarining – mullalar, shifokorlar, hisobchilar, munajjmlarning vazifalarini ado qilganligini va qastalar (urug'lar) yemirilishi bilan bu mutaxassisliklar boshqa-boshqa tarmoqlarga ajralganligini, *baqsi* so'zining o'zagi "*baq*" – "awriwdi bog'ish", "kasalni bog'ish"

ekanligini aytadi. Bu so'z haqida Sh. Valixanov. I. N. Berezin, V. V. Radlov, A. N. Samoylovichda ham qiziq fikrlar uchraydi. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" sida: "*Mo'g'ul eli jarrohni ham baxshi der*"², degan fikr uchraydi.

Ma'lumki, til xalq tarixi bilan chambarchas bog'liq. O'z tarixining jonli guvohi sifatida, qadam-baqadam rivojlanib, taraqqiy qilib boradi. Qoraqalpoq xalqi hayotida keyingi yuz bergan o'zgarishlar uning tilida ham, xususan, musiqa madaniyatida ham katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ayniqsa, XX asrning 30-yillaridan boshlab, qoraqalpoq xalqi hayotida va uning tilida katta o'zgarishlarga guvoh bo'lamiz. Bu davrda qoraqalpoq tili milliy til darajasiga ko'tarildi. So'z tarkibi va terminologiyasi ancha shakllandi. Ilgari ko'pgina terminlar arab, fors tili asosida yuzaga kelgan bo'lsa, endi rus tili va u orqali G'arbiy Evropa tillaridan o'zlashgan so'z qabul qilina boshlandi. Bundan tashqari, til negizida ko'pgina atamalar paydo bo'ldi. Bularga: *kenes – sovet, joybar – plan, moliya – finans, mor – pechat, kelisim – kontrakt, kasaba – profsoyuz, dilmash – awdariwshi, uyirma – krujok, ot arba – poezd, jas buwin – jas awlad* kabilarni kiritish mumkin.

O'tgan asrning 20-yillaridan boshlab, birinchi o'quv qo'llanma "*Egedeler sawati*" (1925) chiqqanidan keyin ko'pgina sohalarda terminologiya shakllana boshladi. Musiqaga terminlari ham ushbu davrlarda ba'zi qiziquvchilar diqqatini jalb qildi. Chunonchi, O'rta Osiyo xalqi musiqasi bilan shug'ullangan A. F. Eggorn xalq musiqaga asboblari to'plab, Vena va Sankt-Peterburgdagi musiqa asboblari ko'rgazmasiga yuborgan. 1907-yil A. N. Samoylovich qoraqalpoq folklori va musiqasini, V. A. Uspenskiy 1917–1925-yillarda o'zbek, turkman xalqi musiqasini to'plagan va u 1929-yil «Туркменская музыка» nomli kitobini nashr qilgan. Bu kitobga qoraqalpoq xalqi

¹ Allamuratov A., Dospanov O., Muratov G. Каракалпак көркем-онер атамаларының сөзлігі. – Нөкис: "Bilim", 1991.

² Berdimuratov E. Qoraqalpoq tilining leksikologiyasi. – Nukus: 1968.

musiqalaridan **“Ajmal”, “Jig’ali”, “Xoja bag’man”, “Azizim”, “Torg’ay qus”** kabilar kiritilgan.

A.Zatayevich 1925-yil nashr qilingan “Xorazm musiqasi tarixidan” asarida qoraqalpoq musiqalariga ham katta o‘rin ajratgan. Shundan keyingi davrda A.Kondor-Shtilov, V.Shafrannikov, A.Xalimov, T.Adambayeva, G.Tileumuratovlar qoraqalpoq musiqalarini to‘plagan.

Bizning davrimizgacha etib kelgan qoraqalpoq musiqa asboblari: tortish usuli bilan chalinadigan qobiz, girjek, barmoq bilan chalinadigan **duwtar**, puflash yo‘li bilan chalinadigan **shynqobiz, balaman, sirnay, ushpelek**, urib chalinadigan **dap** (doyra)lardan iborat. Bu asboblarning qismlarining atamaları qulaq, tar, qaqpaq, tartar, gewde, ilgek, tetik, tiyek (eshak), tesikler, moyin kabilardir. Qoraqalpoq musiqa asboblarning eng qadimgisi **“G’obiz”dir**. Uning qismlari inson jismidagi a‘zolar bilan nomlanadi: quloqlar, gavdasi, shomishi kabi. **Tar, perle** kabi qismlar nomlanishi esa arab, fors tilidan kirgan so‘zlardir, **tartar** atamasi esa **tort** fe‘liga **-ar** qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.

Ma‘lumki, VIII asrda Xorazmni arablar bosib olishi munosabati bilan ko‘pgina arabcha atamalar o‘zlasha boshlagan. Forscha atamalar esa bu xalqlarning yonmayon, aralashib yashashi oqibatida qoraqalpoq tiliga kirib kelgan. Musiqa atamaları tarkibida: a) arabcha: **usul, nami, zikhr, g’ayrat, meni, selem, ud mu. ham, nagara**; b) forscha: **girjek, tanbur, nerde, dep, sazende, goyechde, rez, kerchay, surnay, sherek, duwtar, belent, gi.ni, dzetam, u smat, yosh** kabi nomlar uchraydi. Bu atamalar barcha turkiy tillarda mavjud³.

1873-yili Xiva xonligi Rossiya tomonidan bosib olingach, qoraqalpoqlar Rossiya tasarrufiga o‘tkazilgan. Bu ijtimoiy hodisa uning tilida ham sezilarli iz qoldirdi. Xususan, musiqa sohasiga tegishli ko‘pgina terminlar rus tili va u orqali ko‘pgina Evropa tillaridan kirib o‘zlashdi. Bularga: **bayan, akkordeon, skripka, pianino, goboy, fleyta, arfa, violonchel, voltorna, balalayka, mandolina, alt, dombra, baraban, buben, gitara, gusli** kabilarni kiritish mo‘mkin.

Bulardan **“arfa”** so‘zi dastlab Jazoirda paydo bo‘lgan, **“alt”** italyan tilidan, **“pianino”** (pianinoning asl nomi fortepiano bo‘lib, italyan tilidagi forte (baland), piano (past) ovozlardan iborat so‘z deganni bildiradi) o‘zlashgan. Ikkinchi bo‘limda musiqa janrlari turiga bog‘liq terminlar lisoniy tahlildan o‘tkaziladi. Ular: a) **vokal**; b) **soz asboblari** kabi janrlarga bo‘lib o‘rganilgan.

Vokal janri qadimgi davrlarda qo‘shiqning o‘yin san‘atidan ajralishi natijasida yuzaga kelgan. Bu janr ijrochilari maxsus musiqa maktablarida tayyorlangan. Rus vokal san‘ati, rus xalq qo‘shiqlari asosida paydo bo‘lgan. Uning dastlabki namunaları rus bastakori Glinka asarlari asosida maydonga kelgan⁴. Qoraqalpoqlarda ham vokal san‘ati xalq qo‘shiqlari asosida paydo bo‘lib, u **qissaxonlik, baxshichilik, jirovchilik** turlarga farqlangan. Qoraqalpoq xalqi orasida keng tarqalgan vokal asarlaridan biri **“Qissaxonlar qushit”, “Qissaxon”** kuyi diatonik (fa majorda) tuzilgan bo‘lib, oddiy tempda ijro qilinadi, melodik diapozoni kvinta intervali hajmida bo‘ladi. Qissaxonlar mumtoz shoirlar asarlaridan, xalq dostonlaridan parchalar aytgan. Ularning asosiy vakillari

³ Аманиязов Ф. Tarixga aylangan qo‘shiqlar. – N.: “Жилек жолы” 2007-yil, №25.

⁴ Усов Ю. История отечественного исполнительства на духовых инструментах. – Москва: 1975.

⁵ Раджапов И. Трактаты учёных Средней Азии о музыке. Рукопись Научный фонд Института искусствознания им. Хамзы.

⁶ Караматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. – Тошкент: 1972.

A.Dabilov, S.Nurimbetov, R.Xojambergenovlar bo‘lib, hozir bu yo‘nalishni K.Dauletazarov davom ettirmoqda. Bundan tashqari qissaxonlar dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, ovchilikka bog‘liq qo‘shiqlar to‘qigan va ijro qilgan.

Bunday qo‘shiqlar marosimlar xarakteriga ko‘ra **“hoshlasyo”, “syhsyo”, “joqlao”, “hao’jar”, “bedik”, “gulapsen”** kabi turlarga bo‘lingan. Ularning ichida inson ismlari: **“Ao’ezjan”, “Dao’let”, “Aqsungul”**, yer atamaları **“Shomanay”, “Qyzqetken”**, suv nomlari: **“Kyzketken”**, narsa nomlari: **“Bilezigim”, “Ala g’arg’a”**, boshqa nomlar: **“Qyzmunayim”** bilan ataladigan qo‘shiqlar bor. Bu qo‘shiqlar asosida har xil o‘yinlar yaratilgan. Masalan, 1956–1959-yillar davomida Qoraqalpog‘istonga kelib ishlagan Lixaxonim Petrosova “Ilme Sultan” kuyi asosida xoreografik o‘yin yaratgan.

Qoraqalpoq musiqa madaniyatining o‘ziga xos tomoni shundaki, qadimgi davrlarda qo‘shiq ijro qilishda 3 ta yo‘l alohida farqlangan. Bular: **binnigi** (qo‘shiqni burun orqali, manqalanib aytish); **gulligi** (qo‘shiqni tomoq orqali aytish); **nishkami** (qo‘shiqni aytishda havoni qorin bo‘shligida jamlab, pastdan yuqoriga nisbatan aytish) usullari bo‘lib, hozir bu usul qo‘llanmaydi. Cholg‘u asboblarga bog‘liq janr turlariga xos qo‘shiqlar **“girjek”, “duwtar”, “qobiz”, “shynqobiz”** kabi soz turlariga bo‘lib o‘rganiladi. Ushbu janrga taalluqli rus tili orqali o‘zlashgan **“sonata”, “syuita”, “rapsodiya”, “fantaziya”, “Prilyudchya”, “Yumoreska”, “Trio”, “Kvartet”, “Kvintet”** kabi janrdagi qo‘shiq turlari ham semantik stilistik tomondan tahlil qilinadi⁵.

Qoraqalpoq tili so‘z yasashi tizimida, morfologik usulda so‘z yasashning eng mahsuldor usullaridan sanaladi. Bu usul musiqa terminlarini yasashda ham unumli xususiyatga ega bo‘lib, quyidagi affiksalar yordamida mazkur terminlar hosil qilinadi:

Bunday birikmali terminlarning birinchi komponent **-li//li, -mya//me, -lik//lik. -siz/Asnz, -gyan//gen, -shya//she** qo‘shimchalarini o‘z ichiga olishi ham mumkin; tarli asbab, oyma duwtar, utlik olshem, kushli ules, jilgan nama kabi.

Leksik-semantik usul bilan so‘zlar yasalganda, so‘zlar hayotida semantik o‘zgarish sodir bo‘ladi. Musiqa asboblari qismlarining nomi metaforik yo‘l bilan hosil bo‘lgan nomlarga to‘g‘ri keladi: **duwtarning qulag‘i, duwtarning moyni, skripka gilti, qobizning kaqqagi** kabi.

Ba‘zan antroponimlar va toponimlar musiqa terminlarini ifodalaydi: **“Aqsungu”, “Muwsa”, “Dawlet”, “Qazi iyshan”, “Bozataw”, “Shopir jing‘il”, “Qizketken”** kabi⁶.

Ushbu bobning ikkinchi bo‘limi musiqiy terminlarning tashqi imkoniyatlari asosida paydo bo‘lishiga bag‘ishlangan. Bu so‘z o‘zlashtirish asosida sodir bo‘ladi. Musiqiy terminlar tarkibida: 1) forscha-tojikcha: **girjek, tanbur, tar, chang, may, dap, stende, goyende, hawaz, red, karnay, sirnay, shersk kabi**. 2) arabcha: **muhim, usil, hawij kabi**. 3) rus tili va rus tili orqali kirgan so‘zlar uchraydi.

Rus tilidan kirgan so‘zlar uch xil yo‘l bilan:

- so‘zlarni o‘zgartirmasdan;
- yarim kal’ka;
- to‘liq kal’ka asosida qabul qilingan.

Rus tilidan o‘zgarmasdan qabul qilingan so‘zlar orasida: **akkord, alt, duet, konservatoriya, partitura, pianino, rondo, solist, sonata, temp, trio, unison, forte**. Italyancha: **akkomponement, ansambl, dirijer, minor, repertuar, romans, tembr, uvertyura**. Frantsuzcha: **baletmeyster, dekamerton, kapelmeyster, kontsertmeyster, xor-meyster**. Nemischa: **gamma, garmoniya, drama, lira, melodiya, muza, organ, oda, rapsodiya, filarmoniya, xoreografiya**. Grekcha: **klavish, kompozitor, nota, oktava, mediator, repetitsiya** kabi lotincha terminlar uchraydi.



III BO'LM

SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Munavvara ABDULLAYEVA,

O'zDSMI "Musiqali, dramatik teatr va kino san'ati" kafedrası professori

O'ZBEK XALQINING TURMUSH TARZI BILAN BOG'LIQ MAQOLLARI VA ULARNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbekning turmush tarzi bilan bog'liq maqollar tavsifi berilgan. Xalq maqollarining mazmun ko'lami inson hayotining turli sohalarini qamrab olinishi, hayotidagi voqea-hodisalarning turli maqollar bilan e'tirof etilishi haqida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, adabiy asar, hikmatlar, tafakkur, turmush tarzi, marosim, ta'lim-tarbiya.

ПОСЛОВИЦЫ СВЯЗАННЫЕ С ОБРАЗОМ ЖИЗНИ УЗБЕКОВ И ИХ ХАРАКТЕРИСТИКА

Анотация. В этой статье дается описание статей, связанных с узбекским стилем жизни. Краткий обзор содержания народных пословиц покрывается различными аспектами человеческой жизни, и различные события в их жизни хорошо известны.

Ключевые слова: фольклор, литературное произведение, пословицы, отражать, стиль жизни, церемония, образование, обучение.

PROVERBS RELATED TO THE LIFESTYLE OF THE UZBEK PEOPLE AND THEIR CHARACTERISTICS

Annotation. This article provides a description of articles related to the Uzbek lifestyle. A brief overview of the content of peoples proverbs is covered by the various aspects of human life, and the various events in their lives are well-known.

Keywords: Folklore, literary work, wisdom, think, lifestyle, ceremony, education, education.



O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi o'zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosidir. Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo'shiqlar, ertaklar, dostonlar va boshqa janrdagi asarlardan iborat. Xalq og'zaki ijodining tarixiy ildizi Markaziy Osiyoda yashab o'tgan turkiy xalqning mifik dunyoqarashiga borib taqaladi. Mazkur mifik qarashlar O'rxun-Enasoy tosh bitiklari, "O'g'uznoma", "Kitobi Dada Qo'rqud", Qoshg'ariy tuzgan "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" kabi adabiy asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Maqol og'zaki ijodimizning kichik janrlaridan biri hisoblanadi. Maqollar o'zining tuzilishi jihatdan qisqa, lo'nda, puxta, mantiqli, fikran tugallangan va siqiq ishlangan bo'ladi [3.6]. Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi. Maqol – o'zbek xalq orzaki ijodining ommaviy janrlaridan biridir. Asrlar davomida og'izdan og'izga o'tib kelgan maqollar har bir xalqning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati, axloqiy normasini, tarixi va ruhiy holatini ifodalaydi. Maqol xalq hayotiy tajribalari

xulosasini ifodalovchi hikmatli fikrlar majmuasidir. Maqollar xalqning ko'p asrluk hayotiy kuzatishlari, turmush tajribalari natijasida tug'ilgan xulosalardan iborat. "Soddaroq qilib izohlaganda, maqol xalqning ko'p asrlar mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plangan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham, chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir" [2.63]. Maqol arabcha "qavlun" – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan bo'lib, aytib yuriladigan ifoda, ibora va so'zlarga nisbatan qo'llanadi. Uni "otalar so'zi" ham deyilar. Bunday nomlash maqolni tushunishni osonlashtiradi. Haqiqatan ham u o'tmish avlodlarning azaldan ishlatib kelgan so'zlari. Shu paytgacha eskirmay kelgan, unutilmagan so'zlaridir.

"Hajman ixcham bo'lgan maqolda bayoni dostonlarda jo bo'lgan voqealar mujassamlangan" [2.64]. Maqolda fikr aniq, xulosa tugal, ifoda lo'nda bo'lishi lozim. Va albatta, ibratli fikr aytilishi talab etiladi. Bu ibratli fikr hukm shaklida bo'lishi kerak. Bularning hammasini yuqoridagi misollarda ko'rish mumkin. "Maqollarda so'z qimmatli alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas.

Ular milliy til tarkibida qoliplashgan holda namoyon bo'ladilar" [5.6]. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko'ra, mushtarak hisoblanadi. Hatto, nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda "qavlun" – gap, so'z ma'nosini ifodalasa, tojiklarning "zarbulmasal" atamalarida misol keltirish, ruslar «пословица»sida so'zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi "ota so'zi"da esa ajdodlar fikrini eslash ma'nosi yetakchi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham "sav" atamasi otalar so'zini eslash tarzida keltirilgan [6.189].

"Har bir tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir" [5.65]. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda doimiy ravishda qo'llanib kelingan va qo'llanmoqda. Xalq maqollarining mazmun ko'lami inson hayotining turli sohalarini qamrab oladi. Inson hayotidagi voqea-hodisalarning cheki yo'q ekan, maqollar mazmuni chegarasini ham o'lchab bo'lmaydi. Maishiy hayotdagi kichik bir e'tiborga arzimaydigandek ko'rinvuchi lavhadan tortib, chuqur falsafiy mushohada ifodasigacha maqollar mazmunida o'z aksini topgan. Agar **"Uyga palos yarashur, xotinga libos"** maqoli maishiy hayotga taalluqli bo'lsa, **"Yozda miyang qaynasa, qishda qozoning qaynar"** maqolida vaqtni bekor o'tkazmaslik, aql bilan ish ko'rish insonga hayot imkonini yaratishi qayd etiladi. **"Vaqtning ketdi, naqding ketdi"** maqolida esa falsafiy mazmun ifodalangan bo'lib, inson taqdirida vaqt tushunchasining qanchalar muhim ekanligi ta'kidlanadi. Kishilik jamiyatida maqollarning o'zni beqiyos. Har bir inson nutqida maqollar qo'llab gapirish refleksiga aylanib qolgan. Masalan, bir ish qilmoqchi bo'lgan odam albatta, **"Yetti o'lchab, bir kes"** maqolini o'zi aytmasa ham ko'nglidan o'tkazadi. Yoki ikki kishining suhbatini kuzatib tursangiz, ular o'zi bilmagan holda xalq maqollarini qo'llaydi. Umuman, xalq maqollari xalqning qon-qoniga singib ketgan janr sanaladiki, undan voz kechishning imkoni yo'q. Xoh u ziyoli, xoh oddiy kishi bo'lsin, barchaning nutqida maqol foydalaniladi. O'z nutqida maqol qo'shib gapirish suhbatdoshni o'ziga jalb qilish bilan birga, fikrini tinglovchiga to'la tushuntirishga yordam beradi. Notiqlar, shoiru yozuvchilar, mashhur san'atkorlar, umuman, so'z san'ati bilan bog'liq kasb egasining nutqini tinglasak, ular nutqida maqollardan mohirlik bilan foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Xalqimizning

"Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan dono maqoli, o'ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi" [1]. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov nutqlarida ishlatilgan **"Bilagi zo'r birni, bilimi zo'r mingni yiqitar"** va **"Qush uyasida ko'rganini qiladi"** maqollari o'zbek xalqining ming yillik tajribasidan o'tgan iboralar hisoblanadiki, ular hozirda ham o'z qimmatini yo'qotganicha yo'q. Lekin ba'zi maqollar ham borki, u maqollar ba'zi bir kimsalar o'zining qilgan ishini to'g'rilash uchun to'qib chiqarilganga o'xshaydi. Bu holat davlat rahbarining nutqlarida ham ro'yiost ochib beriladi: **"Agarki e'tibor bersak, tilimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, "yo'lini topibdimi, qandini ursin", "uzumini yeng-u, bog'ini surishtirmang" degan maqollar ham borligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Albatta, bunday maqol-matallar bejiz paydo bo'lmagan, ular ham ma'lum bir haqiqatning ifodasi. Binobarin, biz hayotning ma'no-mazmunini shunday tushunib, shu asosda yashashga intiladigan kishilar ham borligini inkor etolmaymiz. Lo'nda qilib aytganda, bu o'rinda gap bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash haqida bormoqda"** [2]. Umuman olganda maqollar ma'lum bir voqea-hodisalar, kuzatishlar, tahlillar vositasida yuzaga kelib, yillar davomida sayqallanib boradi va xalq mulkiga aylanadi. Maqollarni istalgan kishi o'z nutqida bemalol qo'llashi mumkin.

To'g'ri, o'zbek xalq og'zaki ijodining bir bo'laki bo'lgan maqollar yuqorida ta'kidlanganidek, o'z-o'zidan paydo bo'lib yoki shunchaki yaratilmagan. Ana shu maqollarning zamirida yotgan ma'no va mazmun sathi qanchalik haqiqatga yaqinligini quyida ko'rib o'tish mumkin. Chunonchi, **"Boqsang – bog', boqmasang – tog'"** maqolini tahlilga olib ko'raylik, ya'ni bog'bon bog'ni bog' bo'lishi uchun ter to'kib mehnat qiladi. Ana shu mehnatlarning samarasi o'laroq ko'rkam bog' vujudga keladi. Agar bog'bon bog'ni mehr bilan parvarish qilmasa, tog'u toshda hech narsa o'smaganidek faqat toshdan iborat bo'lganligi sababli, barcha o'simliklar rivojlanishdan to'xtab, yaydoq yerligicha qoladi. Ana shu yaydoq yer yuqoridagi maqolda tog'u toshga qiyoslangan. Maqolning mohiyati faqatgina bog' va bog'bonga atalmaganga o'xshaydi. Masalan, ijtimoiy hayotda do'st, farzand tarbiyasi, mehnat, mehr-oqibat kabi obektlar ham borki, yuqoridagi maqolning qolipini ushbulardan har qaysi biriga qo'yib ko'rish mumkin. Ma'lumki, farzand tarbiyasi inson hayotining ajralmas bo'laki hisoblanadi. Farzand bir nihol. Uni mehr bilan parvarish qilsanggina, u ko'kalamzor bog'ga aylanadi. Bu o'rinda farzandning bog'ga aylanishi ham majoziy ma'noda, ya'ni yaxshi tarbiya ko'rgan farzand el-yurt o'rtasida izzatda bo'lishi hammaga ayon. O'z farzandining hurmat va izzatda ekanligidan huzurlanish, o'zi bunyod etgan bog'ning mevasi qay darajada totli ekanligini his qila bilishdir. Endi masalaning ikkinchi tomoniga e'tibor beraylik: **"Boqmasang – tog'"**. Bog'ga qarasangiz rohat olasizmi, toqqa qaraganingizdami? Albatta,

bog'ga qaraganimda, degan javobni olish tabiiy. Fahmlagan bo'lsangiz, tarbiya ko'rmagan farzandda axloq-odobdan darak beruvchi hech qanday ishora bo'lmaydi, ya'ni u toshlardan iborat toqqa qiyoslanyapti.

O'zbek xalq maqollarining qay mavzudagini yoki qay birini o'qisangiz, uning tag-zaminida yotgan asl ma'no bir taraflama emasligini tushunish mumkin. Maqollar orasida hayvonlar, qushlar, hasharotlar obraz qilib olinganligiga duch kelasiz.

“Bilimsiz mulladan, yuk ortilgan eshak yaxshi”, “Sigir o'zining buzoq bo'lganini bilmas” kabi xalq maqollari hayvonlar uchun yaratilmagan. Demak, bilimsiz mulladan yuk ortilgan eshak yaxshi maqolida, bilimsiz mulladan yuk ortilgan eshak afzalligi bilan yana qo'shimcha ma'no borki, maqolda eshak deyilmagan. O'ylab qaralganda bilimsiz odamdan foydasi tegadigan hayvon (it bo'lsa qo'riqlaydi, eshak bo'lsa yuk tashiydi, sigir bo'lsa sut beradi) afzalligi ta'kidlanmoqda. Bu gapda odam hech narsaga yaramaydigan oddiy bir narsa darajasida tushunilmayapti, aksincha, bir taraflama, ya'ni bilim jihatidan yordam bera olmagan eshak afzalroq, deyilmoqda. Endi keyingi maqolga e'tibor qilsak. **“Sigir o'zining buzoq bo'lganini bilmas”** maqolni o'z ma'noligicha oladigan bo'lsak, u quruq gapga aylanib qoladi. Axir sigir odam emaski, o'zining buzoqligini eslab, xuddi inson bolaligini eslagandek rohatlana olsa? Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, maqollarning ma'nosi anchagina keng. Ushbu maqol ham majoziy ma'noga ega bo'lgan maqoldir. Endi uning majoziy ma'nosiga e'tibor berish lozim. Odamlar orasida yuqori pog'onalarda ishlab faoliyat yuritayotganlardan, oddiy odamlardan tanish-bilishlarimiz ko'p. Ayni tahlilga olingan maqol yuqori mansablarga bosqichma-bosqich o'tmay oz muddat ichida mansabdor bo'lgan odamlarni kibrga berilib “osmon” bo'lib ketganidan o'zlari bexabar qolgan odamlarga qaratilgan. Bu yerda aytilmoqchi bo'lgan fikr jamiyatda shunday odamlar borki, **“Kecha kim edimu, bugun kim bo'ldim”** degan naqldan ancha yiroqdirlar. Avvalini unutib faqat buguni bilan yashayotgan, oyog'ining tagini ko'rmayotgan kishilar ushbu maqolga “nishon” bo'ladi. Maqol tahlil qilinganda masalaning yana bir tomoni e'tiborni tortadi. Maqolda majoziy ma'noni o'zida aks ettirgan “sigir” so'zining o'rnida nima uchun sher, yo'lbars, bo'ri, it kabi hayvonlar nomi ishlatilmagan, chunki hayvonlar orasida kaltafahm, befarosatlilik belgisi mollarda bo'lganligi uchun o'z “tarixini” unutgan odamlarga nisbatan ushbu maqol qo'llangan.

Dunyodagi boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqining ham madaniy qadriyatlarini, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharqning ma'naviy makonlaridan biri bo'lib xizmat qilgan. O'zbekiston hududi nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biridir. Insoniyat siviliza-tsiyasi-ning qadimgi markazlari paydo bo'lishi va rivojlanishida dehqonchilik madaniyati muhim rol o'ynagan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Sharq sivilizatsiyasida dehqonchilik madaniyatining shakllanishi va

rivojlanishi sug'orma dehqonchilikka asoslanganligi bilan ajralib turadi. Tarixiy tadqiqotlardan ma'lumki, qadimgi Misr va Mesopotamiyada miloddan avvalgi VII ming yilliklardan Hindiston, Eron va O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida miloddan avvalgi VI ming yillikdan boshlab insoniyat ilk dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlagan hamda dastlabki chorvachilikni yo'lga qo'ygan, ya'ni odat faqat tabiat in'omlarini o'zlashtirib qolmasdan, balki o'zi ham yaratuvchilik yo'liga kirgan [7.13]. O'z navbatida shuni ham aytish kerakki, dehqonchilik – o'zbeklarning qadimgi mashg'ulotlaridan biri hisoblangan. Asrlar davomida ko'plab dehqonchilik tajribasi va usullari, nozik fenologik kuzatishlar asosida o'ziga xos dehqonchilik an'analari va marosimlari shakllangan. Umuman olganda, dehqonchilik bilan bog'liq urf-odatlar, marosimlar xalq tafakkurining g'aroyib mo'jizalaridan biridir. O'zbek xalqi qadimdan bir necha asrlar davomida ularga amal qilgan, shu bilan birga, ularga taalluqli qoidalar, duolar, maqollar, aytimlar va alomatlarini ham yaratishgan.

Har bir dehqon o'z hayotiy tajribalari asosida mashg'ulot olib boradi. Avvalo ekin ekiladigan joy o'rganib chiqiladi: tuprog'i, suvi, ob-havosi, umuman qaysi ekin bu yerda yaxshi o'sishigacha barchasi o'rganiladi. Hattoki, bu yerda ilgari qaysi ekin ekilganigacha surishtiriladi. Agar shu yerga ilgari piyoz, sarimsoqpiyoz, kartoshka, umuman popuk ildizli ekinlar ekilgan bo'lsa, yer kuchsiz hisoblanadi. Shuning uchun bu yerga dehqon boshqa ekinni almashinib ekishni lozim topadi. Xalqning tajribalari, kuzatishlari natijasida bir-biridan purma'no, hikmatli, qimmatli, ibrat bo'larli maqollar qolganki, ular ham badiiyligi, ham hayotiyiligi bilan ajralib turadi:

**Bug'doy olaman desang, qovun polga ek,
Paxta olaman desang – jo'xori polga.**

Ushbu maqol dehqonning uzoq kuzatishlari natijasida vujudga kelgan. Chunki bug'doy sentabr-oktabr oylarida ekiladi. Bu paytda qovun ekilgan dalalar bo'shab qoladi. Maqollar xalq kuzatishlari va tajribalarining samarasidir. **“Bug'doy eksang, kuzda ek, Yaxshi haydab, bo'zga ek”** deyilganda har bir ekinning ekish payti bo'ladi. Bug'doy, piyoz kabi ekinlar kuzda, paxta, kartoshka, loviya, makkajo'xori kabi ekinlar esa bahorda ekiladi. Va allbatta, har bir ekin yaxshi haydalgan, bo'z yerda yaxshi o'sadi. Shu sababli, mana shu maqol aytiladi:

**Bug'doy eksang, kuzda ek,
Yaxshi haydab, bo'zga ek.**

**“Dehqon ishlab don sochar, Elga rizq yo'lin ochar”,
“Dehqon odam don sochar, El-yurtiga non sochar”** maqollarida keltirilganidek, dehqonlar erta bahordan to kech kuzgacha mehnat qilishgan. Va mehnatlar samarasi o'laroq halol non topib kun kechirishgan. Dehqonchilik yaxshi bo'lib, dehqon boy bo'lsa, to'kinchilik bo'ladi deyishadi. Chunki bozorlarimizni to'ldiradiganlar ham, qornimizni to'ydiradiganlar ham dehqon va bog'bonlarimizdir. Shuning uchun xalq bilib, **“Dehqon boy bo'lsa, xalq to'q bo'ladi”** maqolini o'ylab topmagan. Har bir kasbning o'z qiyinchiligi, o'z sir-asrori bo'ladi. Dehqonchilikning ham o'z sir-

sinoati borki, uzoq yillar davomida o'tmish avlodlar o'z tajribasidan o'tkazib, bu tajribani maqollarga aylantirgan. **“Yer tekis – hosil tekis”, “Yer – xazina, suv - gavhar”, “Yer – xamir, o'g'it - xamirturish”, “Suv – g'ozaning joni, o'g'it – uning darmoni”, “Suvdan –qatra, oftobdan – zarra”** kabi maqollarda dehqonchilikning yaxshi bo'lishi yer, suv, ob-havo va o'g'itga bog'liqligi aytib o'tiladi. Shuningdek, “maqollarda mehnat, ayniqsa, bir-biriga ko'maklashib, sheriklashib, kengashib qilingan mehnat serunum bo'ladi, bitmay qolmaydi, degan g'oya ilgari suriladi” [3.12]. Mehnat ulug'lanadi:

**Barvaqt qilingan harakat,
Hosilga berar barokat.**

**Daryo suvini bahor toshirar,
Odam qadrini mehnat oshirar.**

**Oltin o'tda bilinar.
Odam – mehnatda.**

Bunday mavzudagi maqollarda mehnat inson qadrini, hurmatini oshirishi aytib o'tiladi. **“Mehnat baxt**

keltirar”, “Mehnat kishini ulug'laydi”, “Mehnat – hurmatning toji”, “Obro' osmondan tushmas, Mehnatdan kelar”, “Mehnat – farog'at chirog'i” kabi maqollar davr va zamon sinovlaridan o'tib, hozirgi kunga qadar xalq tilidan tushmay kelmoqda. Xalq maqollarining mavzu doirasi juda keng bo'lib, ularda xalq hayotining aks etmagan biron sohasi yo'q. Chunki xalq o'z turmushining barcha jabhalari bo'yicha kuzatishlar hamda tajribalarini maqollar shaklida abadiylashtiradi va ularni shu shaklda kelgusi avlodga qoldiradi. Maqollarni qo'llashdan asosiy maqsad didaktika bo'lib, maqollar juda katta ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda maqollarning roli juda muhim.

Xulosa qilib aytganda, o'tmishda yaratilgan va ishlatilib kelinayotgan eng yaxshi maqollar, xalq donishmandligining namunasi sifatida hozir ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday maqollar hozirgi davrda yaratilgan va yaratilayotgan maqollar, matallar va xikmatli so'zlar qatorida ma'naviy boyligimizning qimmatbaho xazinasini tashkil etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek xalq maqollari (to'plovchi va nashrga tayyorlovchi: S.Xudoyberganov, M.Afzalov, S.Ibrohimov) – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – B.6.
2. Murodova M. Folklor va etnografiya. – T.: “Aloqachi”, 2008. – B.63.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: 1999. – B.6.
4. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk (1-tom). – Toshkent: “Fan”, 1960. – B.189.
5. Anorboyev A. O'zbekistonda ilk sug'orma dehqonchilikning shakllanishi va antropogen landshtafning tashkil topishi. // O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. – Toshkent: 2006. – B.13.

BAXSHI DOSTON KUYLASIN

Annotatsiya. Mazkur maqolada doston ijrochiligini rivojlantirish yo'lida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu san'atni saqlab qolish va yosh avlodga yetkazish jarayonidagi muammolar va ularning yechimi bo'yicha mulohazalar, 2022-yilda Termiz shahrida o'tkazilgan Respublika tanlovi natijalari misolida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: nomoddiy madaniy meros, dostonchilik, baxshi, ko'rik, tanlov, festival, ijro uslubi, oqin, jirov, cholg'u, do'mbira, qo'biz, bulamon, badiha, sozanda.

ПУСТЬ БАХШИ ПОЕТ ЭПОС

Аннотация. В настоящей статье рассматриваются усилия государства по развитию сказительского искусства, а также проблемы и рекомендации по их решению в процессе сохранения и передачи подрастающему поколению данного искусства через призму Республиканского конкурса сказителей, проведенного в городе Термезе в 2022 году.

Ключевые слова: нематериальное культурное наследие, сказительское искусство, бахши (сказитель), конкурс, смотр, фестиваль, окин (казахский сказитель), жиrow (каракалпакский сказитель), музыкальный инструмент, домбра, кобыз, буламан, импровизация, музыкант (исполнитель).

LET BAKHSHI SINGS THE EPIC

Annotation. This article discusses the efforts of the state to develop storytelling art, as well as problems and recommendations for solving them in the process of preserving and transferring this art to the younger generation through the prism of the Republican competition of storytellers held in the city of Termez in 2022.

Keywords: intangible cultural heritage, storytelling, bakhshi (storyteller), competition, review, festival, okin (Kazakh storyteller), jirawu (Karakalpak storyteller), musical instrument, dombra, kobyz, bulaman, improvisation, musician (performer).

So'nggi yillarda nomoddiy madaniy merosimizni muhofaza qilish, asrab-avaylash, targ'ib etish va yosh avlodga yetkazish yo'lida juda ko'p ishlar amalga oshirildi. 2018-yildan boshlab mamlakatimiz rahbarining shaxsiy tashabbusi bilan dostonchilik va baxshi san'atini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, maqom san'ati, milliy hunarmandchilik, folklor musiqa san'atini targ'ib etish maqsadida, birvarakayiga 4 ta xalqaro anjuman va festival tashkil etildi. Shu bilan bir qatorda hududlarga xos bo'lgan raqs san'ati, zargarlik va zardo'zlik, milliy taomlar tayyorlash san'ati va boshqa qator yo'nalishlar bo'yicha juda keng qamrovli xalqaro tadbirlar o'tkazilmoqda. Bu borada boshlangan ishlarni tizimli davom ettirish lozimligi ko'p bora mamlakat rahbari tomonidan ta'kidlanmoqda va ushbu maqsadlardagi xarajatlar uchun davlat byudjetidan zarur bo'lgan mablag'lar ajratib kelinmoqda. Mamlakatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan bunchalik darajada e'tibor qaratilayotgan sohalarda so'nggi yillarda qanday o'zgarishlar kuzatilmoqda? Berilayotgan e'tibor, moddiy va ma'naviy ko'makning ta'siri qay darajada sohalarning o'sishi va rivojlanishida o'z aksini topmoqda, degan savol tug'iladi.

Bundan bir yil muqaddam "Yangi O'zbekiston" gazetasida "Baxshi doston kuylasin" degan mavzuda maqola e'lon qilgan edik va unda Nukus shahrida o'tkazilgan Xalqaro baxshi san'ati festivali yakunlariga asoslangan holda baxshi ijrochilik san'atining rivojlanish tendensiyalari va kelajagini ta'minlash tamoyillari to'g'risida baholi qudrat mulohazalarimizni

bildirgan edik. Endi esa, Surxondaryoning Termiz shahrida tashkil etilgan "Baxshi, shoir, oqin va jirovlarning Respublika festivali" taassurotlari va natijalariga asoslangan holda malakatimizda baxshi ijrochilik san'atining bugungi kundagi ahvoli to'g'risida o'z fikr-mulohazalarimiz bilan o'rtoqlashishni lozim deb topdik.

Bizning nazarimizda, baxshi va dostonchilik san'atini saqlab qolish va rivojlantirishdan ko'zlangan eng asosiy maqsad – baxshilarning sonini ko'paytirishda emas, balki doston ijrochilarining soni va dostonlar ko'lamini kengaytirish, shuningdek, bu san'atning xalq ichida yana uzoq yillar saqlanib qolishi va yoshlarning ma'naviy tarbiyasida asosiy qurollardan biriga aylanishi, shu bilan bir qatorda, doston va terma ijrochilarining ijro saviyasini orttirishda ko'rinadi. Ana shu ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida tizimli olib borilayotgan ishlar qatorida turli bosqichlarga ega bo'lgan tanlov va festivallarni tashkil etish ham muhim o'rin tutadi. Chunki, ushbu ommaviy tadbirlarda sohada yangi paydo bo'layotgan iste'dodlar kashf etiladi, tajriba almashinadi, sohani rivojlantirish bo'yicha strategiya va taktikalari ishlab chiqiladi. Va eng asosiysi, eng yuqori saviyadagi ijrochilar munosib taqdirlanib, ularning san'ati targ'ib etiladi.

2022-yilda mazkur festival doirasida o'tkazilgan Respublika tanlovida bu ishlar qanday amalga oshirildi, nima yangiliklar joriy etildi va qanday natijalarga erishildi, qolaversa, bu ishlar baxshi san'atining kelajakdagi rivojiga qanday ta'sir etishi

kutilmoqda? Shu masalalar bo'yicha sizlar bilan o'rtoqlashsak.

Avvalo, ushbu festivalni tashkil etgan Madaniyat vazirligi va Surxondaryo viloyati hokimligiga Respublika festivalini tashkil etishdagi tizimli ishlar uchun minnatdorchilik bildirish lozim. Chunki bu festivalga taklif etilgan barcha tashkiliy qo'mita, hakamlar hay'ati, mehmonlar va ishtirokchilarning barchasi (surxondaryoliklardan tashqari) yo'l, mehmonxona va ovqatlanish xarajatlari bilan to'laligicha tashkilotchilar tomonidan qoplandi. Ochig'ini aytsak, shu kungacha o'tkazilgan Respublika festivallarining barchasida bu xarajatlarning asosiy qismi festivalga yo'llovchi tashkilotlar yoki ishtirokchilarning o'zi tomonidan qoplanib kelinar edi. Ayniqsa, oldingi o'tkazilgan tadbirlardan farqli ravishda barcha ishtirokchilar joylardagi kollejar yotoqxonasiga emas, balki zamonaviy mehmonxonalarga joylashtirilganligi, ular uchun tayyorlangan taomlarning sifati e'tiborga molik.

Bu festivalda yana bir muhim narsaga katta e'tibor qaratildi. Ya'ni festival ishtirokchilarini baholash tizimi yanada takomillashtirilib, shaffoflik darajasi yanada orttirildi. E'tibor beradigan bo'lsak, muqaddam o'tkazilgan barcha ko'rik va tanlovlarda ishtirokchilarning chiqishlari, ularning o'zi tayyorlab kelgan dostonlardan parcha va yod olgan termalarni ijro etish darajasiga qarab baholangan. 2019-yil Termizda o'tkazilgan Xalqaro baxshi san'ati festivali doirasida Respublika baxshi, shoir, oqin va jirovlarining Respublika ko'rik-tanlovi ham o'tkazilgan edi. Ana shu tanlovda hakamlar hay'ati tomonidan tanlovni bitta doston asosida o'tkazish tajribasi sinab ko'rilib, Surxondaryo va Qashqadaryo ijro yo'nalishidagi qatnashuvchilar "Alpomish" dostoni, Xorazm va Qoraqalpog'iston baxshilari "Oshiq G'arib va Shoxsanam" dostoni, qoraqalpog'istonlik jirovlar esa "Edigey" dostonidan parchalar ijro etishi asosida baholangan edi. Tanlov talablaridagi bu o'zgarish 2021-yilda Nukus shahrida Xalqaro baxshi san'ati festivali doirasida o'tkazilgan Respublika tanlovida yanada rivojlantirilib, tanlov uchun tanlangan dostonlarga qo'shimcha ravishda ijro etiladigan termalarga mavzu berish (hakamlar hay'ati yoki ishtirokchilar tomonidan) ham sinab ko'rigan edi. Termizda bo'lib o'tgan Respublika tanlovida ushbu tajribalar umumlashtirilib, ishtirokchilarni baholashning shaffof tizimi oxiriga yetkazildi. Ya'ni mutaxassislar va xalq baxshilarini jalb etgan holda ushbu tanlovda qaysi ijro uslublari bo'yicha qatnashadigan ishtirokchilarga qaysi dostonni tanlash hal qilindi. Shundan keyin, o'sha dostonlarning syujetida eng muhim deb sanalgan qismlar asosida 24 tadan savollar ishlab chiqildi. Mutaxassislarning fikricha, mana shu savollarga javob bera oladigan ishtirokchi o'sha dostonlarni to'liq bilishini isbotlay oldi, deyish mumkin ekan. Bizga ma'lumki, Qoraqalpoq va Xorazm baxshilaridan farqli ravishda, Surxondaryo va Qashqadaryo ijrochilik uslubida ijod qiladigan baxshilar dostonlarni so'ma-so'z yodlamaydilar. Ular uchun syujetning buzilmasligi muhim. Bir dostonni

ikkinchi marta ijro etishda ijro joyi, shart-sharoit, tinglovchilarning yoshi va tarkibiga qarab badihago'ylik asosida ma'lum joyini kengaytirib, bo'rttirib, boshqa joylarini qisqaroq ijro etib ketaverishadi. Buning uchun baxshida voqelikni bayon etish shakllaridagi – so'zlab berish, saj va she'r to'qish san'ati juda yuqori bo'lishi kerak va bu mahorat ilmiy tilda badihago'ylik (improvizatsiya) deyiladi. Demak, Surxondaryo va Qashqadaryo ijro uslubidagi baxshilar soz (do'mbira) chalish, qo'shiq aytilish, aktyorlik mahoratidan tashqari badihago'y ham bo'lishi shart. Badihago'ylikning darajasini aniqlash uchun esa ishtirokchiga mavzu berish va shu mavzuda ma'lum muddat ichida o'zi to'qigan she'rini do'mbira jo'rligida kuylashini kuzatish kerak bo'ladi. Mazkur tanlovda ishtirokchilarning badihasini baholash maqsadida, mutaxassislar ishtirokida 30 ta mavzu tanlandi. Bunga ko'ra har bitta ishtirokchi biletlar asosida, avval, dostonning qaysi qismidan parcha ijro etishi bo'yicha keyin esa terma mavzusi bo'yicha savollarni tanlab, keyin sahnaga yo'l oldi. Shu dostonni bilmaydigan yoki chala biladiganlar faqat terma ijro etishga va dostonni bilmasliklarini tan olishga majbur bo'lishdi.

Tanlovni bitta doston asosida o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad, baxshilarni dostonlarni yodlashga safarbar etish, termalarga mavzu berishdan ko'zlangan maqsad esa, ularda badihago'ylik sifatlarini oshirish ekanligini hamma tushunadi. Ochig'ini aytsak, do'mbira ko'targanning hammasi baxshi emas, doston va unga qo'shib terma kuylagan odam baxshi deyilishi kerak. Yurtimizning zabardast dostonchisi Qodir baxshi 70 dan ortiq dostonni yoddan ayta olgan. Yaqindagina oramizdan ketgan O'zbekiston xalq baxshisi, I xalqaro baxshi san'ati festivali g'oliblaridan biri Abdunazar Poyonov 20 dan ortiq dostonni yoddan bilardi. Hozirgi kunda o'zidan so'rasangiz: 30 ta 40 ta dostonni bilaman, deyidigan nomlarini so'rasangiz: 10-15 tadan ortig'ini sanab berolmaydigan ko'plab baxshilarimiz bor. Respublika bosqichlarida ishtirok etayotgan va birorta ham dostonni to'liq bilmaydigan, yana o'rin talashib to'polon qiladigan "baxshi"larni qanday tarbiyalash mumkin?! Fikrimizcha, agar har yili o'tkaziladigan Respublika tanlovlarida har yili bittadan doston tanlanadigan bo'lsa, har bitta ijro uslubidagi baxshi va jirovlar 10 yilda 10 ta dostonni yodlashga majbur bo'lishadi. Agar ikki yilda bitta doston tanlansa, 5 tadan dostonni yodlaydi. Bu esa O'zbekiston hududi bo'yicha bir yilda kamida 20 ta yoki 40 ta doston degani (Surxondaryo va Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpog'istonning baqsilari va jirovlari alohida ijro uslubini tashkil etadi).

Nomoddiy madaniy merosning muhim sohalaridan hisoblangan "Ijro san'ati" yo'nalishidagi barcha janrlarda shakl va mazmun birligi mavjud. Doston ijrochiligi va terma ijrochiligi ham bundan mustasno emas. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, tinglovchiga yetib boradigan tayyor mahsulot shakl va mazmunning sifatiga bog'liq. Masalan, doston ijrochiligida do'mbira, unda chalinadigan uslublari, aytiladigan saj va she'rlarning kuyga solib ijro etilishi shakl bo'lsa,

kuyning ta'sirchanligi, aytilayotgan matnga mos kelishi, voqelikni yanada bo'rttirib ko'rsatish xususiyati, shuningdek, aytilayotgan hikoya, saj va she'rlarning bir tizimga bog'langanligi va mantiqiy davomiyligi mazmun hisoblanadi. Shuningdek, dostonlarga xos bo'lgan saj san'atida bayon etiladigan voqealarning hamda qo'shiq qilib aytiladigan she'rlarning bo'g'inlari va qofiyasi ham aslida shakl bo'lsa-da, mazmunga to'g'ri xizmat qilishi juda muhim narsa. Shuning uchun ham ishtirokchilarni baholashda ham shakl, ham mazmunga alohida e'tibor talab etiladi. Ana shu talablardan kelib chiqib, ishtirokchilarning soz ijrosi, qo'shiq ijrochilik mahorati, dostonidan parcha va terma ijrolari, shuningdek, ularning sahna va aktyorlik mahoratlari alohida ballar qo'yilishi asosida umumiy ballari aniqlandi. Ijrochilarning ba'zilarida mazmun juda yaxshi bo'lgani holda shakl unchalik yaxshi bo'lmasligi (aytayotgan parcha va termaning mazmuni juda yaxshi bo'lgani holda do'mbira chalish va qo'shiq aytish mahorati bo'sh bo'lishi) mumkin. Boshqalarda esa aksincha. Soz va qo'shiq ijrosi juda yaxshi, biroq mazmun juda sayoz bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tegishli talablarga ajratilgan ballarni pasaytirish va ko'tarish orqali obyektiv baholashga harakat qilindi.

Endi, mamlakatimiz hududidagi bir-biridan farqlanuvchi 4 ta ijro uslublarini baholash xususida. Ma'lumki, O'zbekiston hududida doston ijrochiligining turlicha ijro usublari shakllangan va ularni bir xil baholab bo'lmaydi. Ya'ni birinchi o'rinni jirovga, ikkinchi o'rinni baxshiga, uchinchi o'rinni oqinga berish mumkin emas. Sababi, ularni solishtirish faqat o'z yo'nalishi doirasidagina bo'lishi mumkin. Shuning uchun, navbatdagi o'tkaziladigan tanlovlarning nizomini ishlab chiqishda mana shu ijro uslublariga alohida o'rinlar va nominatsiyalar berilishiga e'tibor qaratilishi shart. Mamlakatimiz hududidagi barcha ijro uslublarida ijro jarayonida baxshining o'zi cholg'u chalishi, Xorazm va Qoraqalpog'iston ijro uslublarida esa ijro jarayonida qo'shimcha sozandalar ishtirok etishi kuzatiladi. Hakamlar hay'ati a'zolarining fikricha, sozandalik yo'nalishi ham alohida Nizomga kiritilishi va alohida baholanishi kerak, degan mulohazalar mavjud.

Shu o'rinda, tanlovning kashfiyotlari masalasida ikki og'iz so'z. Ushbu o'tgan tanlov 18 yoshdan yuqori yoshdagi baxshi, jirov va oqinlar ishtirokida o'tkazildi. Tanlovlarda ishtirok etib, sovrin olmagan ba'zi ishtirokchilar o'tgan bir yil mobaynida o'z ustida ishlab, ijro mahoratini yanada sayqallashtirish qatorida mazmunga ham alohida yondoshganligi, dostonlarni yaxshi o'zlashtirganliklarini namoyish etishdi. Bunga misol sifatida surxondaryolik Zulxumor Shernazarova va Hamza Xolboyevlarni ko'rsatish mumkin. Ishtirokchilar orasida oliy ta'lim muassasalarining folklor va doston ijrochiligi bo'limlarida tahsil olayotgan talabalar va yosh o'qituvchilarning ishtiroki, ayniqsa e'tiborga molik. Ularning chiqishlari juda mukammal bo'lmasa-da, parchalarni va termalarni kuylashda, o'z so'zlarini aytishda, fikr mulohazalarida ta'lim muassasalarida olayotgan bilimlari sezilib turibdi.

Tanlov davomida ayrim ishtirokchilarning e'tirozi ham bo'ldi. Ya'ni tanlov Nizomida ushbu yilgi tanlov qaysi doston asosida bo'lishi aniq-ravshan ko'rsatilmaganligi, ular o'zlari boshqa dostonga tayyorlanganliklarini aytishdi. Biroq tanlov Nizomida bir qator dostonlar va shular jumlasida, tegishli doston ham mavjudlini aytish bilan ularning e'tiroziga javob bera oldik. Fikrimizcha, har bitta yo'nalishga navbatdagi tanlovda qaysi dostonlar qo'yilishi avvaldan e'lon qilinsa, bunday e'tirozlar bo'lmas edi. E'tirozchilardan biri samarqanlik Shavkat Bobomurod bizning oldimizga kelib: *"Nima endi biz tanlovda ishtirok eta olmaymizmi"*, – deya savol berdi. Biz unga, *"Ravshanxon"* dostonini o'qib chiqish yoki ijtimoiy tarmoqlardagi ijrolaridan birini eshitib tayyorlanishi mumkinligini, qolaversa, dostonidan parcha ijro etib berolmasa, terma ijrosi va boshqa talablar asosida baholanishi mumkinligini aytdik.

Shavkat baxshining navbati kelib, doston parchasini tanlash paytida u bizga minnatdorchiilik bildirdi: *"Men, ochig'i bitta dostonni bir oylab o'rganishga odatlangan edim. Biroq sizlar ishlab chiqqan tizim sababli, "Ravshanxon" dostonini yarim kundan ham kam vaqtda o'rgandim. Men doston syujetini to'liq o'tgandim va sizlar tuzgan savolga baholi qudrat javob berishga tayyorman"*, – dedi. U o'zi tanlagan raqam ostidagi parchani bilishini va termani ham aytishini ma'lum qilib, sahnaga yo'l oldi. Hakamlar hay'ati a'zolarining bildirgan fikriga ko'ra, Shavkat Bobomurod aytgan dostonidan parcha va termasining matnida birorta ham mazmun va shakl jihatidan kamchilik va xato yo'q. Biroq uning ovozi va cholg'u chalishida kamchiliklar kuzatiladi. Ana shu jihatlarni hisobga olgan holda, mazkur tanlovning eng katta kashfiyoti sifatida Shavkat baxshi Bobomurodovga *"Eng yaxshi ijodkor baxshi"* nominatsiyasi berilib, televizor bilan taqdirlandi.

Endigi so'z dostonchiligimizning kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash jarayonlari to'g'risida. Baxshi san'atini rivojlantirish strategiyasining muhim yo'nalishi bo'lgan an'anaviy va zamonaviy ta'lim orqali yosh baxshi va jirovlarni tarbiyalash maqsadida, Termiz va Nukus shaharida maxsus maktab-internatlar ochildi, respublikamizning baxshi ijrochilik san'ati rivojlangan hududlarida faoliyat ko'rsatayotgan bolalar musiqa va san'at maktablarida baxshi san'ati bo'limlari ochilib, yuzlab yosh avlod dostonchilik san'atini o'zlashtirishga harakat qilib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda, musiqiy ta'limning o'rta bo'g'inini hisoblangan madaniyat va san'at maxsus maktablarida ham folklor san'ati, dostonchilik yoki baxshi san'ati bo'limlarida o'quv jarayonlari tashkil etilgan. Yunus Rajabiy nomidagi milliy musiqa san'ati institutida esa oliy ma'lumotli doston ijrochilari –baxshilarni tayyorlaydigan maxsus yo'nalish o'z faolitini davom ettirmoqda. Bolalar musiqa va san'at maktablari, maxsus maktablar va maktab-internatlarda pedagogik faoliyat bilan joylardagi xalq baxshilari, tajribali professional baxshilar shug'ullanishi juda quvonarli holat. Biroq ularning shogirdlarga cholg'u ijrochiligi va doston ijrochiligi bo'yicha berayotgan

bilimlari nimaga asoslangan? Qay darajada o‘quvchilarning yoshi va ovoz xususiyatlariga mos keladi? Bu masalalar alohida o‘rganilishi va umumiy strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Bu yerdagi asosiy muammolardan biri – bolalar ijrosiga mo‘ljallangan maxsus repertuarining umuman mavjud emasligida. Ya‘ni, bolalarga kattalar ijro etadigan dostonlar va ulardan parchalar o‘rgatilmoqda. Fikrimizcha, bolalar shoirlariga o‘xshab bolalar dostonlarini yaratuvchi mutaxassislar kerak. Ular xalq ertaklari, afsonalari va rivoyatlari asosida bolalar ijro etishi mumkin bo‘lgan mavzularda, o‘zimizda shakllangan bayon uslubida yangi dostonlarni yaratib berishi uchun sharoit yaratilishi kerak. Dostonni faqat baxshilar emas, balki dostonchilik sirlaridan xabardor bo‘lgan Shavkat Bobomurodga o‘xshagan shoirlar ham yaratishi mumkin. Buning uchun mavzular asosida, eng yaxshi bolalar dostonini yaratish bo‘yicha tanlov e‘lon qilinishi mumkin. Bu tanlov orqali bir qator yangi dostonlar yaratilib, keyinchalik ulardan ta‘lim tizimida foydalanish mumkin bo‘ladi. Agar lozim bo‘lsa, shu yaratilgan yangi dostonlarning she‘rlariga yangi musiqa bastalab yoki dostonlardagi musiqalardan foydalanib, dostonlarning audio variantlarini, joiz bo‘lsa musiqala notalarini ham chop etish mumkin. Bu harakatlar orqali bolalar doston ijrochilik ta‘limidagi mavjud bo‘shliqni to‘ldirish mumkin.

Bundan tashqari, cholg‘u ijrochiligi, ayniqsa, do‘mbira ijrochiligida maxsus adabiyotlar va nota ma‘lumotlari umuman mavjud emas. Zero, baxshilar o‘z do‘mbirasi bilan nafaqat o‘z qo‘shiqlariga jo‘r bo‘lishadi, balki alohida kuylarni ham chertib, o‘z terma va dostonlarini boyitishadi. Bunday sharoitga tayyor bo‘lish uchun bo‘lajak baxshilar do‘mbira kuylarini ham o‘zlashtirishi kerak. Demak, maxsus baxshi san‘ati maktab-internati tarbiyalanuvchilari, bolalar musiqa va san‘at maktablarining dostonchilik bo‘limlari hamda boshqa ta‘lim muassasalarining o‘quvchilariga mo‘ljallangan maxsus do‘mbira kuylari to‘plamlari va ularning audio variantlari ishlab chiqilishi va nashr etilishi lozim bo‘ladi.

Xullas, Shavkat shoirning so‘zi bilan aytganda:

***Obod bo‘lib el yana,
Ochilmoqda yo‘l yana,
So‘z topadi til yana,
Sayra-sayra, do‘mbiram,
Yayra-yayra, do‘mbiram.***

***Elning ko‘ngli shod bugun,
Yurtimiz obod bugun,
Ustozlar ham yod bugun,
Sayra-sayra, do‘mbiram,
Yayra-yayra, do‘mbiram.***

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2017.
2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – T.: “Fan”, 1979.
3. Murodova M. Folklor va etnografiya. – T.: “Aloqachi”, 2008
4. Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: “O‘zbekiston”, 2012.
5. Tadqiqotlar (2-kitob). Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni. – T.: “Fan”, 1971.

KINOOPERATORLIK SAN'TINING SHAKLLANISH OMILLARI VA BADIY EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola o'zbek kinooperatorlik san'atining tarixi, uning ilk davrlarida yaratilgan kinooperatorlik san'atida badiiy va hujjatli filmlar, ularning badiiy sifati, mazkur filmlarni operator kamera va obyektiv yordamida ijod qilib, ssenarist, rassom, rejissor g'oyasini va aktyor fiziologik-ruhiy holatini tomoshabinga yetkazib beradi. Shu bilan birga, maqolada o'zbek kinooperatorlik san'ati o'zbek kinosi rivoji uchun ahamiyati to'g'risida ilmiy asoslangan fikrlar bildirilib, o'zgarishlar va ularning mohiyati haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: operator, san'at, tarix, obyektiv, fotokamera, rang, yorug'lik, kompozitsiya, simmetriya, kino, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, badiiylik, tasviriy yechim.

ФАКТОРЫ СТАНОВЛЕНИЯ КИНЕМАТОГРАФИЧЕСКОГО ИСКУССТВА И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ЭВОЛЮЦИЯ

Аннотация. Данная научная статья посвящена истории узбекского кинооператорского искусства, художественных и документальных фильмов, созданных в первые годы его существования, их художественному качеству, оператор создает эти фильмы с помощью камеры и объектива, передает зрителю идею сценариста, художника, режиссера и физиологическое состояние актера. Вместе с тем, в статье высказываются научно обоснованные мнения о значении узбекского кинооператорского искусства для развития узбекского кино.

Ключевые слова: оператор, искусство, история, объектив, фотоаппарат, цвет, свет, композиция, симметрия, кино, школа кинооператоров, креатив, искусство, графическое решение.

FACTORS OF THE FORMATION OF CINEMATOGRAPHIC ART AND ARTISTIC EVOLUTION

Annotation. This scientific article is devoted to the history of Uzbek cinematography, feature films and documentaries created in the early years of its existence, their artistic quality, the operator creates these films using a camera and lens, transmits to the viewer the idea of the screenwriter, artist, director and the physiological state of the actor. At the same time, the article expresses scientifically grounded opinions on the importance of Uzbek cinematography for the development of Uzbek cinema.

Keywords: cinematography, art, history, Object, Camera, color, light, composition, Symmetry, cinema, School of cinematography, creativity, art, graphic solution.

Yurtimizda so'nggi yillarda milliy kinematografning jamiyat hayotidagi roli tobora kengayib bormoqda. Jahon kinoindustriyasiga dadil kirib borishda badiiy va texnikimkoniyatlar darajasini oshirish, mustahkamlash, rivojlantirish ishlari jadallashmoqda. "Mamlakatimizda keyingi paytda barcha sohalar qatori kinematografiya tizimi rivojiga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ijod erkinligi, sog'lom ijodiy raqobat, xususiy mulk daxlsizligi kabi demokratik tamoyillar ushbu sohaga ham dadil joriy etilmoqda. Kinostudiyalarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, ularga imtiyoz va preferensiyalar berish, yuksak didli tomoshabinlarning talablariga javob beradigan badiiy yetuk kartinalar yaratish, jamiyatimizda kino san'atini keng ommalashtirish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda"¹. Bu borada milliy kinematograf tayanch asosini tashkil etuvchi badiiy-estetik, texnik-texnologik omillarni tadqiq etish va bunda tasvir mahorati shakllanishi hamda rivojlanish

mezonlarini ilmiy o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kino san'atida ssenarist, aktyor va rejissor mahoratining o'zi kamlik qiladi, u – sanoat, ishlab chiqarish bilan ham bog'liq bo'lib, tyexnika, moddiy uskunalar, kinoplyonkalarni talab etadi. Film yaratilishida kinossenarist, rejissor, rassom, aktyor mahorati kinooperator san'ati orqali tasvirga tushadi, kinokamera vositasida jonlanadi. Shu tariqa kinooperatorning roli kengayib, u rejissorning hammuallifi, talqinchisi, ijodiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Har qanday film tasvirdan tashkil topadi va uning vositasida tomoshabinga emotsional va estyetik ta'sir ko'rsatadi. Bu borada kinooperator mahorati nihoyatda muhimdir.

Kinooperatorlikning nazariy manbalari va xususiyatlari xorijiy kinoshunoslar ishlarida ham tadqiq qilingan. Amerika kinoshunosi Jorj Sadul, an'anaviy san'at turlaridan farqli o'laroq, kino tyexnika bazasiga bog'liq bo'lgan sanoat ekanligini ta'kidlab, har qanday filmni dunyoga kelishi nafaqat ijodiy, balki tyexnik-tyexnologik jarayonni taqozo etishiga alohida urg'u beradi. J.Sadul jahon kinosi tarixini bosqichli xarakterini kuzatganida davriylashtirish amaliyotini tyexnik-tyexnologik jarayon bilan muvofiqlikda belgilaydi va bosib o'tilgan tarixiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyovning "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021-yil, 28-sentabr.

bosqichlarini olti davrga ajratadi. Ular quyidagilardir: **“Birinch davr** – kashfiyotlar davri bo'lib, 1832-yildan 1896-yilga qadar davom etadi. Bu davrning xususiyati kinoapparatning kashf etilishi bilan bog'liq. **Ikkinchi davr** (1895–1908) – kino sanoatning tashkil topishi va unga bog'liq tarzda kino san'ati asoslarining paydo bo'lishi. **Uchinchi davr** (birinchi jahon urushi tugaganigacha qadar) – kinoning san'at sifatida shakllanib, uning yirik sanoat tizimi mustahkamlanishi. **To'rtinchi davr** – ovozsiz kino davri. **Beshinchi davr** – ovozli kino davri boshlanib, ikkinchi jahon urushi boshlariga qadar bo'lgan oraliqni qamrab oladi. **Oltinchi davr** – ikkinchi jahon urushidan keyin to shu kungacha davom etadi². Ko'rinib turibdiki, har bir bosqich ijodiy-texnologik xususiyat bilan bog'liqlikda kechib, kinoning boshqa san'at turlaridan ajralib turuvchi spetsifikasini aks ettiradi.

Tasvir – film uslubining asosi, tarkibiy qismidir. Har qanday filmda uslubni to'g'ri belgilash badiiy yaxlitlikka erishish mezonini bo'lib, asarning ta'sir kuchi va tomoshaviyligini ta'minlashga zamin yaratadi. Bunga ko'ra film tilining ifoda uslubi nafaqat nazariy, balki badiiy amaliyotining ham bosh masalasi sanaladi.

Kinooperatorlik tarixi – kinematografik tilning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanish tarixi hamdir. Kinematografiya evolyusiyasini tadqiq etish uning tasviriy shaklini ham chuqur o'rganishni taqozo etadi, zero tasvir nafaqat ekranda ro'y berayotgan voqealarning jo'n illyustratsiyasi, balki badiiy film g'oyasi, mazmun-mohiyatini ochib beruvchi ifoda tili sanaladi.

Kinoshunos B.Balash kino asosi bo'lmish tasvirga baho berarkan, bunday deydi: *“Film tasvirni aks ettirmaydi, balki uni yaratadi, ijro etadi. Bunda operatorning “ko'rish iqtidori” hamma narsani hal qilib, bu uning ekrandagi kinoprojektsiyada o'z ifodasini topadigan badiiy ijodi, individualligi ifodasidir. Tez o'zgaruvchan ifodaviy vositalar kameraning har gal yangi ma'lumot beruvchi, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi syemka burilishlarining muttasillikdagi harakatiga asoslanadi. Bular yangi bilim, yangi mavzu, yangi mazmun, yangi materialdir. Bu san'at falsafiy nuqtai nazaridan shunday fikr uyg'otadiki, kino badiiy asar xususiyatidan kelib chiqib, nimani va qanday ko'rsatish hamda shu tariqa tomoshabinning ong-u hissiyatiga ta'sir qilish, estetik kechinmasi mazmunini ifodalaydi. Tomoshabin voqelikni ichida paydo bo'ladi. Endi unga qahramon nimani ko'nglidan o'tkazayotganini aytib o'tirishi shart emas, uning ko'zlari, nigohida hammasini uqib olish mumkin”³.*

Adabiyotda so'zning o'rni qay darajada bo'lsa, kinoda ham tasvirning o'rnini shunday baholash mumkin. Ya'ni adabiyot so'zlar majmuasidan, kino esa kadrlar kompozitsiyasidan tashkil topadi. Kinokadr asosi harakatdan iborat bo'lib, uning tasviriy san'at

va fotografiyadan farqlanishi ham mana shunda edi. Kinematografik kadr tasviriy san'atdan harakatlanuvchi badiiy obrazni yaratish jihatiga ko'ra, fotografiyadan esa kompozitsion jonliligiga ko'ra ajralib turadi.

Kinooperatorlik faoliyati – o'ta mas'uliyatli kasb hamdir. Zero, har qanday filmning suratga olinishida rejissor dastlab dramaturgiyaga asoslanib, filmning plastik obrazini o'ylaydi, uning rejasidan kelib chiqqan rassom naturani tanlab, liboslar, dekoratsiyalar yaratadi. Aktyorlar esa butun qalb qo'ri, his-tuyg'ulari, kuch-qudratini berib, o'z qahramonini jonlantiradi. Bularning barchasi operator tasviridagi oniy lahzalarda muhurlanadi. Rang, yorug'lik va faktura kabi tasviriy ifoda vositalari orqali o'z aksini topadi. Shu bois butun jamoa mehnati mahsuli oldida operatorning xato qilishga mutlaq haqqi yo'q. Bu borada A.Ismoilov kitobida ingliz kinoshunosi R.Arnxeymdan olingan iqtibos ayni fikrimizning isboti bo'la oladi: *“Rejissyor va ssenarist a'lo darajada kadr tanlashi mumkin, ammo operator kamera uchun yetarli tarzda joy tanlamasa yoki keragidan o'n besh santimetr tepada yo aksincha pastda o'rnatasa yoki bo'lmasa obyektiv uchun o'ziga mos fokus oralig'ini topmasa, unda olingan kadrda perspektivaning ta'sir kuchi aks etmaydi, rejissorning g'oyasi tomoshabinga yetib bormaydi. Bundan tashqari yoritish asboblarini ham to'g'ri joylashtirish nihoyatda muhimki, orqa planga kuchliroq chiroq qo'yish yoki old plan markaziga yo'naltirilgan nim yorug'likni ortiqcha yaqinlashtirish kadrni tubdan o'zgartirib yuborishi va o'ylangan effektini puchga chiqarishi turgan gap”⁴.*

Insonning fiziologik, ruhiy va emotsional faoliyatidan kelib chiqib, masofadan turib tasvir yaratishga bo'lgan intilishi antik davrlardan boshlangan. Shu o'rinda fotoapparatning o'tmishdoshi bo'lgan *“kamera-obskura” fenomenini eslab o'tish joiz. Lotin tilidan olingan bu termin ma'nosi “qorong'i xona”* degan mazmunni beradi. Unga ko'ra quyoshli kunda qorong'i xonada o'tirib, darpardadan kichkina teshik ochilsa, ro'paradagi oq devorda tashqaridagi tasvir, jumladan, harakatlanayotgan odamlar yoki turg'un predmetlar aks holatida ko'rinadi. Bu hodisot grek va arab olimlari tomonidan ham o'rganilgani umumiy tarzda manbalarda ta'kidlanadi. Ammo *“Kamera-obskura”ning imkoniyatlari keng doiralarda tahliliy kuzatilmadi, bunga darparda teshigining kichikligidan ko'rinish xiraligi, uni kattalashtirish esa tasvirni chaplanib ketishiga olib kelishi, xonaning qop-qorong'i bo'lishi, ko'zning unga moslashishi zarurligi ham sabab bo'lgan edi. XV asr oxirlariga kelib, u Leonardo do Vinchi tomonidan tasviriy san'atda proporsiyalarni to'laqonli yaratish nuqtai nazaridan o'rganildi va “kamera-obskura” degan asbob chizmasi yaratildi. Unda katta qutining bir tomoni teshilib, ikkinchi tomoniga linza o'rnatiladi va shu tariqa kirayotgan nurning qaytarilishidan orqadagi obyekt o'z aksini topadi. O'rta asr rassomlari peyzaj yoki portretlar yaratishda “kamera-obskura”dan keng foydalanishgan, u turli hajmlarda paydo bo'la boshlagan. Muhimi shuki, oradan vaqtlar o'tib XIX asrga kelganda, fransuz va ingliz olimlari fotografiyaga asos solganlarida yana obyektivga linza o'rnatish prinsipini qo'llagan edilar.*

Kinooperatorlik sohasida rang fenomeni oddiy tushuncha bo'lmay, birmuncha murakkab vositadir. Rangning negizida obyektivlik-nur va subyektivlik-

² Садуль Ж. История киноискусства. От его зарождения до наших дней. Пер. с фран. – Москва: Иностранная литература, 1957. – С.17.

³ Бела Балаш. Кино: становление и сущность нового искусства. Пер. с нем. – М.: “Прогресс”, 1968. – С.19

⁴ Исмаилов А. Кинотелеоператорское мастерство. – Ташкент: УзДСМИ, 2004. – С.9.

ko'rish kabi bir-biri bilan bog'liq omillardir. Bu borada faqatgina nur dunyo muhitining rang-barangligini yaratadi. Ranglarning ruhiy-emotsional vazifasi va badiiy-estetik funksiyasini idrok etish kinooperatorlik kasbining o'zagini tashkil etadi. Zero, kinasvir negizi tasviriy san'atning rang, nur va soya uyg'unligi qonuniyati bilan bog'lanib ketadi. Shu bois an'anaviy san'atlar orasida yangi tur – kino san'atining paydo bo'lishi, kinokameraning kashf etilishi, tasvirni masofadan turib uzatish amaliyoti tasodifiy bo'lmay, tabiiy ruhiy-emotsional zaruriyatdan kelib chiqqan badiiy hodisa edi.

Tarixdan ma'lumki, harakatlanuvchi suratlarining yorug'likdagi proyeksiyasini yaratish borasidagi ko'plab tajribalar orasida, 1891-yil Tomas Edison laboratoriyasida Uilyam Dikson tomonidan yaratilgan apparat e'tiborli bo'ldi. "Kinetograf" deb nomlangan bu apparatdagi tasvirni "Kinetoskop" moslamasi orqali ko'rish mumkin edi. Moslamadagi maxsus okulyar⁵ harakatlanuvchi fotoning bir kishi ko'rish imkoniyatini berar va u ko'pchilik bo'lib ko'rishga mo'ljallanmagan edi.

Ma'lum bo'lishicha, 1896-yilning oxirlariga kelib, proyeksiya qiladigan va suratga oladigan apparatlarning patentli tizimlari kengaydi, Fransiyada Lyumer, Meles, Pate, Gomon, Amerikada Edison, Angliyada Uilyam Pol tomonidan kino sanoatiga asos solindi. Shu tariqa fransuzlar tomonidan ixtiro qilingan kinematograf butun dunyoga katta tezlik bilan yoyila boshladi. "Sinematograf"ning dovru⁶g'ini keng tarqatib yurgan agentlar⁶ o'z navbatida uni o'lkamizga olib kirishga ham hissa qo'shganlar.

Dastlabki yillarda asosan "Sinematograf", keyinchalik esa "Pate Studio" hamda "Debri Parvo" nomlanishidagi professional kameralarda suratga olindi. "Agfa-gevert", "Dyupon" singari firmalarda kino tasmlari ishlab chiqish yo'lga qo'yildi. Bu davrda *"tasmalar sezuvchanligi past, optika esa kuchli yorug'lik berolmaganligi sababli operatorlar faqat naturada, juda kuchli yoritilgan holatdagina tasvirga olishga majbur edilar. Ko'hna kadrlarda shu sababdan intererda yoki kam yoritilgan binoda olingan tasvirlar uchramaydi"*⁷.

Tabiiyki kinematograf ovozsiz va oq-qora edi. Kadr o'lchami 18x24 mm., suratga olish tezligi esa soniyasiga 8 va 16 kadrni tashkil etgan. Bu hajm hozirgi kunda 24 va 25 kadrlardan iboratligi hisobga olinganda, o'sha davr tasmlarida nima uchun harakatlar tezlashib ko'rinishi, odamlar yugurgandek harakatlanishini tushunish mumkin.

Bu davrda yaratila boshlagan filmlarda kadr kompozitsiyasi yoki yoritish masalalari badiiy estetik nuqta nazardan qaralmas, syujetlarga yaxlit badiiy asar sifatida munosabatda bo'linmas ediki, buning sababi hali kino qonuniyatlari to'liq shakllanmaganligi,

⁵ Okulyar – apparatning ko'rsatish tizimi.

⁶ Sinematograf ixtiro qilinganida uning elchilariga shunday nom berilgan.

⁷ Fayziyev X. Ovozsiz kinematografdagi operatorlik san'ati tarixidan. – T.: O'zDSI, 2009. – B.12.

⁸ Десять операторских биографий. Сост. М.Голдовская. – М.: Искусство, 1978. – С.18.

⁹ Fayziyev X. Ovozsiz kinematografdagi operatorlik san'ati tarixidan. – T.: O'zDSI, 2009. – B.12.

aksariyat operatorlarning sohaga fotografiyadan kelgani bilan bog'liq edi. Ma'lumki, fotograf har bir olingan suratga e'tibor qaratgani holda, ketma-ketlikdagi barcha suratlarining badiiy yaxlitligi diqqatdan chetda qoladi. Bu davrda kinokartinalarni suratga olishda professional fotografiya sohasidagi tajriba va ko'nikmalaridan foydalanilar, kinasvir yaratishda esa faqat texnik masalalar hal etilardi. Shu munosabat bilan A.Leviskiyning kinoning dastlabki shakllanish yillarida aytgan so'zlari diqqatga molik: *"Filmni nafaqat sahnaga qo'yish, balki uni kimdir suratga olishi ham lozim bo'ladi. Filmlar suratga olinishida o'sib borayotgan ehtiyojni qondirish uchun operatorlar yetarli emas edi. Ana shunda fotograflar ham kino olishi mumkin, aslida kino bilan fotografiyaning farqi yo'qdek, deya qaraldi. Ularning farqi fotograf suratga olayotganda obyektivning qopqog'ini ochib yopishi yoki zatvorni shirqillatishi, operator esa tutqichni aylantirishi bilan izohlandi. Dastlabki kino ishbilarmonlari shunday yo'l tutdilar va filmlarni suratga olish uchun fotograflarni taklif eta boshladilar. Ammo natija kutilgandek bo'lmadi"*⁸. Bundan ko'rinadiki, garchi fotografiya va kinooperatorlik qonuniyatlari umumiy bo'lgani holda, spetsifik jihatlarga ko'ra alohida malaka, bilim, salohiyatni talab etadi. Fotografdan farqli o'laroq operatorning ish quroli kinokameradir. Ma'lumki kinokameraning vazifasi harakatlanib turgan tasvirni kinoplenkaga yozib olishdan iborat. Yozish jarayoni kinosemka deb atalgani holda, kinokamera vositasida yaratiladigan mahsulot kinofilm asosini tashkil etadi.

Fotografiya predmetning shakli, hajmi, qamrov darajasi haqida yetarlicha ma'lumot berishi mumkin, ammo bu statik-turg'un holatda kechadi. Kinasvir esa fotografiya sifatini saqlab qolgan holda hayotning real kartinasini to'la va keng ravishda uzatish imkoniga ega bo'lib, boshqa san'at turlaridan harakatni yetkazib berish qudrati bilan ajralib turadi.

Ma'lum bo'lishicha, bir paytlar fotografiyaning "brom-maslo" degan ommabop turi bo'lib, u suratni monotip, ofortga o'xshab bosmadan chiqarishga yo'naltirilgan shakl hisoblagan va operatorning ijodiy uyg'unishiga turtki bo'lgan. Fotografiya bilan shug'ullangan har qanday ijodkor tasvir yechimi, kompozitsion qurilma singari vositalar bilan hamisha to'qnash keladiki, bular o'z navbatida operatorlik sohasining muhim bo'lagidir. Shu ma'noda fotografiya san'ati operatorlik san'atining ibtidosi bo'lib qoldi, deyilishi bejiz emas. Fotografiya operatorida tasvirga hayotiylik baxsh etish, badiylikka erishish salohiyatini shakllantiradi. Foto – muhrlangan oniylikdir. Fotografdan farqli o'laroq, kinooperator tasvirda hayot aksini yaratarkan, unga tabiiylik bilan birga badiylik bag'ishlaydi. Mahoratli operator suratga olgan tasvirlarda mazkur badiylik dramaturgik tasviriy yechimni belgilaydi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, kinematografning taraqqiyoti, qolaversa badiiy kinoning paydo bo'lishi kinooperatorlik rivojida muhim rol o'ynadi. Badiiy kinoning kirib kelishi suratga olish usullari va kino texnikasining mukammallashishiga, suratga olish ishlarini nafaqat naturada, balki dekoratsiyalar o'rnatiladigan yopiq binolarda ham amalga oshirishga olib keldi. *"Dastlabki dekoratsiyalar oynavand pavilyonlarda qurilardi, chunki bunday joyda sun'iy yoritish bilan bir qatorda tabiiy*

yoritish usulini ham qo'llash imkoniyati mavjud bo'lardi. Sun'iy yoritishning qudratli manbalarini yaratish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun ulkan ko'zgul va folgali podsvetkalaridan foydalanila boshlandi. Biroq ulardan faqat quyoshli kunlardagina foydalansa bo'lar, istalgan havoda suratga olish ishlarini davom ettirish uchun elektr yoritkichlar yaratish lozim edi. Nihoyat ulkan yorug'lik oqimini bera oladigan qudratli yoysimon projektorlar va simobli kolbalar paydo bo'ldi"⁹. Bulardan ko'rinadiki, kinooperatorlik sohasi badiiy amaliyot ehtiyojlarining yuzaga kelishi hamda unga muvofiq ijodiy izlanishlar hisobiga taraqqiy eta bordi.

Ovozsiz kino aktyorning so'z yoki muloqot vositasini qo'llamagan holda, plastika, mimika, harakat va holatlar orqali obraz yaratishga o'rgatgani ma'lum. Kuzatishimizcha, kinoning ovozsiz davri o'z navbatida operatorga ham tasvir orqali kadrlarning hissiy-emotsional, ruhiy-jismoniy xususiyatlarini ochishga urinish salohiyatini bag'ishladi. Ijodkor operatorlar so'z o'rnini bosuvchi tasviriy yechim izladilar va bu borada o'ziga xos badiiy topilmalar yaratdilar. O'z navbatida oq-qora tasvir operatorga kadrdagi hayotiy go'zallik, tabiiy uyg'unlik va borliqdagi o'zaro mutanosiblik mazmunini kinokamera obyektida yanada teranroq anglash hissini berdi. Oq-qora ko'rinishda yoritish tonalligiga alohida e'tibor berish orqali har bir voqea yoki qahramonlar ichki ruhiy olamini nozik ifodalash mahorati qo'lga kiritildi. Kinoning rangli tusga kirishi esa yana bir pog'ona yuksalish bo'lib, o'z navbatida operator ijodiga ranglar munosabati va o'zaro uyg'unlik tushunchalarini olib kirdi. Bularning natijasi o'laroq voqelik mazmunini va qahramon holatini yetkazib beruvchi o'ziga xos tasvir ramziyligidek badiiy kashfiyot ixtiro qilindi. Bu fikrlarimizni kinoshunos X.Abulqosimovning quyidagi so'zlari ham to'liq tasdiqlaydi: *"Filmlarda qahramonlarning nutqi, musiqa, turli tovushlar bo'lmagan ovozsiz paytida kinoning ifodaviy jihati bosh masala hisoblangan. Filmlarning butun dramaturgiyasi ana shu ifodaviylikka bo'ysundirilgan. Filmdagi ro'y berayotgan voqealar va qahramonlar obrazlari tasviriy ifodalar orqali ochib berilgan"*¹⁰.

Kino tarixining eng zalvorli sahifalarini rejissor va operator ijodiy hamkorligidan bunyod bo'lgan nodir asarlar yaratadi. Sovet kinosining mashhur tandemlari rejissorlar S.Eyzenshteyn, G.Aleksandrov va operator E.Tisse; rejissor V.Pudovkin va operator A.Golovnya; rejissorlar G.Kozinsev, L.Trauberg va operator A.Moskvina, rejissor M.Kalatozoyev va operator S.Urusevskiy; rejissor G.Roshal va operator L.Kosmatov ijodiy hamkorligida kinoshedevrlar yaratilgan. O'zbek kinosida ham rejissorlar Nabi G'aniyev, Komil Yormatov, Yo'ldosh A'zamov, Latif Fayziyev, Zohid Sobitov, Shuhrat Abbosov, Damir

Salimov, Elyor Eshmuhammedovlarning operatorlar Daniil Demuskiy, Mixail Krasnyanskiy, Miron Penson, Aleksandr Pann, Hotam Fayziyev, Trayko Eftimovskiy, Abdurahim Ismoilov, Hamidulla Hasanov, Davron Salimov kabilar bilan ijodiy hamkorligi "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy", "O'tkan kunlar", "Maftuningman", "Mahallada duv-duv gap", "Ulug'bek yulduzi", "Ikki dil dostoni" kabi kino durdonalarini yaratdi. Rejissor Shuhrat Abbosov va operator Hotam Fayziyevlar ijodiy tandemi natijasi o'laroq, "Sen, yetim emassan!", "Abu Rayhon Beruniy", "Toshkent – non shahri"dek ulkan san'at asarlari tug'ildi.

Ma'lumki, ijodiy tandem ikki ulkan ijodkorning o'zaro hamkor-hamfikrligi, bir-birini to'ldirib turishi, biri ikkinchisidan quvvat olishi demakdir. *"Buyuk rejissor S.Eyzenshteyn operator Eduard Tissenini o'zining "ko'z-nigohi" deb bilib, u bilan munozaraga borish yoki bahslashishni tasavvur qilolmasligi, aksincha, "unga qarab hammasini ko'rishi"ni ta'kidlagan"*¹¹.

Operator – postanovkachi rejissor va rassom bilan hamkorlikda filmning tasviriy yechimi ustida ish olib boradi. Bunda rejissor ssenariysi hamda undan kelib chiqqan operator eksplikatsiyasi muhim. Operator rejissor ssenariysi bilan tanishib, syujet xarakteri, obrazlar xususiyati, harakatlar shakllanishi borasida fikrlarini jamlaydi. Rassom bilan hamkorlikda esa muhit, dekoratsiya, yorug'lik yo'nalishi, ranglar birikmasini o'rganadi. Bularning barchasi umumlashtirilib, operatorning idroki, o'tkir ko'zi, fikrlash salohiyati, mushohada tuyg'usi, xayolot olamining prizmasidan o'tkaziladi. Agar operator o'z ishining hunarmandi bo'lsa, belgilangan tasvir to'g'ridan-to'g'ri qayd etiladi. Agarki, operator san'atkor bo'lsa, unda ijodiy topilmalar yaratiladi, san'at mo'jizalari dunyoga keladi.

X.Abulqosimova kino ustalarining tasviriy olamda izlanishlarining yuksak namunasi bo'lgan rejissor M.Kalatozov va operator S.Urusevskiyning "Turnalar uchmoqda" filmidagi Borisning o'limi epizodidagi "aylanayotgan qayinlar" kadrini keltirib o'tadi: *"Bunda qayinlar o'layotgan kishining aql-u shuuridan lip-lip o'tayotgan fikrlar xayolotini shu qadar aniq-ravshan bera olganki, bu kadrlar turli mamlakat rejissorlari va operatorlarining mulkiga aylanib qoldi"*¹². Bunda olim film bosh qahramoni Borisning qattiq yarador bo'lib, yiqilishi va umrining oxirgi lahzalarida butun hayoti ko'z o'ngida chirpirak bo'lib aylanish holatini operator S.Urusevskiy tomonidan trayektoriyali syomka usulida olingan tasvirlarini nazarda tutadi. Mazkur usul qahramonning nigohida qotib qolgan so'nggi nuqta orqali "butun hayotini bir zumda yashab o'tishi imkoni"ni bergan. Trayektoriyali seyomka usuli kamera harakatining murakkab turlaridan hisoblanib, uni amalga oshirish uchun maxsus, har tomonlama aylana oladigan kranlardan foydalaniladi. Bu usul yordamida badiiy kinoda inson ruhiyatining turli murakkab manzaralarini ochish, xayolot kengliklarini ko'rsatish mumkin.

Kinooperator – texnik anjom bilan go'zallik yaratadigan ijodkoridir. Obyektiv imkoniyatlaridan foydalana bilish va bunda o'z idroki hamda salohiyatiga suyanish uning ijodkorlik darajasini belgilaydi. Ekran ramkasi bilan chegaralangan makonda operatorning ijod namunasi o'z aksini topadi. H.Fayziyev bunday deydi: *"Kinooperator – bu musavviridir, faqat mo'yqalam*

¹⁰ Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. – T.: 2009. – B.4.

¹¹ Головня А.Избранные статьи. – М.: «Искусство», 1959. – С.127

¹² Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – T.: O'zME, 2009. – B.10.

¹³ Fayziyev H. Ovozsiz kinematografidagi operatorlik san'ati tarixidan. – T.: O'zDSI, 2009. – B.4.

va xolst o'rnida kinoapparat ishlatadi va u o'z asarlarini tasmaga yozadi"¹³.

Tarixiy tajribaga ko'ra badiiy filmni suratga olish jarayonida postanovkachi operator, operatorlar hamda operator assistentlari qatnashadi. Garchi bir qarashda ularning faoliyati film tasviriy vositasini amalga oshirishdan iborat bo'lsa-da, har biri o'z vazifasi va funksiyasiga ega. Postanovkachi operator rejissor bilan birga filmning asosiy muallifi sanaladi. U o'zining ijodiy g'oya va maqsadidan kelib chiqib, filmning dramaturgik tasviriy yechimi, tasviriy plastikasi, tasviriy dinamika, tasviriy mizanssenasini belgilaydi. Operatorlar hamda operator assistentlarining funksiyasi esa postanovkachi operator belgilagan g'oyani amalga oshirish yo'lida ishlashdan iborat. Badiiy film – ijodkorlar jamoasining birgalikda yaratadigan san'ati. Bu san'atning bunyodga kelishida operator yetakchi bo'g'in, jamoaning faol a'zosi bo'lmog'i shart.

Kinooperatorlik san'ati taraqqiyotida jahon kinematografida kechgan jarayonlar, turli ijodiy oqimlar, yo'nalishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Yevropada kinooperatorlik san'atining xarakteri va xususiyati bilan bog'liq o'zgarishlarda rus montaj kinosi, nemis ekspressionizmi, 1940–1950-yillardagi italyan neorealizm maktabi hamda 1960–1970-yillardagi fransuz "Yangi to'lqini"ning ham o'ziga xos ta'siri kuzatiladi.

Bular orasida rus montaj kinosi va nemis ekspressionizmini alohida ta'kidlash joiz. Rus montaj kinosi operatorlik faoliyatini san'at darajasiga ko'targanligi E.Tisse, A.Golovnya, A.Moskvin M.Krasnyaskiy kabi ijodkorlar ishida o'z aksini topdi. Nemis operatorlik maktabida esa yangi ekspressionistik ifoda vositalarini topishga va ba'zan syurrealistik ramzlardan foydalanishga katta e'tibor qaratish, operatorlik ishining standart usullari bilan o'rin almashdi. Operator o'z ijodida standartlashtirilgan yoritish sxemalaridan, qat'iy belgilangan kompozitsiyalardan, standart optikalardan foydalanishga obyektga tushayotgan yorug'lik konturlarini majburiy tarzda ta'kidlashga majbur edilar.

Lukino Viskonti, Juzeppe De Santis, Alessandro Blazetti, Janni Puchchini kartinalarida ekranda barcha narsalarning maksimal darajada haqqoniy aks etishiga intilish kuchaydi. Rejissyorlar filmlarning ayrim qismlarini tabiat qo'ynida, ko'chalarda, uylarda suratga olib, tabiiy dekorasiyalardan foydalanishdi. Filmlardagi epizodik rollarni esa aktyorlar emas, balki oddiy odamlar ijro etishdi. Rejissorlar ulardan o'zlarini xuddi odatiy hayotdagidek tabiiy tutishlarini talab qilardi. Neorealizm shu tariqa operatorlik san'atiga haqqoniylik, hujjatlilikka e'tiborni kuchaytirish tamoyilini olib kirdi. Neorealizmdan so'ng namoyon bo'lgan fransuz "Yangi to'lqini" esa 1960–1970-yillarda shakllandi. "Yangi to'lqini" reallikdan uzoq bo'lgan tijorat filmlariga qarshi chiqib, o'z davri uchun yangi eksperimentlar, radikal usullarni olib kirish kayfiyatini ilgari surdi. Kinematografning turli davrlarida bu tarzda namoyon bo'lgan izlanishlari kinooperatorlik san'atini ham shakl va mazmunini to'ldirdi, ijodiy an'analarini boyitdi.

Operator kamera va obektiv yordamida ijod qilib, ssenarist, rassom, rejissor g'oyasini va aktyor fiziologik-ruhiy holatini tomoshabinga yetkazib beradi. Agar teatr spektaklida sahnadagi aktyorlarning jonli muloqoti tomoshabinga ishtirok effektini bersa, badiiy filmda bu vazifa operator tasvirlariga yuklanadi. Tasvir vositasida nafaqat jarayonni kuzatish, balki qahramonlardan birining nigohi bilan ikkinchisiga qarash yoki aksincha ko'z, yuz, nigohlar vositasida javob qilishdek so'zsiz, sirli muloqotlar guvohi bo'lish mumkin. Kinokameraning sezgir obyektivi qahramonlar kechinmasini beixtiyor tomoshabin qalbiga ko'chirar ekan, ularning quvonchidan sevinib, qayg'usidan birgalikda iztirob chekish holati yuzaga keladi. Shu tarzda teatr sahnasidagi aktyorlardan farqli o'laroq, badiiy filmda qahramonlar kechmishlariga ularning o'ziga xos nigohi sifatida bog'lanish orqali ishtirok effekti paydo bo'ladi.

Mamlakatimiz kinooperatorlik san'ati badiiy madaniyatning o'ziga xos hodisasi sifatida to'rt bosqichli tarixiy-evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. Sohada o'ziga xos badiiy maktab shakllandi va rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ikkal Melikuziev. (2020). CINEMATOGRAPHER'S ABILITY IN THE CREATION OF GRAPHIC IMAGE IN UZBEK HISTORICAL FILMS. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(05), 1554 – 1567. Retrieved from <http://serisc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10078>
2. Ikboljon M., & Tirkas'haliyevich, K. S. (2019). Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 9(1), 5230-5236. doi:10.35940/ijeat. A2948.109119
3. Абул-Касимова Х. Кино и художественная культура Узбекистана. –Ташкент: "Fan", 1991.
4. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009. – B.100.
5. Akbarov H. Adabiyot va kino. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
6. Akbarov H. Sehrli yog'du. Yillar va filmlar, yetuklik bo'sag'asida, ekran va ikki muammo. – T.: "Adabiyot va san'at", 1977. – B.176.
7. Aliev M. Xalq sevgan san'at. – T.: "Adabiyot va san'at", 1973. – B.134.
8. Aliev M. Kino asoslari: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi madaniy-ma'rifiy ixtisosdan bilim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma. – T.: "O'qituvchi", 1993. – B.160.
9. Aliev M. Zamon bilan hamnafas (o'zbek kinosi misolida). – T.: "O'zbekiston" 1983.
10. Меликузиев И.М. Возможности кинооператора в создании графического образа в узбекских исторических фильмах. Международный журнал передовых наук и технологий 29 (5), 1554–1567.
11. Меликузиев И.М. КИНОИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ. ЖУРНАЛ ЮРИДИЧЕСКИХ, ФИНАНСОВЫХ И ПРИКЛАДНЫХ НАУК Инновационная академия.

O‘ZDSMIDA MADANIYAT VA SAN‘AT MENEJERLARINI KASBIY TAYYORLASH

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “Madaniyat va san‘at menejmenti” kafedrasida san‘at va madaniyat menejerlarining kasbiy tayyorgarligi muhokama qilinadi. Muallif ijodiy, iqtisodiyot, “tajriba iqtisodiyoti” kontekstida kommunikativ tizim sifatida badiiy sohaning asosiy figuralaridan biri vositachi, faoliyat subyekti, iqtisodiy agent – madaniyat va san‘at menejeri (ishlab chiqaruvchi, tadbirkor, impresario, promouter, diler, va hokazo) faoliyatini yoritadi.

Kalit so‘zlar: madaniyat va san‘at menejeri, prodyuser, tadbirkor, impresario, badiiy direktor, murabbiy, agent, targ‘ibotchi, badiiy sanoat, badiiy biznes, badiiy loyiha, rassom, ijodiy, iqtisodiyot, badiiy tadbirkor, badiiy iqtisodiyot va h.k.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА МЕНЕДЖЕРОВ ПО КУЛЬТУРЕ И ИСКУССТВУ В ГИКУЗ

Аннотация. В статье рассматривается профессиональная подготовка менеджеров в области искусства и культуры на кафедре «Менеджмент культуры и искусств» Государственного института искусства и культуры Узбекистана с учетом современных образовательных технологий. Одной из главных фигур художественной сферы как коммуникативной системы в контексте авторского творчества, экономики, «экономики опыта» является посредник, субъект деятельности, экономический агент – художественный менеджер (продюсер, предприниматель, импресарио, промоутер, дилер и т.д.) освещает деятельность.

Ключевые слова: арт-менеджер, продюсер, предприниматель, импресарио, арт-директор, тренер, агент, промоутер, арт-индустрия, арт-бизнес, арт-проект, художник, креатив, экономика, арт-предприниматель, арт-экономика и т.д.

PROFESSIONAL TRAINING OF MANAGERS IN CULTURE AND ART IN UzSIAC

Annatation. The article discusses the professional training of managers in the field of art and culture at the Department of “Management of Culture and Arts” of the State Institute of Art and Culture of Uzbekistan, taking into account modern educational technologies. One of the main figures of the artistic sphere as a communicative system in the context of author’s creativity, economy, “economy of experience” is an intermediary, a subject of activity, an economic agent - an art manager (producer, entrepreneur, impresario, promoter, dealer, etc.) covers the activity.

Keywords: art manager, producer, entrepreneur, impresario, art director, coach, agent, promoter, art industry, art business, art project, artist, creative, economy, art entrepreneur, art economy, etc.



Zamonaviy dunyo postindustrial makon sharoitida ishlab chiqarish va iste‘molning o‘zgartirilgan paradigmasi bilan rivojlanmoqda, madaniyat va san‘at sohasi va uning tarkibiy qismlari tovar sifatida harakat qilganda, iqtisodiyot – ijodiy iqtisodiyotga, “tajribalar iqtisodiyotiga” va boshqalarga aylanadi. Shu bilan birga, ko‘rib chiqilayotgan sohaning barcha tarkibiy qismlari asosan tijorat xususiyatiga ega bo‘lib, bu madaniyat va san‘at institutida san‘at va madaniyat menejerlarini kasbiy tayyorlash muhimligini tasdiqlaydi. Bu “uchinchi ming yillikning fan” [1] fundamental ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida san‘atni boshqarish (san‘at sohasida boshqarish), deb belgilanadi. Inson faoliyati sohasi bugun innovatsion ijodiy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun juda muhim resurs (vositasi) mexanizmi hisoblanadi. Unda asosiy ijodiy sohalar, ijodiy sinf, ijodiy shaxslar va ijodiy klaster va boshqalar mavjud.

Kommunikativ tizim sifatida zamonaviy san‘at sanoatining muhim elementlaridan biri tariqasida (mualliflik asar matni, badiiy loyiha (badiiy mahsulot) – ramziy ma‘lumotlarning iste‘molchisi qaraladi. Ularsiz zamonaviy bozor sharoitida ishlash qiyin. Vositachining shakli, faoliyat subyekti, iqtisodiy agent – madaniyat va san‘at menejeri (ingilizchadan Art + san‘atdagi boshqaruvchi – “san‘at” va boshqaruvchi – “boshqaruvchi”) degan tushunchaga ko‘ra, san‘at sohasidagi boshqaruvchi – badiiy madaniyatning o‘zagini ifodalaydi [1.2].

“Ijtimoiy-madaniy menejment nazariyasi va amaliyoti” darsligi mualliflari V.V.Chizikov va V.M.Chizikov haqli ravishda madaniyat va san‘at menejerini juda keng professional yo‘nalishlarini belgilaydilar. Ular xususan, “teatrlar, teatr studiyalari, konsert zallari va konsert tashkilotlari, kinoteatrlar, kino va fotostudiyalar, video va audio yozuvlar studiyalari,

musiqa asboblari va sahna liboslarini ijaraga olish, mahalliy, mintaqaviy va markaziy menejer (ma'mur, tadbirkor, prodyuser, impresario, promouter, menejer) deb atashadi. Televizion kanallar, tashkilotlar, kitob savdosi va nashriyotlar, sport va o'yin majmualari, shahar bog'lari, yoshlar ko'ngilochar majmualari, madaniy muassasalar va nihoyat, mintaqalar madaniyat va san'at qo'mitalari, shahar va tumanlar madaniyat bo'limlari, professional va havaskor ijodiy jamoalar va yakka ijrochilar, ansambllar va konsert guruhlari, shu jumladan, teatr va studiya, orkestr va qo'shiq, estrada va sirk guruhlari, turli janrdagi solistlar va ijrochilar rahbarlari, bayram ommaviy – madaniy dasturlari loyihalarini amalga oshiruvchi vaqtinchalik va doimiy guruhlar, festivallar, musobaqalar, namoyishlar, ijtimoiy – madaniy rivojlanishning maqsadli loyihalari” yo'nalishlardagi barcha boshqaruv ishlari madaniyat va san'at sohasi menejerlari zimmasidadir [3].

Madaniyat va san'at menejerining faoliyati kasbiy faoliyat olib boriladigan san'at turiga va u tomonidan amalga oshiriladigan jarayonlarga qarab ma'lum xususiyatlarga ega. Bularning barchasi madaniyat va san'at menejeri ishlaydigan yoki uning hamkasblari, ya'ni uning atrofidadigilar ishlaydigan lavozimlar yoki kasblarning nomlarida o'z ifodasini topadi. San'at sohasidagi menejer sifatida san'at va madaniyat menejeri kasbining mohiyatini tushunish uchun Amerika menejmentining to'g'ri ta'rifiga murojaat qilaylik: *“Kim ishlab chiqaradi, kim boshqaradi, kim ishlab chiqarmaydi. Boshqarish – boshqalarning qo'llari bilan biror narsa qilish”*. Bu menejer faoliyatini chinakam va yetarli darajada idrok etishni anglatadi (bu holda biz ko'rib chiqayotgan inson faoliyati sohasida – san'at sohasi), uning mohiyati biron bir aniq vazifani bajarish emas, balki boshqalar uchun atmosfera va sharoit yaratishdir. Biz san'at menejeri zamonaviy san'at bozori va uning navlari kontekstida ishlaydigan rassom (rassomning biznes bo'yicha yordamchisi deb da'vo qilamiz va u uchun nafaqat o'zini o'zi anglash uchun, balki sotish uchun ham asarlar) san'at mahsulotlarining matnlarini yaratish muhimdir.

Madaniyat va san'at menejeri, ish tavsiflariga qarab, ma'lum bir mavzu (muammoning ahamiyatini anglash, homiylar, badiiy mahsulotlarning xaridorlari) iste'molchilari va boshqalar bilan muloqot qilish uchun bozor tadqiqotlarini tashkil etish yoki amalga oshirishda ishtirok etishi mumkin. Maqom, asosiy funksiyalar va vazifalarga muvofiq, san'at menejeri madaniyat va san'at sohasi iqtisodiyotining intellektual manbai (kapitali) sifatida [3] ishlab chiqaruvchi, tadbirkor, badiiy direktor, agent, promouter va boshqalar sifatida harakat qilishi mumkin. Masalan, kino prodyuserini badiiy mahsuloti – badiiy loyiha sifatida film ustida ishlashning butun jarayonini boshqarish sifatida qabul qilish mantiqan to'g'ri.

Zamonaviy bozor “koordinata tizimi” bugungi kunda san'at menejerlari iqtisodiy agentlar, san'at sohasidagi biznes faoliyati tashkilotchilari, tadbirkorlar (ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, impresariolar,

targ'ibotchilar, agentlar, ma'murlar, san'at sotuvchilari va boshqalar kabi “kun qahramonlari” ekanligini ta'kidlashga imkon beradi, ya'ni, “san'atdan kelgan savdogarlar”), badiiy loyihalarni yaratish, san'at bozorida yangi nomlarni kashf etish va targ'ib qilish, san'at sohasi segmentlarini shakllantirish, jamiyat vakillarining didi, afzalliklari, ehtiyojlari, madaniyati va axloqi, shuningdek, jamiyatning ramziy makonini shakllantirish bo'yicha ishlarni olib borishni taqozo etadi. Shuning uchun san'at menejerlari nafaqat san'at turlarini, balki ko'plab madaniy shakllar, hujjatlar, loyihalar, san'at sohasining axborot obyektlarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari va texnologik jarayonlarini ham tushunishlari kerak. Madaniyat va san'at menejeri uchun san'at sohasining mohiyatini va uning ma'lumotlarini bilish komponent bilan muhimdir. Bu menejning g'oyani amalga oshiradigan va uni ma'lum bir materialda aks ettiradigan muallif (rassom) ijodkorning ijodiy innovatsion yo'lini tushunishiga, shuningdek, asar matnini badiiy loyiha (badiiy mahsulot) sifatida “san'at bozorida targ'ib qilish” jarayonini amalga oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, madaniyat va san'at menejeri san'at sohasi insoniyat umumiy madaniyatining bir qismi, ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismi, jamiyatning axloqiy tarkibiy elementi ekanligini unutmasligi kerak. Shuningdek, turli xil texnologiyalar (marketing, fandrizing, reklama, PR, reklama), axborot va boshqalar, artosfera – art industriyasi yorqin, yaxlit, uyg'un axborot tizimi ekanligini idrok qila olishi muhimdir. Unda badiiy mahsulotlar va badiiy xizmatlarni ishlab chiqarishning turli xil innovatsion jarayonlari bo'lib o'tadi, ular paydo bo'lishining turli bosqichlarida menejment, marketing, ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislarining faoliyati bilan bog'liq, ya'ni reklama va boshqalar harakatlarni “talab qiladi” [4].

Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasida, ya'ni ijodiy sohada ishlaydigan menejer, tartibga soluvchi va moliyaviy – iqtisodiy tarkibiy qismdan tashqari, ijodiy jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi va tushunishi, axloqiy va estetik qonunlarni buzmasdan unga aralashishi kerakligini tushunish muhimdir bu madaniyat va san'at sohasida muhim ahamiyatga ega. Madaniyat va san'at menejerlari savdogarlar tomonidan emas, balki san'at sohasidagi tadbirkorlar tomonidan, ijodiy sohalarda, ya'ni. badiiy matn (badiiy haqiqat generatorlari sifatida ishlab chiqaruvchilar) o'z harakatlari bilan ular turli xil muammolarni hal qilishga hissa qo'shadilar: tashkiliy, ijodiy, tartibga soluvchi va moliyaviy, iqtisodiy. Bu o'z navbatida madaniy siyosatni amalga oshirish uchun samarali menejerlarga muhtoj bo'lgan san'at sanoatining o'zi va tarmoq iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida madaniyat va san'at menejerlarini kasbiy tayyorlash muammosini ko'rib chiqish nuqtai nazaridan “Madaniyat va san'at menejmenti” kafedrasini faoliyatiga e'tibor qaratildi. Institutning ushbu bo'limi 2012-yil sentabr oyida ijtimoiy-madaniy sohadagi

ishchilar, bozor iqtisodiyotida faoliyat yuritishga qodir mutaxassislarning professional hamjamiyatidagi talabiga javob sifatida tashkil etilgan. Dastlab, “Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” nomi bilan tashkil etilgan bu kafedra 2022-yilda davlatimiz tomonidan berilgan ishonchga tayangan holda “Madaniyat va san‘at menejmenti” nomini oldi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 600-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022-yil PQ-112-son “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlarida ko‘zda tutilgan vazifalar qatorida kafedra negizida avvalgi mavjud bo‘lgan 60212000 – “Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” hamda 60211800 – “San‘at sohasida prodyusorlik” bakalavrluk ta‘lim yo‘nalishlari bilan birgalikda 60411200 – “Menejment (madaniyat va san‘at sohasi menejmenti)”, 60411200 – “Menejment; ommaviy tadbirlar menejmenti” – yangi bakalavrluk ta‘lim yo‘nalishlari ochildi.

Ish beruvchilar bilan yaqindan hamkorlik qilish va ularning ayrim mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha so‘rovlarini hisobga olgan holda, O‘zDSMI “Madaniyat va san‘at menejmenti” (oldingi madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish) kafedrasida 2012-yildan boshlab, “Ijtimoiy – madaniy faoliyat” va “Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavr abituriyentlarini qabul qilishni e‘lon qilgan edi. Bunda san‘at va madaniyat sohasining bakalavrlari ishlab chiqaruvchi, tadbirkor, impresario, promouter, ko‘rgazmalar menejeri, konsert zali rahbari, madaniyat markazlari, teatr, televideniye menejerlari kabi lavozimlarga mutaxassislarning zarurligini boshdan kechirayotgan madaniyat va san‘at sohasidagi ish beruvchilarda katta talabga ega ekanligi inobatga olingan edi. Kino, audio va video yozish studiyasi, telekanal, professional, havaskor ijodiy jamoa, ansambl, konsert guruhi, tadbir menejeri, bayram dasturlari, ijtimoiy-madaniy tadbirlar, festivallar, namoyishlar va boshqalarni amalga oshirish jarayonlarida yuqorida nomlari qayd etilgan mutaxassisliklar hozirgi paytda dolzarb bo‘lib turibdi.

“Menejment (madaniyat va san‘at sohasi menejmenti)”, “Menejment; ommaviy tadbirlar menejmenti” yo‘nalishdagi talabalarni o‘qitish jarayonida, talabalar umumiy asosiy qism va modulli o‘quv fanlaridan tashqari, masalan, “Madaniyat va

san‘at menejmenti”, “Intellectual mulk va mualliflik huquqi”, “Madaniyat sotsiologiyasi”, “Rahbar imidji va etiket”, “Shou biznes asoslari” kabi o‘quv fanlarini ham o‘rganadilar.

O‘zDSMI “Madaniyat va san‘at menejmenti” kafedrasida zamonaviy san‘at va madaniyat sohasi bilan bog‘liq turli xil amaliyot bazalari bilan hamkorlik qiladi. Bular: teatrlar, madaniyat markazlari, madaniyat bo‘limlari, telekanallar va boshqalar. Bu bazalar talabalarga kelajakdagi faoliyat uchun zarur bo‘lgan kasbiy malaka va ko‘nikmalarni egallashga imkon beradi.

Bakalavr bitiruvchilari ushbu yo‘nalishlari bo‘yicha magistraturada o‘qishni davom ettirishlari va keyin tanlagan ilmiy yo‘nalish bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirishlari mumkin. Axir, oliy ta‘limning asosiy vazifalaridan biri bu fan va ta‘limni birlashtirishdir, bu esa talabalarning “tajribalar iqtisodiyoti” sharoitida biznes jarayonlarini yanada boshqarish uchun tizimli va loyihaviy fikrlashlarini shakllantirishga olib keladi.

Kafedrada o‘qish jarayonida talabalar, magistrantlar va tayanch doktorantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun quyidagi motivatsion jarayonlar amalga oshiriladi:

- *ularni ishlab chiqilayotgan masalalar bo‘yicha turli xil ma‘lumot manbalari bilan kutubxonalar va arxivlarda ishlash bilan tanishtirish;*
- *talabalarining ilmiy faoliyati madaniyati va etikasini shakllantirish, zamonaviy normativ-huquqiy axborot maydoni sharoitida intellektual faoliyat va mualliflik huquqini himoya qilishning ahamiyatini tushunish;*
- *davra suhbatlari, konferensiyalar, simpoziumlar, forumlarda ishtirok etish (fakultet, institut, respublika miqyosida);*
- *magistrantlar va tayanch doktorantlar uchun grant tanlovlarda ishtirok etish va natijalarni nashr etish.*

Biz madaniyat va san‘at menejmenti, birinchi navbatda, san‘at va madaniyat sohasidagi boshqaruv falsafasi va madaniyati deb da‘vo qilamiz. Madaniyat va san‘at sohasi iqtisodiyotining intellektual kapitali (manbai sifatida) san‘at menejerlarini kasbiy tayyorlash madaniyat va san‘at sohasidagi institutlarining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, ular yuqori malakaga ega bo‘lgan – umumiy, professional, ensiklopedik kadrlarning raqobatbardosh shaxsini shakllantirishni amalga oshiradilar. Bu madaniyat va san‘at menejerga turli xil marketing vositalaridan foydalangan holda badiiy loyiha (badiiy mahsulot) badiiy xizmatni tovar sifatida yaratish, targ‘ib qilish va sotish jarayonlarida ishtirok etishga imkon beradi, shuningdek, ommaning ongiga va zamonaviy san‘at bozorida tendensiyalarni shakllantirishga ta‘sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Sh. Qayimov., A.S.Umarov., U.G‘.Zunnunova. San‘at menejmenti (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Extremum-Press”, 2012. – B.39-40.
2. U.G‘.Zunnunova., T.R.Fayziyev. Art marketing (O‘quv qo‘llanma). – T. “Kamalak”, 2019. – B.156-157.
3. Suminova T.N. “San‘at menejeri intellektual manba sifatida”. Moskva Davlat Madaniyat va san‘at universiteti Axborotnomasi. 2008-yil, 3-son. – B.98-99.
4. Suminova T.N. “Badiiy menejment ijtimoiy-madaniy tushuncha sifatida”. Moskva Davlat Madaniyat va san‘at universiteti Axborotnomasi. 2011-yil, 3-son. – B.11.

REJISSORLIK ETYUDI YARATISHDA RASSOM ASARLARINING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada rejissura va aktyorlik mahoratini o'qitish jarayonlarida fan dasturlarida keltirilgan mavzu: rassomlar asari asosida etyud yaratishda ijod yo'li bir-biriga zid bo'lgan ikki xil rassomning ijodini o'rganish va ularning asarlari asosida etyud yaratish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: rejissor, aktyor, etyud, rassom, mashq, sahna, mahorat, asar, surat.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУДОЖНИКОВ В ПРОЦЕССЕ СОЗДАНИЯ РЕЖИССЁРСКОГО ЭТЮДА

Аннотация. В настоящей статье речь идёт о работе над режиссёрским этюдом на основе картин выдающихся художников, проводится сравнительно-сопоставительный анализ художественных произведений, адаптированных к сценическим условиям.

Ключевые слова: режиссер, актер, этюд, художник, упражнение, сцена, мастерство, произведения, картина.

THE SIGNIFICANCE OF THE WORKS OF ARTISTS IN THE PROCESS OF CREATING A DIRECTOR'S STUDY

Annotation. In this article we are talking about the work on the director's sketch based on the paintings of outstanding artists, a comparative analysis of works of art adapted to stage conditions is carried out.

Keywords: director, actor, sketch, artist, exercise, stage, skill, work, picture.



Etyudlar – rejissura va aktyorlik san'atida asosiy kasbiy mahoratdir. Berilgan (ixtiro qilingan) shart-sharoitlarda samarali xatti-harakatni mustaqil izlash va o'quv yilining boshidan boshlab eskizlar muammosida samarali ish olib borishdir. Darhaqiqat, talaba o'zining ilk rejissorlik ishini sahnalashtirar ekan, unda yarim yil davomida rejissura fani bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini bir tomonga olsa, ikkinchi tomonda uning hayotdagi qarashlari, yaxshi va yomon hodisalarga bo'lgan munosabati aks etadi. Shuning uchun o'quv jarayonida etyudlarga o'tishdan oldin, talabalarda munosabat va baholashni shakllantirish lozim. Shu bilan birgalikda etyud yaratish jarayonida fantaziya va tasavvur eng oliy o'rinlarga chiqadi.

Rassomlar asarlari asosida etyud yaratish yuzasidan B.Sayfullayev¹, M.Yusupova², F.Ahmedov³, J.Mamatqosimov⁴, F.Egamberdiyev kabilarning ilmiy-uslubiy va ijodiy ishlaridan metodologik manba sifatida foydalanildi. Barchaga ma'lumki, etyudlarning turlari mavjud. Adabiy asarlar asosida, rassom asarlari asosida va kuzatuvlar asosida etyudlar yaratiladi. Biz bugun to'xtalmoqchi bo'lgan mavzu, rassomlar asarlari asosida etyud yaratishga bag'ishlanadi.

Rassom asarlari adabiyot kabi, faqat ba'zi professional ko'nikmalarni o'zlashtirishda emas, balki eng faol va zarur yordamchi hisoblanadi. Talaba-rejissor

kartina va sahna asarlarini birlashtirgan holda yagona kompozitsiyani yaratadi. Natijada, tomoshabin suratni sahnada jonlanganiga guvoh bo'lishi lozim. Rassom asarlari asosidagi etyudlarni ishlash orqali talabalarda boshqa bir muallif bilan hamohang ishlash ko'nikmasi rivojlanadi. Bunda, avvalambor, talaba ishni muallifning ijodi, uning boshqa asarlari bilan tanishishdan boshlaydi. Shundan so'ng, tanlangan kartinani chuqur o'rganadi. Muallif bergan g'oya asosida kompozitsiya yaratadi. Kartinada berilgan belgilar, holatlar, to'qnashuvlar, hodisalarning batafsil tavsifi bilan uni tahlil qiladi. Shu bilan birgalikda asar tanlashdagi badiiy did shakllanib boradi.

Talabaga etyud ssenariysini yaratishda – etyud uchun harakatni qurish, etyuddagi qiziq berilgan shart-sharoitlar doirasini yaratishni, etyudni sahnalashtirishda esa – etyud mazmunini faol shakllanish yo'nalishini kuzatib, ssenariyda ko'zda tutilgan g'oyani amalga oshirish, voqeaning o'tish vaqti, voqeaning o'tish joyi va ishtirokchining kim ekanligiga asosiy e'tibor qaratish lozim⁵.

Keling, mavzu yuzasidan bir-biriga yaqin bo'lmagan janrlarda ijod namunalari yaratgan va turli davrlarda yashagan rassomlarning asarlari asosida suhbatlashamiz. Haqqoniy san'atda asosiy badiiy qiyofa, bu tasviriy san'atdir. U qandaydir bir jism yoki inson shaklini qayta ishlab chiqadi, voqea va insonlar haqida ma'lumot beradi. Tasviriy san'atda tasavvur va kompozitsiya g'oyalari mujassamlashgan bo'ladi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan nemis rassomi Jozef Karl Shtiler o'zi yaratgan ko'plab portretlari va san'at asarlari bilan tasviriy san'at tarixida o'z nomini qoldirgan. Jozef Karl Shtiler 1781-yil 1-noyabrda Germaniyaning Mayns shahrida rassom oilasida tavallud topgan. O'z davrining buyuk rassomi bugungi kundagi eng mashhur asarlardan biri buyuk kompozitor Lyudvig van Betxovenning portretini

¹ Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012. – B.388.

² Юсупова М.Р. Режиссура эстрады и массовых представлений. – Т.: "Lesson press", 2021. – С.161.

³ Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – T.: "Aloqachi", 2008. – B.424.

⁴ Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – T.: "Lesson press", 2019. – B.220.

⁵ Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – T.: "LESSON PRESS", 2019. – B.136.

chizadi. Kompozitorning o'ziga xos tabiati Shtilerning ushbu asarni yaratishida qiyinchiliklarga sabab bo'lgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Chunki Shtilerning bundan oldingi buyurtmachilari kompozitorning eng yaqin do'stlari Frans va mashhur san'at kolleksioneri Antonio Brentano bo'lganliklari uchunгина portretini yaratilishiga rozi bo'lgan Betxoven Shtiler bilan uchrashuvini o'zi uchun jazo, deb biladi. Shu sababdan rassom portretni oxirigacha yakunlamasidan turib uning sabri tugaydi. Va Shtiler Betxovenning qo'llarini ko'z xotiralariga tayanib chizishga majbur bo'ladi. Lekin aytish mumkinki, portretda alohida shaxs xarakteri – shijoatli va oriyatli inson obrazi gavdalanadi.

Shtilerning asarlarida tasvirlar juda sodda bo'lishiga qaramasdan aytish mumkinki, ulardagi hayotiylik holatlari kishini lol qoldiradi. Shu sababdan bo'lsa kerak, uning asarlari tezda qo'lma-qo'l bo'ladi. Va aynan mana shu jihatdan ham ushbu rassomning asarlari asosida etyud yaratish rejissor-talaba uchun qiziqarli bo'ladi.



Shuningdek, Shtilerning Nimfenburg saroyida Bavariya qiroli Lyudvig I uchun yaratgan "Go'zallar galereyasi" ham etyudlar yaratishda foydalanish uchun katta xazina bo'lishi mumkin. Myunxenning eng go'zal o'ttiz olti nafar ayolining portreti hozirgi kungacha mashhur bo'lgan ushbu galereyadan joy olgan. Shtiler biz ko'rib kelayotgan Gyotening mashhur portretini ham qiroli Lyudvig I ning buyurtmasi bilan 1828-yil yaratadi. Talabalar bilan Shtilerning asarlarini o'rganib, u yaratgan portretlar asosida etyud yaratish o'ziga xos qiyinchilikni yuzaga keltiradi, ammo bu qiyinchiliklar orqali talabada yuqori did shakllanadi.

Biz yuqorida ta'kidlagan yana bir rassom Kerol Beatris Perre. U 1951-yilda Shvetsariyaning Bern shahrida tug'ilgan. Yoshligidan san'atga qalban oshno bo'lib o'sgan Kerol Grafika san'ati bo'yicha ta'lim oladi. Oliy ta'limni tugatgandan so'ng, 1990-yilga qadar Parij va Lozanna shaharlarida reklama illyustratsiyasi bilan shug'ullanadi. Ko'p yillar davomida Perrening asarlari Shveysariya va chet eldagi galereyalarda namoyish etilgan. Yevropa, AQSH, Braziliya, Yaponiya, yaqin Sharq, Ruminiya va boshqa qator davlatlarda uning shaxsiy kolleksiyalaridan namunalar saqlanadi. Rassomning o'zi hozirgi kunga qadar ko'pgina davlatlarda bo'lib o'tadigan rassomchilik ko'rgazmalarida ishtirok etib kelmoqda.

Rassomning asarlari sodda san'at va ayrim mavzulari syurrealizmga tegishli deb tasniflangan bo'lsada, obrazli yondashuv va ko'pgina tafsilotlarni o'z ichiga oladi. U yaratgan asarlar bir qarashda tomoshabinga o'zgacha kayfiyat bag'ishlash bilan birga, suratda chizilgan obrazlar ortiga yashiringan ma'noni izlashga undaydi. Uning "Quvnoq rohibalar" turkumidagi yengil hazilga boy va jasorat bilan chizilgan asarlari o'z muallifini mashhurlikka olib chiqdi. Asosan

yuqoriga ko'tarilgan bosh kiyimli, ko'k liboslardagi bir qarashda kulgi uyg'otadigan rohibalaru, ularni quvonch bilan masxara qilib turgan kichkinagina farishtachalar va kichik shaytonchalar barchaga tanish. Rassom yuqoridagi aynan mana shu yorqin obrazlarga tayangan holda bir necha asarlar asosida o'ziga xos turkum yaratdi. Turkumdagi barcha rasmlarda xotirjamlik, jasorat va o'ziga xos hazillar bor. Chizgan ko'pgina suratlarida ushbu qahramonlar ishtiroki ajoyib tarzda takrorlanadi. Uning sevimli qahramoni bo'lgan "rohibalar" rassomning bolalikdagi yuksak diniy e'tiqodi tufayli paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki aynan rohibalar timsolida chizilgan ko'pgina suratlarida, hayotda uchrab turadigan turli insonlar va voqea-hodisalar aks etadi. Hazil tariqasida chizilgan suratlarda kattagina tanqidiy voqea tasvirlanadi.

Qolaversa, bir qarashda Perrening ijodiy ishlari insonda bolalikning sehirli olamini uyg'otadi. Uning suratlarida hamma narsa mumkindek go'yo. Ya'ni u yerda o'yinchoqlar raqsga tushadi, narsalar esa tilga kiradi. Aynan mana shunday xayolot dunyosini o'rganadigan rasmlar Kerol Perre ijodining asosi hisoblanadi. U simvolika tilida ijod qiladi. Uning ijodi turli o'qishlarga boy. Ya'ni uning suratlarini tomosha qilgan har bir inson o'z dunyoqarashi va kayfiyatidan kelib chiqib, voqealarni ko'rishi mumkin. Rassomning suratlariga boqar ekanmiz, hayotimizning eng muhim bosqichlari ko'z oldimizga keladi. Ramziylikni aks ettirib, bizga ko'zgu bo'lib xizmat qiladi.



Bu surat "Quvnoq rohibalar" rukni ostida taqdim qilingan ilk suratlardan biri. Rohibalar – xudojo'y, tarkidunyo qilgan zohida ayol timsolida bizga tanish. Perre suratlaridagi rohibalarni biz deb qarasaq, ushbu suratda hayotimizning turli davrlarida keskin qarorlar oldida turganimizni anglatadi. Ya'ni, biz chorrahadamiz. O'z yo'limizni o'zimiz tanlaymiz. Suratda tasvirlangan to'rt rohiba bizning turli davrlarimizdagi holatimiz bo'lishi mumkin. Muhim qaror oldida turibmiz: ketish kerakmi, unda qaysi yo'ldan? Hayotimizning istalgan yoshida yangi sarguzashtni boshlashimiz mumkin. Aslida har birimiz o'z hayotimizda har kuni chorrahada bo'lamiz. Ushbu suratni men shunday talqin qildim.

Bu surat "Quvnoq rohibalar" rukni ostida taqdim qilingan ilk suratlardan biri. Rohibalar – xudojo'y, tarkidunyo qilgan zohida ayol timsolida bizga tanish. Perre suratlaridagi rohibalarni biz deb qarasaq, ushbu suratda hayotimizning turli davrlarida keskin qarorlar oldida turganimizni anglatadi. Ya'ni, biz chorrahadamiz. O'z yo'limizni o'zimiz tanlaymiz. Suratda tasvirlangan to'rt rohiba bizning turli davrlarimizdagi holatimiz bo'lishi mumkin. Muhim qaror oldida turibmiz: ketish kerakmi, unda qaysi yo'ldan? Hayotimizning istalgan yoshida yangi sarguzashtni boshlashimiz mumkin. Aslida har birimiz o'z hayotimizda har kuni chorrahada bo'lamiz. Ushbu suratni men shunday talqin qildim.

Kerol Perrining mana shu kabi barcha suratlarida turli xil voqea-hodisalar aks etgan. Bu esa talaba-rejissorlar uchun ayni fursat. Ya'ni, yaratilajak etyudning voqeasi berilgan suratda mujassam. Faqat uni jonlantirish lozim, xolos. Biz yuqorida tahlil qilgan ikki buyuk rassomning asarlari ham, ijod yo'llari ham bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi. Lekin mana shu ikki xil yo'ldagi ijod namunalaridan bir maqsadda foydalanish, ya'ni rejissorlik etyudlarini yaratish va ularni o'rganish rejissorlik va aktyorlik kurslarida tahsil olayotgan talabalar uchun ajoyib tajriba bo'ladi.

PAHLAVON MAHMUD VA JAVONMARDLIK: RAMZLAR TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Pahlavon Mahmud singari javonmardlarning faoliyat markazlari – takyagoh, langar, ostona, zoviya va xonaqoh singari so'zlar haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: langar, javonmard, takyagoh, ostona, xonaqoh.

ПАХЛАВАН МАХМУД И ВЕЛИКОДУШИЯ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИМВОЛОВ

Аннотация. На статье речь идёт о местах джаванмардов, как такягах, лангар, астана, завия, ханаках.

Ключевые слова: лангар, джаванмард, такягах, ханака.

PAHLAVAN MAHMUD AND GENEROSITY: INTERPRETATION OF SYMBOLS

Annotation. This article discusses the activity centers of generosity – words like takyagoh, langar, astana, zaviya and khanakah.

Keywords: langar, javanmard, takyagah, astana, khanakah



Pahlavon Mahmud Puryorvaliy timsolida avvalo polvonlar piri, kurashchilar rahnamosi, javonmardlar sarvari siyimosini ko'ramiz. 1827-yil Hindistonda yozilgan Muhammad G'iyosiddin binni Jaloliddin Rompuriyning "G'iyos ul-lug'at" asarida "Puryoyvaliy" laqabi pahlavonlar piriga beriladigan nom va majozan aziz va mukarram kishiga nisbatan qo'llanuvchi ism sifatida kelishi quyidagicha izohlangan: "Puryoyvaliy (علو ىايروپ) – Pahlavon Mahmud Xorazmiy laqabidir, ba'zan bu so'z murod kurashxonadagi kurashchilik ilmining kuchli hamda tajribali pahlavonlari boshlig'iga ham nisbat beriladi. Shu bois kurash tushishni xohlagan har bir kishi kurashxonaga kirishdan oldin Puryoyvaliy xokipoyini o'pishi lozim bo'lgan. Ana shu jihatdan gohida "Bahori ajam", "Charog'i Hidoyat" va "Sharhi gulgasht" asarlarida Puryoyvaliy lafzini majozan aziz va mukarram ma'nosida ham qo'llashadi"¹.

Polvonlik udumlari, futuvvat va irfonning kamolot cho'qqilari Puryoyvaliy shaxsida mujassamlashgan edi. Shu sababdan bo'lsa kerak, hanuzgacha kurashchi polvonlar uning nomi bilan qasamyod qilishadi, kurash maydonlaridagi musobaqalarida undan "Yo Puryoyvaliy" deya ul zotdan ruhiy madad tilashadi. Shuningdek, Husayn Voiz "Dorbozlar haqida" yozar ekan shunday deydi: "Bilgilki, dorbozlik ulug' bir kasbdir va bu ishning ustalari pokiza axloqlik, pok va rostgo'y bo'lishlari kerak. Bu ishda ikkita asbob muhim – biri arqon, ikkinchisi



mizon (langar). Arqon ko'prik o'rnida bo'lsa, mezon adolat tarozisi o'rnidadir. Agar mezonning nuqtasi (markazi) qanday deb so'rasalar, aytgilki, dorboz mizon – langarsiz yurolmaydi va agar qo'lida langari bo'lmasa, qo'llari langar o'rnini bosadi. Chunonchi qushlar uchayotganda ularning qanotlari langar vazifasini bajaradi. Agar mizonning dunyodagi ramzi nima, deb so'rasalar, adolat tarozisi bo'lmish xavf-u rajo (qo'rquv va umid), deb aytgil"². Qo'rquv va umidni "Iymon qushining ikki qanoti" sifatida talqin qilgan Muhammad Zohid Qo'tqu (q.s.) o'z risolasida "Xavf bilan rajo bir-biriga muhtojlikda erkak va ayol singaridir"³, deb yozarkan, ramziy ma'noda arqonni, ya'ni hayot yo'lini qo'rquv bilan qiyoslasa, langarni umid ramzi sifatida oladi.

Afsonalarga ko'ra, Xivaning avvalgi nomi Raml bo'lgan; Raml arabcha "qum ustidagi shahar" deganidir (raml ilmi, rammol kabi so'zlar qum bilan fol ochuvchi folbin, degan ma'noni bildiradi. J.M.). Hozirgi Xiva o'rnidagi bepoyon sahrodan karvoni bilan o'tayotgan Som ibn Nuh alayhissalom

¹ Muhammad G'iyosiddin ibn Jaloliddin Rompuri. G'iyos ul lug'at. – Bombay: 1827. Toshbosma. № 5605. – B.84.

² Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors-tojik tilidan N.Komilov tarj. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. –B.88.

³ Qarang: Muhammad Zohir Qo'tqu. Iymon qushining ikki qanoti. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. –B.5.

shu yerda tunashga qaror qiladi. Karvonboshi kechqurun tushida atrofi mash'ala bilan o'ralgan qal'a tasvirini ko'radi. Qal'a xuddi otasi Nuh alayhissalomning kemasiga o'xshar edi. Ertalab Som karvondagilarga ayni shu joyda qolib, qal'a qurishni buyuradi. Natijada qum ustida qal'a – shahar quriladi. Shahar bitgach, u kema shaklida bo'lgani hamda qum barxanlari ustida qurilgani sabab tebrana boshlaydi. Shunda g'oyibdan *“bu shaharning langari Pahlavon Mahmuddir”*, degan ovoz keladi. Kemaga monand qurilgan Xivaga ma'naviy pir, langar bo'lib Pahlavon Mahmud yuborilishi oldindan bashorat qilindi. *“Fatiylar langar va zoviyalarda yig'ilishgan va tarbiyalanishgan; zoviyalar ular uchun xonaqoh vazifasini o'tagan. U yerda xuddi tasavvuf ahli kabi zikr va ibodatga mashg'ul bo'lishgan”*⁴. O'zbek tili izohli lug'atida o'qiyimiz: *“Langar I [f. رگنل] Kemani va boshqa suzib yuruvchi qositalarni suv yuzida ma'lum bir joyda to'xtatib, ushlab turish uchun zanjirga biriktirib, suv ostiga tashlanadigan og'ir temir changak. Langar II [f. رگنل – dorbozar xodasi.] Dorda muvozanatni saqlash uchun dorboz qo'lda tutadigan yo'g'onroq uzun tayoq; langarcho'p”*⁵.

Ma'naviy olam sohiblari, ya'ni rijol ul-g'ayblar ham aslida dunyo muvozanatini saqlab turuvchi langarcho'plardir. Shu ma'noda biror hududning ma'naviy rahnamosi, piri murshidini langar deb atalishi bejiz emas. Masalan, Qashqadaryo viloyatida Langar ota mavzesi bo'lib, u yerdagi saqlangan Langar Qur'oni ham o'zining qadimiy tarixiga ega.

Navoiyning *“Holoti Pahlavon Muhammad”* langar va takya so'zlari sinonim sifatida qo'llangan: *“Va muloyim qit'alari ham bor. Ul jumladin biri budurkim, jo'yi “Sultoniy” yoqasida Pahlavon bir langare bunyod qilibdurki, aning ta'rifini qilmoq... va bir qatla Sultoni sohibqiron ovdin qaytg'onda ul takiyaga tushubdur va Pahlavon hozir ermas erkandur. Bu jihatdan bag'oyat mutaraddid va mutaassir bo'lubtur. Ul mahalda uzr uchun bu qit'ani aytib erdikim:*

***Takya'i moro sharaf biguzasht az charxi barin,
Po ba ro' afkanda soya soyai parvardigor.
Garchi gardun atlası xud kard poyandozi shoh,
Kosh man mebudami to joni xud kardiy nisor”***⁶.
Agar Pahlavon Mahmud davrida takyalar o'zlarini

⁵ Muhammad Riyoz. Futuvvatnoma: tarix, oyin, odob va rulum. Ba inzimomi Risolai futuvvatniyya Mir Sayyid Ali Hamadoniyy. Ta'lif, tashih va tahshiya. – Tehron: intishoroti Asotir, 1382/2004. – S.224.

⁶ O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zFA Til va adabiyot instituti: 2005. – B.486.

⁷ Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 14 tom. – T.: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. – B.93.

⁸ Qarang: Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – B.99.

⁹ Alisher Navoiy. MAT.14 tom. – T.: “Fan”, 2001.

¹⁰ Qarang: Egamqulov B. “Olam uzra nomi ketgan O'zbekiston, o'zbekim”. “Yangi O'zbekiston” gazetasi, 2021-yil, 19 iyun. №124 (380).

¹¹ Kamoliddin Sh. “O'zbekistonning tarixiy xaritalari”. INFOLIB. “Axborot-kutubona” jumali. 2020-yil № 3.

Sh.Kamoliddin. Istanbuldagi O'zbek tekkelari. // Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixiy jarayonlari va ularni o'rganishning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDSHI, 2017. – B.28.

Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: “Istiqlol”, 1999. – B.99

o'zlari iqtisodiy jihatdan quvvatlagan bo'lsa, keyinchalik bu takyagohlar ko'pincha davr podshohlari tomonidan qo'llab-quvvatlab turilgan⁷. Bu holat Navoiyning yuqoridagi asarida dalillangan: *“Sulton Sohibqiron asari inoyatidin va mahzi tarbiyatidin Pahlavonning ishi ulug' bo'ldi. Andoqki, ulug'luqq'a ta'zim qilurlar erdi va istihqoqi bor erdi va Ne'matoboddakim, aning takyasi erdi – podshoh davlatidin yuzga yaqin kushtigir yana muncha hamdin ortuq soyir xuddom Pahlavon xizmatida bor erdilarkim, yuzcha kushtigirdin o'nchasi tolabkash va yigirmaga yaqini qadargir va jaldi navxostakim, borcha ma'arakada tutarlar erdi. Hattokim, salotin zamonida ham yana o'n-o'n besh sozanda va go'yanda va xonandakim, ul silsila ahlidin hech qachon hech qaysig'a dast bergani ma'lum emas”*⁸.

Ma'lumki, javonmardlarning ko'pchiligi kurash tushish bilan mashg'ul bo'lishgan, polvonlar kurash tushadigan, yashaydigan takyalar bo'lgan. Hozirda xorijda ham takyalar bo'lib, ularning faoliyati kengaygan⁹. Tarix fanlari doktori Sh.Kamoliddin yozadi: *“Turkiyaning Istanbul shahrida o'rta asrlarda “O'zbek takkalari” nomi bilan mashhur uchta dargoh (xonaqo) bo'lib, ular Naqshbandiya so'fiylik tariqatiga mansub shayxlar va darveshlarga qarashli bo'lgan. Ulardan biri shaharning sharqiy qismidagi Uskudar tumanida joylashgan Sultontepa takkasidir. Buxoro takkasi deb atalgan yana bir dargoh Fotih tumanida Sulton Axmet maydonida Sokollu Mehmet Pasha masjidining qarshisida joylashgan. Ayyub takkasi deb ataluvchi uchinchi dargoh Ayyub masjidi yonida joylashgan. Aytishlaricha, ilgari bunday takkalarining soni 5-6 ta bo'lgan va ularning hammasi “O'zbek takkalari” deb atalgan. O'zbeklarga qarashli bu takkalarining asosiy vazifasi har yili Turkistondan keladigan va bu yerdan haj safariga yo'l oladigan musofirlarni qabul qilish va joylashtirish bo'lgan. Bu takkalar amalda Turkistonning Usmon imperiyasidagi g'ayri rasmiy madaniy elchixonalari vazifasini ham bajargan. Bu takkalar Turkistondan kelgan barcha musofirlar kelib chiqishidan qat'iy nazar “o'zbeklar” deb atalgan”*¹⁰.

Usmon Turarning *“Tasavvuf tarixi”* asarining *“Moddiy unsurlar”* bo'limida ham takyagohlar haqida shunday ma'lumot keltiriladi: *“Taky. Tariqat faoliyat ko'rsatadigan maskan bo'lib, rabot, zoviya, xonaqoh, dargoh, ostona kabi nomlar bilan ham ataladi. Faqatgina bular orasida katta-kichikligi va faoliyati jihatidan ba'zi farqlar mavjud. Ba'zan bu joylar o'sha tariqatning nomi bilan birga tilga olinadi, bular mavlaviyxona, qalandarxona va hokazo. Birtariqatning barcha takyalari o'sha tariqat shayxi joylashgan ostona yo xonaqoh degan takyaga qarashli bo'ladi. Bu takyaga “pir uyi” ham deyiladi. Takya va zoviyalar jamiyat orasida tez tarqalib, nafaqat tariqat ahliga, balki oddiy xalqqa ham ta'lim-tarbiya, madaniyat va irshod xizmati ko'rsatadigan, hatto iqtisodiy va siyosiy jihatdan jamiyatni boshqaradigan har tomonlama faol bir muassasa aylandi”*¹¹.

O'zbek adabiyoti tarixida takyador, ya'ni takya sohibi sifatida eslangan dastlabki shaxs Pahlavon Mahmud

edi. Uning takyasi o'z vaqtida ustaxona vazifasini ham bajargan. Shuning uchun vafotidan keyin uni o'z ustaxona, ya'ni takyagohiga dafn etishgan.

Hozirda Xorazm viloyati Yangiariq tumanida Ostona bobo deb nomlangan maqbara ziyoratgoh mavjud bo'lib, unda davrining, aniqrog'i Pahlavon Mahmudga zamondosh bo'lgan yana bir kurashchi polvon va avliyo shayx Muxtor Valiyning qabri bor. Shu o'rinda "Xazrati Pahlavon ota a.r. hikoyati" manobidagi keltirilgan ushbu so'zlarga e'tibor qaratamiz: "...qachonki Xiva ko'chalaridan Shayx Muxtor Valiy eshak minib o'tsalar, yosh Mahmudning ularning eshagining quyruq'idan ushlab turar edilar, eshak yurolmas edi, shunda Shayx Muxtor Valiy: - o'g'lim, siz ziyoda pahlavon yigitsiz, qo'yib yuboring, der, bundan boshqa so'z aytmasdi"¹². Biz manbalarda keltirilgan bunday ma'lumotlar asosida quyidagi xulosani chiqaramiz:

1. Shayx Muxtor Valiy o'sib kelayotgan yosh polvon – Pahlavon Mahmudni Xivaning haqiqiy himoyachisi bo'lishini bilgan va o'z ostonasi, ya'ni xonaqohini Xiva tumaniga yaqin bo'lgan Yangiariqqa ko'chirgan, zero, shayx bitta joyda ikkita polvon qo'riqchining kerak emasligi, o'z faoliyatini boshqa hududda olib borishi lozimligini sezgan.

2. Shayx Muxtor Valiy asli javonmardlar sirasiga kiruvchi avliyo ekanligidan u qurdirgan maskan Ostona, ya'ni darveshlarga, yo'lovchilarga qo'nimgoh sifatida faoliyat ko'rsatgan.

3. Xiva va Yangiariq tumanlarining yaqin masofada, chegaradosh ekanini hisobga olsak, bu davrdagi javonmardlar aslida bir-biridan xabar olib turuvchi birodarlar, vatanparvar takyagoh va ostona sohiblari bo'lishgan.

Umuman, ostona ham takyagoh singari polvonlar kurash tushadigan, javonmardlar yashaydigan joy bo'lgan. Kurashchi yoki sipohiy javonmardlardan tashqari hunarmand javonmardlar ham tariqatda faoliyat yuritishgan. Bu guruh toifa javonmardlar ham shaharlarda o'zlarining yig'ilishi uchun "langar", "takya" va "ostona" deb nomlangan bir qancha yig'ilish maskanlarini tashkil etishgan.

Endi javonmardlarning kiyimlari xususida to'xtaladigan bo'lsak, bosh kiyimlardan biri kuloh bo'lgan. Kuloh haqida Husayn Voiz shunday yozadi:

"Bilgilkim, hozirgi zamonda qariyb hamma darveshlar va tariqat ahlining kulohlari kigizdan bo'lib, uni mavlaviy kulohi deydlar. Agar kigiz kuloh kimdan (meros) qolgan, deb so'rasalar, hazrat Jaloliddin Mavlaviy Rumiydan deb ayt. Ul kishi shunday toj kiyib yurishni odat qilgandirlar. Agar bunday kulohni kimlar kiyishi kerak, deb so'rasalar, degilki, ishq bayrog'ini mardlik maydoni uzra ko'targan va farzonalikda sarbaland bo'lganlar shunday kulohga munosibdirlar. Agar teri kuloh kimga yarashadi, deb so'rasalar, javob berib aytgil: (birovga) naf yetkazish uchun fido bo'lishga tayyor boshga yarashadi. Bunday kulohlar aksar qo'y terisidan tikiladi. Bas, kimki teri kuloh kiysa, u xalqqa foyda yetkazadigan, boshini pir farmoni chizg'idan tashqari chiqarmaydigan va boshiga nima kelsa qaytmaydigan bo'ladi"¹³. Ma'lum bo'ladiki, kuloh kiyishning o'ziga xos ramziy ma'nolari bo'lgan. Birinchidan, kulohning qaysi matodan ekanligiga e'tibor berilgan. Ikkinchidan, kulohning qanday shaklda tikilishi tariqat yo'liga kirgan so'fiyning darajasi, maqsadi va tariqatini ham bildirib turgan. Sayyid Ali Hamadoniy ham kulohbof bo'lgani bejiz bo'lmagan. "Xulosat-ul-manoqib" kitobida Hamadoniy o'zi haqida bir voqeani keltiradi. Kunlardan bir kuni otasining yaqin bir oshnosi Sayyid Shahobuddin yo'lda Hamadoniya uchrabdi va unga 200 dinor hadya beribdi. Sayid o'sha kuni bir qancha darvesh va oddiy kishilarni to'plab, yuz dinorni xarjlab mehmon qilibdi. Shu zaylda kech kiribdi. Hamadoniy uyqusida Rasuli Akramni ziyorat qilibdi. Payg'ambarimiz shayxni bunday tekin pulni olmoq va mehnatsiz narsani qo'lga kiritmog'ini man etibdi va unga: "Sen halol kasb evaziga rizqu ro'zi topmog'ing lozim", deb aytibdi. Shundan so'ng Sayid Hamadoniy qalpoq tikish bilan tirikchilik qilishni boshlagan ekan, uning aksariyat muridlari ham biron kasb egasi yoki hunarmandlardan bo'lishgan. Shayx tufayli Kashmirdagi "Bog'i Sulaymon" mahallasidagi hunarmandchilik borgan sari rivojlanib, obodlashib ketgan¹⁴.

Xulosa qilib aytganda, javonmardlarning asosiy maqsadi, ma'lum bir kasb bilan mashg'ul bo'lgan holda uning foydasini xalq bilan baham ko'rish edi. Shu sababdan bu jamoaga hunarsiz insonni kiritishmagan.

¹¹ Kamoliddin Sh. "O'zbekistonning tarixiy xaritalari". INFOLIB. "Axborot-kutubona" jurnali. 2020-yil № 3.

Sh.Kamoliddin. Istanbuldagi O'zbek tekkellari. // Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixiy jarayonlari va ularni o'rganishning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: TDSHI, 2017. – B.28.

¹¹ Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. – T.: "Istiqlol", 1999. – B.99

¹² Xazrati Pahlavon ota (a.r.) kitobi. ЎзРФАШИ (кўлэзма). – № 2069. – B.12.

¹³ Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati (fors-tojik tilidan N.Komilov tarjimasi). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – B.46.

¹⁴ Homidiy H. Ko'hna Sharq darg'alari. – T.: "Sharq", 1999. – B.155.

SAN'ATNING SEHRLI KUCHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada art-terapiya turlari va uning inson hayoti hamda rivojidadagi qo'llanilishiga oid qarashlar yoritilgan. Art-terapiyaning adabiyotga, tasviriy va amaliy san'atga, musiqa, teatr va foto san'atiga asoslangan turlari haqida va ularning inson ongiga bo'lgan ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: art-terapiya, biblioterapiya, ertakterapiya, fototerapiya, musiqaterapiya, teatr terapiyasi, izoterapiya, imagoterapiya, neyrografika.

МАГИЧЕСКАЯ СИЛА ИСКУССТВА

Аннотация. В этой статье рассматриваются виды арт-терапии и ее применение в жизни и развитии человека. Искусство – это виды терапии, основанные на литературе, изобразительном и прикладном искусстве, музыке, театре и фотоискусстве, и рассматривается их влияние на человеческий разум.

Ключевые слова: арт-терапия, библиотерапия, эртактерапия, фототерапия, музыкотерапия, театротерапия, изотерапия, имаготерапия, нейрография.

THE MAGICAL POWER OF ART

Annotation. this article covers the types of art-therapy and its application in human life and development. Art is about the types of therapy based on literature, visual and applied art, music, theater and photo art, and their influence on the human mind is covered.

Keywords: art-therapy, bibliotherapy, fairytale therapy, phototherapy, musicotherapy, theater therapy, isotherapy, imagotherapy, neurography.

San'at sehrlı ta'sir kuchiga ega. Ming yillar davomida san'at insonni rivojlanishga turtki berib kelgan, uning badiiy didini yuksaltirgan, dunyoqarashini kengaytirgan. Har doim insonning aqliy, ma'naviy va moddiy dunyosini boyitishga, go'zallashtirishga xizmat qilgan. Bugungi kunda san'at turlaridan davolash vositasi sifatida foydalaniladi. Asosan, tibbiyot va psixologiya sohalarida keng qo'llaniladigan san'at yordamida insonni davolash art-terapiya deb nomlanadi.

Mazkur atama XX asr 30-yillarida yevporalik Adrian Xill [6.B.46.] va amerikalik Margaret Naumburglar tomonidan fanga kiritilgan bo'lsa-da, insoniyat art-terapiya metodlaridan intuitiv ravishda ibtidoiy jamoa davridan beri foydalanib kelmoqda. Jumladan, ov oldidan ibtidoiy odamlar marosim raqsini ijro etishgan. Bu raqsga juda katta e'tibor berishgan va ov oldidan raqs ijro etilsa, ertangi ov baroridan kelishiga ishonishgan. Bugungi kunda mazkur metod fanda vizualizatsiya deb ataladi. Inson o'z kelajagini fikrlari, e'tiqodi va ishonchi orqali yaratishi allaqachon o'z tasdig'ini topgan. Antik davrning buyuk faylasufi Aristotel san'atning shifobaxsh xususiyati borligiga e'tibor qaratib, "San'at bilan qurollanib davola!" [2. B.46.] deya xitob qilgan.

Sharqning buyuk mutafakakkirlari Abu Ali ibn Sino, al-Farobiy asarlarida art-terapiya metodlari yordamida davolashga katta e'tibor qaratilgan. O'rta asrning buyuk olimi Abu Nasr Forobiy odamga musiqa-ning ta'siri nazariyasida inson jismoniy sog'lig'ining ruhiy holati birligini chuqur anglagan holda ruhiy-jismoniy asoslarga tayanadi. Abu Ali ibn Sinoning ilmiy ishlarida bu nazariya yanada to'laroq ochib berilgan. Olim o'tmishdoshlari g'oyalari rivojlantirib, inson vujudidagi ruhiy va jismoniy o'zaro shartlilik va birlikni

tushunishdan kelib chiqqan holda yaxlit musiqa-muolaja maktabini yaratdi [3.B.41].

Hatto tasavvuf ilmida ham ruhiy kamolotga yetishishda art-terapiyaga monand vositalardan foydalanilgan. So'fiylar zikri raqs san'ati asosiga qurilgani fikrimizning tasdig'idir. Bugungi kunda inson ongi va ong osti bilan ishlashda art-terapiyaning quyidagi turlari shakllangan:

Abadiyotga asoslangan art-terapiya ikki turga bo'linadi. Birinchi eng qadimiy turlardan biri bu ertakterapiya hisoblanadi. Ertakterapiya barcha xalqlar juda qadimdan bilishgan. Inson ongi 7 yoshgacha 5 ta his qilish organi: ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va teri orqali sezish vositasi dunyo haqidagi barcha axborotni o'zida to'playdi. Natijada, inson ongi shu ma'lumotlarga asoslangan holda o'z kelajagi uchun hayotiy ssenariyni tanlaydi. Bolaning paydo bo'lishi, ona qornidagi jarayon, tug'ilishi va 7 yoshgacha bo'lgan payt juda muhim davr hisoblanadi. Unga kiritilayotgan har bir ma'lumot kelajakda inson shahsiyati binosiga qo'yilayotgan bir g'ishtdir. Aytilayotgan har bir so'z juda muhim. Bolaga o'qib, aytib berilayotgan ertaklar orqali uning ongiga dastur, hayotiy ssenariylar yozib borilgan. Xalq ertaklari asosida ezgulikning yozuvlik ustidan g'alabasi, mehnatsevarlik g'oyalari, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, yolg'on gapirmaslik kabi tushunchalar ertak voqealari va qahramonlari vositasida bola ongiga kiritib borilgan [1.B.63]. Bugungi kunda psixoterapevtlar bolalardagi ba'zi kasallik va illatlarni yo'qotish uchun ertaklar yaratishadi. Juda ko'p bolalardan 3 oydan 6 oygacha mazkur ertakterapiyani eshitish asnosida enurez, enkorpez, tutqanoq, yolg'on gapirish, agressiya kabi kasallik va yomon xulq ko'rinishlari davolangan. O'zbekiston amaliy

psixologlari bu metoddan keng foydalanadi. Hatto, katta insonlarda ham bu metod o'z samarasini bergan. O'zbekiston amaliy psixologiyasida rovitalk mobil ilovasi orqali psixoterapevtik ertaklar o'zbek va rus tillarida qo'llanilib kelinadi. Ertakterapiyaning tasviriy san'atga va teatr san'atiga asoslangan turlari ham mavjud.

Ikkinchi adabiyotga asoslangan art-terapiya turi bu – biblioterapiyadir. Biblioterapiya kitob vositasida inson ongini davolash va uning tushunchalarini o'zgartirish hisoblanadi. Ko'p kitob o'qigan insonlarning dunyoqarashi keng bo'lishi bejiz emas. Ular turli hayot yo'llari ssenariysini qahramon bilan birga kechib o'tadilar. Shunday kitoblar borki, inson muammolariga yechim bera oladi, ongni transformatsiyaga olib keladi. Ba'zan bir kitob o'qigandan keyin inson uni ta'sirida yurishi ong ostidagi transformatsion jarayonlardan darak beradi. Kitob vositasida ruhiy ulg'ayish, anglash, o'sish, muammolarga yechim topish juda keng qo'llaniladi, hatto bu intuitiv darajada uchraydi. Ilmiy asarlarga murojaat qilish har qanday mutaxassisni professional darajaga olib chiqishini barcha tadqiqotchilar tushunadi. Zero, Qur'oni karimdagi ilk so'z "Iqro" ya'ni o'qi ekanligi ham bejiz emas. Inson to umrining oxiriga qadar ong ostida "Men kimman?" degan savolga javob izlashi bugungi kun olimlari tomonidan isbotlangan. Biblioterapiya mazkur savolga kitoblar orqali javob topish metodidir. O'tmishda ota-bobolarimiz uzun qish kechalari sandalda diniy, badiiy kitoblarni o'qib, ularning chuqur ma'nolarini anglashga urinishgan. Mazkur jarayonda inson aqli ma'naviy ozuqa olgan, tafakkur qilgan. So'fiylar ta'limotining asosi ham biblioterapiyaga qurilgan. Ustoz o'z shogirdlariga Qur'oni karim, Hadisi sharif, yetuklik darajasiga yetgan piru komillar asarlarini o'qib, sharhlab, ma'nolar mahzanini tushuntirib bergan.

Art-terapiyaning keyingi turi bu **tasviriy san'atga asoslangan art-terapiya** bo'lib, o'zida mingdan ortiq metodlarni birlashtiradi. Inson ongi, ong osti bilan ishlashda eng samarali metod. Ichki bloklar, qo'rquvlar, negativlar tasvir vositasida aniq ochiladi. Bu hali insonda nutq shakllanmagan bir vaqtda, inson o'zi ifodalashga harakat qilgan va tasvir yordamida buni amalga oshirgan. Shu sababdan art-terapiyaning tasviriy san'atga asoslangan turi, bu eng qadimiysi hisoblanadi. Tasviriy san'atga asoslangan metodlar ong ostida yashirin e'tiqod va emotsiyani ifodalashda katta natijalarga olib keladi. Tasviriy san'atga asoslangan art-terapiya ong va ong ostidagi obrazlar bilan ishlaydi, ularni o'zgartirishda, ayniqsa, foydali. Izoterapiya, imagoterapiya, neyrografika, mandalaterapiya kabi metodlari juda mashhur. Har qanday tasvir va rang asosida inson ongi hamda ong osti muammolarini yechishga qaratilgan usullar majmuasini izoterapiya tashkil qiladi [4. B.10].

Imagoterapiya muammolar yechimiga bag'ishlangan metod bo'lib, obrazlar vositasida inson ong ostida qolib ketgan tushunchalar o'zgartiriladi. Neyrografika art-terapiyada eng yosh va mashhur metodlardan biri hisoblanadi. Unga ham rassom, ham psixolog Pavel Piskarev 2014-yilda asos solingan. Neyronlar

algoritmi asosida inson ongiga yechim berish mazkur metodning asosi hisoblanadi. Olamning yaxlitligi modellashtiriladi. Bundan tashqari **amaliy san'atga asoslangan** qumterapiyasi, plastilin, loy vositasida amalga oshiriladigan metodlarda insondagi alam, qo'rquv bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Matoterapiyasi "самооценка" – insonning o'ziga bo'lgan bahosini oshirishda yaxshi natijalarga olib keladi.

Musiqaterapiya – bu eng qadimiy art-terapiya turlaridan biri. Hatto, ba'zi diniy manbalarda insonga ruh nay sadosi yordamida kiritilganligi haqida fikrlar mavjud. Musiqa yordamida meditatif holatga tezroq tushiladi, inson tez bo'shshadi. Hozirgi kunda musiqa terapiyasi tibbiyot va psixologiyada foydalaniladi. U ta'sir etishning ikki jihatiga asoslanadi: psixosomatik (tana funksiyalariga terapevtik ta'sir etuvchi) va psixoterapiya (musiqa bilan shaxs rivojlanishidagi og'ishlarni tuzatish, psixo-emotsional holatni yaxshilash). Bu musiqaning katartik (tozalash) ta'siri bo'lib, uni rivojlanish muammolari bo'lgan insonlar bilan korreksiyada ishlatish imkonini beradi.

Musiqiy asar g'oyasini amalga oshirish jarayonida ijrochining qayta mujassamlanishining psixologik xususiyati tinglovchilarga qaratilgan. Ish jarayonida ijrochi doimo uning talqini o'qituvchilar, talabalar, do'stlar yoki noma'lum tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinishi haqida o'ylaydi va xayolida o'z ijrosining tanqidchisiga aylanadi. Mashhur pianinochi G.Neygauz shogirdlariga tinglovchilarning qanday qabul qilishlarini tasavvur etish uchun asar ijrosini quloqchilarni taqqan holda amalga oshirishni tavsiya etgan. Ushbu mahoratni rivojlantirishda zamonaviy texnik vositalar (ovoz yozish, videomagnitofon) dan unumli foydalaniladi. Aksariyat metodistlarning fikricha, o'z ijrochiligining tinglovchilarning qanday qabul qilishini idrok etishi ijrochining ommaviy namoyishlarga tayyorligining ko'rsatkichlaridan biridir.

Konsertdan oldingi davr ko'plab ijrochilarda erta namoyishdan avvalgi emotsional holatlarga olib keladi. *“Bu davrda, – deydi G.M.Kogan, – asosiysi cholg'uning yaxshi holati, tafakkur qila olish qobiliyati va tananing optimal ish holati. Ijrochi sahnadan tashqarida eslab olish uchun asar bo'laklarini ijro qilmasligi kerak. Asar butkur tayyor holatga olib chiqiqilishi uchun to'liq yoki katta-katta fragmentlari bilan zaruriy sur'atda ijro etilishi lozim”*⁵.

Tajribali musiqachilar ko'p hollarda konsertdan oldingi davrda darslarning intensivligini kamaytirishni tavsiya qiladilar. Konsertga to'g'ridan-to'g'ri tayyorgarlik bu, birinchi navbatda, ish va dam olishning uyg'un kombinatsiyasi sanaladi. Yaxshi ruhiy holatni saqlab qolish juda muhim, shuning uchun har qanday salbiy his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

Yana bir bosqichni, ya'ni sahnadagi ijrochining ijodi bilan bevosita bog'liq bo'lgan vaziyatli psixologik tayyorgarlik bosqichini ajratib ko'rsatish kerak. Uning mohiyati musiqiy asarga maksimal darajada e'tibor qaratish, musiqiy asarni ijro etishni boshlashga to'liq tayyorlik lahzani aniqlashdir. Ushbu bosqichni konsentratsiya bosqichi, deb atash mumkin. Bu yaqinlashib kelayotgan faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan barcha ta'sirlarni ongidan chiqarib tashlash, deb tavsiflanadi. Bu *“asar ichiga kirish”*, *“ijroga sho'ng'ish”*ning shartlaridan biridir.

Har bir ijrochi o'z shaxsiy konsentratsiyasini, ya'ni diqqatni jamlash uslubini rivojlantiradi. Ko'pgina o'qituvchilar talabalarga tempni, teginish tabiatini, ongidagi birinchi notalarning tovushlarini haqiqiy ijro boshlanishidan oldin aniqlashni, ya'ni barmoqlar tugmachalarga tegmasdan oldin asarni aqlan boshlashni maslahat berishadi. Boshqalar ijroni boshlashdan oldin diqqatni jamlash,

² Резников В. Заповедная музыкальная педагогика. – Москва: «Известные», 1980.

³ Matyakubov Sh.B. An'anaviy ijrochilik tarixi. – Toshkent: 2015.

⁴ Логинова Н.А. Борис Герасимович Ананьев: Биография. Воспоминания. Материалы. – СПб.: Издательство Санкт-Петербургского ун-та., 2006.

⁵ Коган Г. У врата мастерства. – М.: 1997.

zo'riqishni bartaraf etish, vaziyatni yengillashtirish va chalg'itishga yordam beradigan turli xil usullarga murojaat qilishadi. Ba'zi ijrochilarga sahnada diqqatni jamlash uchun qo'shimcha texnikalar kerak emas. Bu shubhasiz, aqliy jarayonlarning individual va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari ba'zi umumiy qoidalar, vaziyatga tayyorgarlik bosqichlari mavjud. Birinchisi, diqqatning "umumiy" konsentratsiyasi, yaqinlashib kelayotgan faoliyatni o'rnatish bilan bog'liq holda ongni safarbar qilish bilan tavsiflanadi. Talabaga ijro etiladigan musiqiy asarning shakli, tuzilishi, xarakteri, eng muhim qismlarini taqdim etishni tavsiya qilish mumkin. Tayyorlov o'qitish funksiyasi tufayli zarur hissiy fon yaratiladi. Ikkinchi bosqichda, ongning ijro boshlanishiga yakuniy tayyorlik lahzani aniqlashiga qaratilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, biz konsert yoki sahna namoyishiga psixologik tayyorgarlikning to'rt bosqichini ajratamiz:

1. *Dastlabki tayyorgarlik bosqichi. Bu bo'lajak konsert (tanlov) haqidagi ma'lumotlarni tushunish va tayyorgarlik darajasi o'z-o'zini baholash asosida*

ommaviy namoyishga tayyorgarlik ko'rish haqida qaror qabul qilishdan iborat.

2. *Asosiy mashg'ulot bosqichi: dastur ustida ishlash, ijobiy motivatsiyani shakllantirish, ijodiy intilishlarni amalga oshirishga ishonch, kutilgan ishlash sharoitlariga munosabat bilan darslarni rejalashtirish va tashkil etish.*

3. *Konsertdan oldingi davr bilan bog'liq to'g'ridan-to'g'ri tayyorgarlik bosqichi. Bunga quyidagilar kiradi: yaqinlashib kelayotgan ommaviy ijro kontekstida dasturiy faoliyat-mashq qilish, konsert oldidan optimal ruhiy holatni shakllantirish.*

4. *Vaziyatli psixologik tayyorgarlik bosqichi. Uning mohiyati ma'lum bir musiqa asarini ijro etish uchun psixologik tayyorgarlikni, musiqachining bo'lajak ijroga e'tiborining maksimal konsentratsiyasini yaratishdan iborat.*

Ushbu tayyorgarlik bosqichlarining har biri vazifalar, vositalar va ularni hal qilish usullari tufayli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq barcha bosqichlarda umumiy vazifa, bu ommaviy namoyishlar (imtihon, konsert, tanlov)ga ruhiy tayyorlik holatini shakllantirishdir.

MANFAATLAR TO'QNASHUVINI TARTIBGA SOLISH KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING USTUVOR YO'NALISHLARIDAN BIRIDIR

Annotatsiya. Maqolada manfaatlar to'qnashuvi shakllari, uning oqibatlari, davlat xizmatida, shu jumladan, ta'lim tizimida manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etishning huquqiy asoslari va amaliy jihatlari haqida fikr yuritilgan va tahliliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiya, jamiyat, normativ-huquqiy hujjatlar, jamoatchilik nazorati, ta'lim tizimi, daxldorlik.

РЕГУЛИРОВАНИЕ КОНФЛИКТА ИНТЕРЕСОВ – ОДНО ИЗ ПРИОРИТЕТНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ

Аннотация. В статье рассматриваются формы конфликта интересов, его последствия, правовая основа и практические аспекты устранения конфликта интересов на государственной службе, в том числе в системе образования, даются аналитические рекомендации.

Ключевые слова: конфликт интересов, коррупция, общество, правовые документы, общественный контроль, система образования, вовлечение.

MANAGEMENT OF CONFLICTS OF INTEREST IS ONE OF THE PRIORITY DIRECTIONS OF THE FIGHT AGAINST CORRUPTION

Abstract. The article discusses the forms of a conflict of interest, its consequences, the legal basis and practical aspects of eliminating a conflict of interest in the public service, including in the education system, and provides analytical recommendations.

Keywords: conflict of interest, corruption, society, legal documents, public control, education system, involvement.



O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyatning rivoji yo'lida olib borilayotgan islohotlarga, xalqimizning qonun ustuvorligi bilan kafolatlangan adolatga bo'lgan ishonchiga jiddiy putur yetkazadigan xavflardan biri bo'lgan – korrupsiya xavfining oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi ishlar izchillik bilan amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020-yil 27-oktabrdagi "Xizmat jarayonida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish hamda xodimlarning huquq va majburiyatlarini belgilash to'g'risida"gi 565-son buyrug'iga ko'ra "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi markaziy apparati, tizimdagi tashkilotlar, oliy va o'rta maxsus, profesional ta'lim muassasalari, Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari xodimlarining xizmat jarayonida **manfaatlar to'qnashuvini** tartibga solish qoidalari" bilan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari va xodimlarini tanishtirish hamda unga rioya etilishi yuzasidan joylarda tushuntirish ishlari olib borish vazifasi yuklatilganligini ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, bu mavzu hozirgi kunda eng aktual masalalardan biri hisoblanib, yuqorida qayd etilganidek korrupsiya xavfining oldini olish va unga qarshi kurashish yo'lida, korrupsiya xavfini keltirib chiqarishga asosiy sababalaridan biri bo'lgan **manfaatlar to'qnashuvi** nima ekanligini o'rganishimizga va uning mazmun-mohiyatini anglab yetishimizga ijobiy turki bo'lishi mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvi iborasi va tushunchasi sir emaski, hozirgi kunda ko'pchilikka notanish iboradek tuyulishi mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri

bizning har doim ham amaldagi qonunlarimizni, ularning moddalari mazmun-mohiyatini yetarlicha o'rganishga yoki anglab yetishga zarur fursatni topa olmayotganimizdadir. Shuninguchun ijtimoiy hayotimizda amaldagi mavjud qonunlarni o'rganmaganligimiz yoki ularning mazmun-mohiyatini tushunib yetmaganligimiz oqibatida, o'zimiz xohlamagan tarzda huquqbuzarlik xatti-harakatlarini sodir qilib qo'yamiz yoki xoh u katta bo'lsin, xoh u kichik bo'lsin jinoyatchilikka aralashib qolamiz va keyinchalik o'zimizga dushman bo'luvchi pushaymonlikka yuz tutamiz.

Qonunchiligimizda "Qonunni bilmaslik hech kimni javobgarlikdan ozod qilmaydi", degan adolatli ibora bor. Demak har qanday inson qanday kasb egasi bo'lmasin, mehnat faoliyatida yoki o'zining ijtimoiy hayotida halol va pok yashab umrini mazmunli o'tkazishi uchun amaldagi qonunchiligimizni o'rganishi ularning mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetishga harakat qilishi lozim.

Maqolamizning asosiy mavzusi bo'lgan **manfaatlar to'qnashuvi** tushunchasining mazmun-mohiyatini anglab yetishimizda eng zarur manba hisoblanuvchi **korrupsiya** to'g'risida har birimizga zaurur bo'lgan fikr-mulohazalar bilan o'rtoqlashamiz.

Kelinglar, **Korrupsiya nima?** degan savolga javob berib o'tishga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida korrupsiyaga quyidagicha ta'rif va tushunchalar berilgan:

Korrupsiya – bu har qanday shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi,

xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik esa – har qanday shaxs tomonidan korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish tushuniladi.

Korrupsiyani vujudga kelishidagi quyidagi omillarga nazar tashlaydigan bo'lsak ko'rinib turibdiki, korrupsiyaga bevosita shaxsning mehnat faoliyati bilan bog'liq jarayonlar ko'proq sabab bo'lishi mumkin ekan:

- *shaxsning mehnat faoliyati bo'yicha egallab turgan lavozimi yoki mansabi orqali o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida noqonuniy manfaat olishga urinishi;*

- *shaxsning xizmat mavqeidan foydalangan holda o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi;*

- *davlat organlari va tashkilotlarida ishlovchi shaxslarning o'z amalidan foydalanib shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'yishlari, pora evaziga sotilishlari yoki sotib olinishlari;*

- *o'zgaralar ishonchiga kirib, ular uchun ma'lum bir mablag' evaziga noqonuniy xizmatlar ko'rsatishga urinish;*

- *ma'lum miqdordagi mablag'larni olish evaziga sodir qilingan jinoyatlarni yashirishga yoki jinoyatlar tafsilotlarni, rasmiy hujjatlarni noqonuniy o'zgartirishga urinish.*

Korrupsiyaning ko'rinishi turlicha bo'lishi mumkin. Biz ko'pincha **korrupsiya** deganda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210 - Pora olish, **211 - Pora berish yoki 212 - Pora olish-berishda vositachilik qilish** moddalari bilan bog'liq qilmishlarni tushunish bilan cheklanamiz.

Lekin Jinoyat kodeksning "Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar" bo'yicha beshinchi bo'limidagi "Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar" deb nomlagan XV bobida korrupsiyaning ko'rinishi yoki belgilarini yana quyidagi alohida moddalarda qayd etilganligini ko'rishimiz mumkin:

- *209 modda - Mansab soxtakorligi; 213-modda - Davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish; 214-modda - Davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi xizmatchisining qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo'lishi.*

Ko'rinib turibdiki, korrupsiyani vujudga keltiruvchi omillar xilma-xil bo'lib, bu omillar bo'yicha qilmishlarning bir-biriga bog'liqligi inkor etib bo'lmaydigan holatlardir va mana shunday bog'liqlikning yana bir omili bu manfaatlar to'qnashuvi ekanligi to'g'risida fikr yuritimiz.

Manfaatlar to'qnashuvining asl mazmun-mohiyatini va uning korrupsiya omillaridan biri ekanligini angalab yetishimiz uchun biz O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga e'tiborimizni qaratishimiz kerak, deb hisoblayman.

Masalan: O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 4-yanvardan boshlab kuchga kirgan "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Qonuni"ning 21-moddasida **Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida** quyidagi talablar belgilangan:

1. *Davlat organlarining xodimlari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi kerak.*

2. *Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, davlat organlarining xodimlari o'zining bevosita rahbarini darhol xabardor qilishi kerak.*

3. *Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart.*

4. *Davlat organlarining maxsus bo'linmalari yoki odob komissiyalari manfaatlar to'qnashuvini hal etish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.*

5. *Davlat organlarining manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yoki uni bartaraf etish talablari buzilishiga yo'l qo'yg'an xodimlari, shuningdek, ularning rahbarlari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.*

Demak, **manfaatlar to'qnashuvining** vujudga kelishidan korrupsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar paydo bo'lishini hisobga olgan holda aynan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish katta ahamiyatga ega ekanligini hayotiy misollarda ko'rib chiqishimiz mumkin.

Buning uchun **manfaatlar to'qnashuvi** iborasini ya'nada teranroq anglab yetishimiz uchun soddaroq fikrlashga xarakat qilib ko'ramiz. Har inson o'z hayotida nima yoki qanday harakat qilmasin, albatta, biron-bir manfaatni ko'zlashi ayni haqiqatdir. Chunki har birimiz o'z harakatimizdan ijobiy maqsad va natijalarni ko'zlaymiz. Bu maqsad va natijalar, o'zimizni, oilamizni yoki yaqinlarimiz manfaati uchun amalga oshirilishini oldindan rejalashtiramiz hamda ushbu maqsad yo'lida bor kuch-g'ayratimizni, bilimimizni sarf qilamiz. Ushbu fikrlarimizni korrupsiyaviy qilmishlarga sabab bo'luvchi manfaatlar to'qnashuviga aloqasi bormi, degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Albatta bor. E'tibor bering, biz yuqorida qayd etib o'tgan maqsad va harakatlarimizni amalga oshirish bilan ijobiy natijalarga erishishni istashimiz ba'zida bilib-bilmay huquqbuzarlik, noqonuniy xatti-harakatlar yoki qonunni chetlab o'tishga undovchi qilmishlarni sodir etib qo'yishimizga olib keladi. Bu voqealarni ko'proq o'zimiz mehnat faoliyatimizni olib borayotgan ish xonalarda kuzatishimiz mumkin. Ba'zida insonning shaxsiy manfaati ish xonasi manfaatidan ustunroq ko'ringanday bo'lib tuyiladi va insonni korrupsiyaviy qilmishlarga yetaklaydi. Bu qanday ayanchli oqibatlariga olib kelishini hammamiz yaxshi bilamiz.

Lekin insonni shaxsiy manfaatlarini ish xonasi yoki mehnat faoliyati bilan bog'liq manfaatlardan keyin ikkinchi darajada qo'yishi ham mumkin. Bunda u shaxsiy manfaatlari orqasidan ijobiy natijalarga erishish ehtimoli bor. Bu yerda biz ahamiyat berishimiz kerak bo'lgan asosiy muhim narsa shuki, bizning manfaatlarimiz hech qachon mehnat faoliyatimiz davom etayotgan, buning orqasidan oilamiz uchun muhim daromad manbai bo'lgan ish xonamiz manfaatlari bilan to'qnash kelmasligini anglab yetishimiz kerak. Shuning uchun davlat organlari va tashkilotlarida "manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish qoidalari"ni joriy etilishi va ishchi xodimlarni ushbu qoidalarga muntazam ravishda rioya etishlari davlatimizning korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha olib borayotgan siyosatining ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini e'tirof etishimiz kerak bo'ladi.



V BO' LIM E'TIROF

Beknazar DO'STMURODOV,
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasini mudiri v.b.
O'zbekiston xalq hofizi, professor

O'ZBEKISTON XALQ HOFIZINI YOD ETIB...

Annotatsiya. Ushbu maqolada, O'zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamovning hayot va ijod yo'llari qalamga olingan. Shuningdek, milliy mumtoz qo'shiqchiligimizda ijrochilik va ijro madaniyatini yuksaltirish, mumtoz qo'shiqlarimizni kuylashning o'ziga xos yo'llari, kuylashning muayyan qonun-qoidalari, ijro saviyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: mumtoz, milliy, ovoz, kuylash, qo'shiqchilik, san'at, betakror ovoz, ma'naviy boylik.

ПОМНЯ ПАМЯТИ НАРОДА УЗБЕКИСТАНА...

Аннотация. В данной статье написан жизненный и творческий путь народного хафиза Узбекистана Арифхана Хотамова. Также в нашем национальном классическом пении идет речь о воспитании исполнительской и исполнительской культуры, конкретных способах исполнения наших классических песен, определенных правилах пения, уровне исполнения.

Ключевые слова: классика, народный, голос, пение, искусство, неповторимый голос, духовное богатство, творческая деятельность.

REMEMBERING THE MEMORY OF THE UZBEKISTAN PEOPLE...

Annotation. This article describes the life and creative path of the people's hafiz of Uzbekistan Arifkhan Khotamov. Also, in our national classical singing, there is talk about the cultivation of performance and performance culture, specific ways of singing our classical songs, certain rules of singing, and the level of performance.

Keywords: classic, national, voice, singing, art, unique voice, spiritual wealth, creative activity, real art, singer's heritage, famous artists.



Ajdodlarimiz musiqa va qo'shiqchilik san'atining inson shaxsini kamol toptirish, oliyanob insoniy fazilatlarini tarbiyalashdagi hissasini yuksak baholagan. Bu meros asrlar davomida yangi-yangi to'ldirilgan ijrolar bilan sayqallanib boravergan. Shu o'rinda aytish joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda musiqiy madaniyatimizni yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o'ziga xos betakror ijrochilik mahoratini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan milliy qo'shiqchilik san'atini ravnaq toptirish, uning an'ana hamda maktablarini boyitish, bu yo'lda samarali mehnat qilgan ijodkorlar xotirasini hurmatlash, ijodiy faoliyatini keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ta'kidlanganidek: "Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abadiy saqlaymiz. Bukilmas



iroda, fidoyilik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz"¹.

Musiqa qonunlari sirli olami, uning kuchi hamda ta'siri juda cheksizdir. Mukammal darajadagi har qanday sado ajib bir sehr taratib, tinglovchini o'ziga maftun etadi. Shu bois, otashnafas xonishlari kishilar e'tiboriga tushgan san'atkor, insoniyatning e'zozidagi ijodkor sifatida e'tirof etiladi. O'zbek musiqa dunyosida el faxriga aylanib, qalblarda yashab kelayotgan san'atkorlar ko'plab topiladi. Ana shunday betakror ovoz sohiblari va ijrochilikda xalqimizning e'zoziga aylangan hofizlardan

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: "O'zbekistan", 2016. – B.56.

biri Orifxon Hotamovdir. Musiqa san'ati o'zining qadimiyligi, janrlarga boyligi, mazmunan va mohiyatan keng qamrovliligi, ommaviyligi bilan jamiyat turmush hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurishida ustozning xizmatlari beqiyosdir. *“Orifxon Hotamov mumtoz musiqa merosiga ulkan hissa qo'shdi. Buni biz, avvalo sozandalikda, xonandalikda, hamnafaslikda va albatta, bastakorlikda deb bilamiz. Ustozlar an'anasi asosida yuzaga kelgan bu kamtarona meros hozirgi yoshlar uchun namuna bo'lishi begumondir. Chunki zamonaviy mumtoz musiqaning amaliyoti buni ko'rsatib turibdi. Hozirgi kundagi musiqa ijrochiligi amaliyotida Orifxon Hotamovning ijodi va ijrochilik uslubi ustozlar an'analari qatorida eng oldingi o'rinlarda o'zlashtirilib kelinmoqda”*².

O'zbekiston xalq hofizi, zabardast bastakor, mohir sozanda O. Hotamov o'zbek mumtoz musiqa ijrochiligi va ijodkorligida o'ziga xos maktab yaratgan san'atkoridir. 1925-yilda Jizzax shahrida Hotamxon Ne'matov oilasida tavallud topgan bu ulug' ijodkor ustoz bastakorlarning uslubiy an'alarini munosib davom ettirib, yuzlab kuy, qo'shiq va ashulalari bilan musiqa shinavandalarining qalbidan muhim joy olgan. Qolaversa, ancha yillar davomida yosh san'atkorlarga saboq bergan va ularni kasbiy voyaga yetkazish bilan band bo'lgan.

Bolaligidan san'atga oshuftalik oiladan boshlangan bo'lg'usi bastakor, keyingi hayotini Toshkentga bog'ladi. Chunki, 1936-yilda Hotamxon Ne'matovning oilasi taqdir taqozosi bilan Toshkent viloyatining Yangiyo'l shahriga ko'chib kelgani ham katta yo'lning boshlanishi bo'ldi. Toshkentda takomil topgan san'at yo'li bo'lg'usi bastakorni o'z ohanrabosi bilan rom qildi. Orifxon maktabda o'qib yurgan paytlarida musiqa san'atiga qiziqib, musiqa to'garagiga qatnasha boshlaydi. Qisqa muddat ichida nay, g'ijjak, keyinroq tanbur, dutor chalishni puxta o'zlashtirib oladi. Izlanish yo'llari bo'lg'usi bastakor Orifxon Hotamovni o'z davrining mashhur hofizlari Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqovlar bilan uchrashtirdi. Ustozlarning ijro san'ati va bastakorlik ilmiga bo'lgan qiziqish, uni ustozlar ortidan yetakladi.

“O'z o'rnida qayd etish kerakki, Orifxon Hotamovning ijodi ustozlari tomonidan doimo nazoratda bo'lgan. Yaratgan asarlari ustozlar davrasida ijro etilib, muhokamalarda pishgan. Bir asarning shakli-shamoli, ohangi, so'z bilan kuyning mutanosibligi va mumtozlikka xos barcha tomonlari puxta bo'lmasa, ustozlarni fotihasini olmagan va ijro etishga ruxsat ham berilmagan. Orifxon Hotamovning darhaqiqat ijodiyotda mumtozlik kasb etishi, ustozlari Jo'raxon Sultonov tomonidan e'tirof etilgan. Odatda, ustozlar shogirdlar ijodiga baho berishda juda qattiqqo'l, talabchan munosabatda bo'ladi. Orifxon Hotamovning ijodi Jo'raxon akani tabiatiga mos tushganligini “Bo'lmish” musiqiy namunasidan ham anglash mumkin. Ustoz Jo'raxon Sultonov “Bo'lmish” ashulasini eshitib ko'rib, “Mening asarlarimga o'xshatibsan, birgalikda aytaylik”,

² Do'smurodov B. Yakkaxon qo'shiqchilik. – T.: “Nishon-Noshir”, 2013. – B.80.

³ O'sha manba.

⁴ O'sha manba.

⁵ H. Isroilova. An'anaviy hofizlik san'ati. – T.: 2007. – B.120.

– deb shogirdi bilan hamnafaslikda ijro etadilar. Bu asar Jo'raxon Sultonov tanburda, Orifxon Hotamov skripkada plastinkaga yozib olingan”³.

1944-yil Orifxon Hotamov Muqimiy nomidagi musiqiy teatrlarning cholg'u ansamblida ishlay boshladi. Ikkinchi jahon urushi davrida front ortini mustahkamlayotgan yurtdoshlar huzurida o'z chiqishlari bilan xizmat qildi. Teatrdagi o'ziga xos ijro yo'llari hofizni katta davralarga chorladi. O'zi ham ayni damlarda bir necha qo'shiqlarga kuy bastalab ijro etayotgani, ustozlar nazaridan chetda qolmadi. El nazariga tusha boshlagan hofiz va cholg'uchi Orifxon Hotamov 1945-yilda O'zbek davlat filarmoniyasiga ishga o'tgan. Ushbu san'at dargohining turli konsert guruhlarida 5 yil davomida o'z zamonasining zabardast ustoz-xonanda va sozandalari bilan birgalikda faoliyat ko'rsatgan. *“An'anaviy musiqani o'rganishning o'zi bo'lmaydi. Ustozlar shogirdlarini yonlarida olib yurib xonandalik va sozandalikni amalda uqtirganlar. Buni tagida juda katta ma'no bor. Shogird faqat ashula aytishni emas, balki sozandalik va xonandalik bilan bog'liq barcha jihatlarni ustozidan o'rganishi ko'zda tutilgan. Uning muomalasi, soz chertishi, xonish qilishi, qaysi davrada qanday ashulalar o'qishi, yallalami qanday va qachon ijro etilishi, tinglovchi va shinavandalar bilan qanday munosabatda bo'lishi, san'atkor odobi qanday shakllanishi kabi san'atkor uchun zarur jihatlarning barchasi ana shu jarayonda shogirdga singdirib borilgan”*⁴.

Taniqli xonanda va sozanda bo'lishiga qaramay, yana ustozlardan ilm olishni maqsad qilgan va 1950-yilda Hamza nomidagi musiqa bilim yurtiga o'qishga kirgan. Bu dargohda 4 yil ustoz-sozanda Z. Qodirov sinfida g'ijjak ijrochiligidan tajriba orttirgan. Orifxon Hotamov o'qish bilan bir qatorda sozandalik va ijrochilik faoliyatini davom ettirgan. Ayniqsa, Jo'raxon Sultonov bilan hamkorlikda samarali ijod qildi. 1954-yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlab, 2 yil maktab to'garaklarida bolalarga musiqa fanidan saboq bergan. 1956-yil O'zbekiston davlat radiosi qoshida tashkil etilgan, Doni Zokirov rahbarligidagi o'zbek xalq cholg'u orkestrida sato cholg'uchisi sifatida faoliyat olib borgan. 1959-yil shu dargohda, atoqli bastakor O'zbekiston xalq artisti G'. Toshmatov rahbarligida keksa san'atkorlardan tashkil topgan musiqiy-etnografik ansamblga taklif etilgan. *“Xonanda – bu insondagi eng yetuk bo'lgan, shirali, jozibador, yoqimli ovozga ega bo'lgan shaxs demakdir. Qachonki yoqimli ovoz egasi bo'lmagan shaxsdan xonanda bo'lishlikni talab etish murakkab ish. Chunki sarflangan mehnat o'z natijasini bermasligi mumkin. Insondagi yoqimli ovozning o'zi ham kezi kelganda xonandalikka da'vogar deb bo'lmaydi. Chunki insondagi yoqimli ovoz bilan bir qatorda qo'shiq kuylashga moyillik, xonanda bo'lishga astoydil kirishishlik, buning uchun xonandalikning tayyorgarlik ishlariga sabr-qanoat, chidamlilik, mehnat talab etilad”*⁵.

Mumtoz qo'shiqchilik haqida so'z yuritish bir qator bahslarga sabab bo'lishi tabiiy. Chunki, mumtoz qo'shiq kuylashning muayyan qonun-qoidalari shu kunga qadar yetarlicha o'z yechimini topmagan, desak xato bo'lmaydi. Lekin ko'p yillardan buyon kuylab kelgan ustoz hofiz va hofizalarimizning ijodiga nazar tashlasak, necha soatlab murakkab va keng diapozonli ashulalarni

toliqmasdan kuylashi, ovoz barqarorligini saqlab qola olishi ularning o'z kuylash uslubiga ega bo'lganligi hamda o'z kuylash maktablarini yaratganligidan dalolat beradi.

O.Hotamov 1976-yildan boshlab maqomchilar ansamblida ijodiy xizmatni davom ettirgan. *"Maqomlarni xalq musiqa ijodiyotiga taqqoslab, ilmiy asosda chuqurroq o'rganish, o'zbek-tojik xalqlari musiqa madaniyati tarixida va musiqa ijodiyotida juda katta ijobiy ahamiyatga egadir. Shubha yo'qki, maqom yo'llarini chuqurroq o'rganib, ulardan ilmiy-ijodiy foydalanish masalasini to'g'ri hal etilishi o'zbek-tojik xalqlari musiqa madaniyatini yanada gullab-yashnashiga va yuksak badiiy shakldagi, yirik janrlardagi musiqa asarlari yaratilishiga katta yordam beradi"*⁶. Ustoz ijrochilik faoliyati bilan birga Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent teatr va rassomchilik institutida hamda O'zbekiston davlat konservatoriyasi "An'anaviy ijrochilik" kafedrasida pedagoglik faoliyatini olib bordi, talabalarga an'anaviy xonandalik bo'yicha saboq berdi. Yaratgan asarlari va bastakorlikdagi amaliy faoliyati uchun 1986-yilda O'zbekiston bastakorlar uyushmasiga qabul qilindi. Chunki ustoz bu kunga qadar o'nlab qo'shiqlarga kuy bastalab, ijrosini ham maromiga yetkazib ulgurgan edi. Mehnatlari e'tiborga olinib, 1989-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, shuningdek, 1993-yilda O'zbekiston xalq hofizi sifatida e'tirof etildi. Ustoz nafaqat o'nlab, balki yuzlab yoshlarga san'atga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otdi, ortidan ergashtirdi. Shu bois, 1997-yilda "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi. U musiqa san'atining sozandalik (tanbur, dutor, sato, skripka, g'ijjak), xonandalik (yakkaxon, hamnafaslik-jo'rovoz, katta ashula) sirlarini o'rgangan. *"Milliy musiqa merosimzini shakllanishi, ravnaq topishi va ularni bugungi kungacha yetib kelishida o'zlarining fidokorona mehnatlari hamda samarali ijodlari bilan ulkan hissa qo'shgan ustoz san'atkorlarning ijro maktablari va uslublaridan hozirgi zamon musiqa san'ati sohasida yosh ijrochilarni tarbiyalash uchun ibratli qo'llanma sifatida foydalanib kelinmoqda"*⁷.

Musiqa va san'at inson ongiga ta'sir etib, uning barkamol rivojlanishiga xizmat qiluvchi omil bo'lsa, shu bilan bir qatorda, u kayfiyatni ko'taruvchi, qalb va ruhni poklovchi hayotbaxsh vositadir. Musiqa va san'atga o'zgacha mehr qo'ygan ajdodlarimiz xalq yo'lida kuylanadigan milliy qo'shiqlarni maromiga yetkazib ijro etishgan. Shu bois, dunyo ahli bizni qo'shiqsevar, asl iste'dodlarni qo'llab-quvvatlaydigan xalq sifatida e'tirof etadi. Albatta, bundan faxrlansak arziydi. Qanchadan-qancha buyuk san'atkorlarimiz o'zlarining bebaho ijodiy mahsulotlarini tarix sahifalarida zarhal harflar bilan bitib ketganlar.

Darhaqiqat, e'tirof etish joizki, Orifxon Hotamov hamnafaslikda birinchi bo'lib O'zbekiston xalq hofizi Eson Lutfullayev keyin Hakimjon Fayziyev va

⁶ Is'hoq Rajabov. Maqomlar. – T.: "San'at", 2006.

Qodirov N. Maqom cholg'u ijrochiligi (G'anijon Toshmatovning ijodi misolida). O'quv qo'llanma. – T.: "Musiqa", 2020.

⁷ Qodirov N. Maqom cholg'u ijrochiligi (G'anijon Toshmatovning ijodi misolida). O'quv qo'llanma. – T.: "Musiqa", 2020.

⁸ Madrimov B.X. O'zbek musiqa tarixi. – T.: 2016. – B.121.

ukalari Ahrorxon Hotamov, farzandlari Ismoilxon, Muhammadxon Hotamovlar bilan birga ijro etishgan va mana shu hamnafaslikni shogirdlarida ham davom ettirgan. Jumladan, O'zbekiston xalq artisti Matluba Dadaboyeva bilan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahbuba Hasanovani, O'zbekiston xalq hofizlari Mahmudjon Yo'ldoshev bilan Mahmud Tojiboyevga, Beknazar Do'stmurodov hamda Soyibjon Niyozov, Abdunabi Ibragimovlarni birgalikda kuylagani ham so'zimizning yaqqol isbotidir.

O.Hotamov ijodida Farg'ona-Toshkent an'analari, ayniqsa, Jo'raxon Sultonovning ijro uslubi muhim o'rin egallaydi. Bastakor o'z ijodida 1000 dan ortiq mumtoz yo'nalishga mansub asarlar yaratgan. Zamonaviy xonandalik amaliyotida Orifxon Hotamovning yaratgan asarlari va uning maktabiga xos ijro yo'li alohida o'ringa ega hisoblanadi. Ustozning bastakorlik ijodida yuzaga kelgan musiqiy namunalar, avvalo, o'zining mumtozligi bilan ajralib turadi. Ulardagi ohang, so'z va talqiniga xos jihatlari esa ashulalarning jozibadorligini ta'minlaydi. Demak, hech qanday e'tirozlarga o'rin qoldirmagan holda biz musiqani inson jismiga jon baxsh etgan mo'jizaga mengzay olamiz. *"Musiqa san'atining tarixiy shakllanish jarayoni dastlab, tabiat hamda tevarakatrofta sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni tushunishga harakat qilishga bo'lgan ehtiyoj sifatida ilk mifologik tasavvurlar ta'siri ostida kechib, keyinchalik kohinlar boshchiligidagi o'tkaziladigan turli marosimlarning ruhiy-ma'naviy oziq manbaiga aylangan. Musiqa san'atini takomillashuvi shaharlar madaniy hayotining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, uning ildizlari eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik oxiri va birinchi ming yillik boshlariga borib taqaladi"*⁸.

Qayd etish lozimki, Orifxon Hotamov ashula yozishda, kuyga so'z tanlashga katta e'tibor qaratgan. Asliyadagi so'zga murojaat etishni odat qilgan. Jomiy, Navoiy, Sakkokiy, Atoiy, Fuzuliy, Mashrab, Furqat, Huvaydo, Ogahiy, Muqimiy, Habibiy, Avaz o'tar Chustiy, Nodirabegim, Amiriy, Sh.Rashidov, Saida Zunnunova kabi mumtoz shoirlarning g'azal va she'rlaridan foydalangan. Bu bilan ustoz ajdodlarimiz ijodiga ham qayta jon bag'ishlagan, yoshlar ongida mumtoz qo'shiqlarning ohanraboligini ta'minlagan holda yetkazib bergan. Bu bilan mumtoz qo'shiqchilik abadiylikka ham hissa qo'shgan. She'r va ohang sadolari orqali insonga ruhiy ozuqa beradigan asarning yaratilishi bastakorlik ijodiyoti bilan bog'liqdir. Demak, ustoz ijro maktabining o'ziga xosligi shundaki, yangi bastakorlarning ijodiyotidagi xalq ma'naviyati, madaniyati, tarixi, an'ana va qadriyatlariga haqida ma'lumot beruvchi axborot manbai vazifasini ham o'taydi.

Taniqli bastakor, betakror hofiz Orifxon Hotamov ijro qilgan va bastalagan kuy-qo'shiqlar, musiqiy merosiga e'tibor, ustozning dilbar qo'shiqlariga qilingan murojaatlar ham ul zotning ruhlarini shod qiladi, shogirdlar safini kengaytiradi, degan umiddamiz. Asosiy maqsadimiz, ko'p asrlik tarixni bosib o'tib o'zining muayyan musiqiy an'alarini, ijro maktablarining o'ziga xos yo'llarini avloddan avlodga boyitib kelgan bastakorlik ijodiyoti tarixi va taraqqiyot yo'lini bilib, unga hissa qo'shgan avlodlarning ilmiy va ijodiy merosini avaylab, ardoqlashdan iboratdir.

SAHNA NUTQI BILIMDONI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, professor, ustoz-murabbiy, sahna nutqi bilimdoni Mahkam Isroilovning hayot va ijod yo'llari, pedagogik faoliyati qalamga olingan.

Kalit so'zlar: aktyor, rejissor, teatr, sahna nutqi, dialog, monolog, rechitativ.

ЗНАТОК СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация. В статье анализируются жизненный и творческий путь заслуженного деятеля культуры, профессора, педагога, знатока сценической речи Узбекистана Махкама Исраилова, педагогическая деятельность.

Ключевые слова: актер, режиссер, театр, сценическая речь, диалог, монолог, речитатив.

THE SCENE WISER

Annotation. The article analyzes the life and creative path of the honored worker of culture, professor, teacher, connoisseur of stage speech of Uzbekistan Mahkam Israilov, pedagogical activity.

Keywords: actor, director, theater, stage speech, dialogue, monologue, recitative.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, professor, ustoz-murabbiy, sahna nutqi bilimdoni Mahkam Isroilov tavalludiga 90 yil to'ldi. Mahkam Isroilovning tug'ilgan kuni rasman (pasport bo'yicha) 1933-yil, 6-fevral deb belgilangan. Aslida Mahkam akaning ta'kidlashicha, onalari: "Sen qo'y yilida tug'ilgansan", deb aytib yurarkanlar. Bu, 1931-yilga to'g'ri keladi...

Mahkam Isroilov Toshkentning Shayxontohur dahasidagi Darxon mahallasida, Ibrohim aka va Lutfinoso opa oilasida to'rtinchi farzand bo'lib dunyoga keldi. Biroq undan oldin tug'ilgan farzandlar bezgak xastaligidan olamdan o'tganligi bois, chaqaloqqa umid bilan Mahkam, deb ism qo'yishadi. Keyinchalik, oilada yana ikkita qiz farzand tug'iladi. Afsuski, farzandlarining rohatini ko'rish otaga nasib qilmaydi. Tez orada Ikkinchi jahon urushi boshlanib, frontga ketgan Ibrohim aka, urushdan qaytib kelmaydi. Ro'zg'or tashvishi o'spirin yigitchaga qoladi. Yosh bo'lishiga qaramay front orti mehnat korxonalarida ishlab, ozmi-ko'pmi ro'zg'or tebratishga urinadi. Qanchalik og'ir bo'lmasin, o'qishni tashlamaydi, adabiyotga, ashula aytishga qiziqadi. Ohangdor qilib she'r o'qir, radiodan o'rgangan qo'shiqlarni kuylab yurardi. Ayniqsa, o'sha davrda nom qozongan Mahmudjon G'afurov ovozigina taqlid qilishni yaxshi ko'rardi. Juda yoshlikdan teatrga ishq tushadi. Uyi Shayxontohurdagi Muqimiy teatri (hozirgi O'zbekiston Yoshlari teatri binosi)ga yaqin bo'lganligi sababli, kechki paytlar teatrga borar, amallab ichkariga kirib olib, zo'r qiziqish bilan spektakllar ko'rar, deyarli barcha asarlarda bosh rollarni yaratgan Mahmudjon G'afurov ijro etgan ariyalarni yoddan bilardi.

Bir kuni qaysi bir ashulani o'zicha xirgoyi qilib turganida, tasodifan To'xtasin Jalilovning o'g'li, g'ijjakchi Salohiddin To'xtasinov eshitib qoladi va uni otasining oldiga yetaklab keladi. Mahkamjon Tohirning "Ayirmish" ariyasini sozandalar jo'rligida o'xshatib aytib beradi. Uning ovozi, ijro mahorati va

sahnabop tashqi ko'rinishidan qanoat hosil qilgan To'xtasin Jalilov, yigitchani teatrga ishlashga taklif qiladi. Shu-shu bo'ldi-yu, Mahkamjon kechqurunlari spektakllarning ommaviy sahnalarida qatnashadigan bo'ldi. U har bir spektaklni huzurlanib tomosha qilar, o'zi ham sahnaga chiqayotganligidan ichiga sig'masdi. Oradan yillar o'tib, teatrga bo'lgan kuchli havas uni Toshkent teatr san'ati instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)ga yetaklaydi. Teatrga suvagi qotgan, ijodiy imkoniyati yuqori bo'lgan Mahkam Isroilov imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, aktyorlik kursiga o'qishga qabul qilinadi.

Shu tariqa, 1947–1952-yillar institutda tahsil olish davomida, o'rindoshlik asosida Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatri (hozirgi O'zbek Milliy Akademik drama teatri)da aktyor bo'lib ishlaydi. Dastlab ommaviy sahnalarda, keyinchalik kichik-kichik rollarda ko'rina boshlaydi. Kunlar o'tib, Uyg'un va Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" dramasi asosida sahnalashtirilgan spektaklda Mo'min Mirzo rolini ijro etganligi uning uchun katta saboq va mahorat maktabi bo'ldi. Shubhasiz, Olim Xo'jayev (Navoiy), Sora Eshonto'rayeva (Guli), Obid Jalilov (Majididdin) singari mashhur aktyorlar bilan bir spektaklda yonma-yon partnyor bo'lib rol o'ynash endigina sahnaga kirib kelayotgan yosh aktyor uchun hazilakam imtihon va sinov emasdi. Mahkam Isroilov bu sinovdan ham munosib o'tdi. Ayniqsa, Olim Xo'jayev ijodiga ixlosi ortdi, uning sahna nutqiga bo'lgan e'tibori va zargarona mahoratiga tan berdi. Balki, uning kelajakda sahna nutqi bilimdoni va chinakam professor bo'lib yetilishida Olim Xo'jayev fenomenining roli katta bo'lgandir. Shu zayl institutni tamomlagunicha, Hamza teatrida qator rollarni ijro qilib, sahna mahoratini egallab boraverdi. Biroq musiqa, qo'shiq aytishga bo'lgan ishtiyoqi unga tinchlik bermasdi. Shuning uchun ham 1952-yil institutni muvaffaqiyatli tugatib, to'g'ri

Muqimiy teatriga yo'l oladi. Ijodiy sinovdan yuqori natijalar bilan o'tgan Mahkam Isroilov solist-vokalist lavozimiga ishga qabul qilinadi. Ijodiy va jismoniy imkoniyatlari barq urib turgan yosh-navqiron Mahkam Isroilov tez fursatda teatr ijodiy jarayoniga singib ketadi va birin-ketin turli xarakterdagi rollarni mahorat bilan ijro etadi. "Oltin ko'l" (Uyg'un asari, M.Leviyev musiqasi) musiqali dramasida M.G'afurovdan keyin Tursunali rolini ijro etdi. Keyinchalik S.Abdulla va T.Jalilovlarning "Iste'dod" musiqali dramasida Hamdam, K.Yashin, Y.Rajabiy, G.Mushellarning "Farhod va Shirin" musiqali dramasida Shopur, K.Yashin asari, T.Jalilov musiqasi "Nurxon" musiqali dramasida Mamat, K.Yashin va T.Jalilovlarning "Ravshan va Zulxumor" musiqali dramasidagi Ersak, Tersak, Shahzoda va Qoraxon rollarini ijro etadi. Ungacha mashhur aktyorlar Soyib Xo'jayev Ersak rolini, Hamza Umarov Tersak rolini ijro etganlar. Ular tez-tez kinosyomkalarda band bo'lganliklari sababli, ushbu rollarni ijro etish yosh aktyor M.Isroilov zimmasiga tushgandi.

1956-yil Mahkam Isroilov teatrda ishlash bilan bir vaqtda, A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat) institutining "Sahna nutqi" kafedrasida o'qituvchi bo'lib ish boshladi. Shu bilan birga, 1959-yildan to 1975-yilgacha Yangiyo'l xalq teatrlarining bosh rejissori sifatida havaskorlar bilan bir qancha spektakllar sahnalashtirib, rejissorlik sohasida ham o'zini sinab ko'radi. Shu tariqa uning ijodi ko'pqirrali, yanada zalvorli va keng miqyosda rivojlanib, takomillashib bordi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, M.Isroilov o'zining teatrga kirib kelishi va yetuk san'atkor bo'lib shakllanishida Mahmudjon G'afurovning xizmatlarini beqiyos, deb biladi. U inson bilan bir teatrdan, bir sahnada ijod qilishga muvaffaq bo'lgani uchun taqdiridan minnatdor. Hamisha ustozini hurmat bilan yodga olib davralarda, badiiy kechalarda Mahmudjon G'afurov ijro etgan ariyalarni kuylab, u kishi haqida yaxshi gap aytib, ustozini ruhini shod etishga harakat qilib keladi. Inchinun, 2012-yil 22-noyabr kuni "San'atga baxshida umr" teleko'rsatuvining mehmoni sifatida Mahmudjon G'afurov repertuaridagi "Ey, quyosh", "Vafoni istadim har choq" ("Tohir va Zuhra"), "Uzoqdan kelayotibman" ("Ravshan va Zulxumor"), "Balanddan kuyla, tingla" ("Alpomish") ariyalarini yurakdan ijro etib, ustoziga bo'lgan samimiy ehtiromi va minnatdorchilik tuyg'ularini millionlab tomoshabinlar qarshisida yana bir bor namoyish qildi. Ushbu ko'rsatuvni ko'rganlar: "Rahmat, baraka toping! Mahmudjon G'afurovning ruhini shod etibsiz", deb unga minnatdorchilik bildirishganida, o'zini juda ham baxtiyor his qilganligining shohidi bo'lganmiz. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatuvda ustozini Olim Xo'jayev ijro etgan "Hamlet" monologini mahorat bilan o'qib, o'zining dramatik qobiliyatini ham yuksak darajada namoyon qildi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, doimiy izlanishlar mobaynida tinib-tinchimas Mahkam Isroilovning ijodiy imkoniyatlari kengayib, iste'dodi tobora charxlanib boradi. Malakasi ortib borgan sari o'zini rejissor sifatida sinab ko'rishga ishtiyoqi ortadi. Shu maqsadda, 1959-yil Yangiyo'l shahar Madaniyat uyi qoshidagi havaskorlik teatrlarining bosh rejissori sifatida ish boshlaydi. Ushbu teatrdan u, to 1975-yilgacha qadar faoliyat yuritadi. 1959-yil, ya'ni rejissorlik faoliyatining ilk davridayoq, M.Isroilov havaskorlik jamoasi bilan "Toshbolta oshiq" (H.G'ulom asari, M.Leviyev musiqasi) musiqali komediyasini sahnalashtirdi. Garchi yosh va endigina rejissorlik sohasiga qo'l urishiga qaramay, M.Isroilov murakkab musiqali asarni mahorat bilan sahnalashtira oldi va u shahar jamoatchiligi tomonidan yuqori baholandi. Aynan shu spektakl orqali uning rejissorlik qobiliyati namoyon bo'ldi va keyinchalik ko'p yillar mobaynida shu dargohda turli janr va mavzularda spektakllar sahnalashtirib, jamoada qizg'in ijodiy muhit yarata oldi. Natijada, ushbu jamoa Xalq teatri degan yuksak unvonga sazovar bo'ldi. Bu holat ijodiy jamoani yanada ruhlantirib, yangi-yangi spektakllarning dunyoga kelishiga turtki bo'ldi. Shu tariqa Yangiyo'l teatridagi rejissorlik faoliyati M.Isroilov ijodiy biografiyasida yangi, yorqin sahifalar ochdi.

Albatta, professional san'at ko'nikmasidan yiroq, turli kasb egalari bilan tarkib topgan havaskorlik jamoasini ijodiy jarayonga olib kirish, ular bilan spektakl tayyorlash va sahnaga olib chiqishning o'ziga xos murakkabliklari mavjud. Teatr sahnasida aktyor sifatida shakllangan, sahna san'ati sir-sinoatlarini yaxshigina egallab olgan, yosh va ijodga chanqoq M.Isroilov tirishqoqligi, jamoani ijodiy jarayonga yo'naltira olish va boshqaruv qobiliyati tufayli bu murakkabliklarni yengib oldi va havaskor aktyorlarni sahnaning o'ziga xos maftunkor va nozik qirralarini egallashga safarbar qildi. Shuning uchun ham ijodiy jamoa rejissorning topshiriq va ko'rsatmalariga rioya qilishga, berilgan mashq va etyudlarni to'g'ri va yurakdan bajarishga astoydil harakat qiladi. Aktyorlar rejissorning spektakl sahnalashtirish jarayonidagi biron-bir harakatini nazardan chetda qoldirmaydilar. Asarning o'qilishidan tortib to'rt taqsimlanishi, rassom, kompozitor va boshqa ijodkorlar bilan hamkorlikda olib boriladigan barcha ijodiy muloqotlarni kuzatib boradilar. Rejissor ko'rsatmalaridan kelib chiqqan holda, o'zlari ijro etayotgan obrazga mos sahnaviy vositalar topishga intiladilar. Shu tariqa jamoada sekin-asta sahna sirlarini egallash bo'yicha malaka va tajriba to'plana boshlaydi.

M.Isroilovning Yangiyo'l shahar xalq teatridagi faoliyati to'g'risida san'atshunos olim Nikifor Kim "Xalq teatri" deb nomlangan risolasida shunday deb yozadi: "Yangiyo'l shahar xalq teatriga malakali aktyor va rejissor Mahkam Isroilovning kelishi muhim voqea bo'ldi. Havaskor aktyorlar rejissorning tinimsiz mehnati tufayli sahna san'atining ajoyib va nozik tomonlarini egallay boshlaydilar. Rejissor va kollektiv ilhom bilan, jon-jahdi bilan ishladi"¹.

¹ N.Kim. Xalq teatri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – B.40.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Mahkam Isroilov o'n olti yil davomida oladigan yuz so'm maoshi evaziga Toshkent shahridan Yangiyo'l shahriga jamoat transportida ishga qatnardi. Bu ham uning chinakam san'at fidoiysi ekanligini ko'rsatardi. Qayta-qayta repetitsiyalar o'tkazish, havaskor aktyorlar bilan asar ustida ishlash, ularni rol ijro etishga, sahnani, tomoshabinni his etishga o'rgatishdan charchamasdi. Spektakldagi ariya, duet va boshqa musiqiy lavhalarni havaskorlarga mukammalroq o'rgatish uchun Muqimiy teatrining konsertmeysteri Margarita Furmani yordamga chaqirardi. O'z kasbining mohir ustasi Furman ham insonlardan beg'araz yordamini sira ayamaydigan fidoiy san'atkorlardan edi.

Ana shunday fidoyilik va mas'uliyat bilan M.Isroilov havaskorlar qalbida san'atga, teatrga bo'lgan muhabbat tuyg'ularini alangalab, ularni sidiqidildan sevib ijod qilishga safarbar qila oldi. Uning mehnatlari zoye ketmadi. Jamoa 1967-yil o'tkazilgan xalq teatrlarining Respublika festivalida "Vatan ishq" (mualliflar: Z.Fatxullin va Sh.Sa'dulla, kompozitor: S.Boboyev) spektakli bilan qatnashib, birinchi o'ringa sazovar bo'ldi va bir ovozdin Moskva shahrida o'tkaziladigan Butunittifoq havaskorlik teatrlarining festivalida qatnashish uchun tavsiya qilinib, Kremlning "Syezdlar saroyi"da o'ynaladi. E'tiborli jihati shundaki, aynan shu spektakl festivalning nufuzli hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholanib, birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi. Ijrochilardan olti kishiga, shu jumladan, M.Isroilovga ham "Festival laureati" medali topshirildi. Aslida yuzlab turli darajadagi xalq teatrlari mavjud bo'lgan sobiq ittifoq miqyosidagi festivalda o'zbek tilida ijro etilgan spektakl bilan g'oliblikni qo'lga kiritish xazilakam g'alaba emas edi. U ham bo'lsa, M.Isroilovning o'ziga xos iqtidori, rejissorlik va tashkilotchilik qobiliyatining mahsuli, o'z kasbiga sodiq, fidoiy ijodkorning samarali mehnatlari natijasi edi. Bunda jamoaga xolis yordam bergan dirijor Ergash Toshmatov hamda konsertmeyster Margarita Furmanlarning ham beg'araz xizmatlarini e'tirof etish lozim.

M.Isroilovning sa'y-harakatlari bilan mamlakatimizning yetakchi teatrlaridan bo'lgan Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatrining Yangiyo'l xalq teatrlari otaliqqa olishi natijasida, Muqimiy teatri repertuarida bo'lgan qator spektakllar ketma-ket Yangiyo'l xalq teatrida sahnalashtirila boshladi. Jumladan, o'sha davrda M.Isroilov sahnalashtirgan "Toshbolta oshiq", "O'g'il uylantirish" (H.G'ulom asari, M.Leviyev musiqasi), "Vatan ishq" (Z.Fatxullin va Sh.Sa'dulla asari, kompozitor S.Boboyev), "Nurxon" (K.Yashin asari, T.Jalilov musiqasi), "Surmaxon" (B.Rahmonov asari, T.Jalilov musiqasi), "Paranji sirlari", "Maysarining ishi" (Hamza asarlari), "Oltin ko'l" (Uyg'un asari, M.Leviyev musiqasi), U.Gadjibekovning "Arshin mol olon" musiqali dramalari o'ziga xos talqini bilan Xalq teatrining eng

sara spektakllaridan bo'lib qoldi. *"Muhimi shundaki, badiiy rahbar M.Isroilov va ijrochilar ushbu asarlarni Muqimiy nomidagi respublika musiqiy teatrida ko'rgan bo'lishlariga qaramay, taqlidchilik yo'lidan bormaganlar, balki ulardan ijodiy oziqlangan, ilhomlangan holda o'z imkoniyatlari va intilishlaridan kelib chiqib, o'z spektakllarini yaratganlar"*².

Shuningdek Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatri reperturidan "Alisher Navoiy" (Uyg'un va Izzat Sulton asari), "Boy ila xizmatchi" (Hamza asari), "Parvona" (Uyg'un asari), "Iymon" (Izzat Sulton asari) va boshqa qator spektakllar ham o'zining ko'lami va badiiy saviyasi bilan Yangiyo'l xalq teatrining nufuzini oshirdi, qator spektakllar turli ko'rik va festivallarning g'olibi bo'ldi. Masalan, 1970-yil o'tkazilgan Havaskorlar teatrlarining respublika ko'rik-festivalida g'olib deb topilgan "Nurxon" spektakli haqida N.Kim shunday deb yozadi: *"Nurxon" spektaklidagi aktyorlar yutug'i, rejissura vazifalarini yaxshi his etuvchi va sahnada real hayotni aks ettirishga intiluvchi M.Isroilovning ham yutug'idir. U postanovkaga tashqi effektlarni izlamagan, mizanssenalarni rang-barang qilib ko'rsatishga qiziqmagan, bunday qaraganda, sahnaning butun ixtiyorini uncha katta bo'lmagan aktyorlar ansambliga bemalol topshirib qo'ygandek tuyuladi. Zotan, uning mahorat va san'ati spektaklga singib ketgan, butun spektakl davomida aktyorlar bilan birga bo'lib yashashi sezilib turadi. M.Isroilov izlanuvchan rejissor. U sahnani yaxshi tushunadi, shuning uchun ham uning mizanssenalari sahnaviy voqealar kompozitsiyasiga mos keladi, ular muziqa bilan yaxshi bog'lanadi"*³.

Shu tariqa mohir ijrochilar jamoasiga ega bo'lgan Yangiyo'l xalq teatri o'z davrining eng mashhur, murakkab asarlariga dadillik bilan qo'l urib, yaxshi natijalarga erishdi. Bunda shubhasiz, teatrlar badiiy rahbari Mahkam Isroilovning xizmatlari beqiyos.

Mahkam Isroilovning san'at olamidagi ko'pqirrali, sermahsul faoliyatining asosini uning o'qituvchi-murabbiy sifatidagi uzoq yillik faoliyati tashkil etadi. Ta'kidlab o'tganimizdek, Mahkam Isroilovning pedagoglik faoliyati 1956-yil A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat teatr va rassomlik san'ati institutining (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) sahna nutqi va notqlik san'ati kafedrasida o'qituvchiligidan boshlandi. Bu davrda u Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatrining solist-vokalisti sifatida el suygan mashhur aktyorlar bilan yonma-yon obrazlar yaratib ko'zga ko'rinib qolgan, sahna san'ati sir-asrorlarini ham yaxshigina o'zlashtirib olgan edi. Bu uning pedagogik faoliyatida juda ham qo'l keldi.

M.Isroilov o'qituvchilik kasbini yanada chuqurroq egallash, bilim doirasini kengaytirish va shu sohada ilmiy izlanishlar olib borish uchun 1965-yil A.S.Pushkin nomidagi til va ababiyot institutining kunduzgi aspiranturasiga o'qishga kiradi va uni muvaffaqiyat bilan tamomlab, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini oladi. 1968-yil institutga qaytib to 2011-yilga qadar shu institutda katta o'qituvchi, dotsent va professor lavozimlarida barakali faoliyat yuritdi. Shu

²N.Kim. Xalq teatri. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – B.46-47.

³O'sha manba.

yillar mobaynida M.Isroilovning matbuot sahifalarida teatr san'atiga oid o'nlab ilmiy maqolalar, bir nechta o'quv qo'llanmalari chop ettirdi. Ayniqsa, ustoz tomonidan 2003-yilda chop etilgan "Monolog ustida ishlash" o'quv qo'llanmasi ham talabalar uchun, ham sahna nutqi o'qituvchilari uchun juda muhim ilmiy-amaliy dastur bo'ldi.

M.Isroilov pedagogik uslubi ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'ziga xos birday yuqori ta'sir kuchiga ega edi. Sababi, u nafaqat o'qituvchi, balki mahoratli aktyor va vokal artisti sifatida ham alohida qobiliyat va tajribaga ega edi. Sahna nutqidan talabalarga saboq berar ekan, so'z va monoglarning mohiyati va talaffuzi to'g'risida nazariy tushunchalar berish bilan birga, o'zi ham eng mashhur va murakkab sahna asarlaridan monolog va ariyalarni mahorat bilan ijro etib, nazariy bilimlarini amaliy jarayonlarda ko'rsatib berar edi. Bunda turli aktyorlik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga alohida-alohida individual yondashgan holda dars o'tardi. Aytaylik, drama aktyorlariga atab alohida repertuar tanlardi, qo'g'irchoq teatri aktyorlari bilan esa ularga mos bo'lgan mashg'ulotlar o'tkazardi. Ayniqsa, uning sevimli janri bo'lgan musiqali teatr aktyorligi talabalari bilan o'zgacha ishtiyotda ishlardi. Bunda u, so'z va monoglardan tashqari, ariya va duetlar bilan ham ishlash yo'llarini talabalarga astoydil o'rgatardi. Bu borada unga teatrda orttirgan tajribasi, ravon va ifodali nutqi, qolaversa, tabiat bergan kuchli va shirali ovozi juda ham qo'l keladi. U Navoiy, Otello, Gamlet, Hamza monoglarini berilib o'qiganida, musiqali dramalardan ariyalar ijro etib berganida talabalar uni jon qulog'i bilan tinglar, unga havas qilar va teatr san'atiga bo'lgan ixlosi yanada ortar edi. Qolaversa, o'z tajribasidan kelib chiqqan holda Milliy va Muqimiy teatrlaridagi ijodiy jarayonlar haqida talabalarga hayotiy voqealar, ijodiy jarayonlar haqida gapirib berib, ularni teatr hayotiga yaqinlashtirishga harakat qilardi.

M.Isroilov talabalar bilan har bir so'z, har bir ibora hatto, har bir harfning ma'nosini anglash, to'g'ri va ifodali talaffuz qilish ustida erinmay ishlaydi, talabalar uchun qiziqarli bo'lgan monolog va dialoglarni izlab topar va ular bilan turli mashqlar o'tkazardi. Bunda u har bir talabaga uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, alohida individual yondashadi. U o'tkazgan mashqlar o'z davrining mashhur spektakllaridan olingan so'z, dialog va monoglardan iborat bo'lardi. Quyida talabalar bilan o'tkazilgan mashqlardan ba'zi namunalarini keltiramiz.

1. **"Toshbolta oshiq" musiqali komediyasidan:**
"O'zim har joydaman, ko'nglim sandadir, voy, voy, lalalum-lang, lalalum-lang, lalalum, lalalum, lalalum-lang".

2. **"Vatan ishq" musiqali dramasidan**
– Subxonqul rechitativi: *"Yallama yorim, yallola yallolashaylik, uchtami-to'rtta bo'lvolib hasratlashaylik, hasratlashaylik, yallama yorim, yallola yallolashaylik, beshdami-o'nta bo'lvolib hamdardlashaylik, hamdardlashaylik"*.

"Bog' aylana shaftoli, uchgan kimning kaptari, uchgan kimning kaptari". Talabalardan

biri: *"Uchgan mening kaptarim, uchgan mening kaptarim". Hamma baravariga: "Uchgan uning kaptari, uchgan uning kaptari, yallama yorim, yallola yallolashaylik, biz hammamiz bir bo'lib hasratlashaylik, hamdardlashaylik"*.

3. **"Farg'ona hikoyasi" musiqali komediyasidan – Kattaxo'ja va Kichkinaxo'ja rechitativi:** *"Ikkalamiz boja bo'lsak xushchaqchaq, farzandlar ham birin-ketin tug'ilsa, ikkalamiz dada bo'lsak xushchaq, jaqu-jaqu, jaqu-jaqu, jaqu. Ikkalamiz buva bo'lsak xushchaqchaq, nabiralar birin-ketin tug'ilsa, ikkalamiz buva bo'lsak xushchaq, jaqu-jaqu, jaqu-jaqu, jaqu". Talabalar o'yin tushib ketadilar.*

4. **"Tohir va Zuhra" musiqali dramasidan:**
"Shahardagi odamlar, bog'da bitgan bodomlar, eshitmadim demanglar, eshitganlar jilmanglar. Xonboboxon qiz ko'rdi, yuzini shodlikka burdi, yetsa agar kamoli, oyga o'xshar jamoli".

5. *Ikkalamiz o'rtoqmiz, uchchalamiz o'rtoqmiz, to'rttalamiz o'rtoqmiz, o'ntalamiz o'rtoqmiz, biz hammamiz o'rtoqmiz. Biz hammamiz o'rtoqmiz, ammo hanuz bo'ydoqmiz. Yigitlar: Qiz tanlashga kelganda, yo ezmamiz chaynoqmiz. Qizlar: Chaynoqsiz. Yigitlar: Chaynoqmiz.*

6. **"Toshbolta oshiq" musiqali komediyasidan:**
"Quralay ko'z quralay, tuynugingdan mo'ralay". Ushbu mashq-rechitativlar talabalarni bir-birini his qilishga, voqeaga astoydil kirishga, bir-birini eshitib-ko'rishga, muomala-munosabatda bo'lishga, fikrlashga, aktyorlik mahoratini egallashga yordam beradi.

Mahkam Isroilovning ko'p yillik hayotiy va pedagogik tajribasi san'at sohasida o'qituvchilik qilish uchun avvalo, ma'lum bir muddat teatrlarda ishlab, tajriba orttirish, so'ngra o'qituvchilik faoliyatini olib borish mumkin, degan fikrni isbotlab berdi. Sahna nutqidan saboq beruvchi o'qituvchi avvalo o'zi sahnani, rolni, partnyorlarini eng muhimi, tomoshabin reaksiyasini aniq his qilishi shart. Sahna tajribasiga ega bo'lmaganlar esa bunday imkoniyatlardan mahrumdirlar. Bu esa ularga talabalar bilan o'zaro munosabat o'rnatish, ularni sahnaga tayyorlash va saboq berishga xalaqit beradi.

M.Isroilov institut tomonidan tashkil qilingan turli bayram tadbirlari va ijodiy kechalarda o'zining ravon nutqi, baland va shirali ovozi bilan she'r, monolog va ariyalar aytib, nazariy bilimlarini amalda mahorat bilan namoyish qilardi. Bu hammasi Mahkam Isroilovning ham san'atkor, ham ustoz-murabbiy sifatidagi mavqeini yanada yuksaklikka ko'tardi. Ustoz san'atkor teatr san'ati sohasida hammasi bo'lib 70 yil faoliyat ko'rsatdi. Sahnada olgan saboq va tajribalari uning pedagogik faoliyatida juda ham qo'l keldi. U institutning "Sahna nutqi va notiqlik san'ati" kafedrasida qariyb 55 yil mobaynida talabalarga sahna nutqidan dars berib keldi. Shuningdek, 21 yil teatr san'ati fakultetining dekani, 23 yil davomida institut kasaba uyushmasi raisi sifatida faoliyat yuritdi. Ko'plab o'qituvchi va talabalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashda, ularning sog'lig'ini tiklash uchun

sanatoriy-pansionatlarga joylashda jonbozlik qilib, ko'p xayrli savob ishlarga bosh-qosh bo'lib keldi. Shu yillar ichida drama, musiqali drama, qo'g'irchoq teatri aktyorlari va xonandalardan iborat yuzlab shogirdlar yetishtirdi. Ustozning shogirdlari orasidan O'zbekiston xalq artistlari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar, taniqli teatr va kino arboblari yetishib chiqdi. Bugungi kunda ularning barchasi san'atsevar xalqimizga baholi qudrat madaniy xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Ustoz san'atkor fidoyiligi, ko'p yillik ilmiy-pedagogik faoliyati tufayli O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni, "Shuhrat" medali, professor ilmiy unvoniga sazovar bo'ldi. U tayyorlagan **"Dialog ustida ishlash"**, **"Monolog ustida ishlash"**, **"Aktyorlik, rejissorlik va qo'g'irchoq yo'nalishlariga kiruvchi abituriyentlar uchun mutaxassislikdan uslubiy qo'llanma"**, **"Nutq san'atida psixologik pauzaning ahamiyati"**, **"Badiiy o'qish"** nomli o'quv qo'llanmalari va qator ilmiy maqolalari teatr san'ati sohasida malakali kadrlar tayyorlashda muhim adabiy manbalardan bo'lib kelmoqda. Ushbu o'quv qo'llanmalar xususida taqrizchilar tomonidan bildirilgan ba'zi fikrlarni keltirishni o'rinli deb bildik. 2011-yil 27-iyun kuni San'at instituti Ilmiy kengash majlisining 2-son bayonnomasiga asosan, professor M.Isroilovning **"Sahna nutqi: Monologlar ustida ishlash"** deb nomlangan o'quv qo'llanmasi bir ovozdan nashr etish uchun tavsiya qilindi. Ilmiy-uslubiy Kengash raisi professor T.Bayandiyev: **"Muallif ushbu qo'llanmada aktyorlarning nafaqat sahna nutqi texnikasi va madaniyatining shakllanishiga e'tibor qaratgani, balki shu bilan birga ularning dunyoqarashi hamda tafakkurining kengayishi va boyishiga ham jiddiy ahamiyat bergan"**, – deya izoh beradi.

2012-yil M.Isroilovning **"Teatr san'atida dialog, monolog va psixologik pauzaning ahamiyati"** nomli o'quv qo'llanmasi yozib tugatildi va u ham mutaxassislar tomonidan yuqori baholanib, **"Ma'naviyat durdonasi"** deya e'tirof etildi. Ustozi O'zbekiston xalq artisti Olim Xo'jayev xotirasiga bag'ishlangan ushbu ishda 1945-yil Mannon Uyg'ur tomonidan sahnalashtirilgan "Alisher Navoiy" (Uyg'un va Izzat Sulton asari) spektaklidagi aktyorlar ijrosi tahlil etiladi. 2012-yil M.Isroilov tomonidan yana bir o'quv qo'llanma nashrga tayyorlandi. Ushbu qo'llanmada Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatrida sahnalashtirilgan "Nurxon" (K.Yashin asari, T.Jalilov musiqasi) spektaklidagi aktyorlar ijrosi misolida

dialog, monolog, psixologik pauza, ariya, duet va rechitativlar haqida so'z boradi. Ushbu qo'llanma mashhur aktrisa, O'zbekiston xalq artisti Lutfixonim Sarimsoqova xotirasiga bag'ishlanadi.

Mahkam Isroilov butun vujudi va borlig'i bilan san'atni sevdi va shu yo'lda fidokorona xizmat qildi. **"Men hayotimdan roziman"**, – deydi Mahkam aka. **"San'atni tanlab kam bo'lmadim. Elga tanildim, unvonlar sohibi bo'lish nasib etdi. Professor degan sharafli nomga sazovor bo'ldim. Yuzlab shogirdlarim mamlakatimiz madaniyati va san'atini rivojlantirish yo'lida beminnat xizmat qilib kelayotganidan xursandman. Ikkita singlim bor. Katta singlim Mastura Isroilova Toshkent Pedagogika institutini tamomlab, shu dargohda 52 yil zoologiya fanidan dars bergan. Ikkinchi singlim Ma'mura Isroilova, u ham o'qituvchi. Toshkent chet tillar institutini tugatib, 50 yildan ortiq Toshkent Politexnika institutida ingliz tilidan talabalarga saboq berib keldi. To'rt farzandning otasiman. Turmush o'rtog'im Karomat Isroilova uzoq yillar Toshkent shahar restoranlar trestida injiner-kulinar bo'lib ishlagan. Qo'li juda shirin, ajoyib tortlar, shirinliklar pishirardi. Afsuski, hozir yonimda yo'q, olamdan o'tgan. Katta qizim Gulnora, Toshkent Politexnika institutining samolyotsozlik fakultetini tugatgan. Shu bilan birga, Toshkent aeroklubining sportchi-uchuvchi, sportchi-parashyutchi kursida o'qib, sportchi-uchuvchi maqomini oldi. O'zbekiston Oliy Kengashining deputati, qator hukumat komissiyalarining a'zosi sifatida faol jamoatchilik ishlarini olib bordi. U ham olim. Siyosatshunoslik fanlari nomzodi. Ikki o'g'lim mening kasbimni tanladi. Katta o'g'lim Ravshan ko'p yillar Respublika qo'g'irchoq teatrlarining direktori lavozimida ishladi. Kichik o'g'lim Ulug'bek ham san'at sohasida, ham iqtisod sohasida oliy ma'lumotga ega. Kichik qizim Nargiza shifokor. Tibbiyot institutini tugatib, oilaviy poliklinikada bosh shifokor o'rinbosari vazifasida ishlab kelmoqda. Nabiralarim orasida ham san'atga qiziqqanlari bor. Ikkita nabiram musiqa bilim yurtida o'qidi. Lekin, bugungi kunda boshqa sohalarida faoliyat yuritishmoqda. Yana kim biladi, deysiz... hali hayot oldinda. Balki biron tasi san'at yo'lini tanlar..."**

Mahkam aka oilasi, yaqinlari, shogirdlari haqida to'liqinlanib gapirar ekan, 90 yoshdan oshgan bu nuroniy otaxonning xotirasi, g'ayrat-shijoatiga qoyil qolasan kishi...

SAN'ATGA BAXSHIDA UMR

(O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi san'at arbobi, kompozitor, professor
Bahrullo Lutfullayevni xotirlab)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, iste'dodli kompozitor, professor Bahrullo Amrilloevich Lutfullayevning hayot va ijod yo'llari qalamga olingan. Kompozitorning yurtimiz madaniy merosiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kompozitor, musiqa, orkestr, xor, musiqali drama, yakkaxon, qo'shiq, romans.

ЖИЗНЬ В ИСКУССТВЕ

Аннотация. В данной статье рассказывается о жизни и творчестве профессора Бахрулло Амриллоевича Лутфуллаева, заслуженного артиста Республики Узбекистан и Каракалпакстана, заслуженного деятеля искусств Узбекистана, талантливого композитора. Обсуждается вклад композитора в культурное наследие нашей страны.

Ключевые слова: композитор, музыка, оркестр, хор, музыкальная драма, солист, песня, романс.

LIFE IN ARTTARZHIMON

Annotation. This article tells about the life and work of Professor Bahrullo Amrilloevich Lutfullayev, Honored Artist of the Republic of Uzbekistan and Karakalpakstan, Honored Artist of Uzbekistan, a talented composer. The contribution of the composer to the cultural heritage of our country is discussed.

Keywords: kompozer, muzik, orchestra, choir, muzikal drama, soloist, song, romance .



Musiqa inson ruhining yo'ldoshidir.

Sa'diy Sheroziy

Musiqaning ilohiyligi, inson ruhiyatiga bog'liqligi, ohanglarning sirli olami azaldan insoniyatni qiziqtirib kelgan. Sharqda ham, G'arbda ham nafis va qudratli musiqa inson qalbida eng ezgu, go'zal hislarni uyg'otib, xalqning orzu-armonlarini ifodalab kelgan. Alisher Navoiy o'z nasriy asarlarining birida bu haqida shunday lutf qiladi: "Shodlikni oshiruvchi xonanda, g'amni tarqatuvchi sozanda bularning har ikkisiga hissiyotli kishilar va ahli dardlar jon fido qiladilar. Ular muloyim tarona bilan kuylar ekanlar, eshituvchining naqd hayoti kuyga fido bo'lsa ne g'am? Axir, ko'ngil hush ohangdan quvvat, ruh esa xushovozdan oziq oladi".

Shundanmi, inson shaxsining shakllanishida musiqa san'atining ahamiyati beqiyosdir. Yoshlarni estetik-axloqiy hissiyotlarini tarbiyalashda, dunyoqarash, intilish, ichki kechinmalarini shakllanishida va ularda go'zallik his-tuyg'ularini o'stirishda musiqa san'ati muhim tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. O'sib kelayotgan avlod tarbiyasida uning ahamiyati juda kattadir. Chunki aynan shu san'at, insonning kundalik hayotida kayfiyatiga ta'sir qilib keladigan bir malhamdir. Musiqa hayotni aks ettirishi, hayot bilan bog'liqligi uning kompozitor va ijrochining mohirona iste'dodi bilan kashf etilib, tom ma'noda hayotiy qarashlariga ta'sirchanlik, tarbiya vositasiga aylantiradi. Insonlarning his-tuyg'ularini va orzu-istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi. "Xalqimizning ma'naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g'oyalar, ona Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda



musiqa san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir"[1.1].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida ko'pgina san'atkor va kompozitorlarning samarali ijodi tufayli qo'shiq san'ati gullab-yashnadi. Mamlakatimizda Vatanni, insonni, qolaversa, farovon hayotni madh etishga, uni kuylashga barcha shart-sharoitlar yaratildi. Shu bois, o'zini va ijodini Vatan manfaatiga baxsh etgan ko'plab ijodkorlar mustaqillik, Yangi O'zbekiston, milliy ma'naviy qadriyatlarimiz, shukronalik, fidoyilik va tinchlik haqida faxrlansa arzigulik musiqiy asarlar yaratishdi.

Tinglayotgan qo'shig'imiz uchun uning ijrochisiga ofarin aytamiz. Ammo mohir ijrochining samarali mehnati zamirida shoir va bastakorlarning ham salmoqli hissasi borligini unutmasligimiz lozim. Istiqloq davrida sermahsul ijod qilgan, barcha davlat tadbirlarida o'zining musiqiy asarlari bilan faol ishtirok etib kelgan kompozitor, zahmatkash murabbiy Bahrullo Lutfullayevning xizmatlari tahsinga sazovordir.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston san'at arbobi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, serqirra ijodkor, iste'dodli kompozitor, professor Bahrullo Amrilloevich Lutfullayevning ijodi va hayotiga nazar solarkanmiz, u 1948-yili 5-sentabrda Jizzax viloyati Forish tumanining Nurota tog'lariga tutash bo'lgan so'lim G'arasha qishlog'ida tug'ilgan. Bahrullo Lutfullayev o'zining qobiliyati tufayli besh yoshida maktabga chiqqan, o'n ikki yoshida esa sakkizinchi sinfni a'lo baholarga bitirgan. Musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish uni Toshkentga yetaklaydi. Bo'lajak sah'atkor 1961-

yil sobiq Toshkent madaniyat oqartuv texnikumining "Xor dirijorligi" bo'limiga o'qishga qabul qilinadi. Ushbu dargohda ko'plab ustozlardan san'at sirlarini o'rganib muvaffaqiyatli tamomlagach, 1965-yil Toshkent davlat konservatoriyasining "Xor dirijorligi" yo'nalishida o'qishni davom ettirdi. 1972-yilda konservatoriyani "Xor dirijorligi" fakultetini xor dirijori va xor fanlari pedagogi mutaxassisligi bo'yicha, 1988-yilda "Kompozitorlik" fakultetini kompozitor va pedagog mutaxassisligi bo'yicha yakunladi.

Bahrullo Lutfullayev talabalik davridan to san'at arbobi darajasigacha sermashaqqat yo'lni bosib o'tdi. Bu yo'lda u sobiq madaniy oqartuv texnikumidagi ustozlari Qobil Oripov, Abdusamad Ilyosov, Roza Bektosheva, Mirsodiq Umarov, konservatoriyada esa Richard Yefremovich Xublarov, mashhur xor dirijori Botir Umidjonov, kompozitor va dotsent Mirsodiq Tojiyevlardan tahsil oldi. Bu haqida Bahrullo Lutfullayev: **"Ustozlardan yolchiganman, otam, Eson amakim, birinchi musiqiy ustozlarim bo'lsa, keyingi barcha ustozlarimdan nafaqat musiqiy bilimlarni, balki hayot saboqlari bilan birgalikda odamiylik, mehr-oqibat, sadoqatni o'rgandim"**, – deydi [2.4.4].

Konservatoriyada tahsil olish bilan birgalikda, Bahrullo Lutfullayev O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi xor jamoasida xor artisti, yakkaxoni va dirijori bo'lib ishladi. 1983-yildan shu xor jamoasining bosh xormeysteri va dirijori vazifalarini bajardi. Dirijorlik faoliyati davomida uning tashabbusi bilan ko'p noyob asarlar magnit tasmasiga yozib olindi va ular O'zbekiston davlat teleradiokompaniyasining "Oltin fondi"ga kiritildi. Bular qatoridan ko'pgina o'zbek kompozitorlari, shu jumladan Mutal Burhonov, Sobir Boboyev, Ikrom Akbarov, B.Umidjonov, X.Rahimov, B.Lutfullayev va chet el kompozitorlarining xor uchun yozgan asarlari joy oldi. Tinim bilmas ijodkor ruhiyatida xalq qo'shiqlari, qolaversa, o'zbek bastakorlari yozgan eng sara kuylarni qayta ishlash jarayonida bastakorlik yo'nalishiga ishtiyoq paydo bo'ldi.

U 1983-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Kompozitorlik" fakultetiga qayta o'qishga kirdi. Bahrullo Lutfullayev bu yerda ustoz, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Mirsodiq Tojiyev qo'l ostida bastakorlik sohasi sir-asrorlarini puxta o'rgandi. Talabalik davrida fortepyano uchun "Raqs", "Rondo", "Poema", "Variatsiya" va Alisher Navoiy ijodiga mansub "Ruboiy" nomli to'rt qismli torli kvartet, fortepyano va kamer orkestri uchun "Abadiy alanga", "Marsiya" kabi asarlar yozishga muvaffaq bo'ldi.

Toshkent davlat konservatoriyasini tamomlash arafasida davlat imtihoniga to'rt qismli simfoniya taqdim etib, 1987-yil professional kompozitor sifatida mustaqil ijod uchun yo'llanma oldi. O'qishdan, izlanishdan, o'z ustida ishlashdan charchamaydigan, talabchan Bahrullo Lutfullayev 1988–1992-yillari sobiq Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutida o'qituvchi, dotsent, 1992-yildan O'zbekiston teleradiokompaniyasining badiiy-musiqiy eshittirishlar tahririyati bosh muharriri, respublikada o'tkazilgan turli bayram tadbirlari bosh musiqi rahbari, 2003-yildan sobiq Toshkent davlat san'at institutining "Musiqi fanlar va vokal" kafedrasini mudiri va hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Vokal" kafedrasida professor lavozimida ijodiy-pedagogik faoliyatini olib bordi. 1983-yilda Bahrullo Lutfullayev O'zbekiston

musiqi san'ati rivojiga qo'shgan benazir xizmatlari uchun "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" yuksak unvoniga sazovor bo'ldi. Mustaqillik yillari "Mustaqillik", "Navro'z" bayramlari Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi qadimiy shaharlar yubileyari, buyuk ajdodlarimiz al-Farg'oniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur yubileyari, "Avesto" yubileyi, "Alpomish"ning 1000 yilligi kabi tadbirlarni tayyorlash va o'tkazishda musiqi rahbari sifatida xizmatlari uchun 1999-yil "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlandi. Shuningdek, Bahrullo Lutfullayev "Umid nihollari", "Universiada", "Barkamol avlod" va barcha sport bayramlarini o'tkazishda yillar davomida tajribali musiqi rahbari sifatida ishlagan. 2003-yilda Nukus shahrining yubileyi munosabati bilan tadbirlarni o'tkazishda musiqi rahbarligi uchun "Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist" yuksak unvoni berildi. 2008-yilda esa O'zbekiston musiqi san'atining rivojiga qo'shgan katta xizmatlari uchun "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi" yuksak unvoniga sazovor bo'ldi.

Yakkaxon xonanda sifatida Bahrullo Lutfullayevning ijodi ko'p qirralidir. Uning repertuaridan o'zbek xalq an'anaviy qo'shiqlari, shuningdek, o'zbek kompozitorlarining romans va qo'shiqlari ham joy olgan. Kompozitorning 300 dan ortiq asarlari O'zbekiston televideniye va radiosining "Oltin fondi"da magnit tasmlariga muhrlangan.

Bahrullo Lutfullayevning ijodidan 1980-yil Po'lat Mo'min she'ri bilan yozilgan "Oliy rejalar" va 1981-yil Ramz Bobojon she'riga yozilgan "Hur O'zbekiston" nomli suxandon, yakkaxon va xor uchun syuitalar, 1987-yil B.Isroil she'riga yozilgan "O'zbekiston qardoshlik yurti" kantatasi, Usmon Azim librettosi bilan yozilgan "Samarqand ushshog'i" musiqali dramasi, to'rt qismli 1-chi simfoniya, 1989-yilda so'zlari Tutob To'la qalamiga mansub, suxandon, yakkaxon, xor, torli orkestr va zarbli cholg'ular uchun yozilgan 2-chi "Mung" simfoniyasi, xor va orkestr uchun Hamid Olimjon she'riga yozilgan "O'lka" poemasi, Abdulla Oripov she'riga bastalagan yakkaxon va xor uchun "Ona" nomli poemasi, yakkaxon va xor uchun "Sendan yiroqda" poema-monologi, 1991-yil H.Olimjon va S.Hakim she'ri bilan suxandon, yakkaxon, xor va orkestr uchun 3-chi "O'zbekiston" simfoniyasi, H.Muhammad asariga "Hazilkash shoh" musiqali komediya, 1991-yil suxandon, yakkaxon, xor va kamer orkestri uchun 4-chi "Nido" simfoniyasi, X.Sharipov librettosi bilan "Yor istab" musiqali drama, 1992-yil yozilgan Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Xislat va xalq she'rlariga to'qqiz qismli suxandon, yakkaxon va xor uchun "Sarahbori dugoh" konsert-simfoniyasi, to'qqiz qismli Alisher Navoiy she'ri bilan xor uchun yozilgan "Firoq" xor turkumi, Yo'ldosh Muqimov asariga 1992-yil yozilgan "Mangu mash'al" musiqali dramasi, T.Fayziyeva asariga yozilgan "Uloqchalar yo'l bo'lsin" bolalar uchun musiqiy spektakl, R.Shermuxeimedov asariga yozilgan "Quduq tubidagi faryod" musiqali drama, Usmon Azim librettosiga yozilgan "Alpomishning qaytishi" musiqali dramasi, 1996-yilda yozilgan "Urush, noming o'chsin jahondan!" oratoriya – simfoniya, ko'plab a kapella xor asarlari, jumladan, "Yor sendek", "Kuydirma ko'p", "Bahor shamoli", "Bir tola soch", 300 dan ortiq qo'shiqlar, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning "Vatan", "O'zbekiston", "Barkamol avlod", "Shodiyona", "Zarafshon", "Samarqandim", O'zbekiston xalq shoiri

Jumaniyoz Jabborovning “Eng ulug‘ bayram”, “Biz dunyoga ko‘z ochdik”, O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toirning “Tinchlik”, “Jamoling jonimning gulida, Vatan!”, “Yagonamsan”, O‘zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning “Bir-biringni asra, buyuk o‘zbekim!”, “Yakdil bo‘l, xalqim!”, “Yagonasan, muqaddas Vatan!”, O‘zbekiston xalq shoiri N.Narzullayevning “Vatan muhabbati”, “Muchal yoshing muborak!”, taniqli shoirlar Y.Muqimovning “Shukrona”, “Ona yurtga jon fido”, A.Suyunning “Har o‘zbekning hovlisida”, “O‘zbekiston madhi”, “Vatan yoshlari”, Z.Ne‘matning “Shukrona aytaylik do‘stim”, “Biz Vatanni qo‘riqlaymiz” kabi vatanparvarlik mavzusidagi she‘rlar uchun musiqalari, Xurshid Davron asari bilan yozilgan “Boburshoh” musiqali dramasi, Tog‘ay Murod asariga yozilgan “Oydinda yurgan odamlar”, Nasrullo Qobil librettosi bilan yozilgan “To‘da” va “Ortepa” nomli musiqali dramalar joy olgan. Ushbu asarlar Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat musiqali teatri repertuaridan o‘rin olgan. Kuchli iroda, yaxshi musiqiy instinkt egasi bo‘lgan Bahrullo Lutfullayev bu janrga xos bo‘lgan ifoda vositalaridan foydalangan holda hayotdagi voqealarni aks ettiradi. U o‘zining ijrochilik va o‘qituvchilik amaliyotida milliy ariyalarga, xususan, milliy mentalitet, madaniyat, urf-odatlarining o‘ziga xos xususiyatlariga, qo‘shiq ijrosining kelib chiqishidan oziqlanadigan kontrastli musiqiy obrazlardan foydalanishga katta e‘tibor beradi.

Yoshlarning ma‘naviy dunyoqarashini shakllantirish, tarbiyalash, giyohvandlik illatiga qarshi kurash kabi dolzarb mavzular uning “To‘da” musiqali dramasi uchun berilgan. Mazkur musiqali drama 2007-yilda bo‘lib o‘tgan “Teatrlar festivali”da “Yangi mavzu uchun” diplomiga sazovor bo‘ldi. 2007-yilda Bahrullo Lutfullayev Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag‘ishlab yozgan “Aziz Samarqand!” qo‘shig‘i nafaqat yurtimiz san‘at ixlosmandlariga, balki bayramga tashrif buyurgan chet elliklarga ham manzur bo‘ldi.

Shuningdek, Bahrullo Lutfullayev “Navro‘z” va “Mustaqillik” bayramlari, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” va ko‘pgina viloyatlarda bo‘lib o‘tgan bayramlar uchun yozilgan qo‘shiqlar muallifi hamdir. Ushbu musiqiy asarlar xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida milliy g‘urur, milliy iftixor, Vatanni muqaddasligi, uni sevis, hamda milliy-ma‘naviy qadriyatlarimizga saodat g‘oyalarini ilgari surishda, ona yurtga mehr-muhabbat tuyg‘ularining shakllantirishida beqiyos o‘rin tutadi. “Qo‘shiqchi aktyorlarni tarbiyalash maskani” va “San‘at instituti talabalarini yakkaxon kuylashga o‘qitishning o‘ziga xosligi” nomli maqolalar, hammualliflikda yozilgan “Taqqir” nomli qo‘shiqchilik fanidan o‘quv qo‘llanma, dotsent Nasrullo Qobilov bilan hammualliflikda “To‘da” va “Boburshoh” nomli o‘quv qo‘llanmalar yozgan. Kompozitor barakali ijodi bilan xor jamoalari, o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrlari, estrada orkestri, simfonik, kamer-simfonik orkestrlari, kamer cholg‘u ansambllari, musiqali

teatr, xonanda va sozandalar repertuarini boyitib keldi [3.5.162].

Bahrullo Lutfullayev pedagogik ish faoliyati davomida bir qator iste‘dodli qo‘shiqchilar va yuqori malakali mutaxassislar tayyorladi. Undan vokal bo‘yicha tahsil olganlar O‘zbekiston xalq hofizi Orolmirzo Safarov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Sobirjon Mo‘minov, xonanda Asliddin Do‘stov, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrlarining yetakchi san‘atkorlari Omon Yo‘ldoshev, Ravshan Dadajonov, Musallam Dadajonova, Bahrom Boltayev, Muhabbat Doshanova, xonanda Mashhurbek Raimjonov, Umarshox Saydaliyev va viloyat teatrlarida ijod qilib kelayotgan ko‘pgina yosh aktyor va aktrisalalar shular jumlasidan.

Bahrullo Lutfullayev oilaparvar inson edi. Uning kamtar, samimiy, mehnatkash, odamohun kabi go‘zal fazilatlarini farzandlariga ham o‘tgan. Kenja qizi Muborak Lutfullayeva ota izidan borib, O‘zbekiston davlat konservatoriyasini imtiyozli yakunlab, “O‘zbekiston yosh iste‘dodlari” orkestrining badiiy rahbari va bosh dirijori bo‘lib faoliyat ko‘rsatmoqda.

Kompozitorning xalq musiqasi bilan ishlash uslublarini yangilashning o‘ziga xos usuli xor asarlarida uchraydi. Misol tariqasida, yakkaxon va xor uchun yozilgan “Sarahbori dugoh” konsert-simfoniyasini keltirish mumkin. Bu asarda milliy sohaning chuqurlashishi mumtoz o‘zbek she‘riyatiga murojaat asosida amalga oshadi, o‘zbek kuylarining ko‘p ovozlilikda turli qavariq, jonli takrorlash usullari ochib beriladi. Bu asar kompozitorning milliy an‘ananing ma‘naviy mohiyatini qamrab olgan holda, tabiatining chuqur xususiyatlaridan kelib chiqib, ko‘p ovoqli intonatsion-obrazli tizim yaratishga qodirligini, musiqaning istalgan ko‘rinishida milliy tovush elementini ochib bera olishini isbotlaydi. Bastakorning Navro‘z bayrami va respublika mustaqilligi mavzusiga bo‘lgan qiziqishi shundan dalolat beradi.

Bahrullo Lutfullayevning o‘zbek musiqa madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi ko‘p qirrali, eng avvalo, bir qancha o‘ziga xos yorqin qo‘shiqlar, jumladan, musiqali ariyalar yaratilishi bilan bog‘liq. Uning kompozitsiyalari taniqli xonandalar, xor jamoalari va orkestrlar repertuaridan munosib o‘rin egallab kelmoqda. Ular nafaqat bizning respublikamizda, balki qardosh respublika sahnalarida ham yangraydi.

Iste‘dod – ne‘mat. Shu ne‘matni to‘g‘ri yo‘lga solib, unumli foydalanib, el e‘tiboriga, tahsiniga va davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo‘lgan ustozimiz, afsuski, maqola nashr etilishga qadar bu yorug‘ olamni, 75 yoshida tark etdi. Ushbu maqolani ustozning yorqin xotirasiga bag‘ishladik. Hayoti davomida doimo ezgu amallar qilishga intiladigan insonlar, albatta, o‘zidan keyin yaxshi nom qoldiradi. Ustoz Bahrullo Lutfullayevdan faqat yaxshi nom, go‘zal xotiralar qoldi. Zakiy ustozimizning oxirati obod bo‘lsin!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. // 15.08.2017-yil PQ-3212-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. – T.: 2017.
4. Lutfullayev B.A. Istiqlo‘l taronalari. – T.: “Turon-Iqbol”, 2018.
5. Jabborov A.H. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2004. – B.188.

HIMMATNING QIYMATI – ILM SHAMCHIROG'I, MA'NAVIYAT SARCHASHMASI, ILMU ZAKOVAT XAZINASI

Annotatsiya. Maqolada filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshevning "Himmatning qiymati" kitobining mazmun-mohiyati haqida batafsil fikr-mulohaza yuritilgan. Kitobning yoshlar tafakkuri va ma'naviy salohiyatini oshirishdagi roli badiiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kitob, himmat, fikr, ma'rifat, saxovat, kitobat, olim, ziyoli, taraqqiyot, qiymat, shaxs, ma'naviylik, tafakkur.

ЦЕННОСТЬ ЧЕСТИ — МЕЧ НАУКИ, ИСТОЧНИК ДУХОВНОСТИ, СОКРОВИЩЕ НАУКИ И ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация. Статья содержит развернутое мнение о содержании книги профессора Ибрагима Юлдошева «Ценность мужества». Изучена роль книги в совершенствовании мышления и духовного потенциала молодежи с художественной, политической, духовной и воспитательной точек зрения.

Ключевые слова: книга, усилие, мысль, просвещение, щедрость, чтение, ученый, интеллектуал, развитие, ценность, личность, духовность, мышление.

THE VALUE OF HONOR IS THE SWORD OF SCIENCE, THE SOURCE OF SPIRITUALITY, THE TREASURE OF SCIENCE AND INTELLIGENCE

Abstract. The article contains a detailed opinion on the content of Professor Ibrahim Yoldoshev's book "The Value of Courage". The role of the book in improving the thinking and spiritual potential of young people has been studied from the artistic, political, spiritual and educational point of view.

Keywords: book, effort, thought, enlightenment, generosity, reading, scholar, intellectual, development, value, personality, spirituality, thinking.

Yangi O'zbekiston yoshlarini eskicha fikrlashdan, ma'nan zaif va loqayd bo'lishdan asrash yo'lida samarali islohotlar amalga oshirilmoqda. Kelajak avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalash, o'lmas milliy qadriyatlarimizni keyingi avlodlarga yetkazish masalasi yurtimizning ma'rifatparvar ziyolilari zimmasidagi muhim vazifa sifatida belgilanmoqda. Eng muhimi, yoshlarni har tomonlama komil inson sifatida tarbiyalash, ularning ma'naviyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilgan. Axir, shu ko'zmunchoq bolalarimiz ertaga sportda, fanda, san'atda dunyoni zabt etsa, uning bilimi, odobiga dunyo havas qilsa, shu bizning baxtimiz, shu bizning faxrimiz¹.

Yaqinda XXI asr o'zbek kitobat olamining yirik vakili, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev Jo'rayevichning "Fan ziyosi" nashriyotida "Himmatning qiymati" nomli 322 durdan iborat asari chop etildi. Kitobda insoniyatning saxovat va himmat singari ahli bashariyatni ibrat olishga da'vat



etguvchi suyumli fazilatlar haqida mushohada etilgan. Ma'rifatning chirog'i kitob – ma'naviyat xazinası. Bu xazina insoniyatni ma'naviy tanazzuldan saqlab qoladi. U insonning suhbatdoshi va ongli sirdoshidir. Bu xususida ozarbayjon xalqining faylasufi A.H.Baxmanyor: "Shunday odamlarni axtaringki, ular bilan suhbat qilmoq yaxshi kitob o'qimoqqa barobar bo'lsin. Shunday kitoblarni axtaringki, mutolaasi faylasuflar suhbatiga teng bo'lsin", – degan. Bunday armug'on kitoblar insonning zanglagan tafakkur olamini misli qurolsiz zabt etadigan qo'shındir. Uning har bir varag'i esa – tafakkur zangiga zaxm keltiruvchi askar

mislidir.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Agar siz farzandingizga dang'illama uy qurib bersangiz – vaqti-soati kelib, u eskirishi mumkin. Agar eng zo'r mashina olib bersangiz – uyam tez orada eskirishi mumkin. Agar unga moddiy boylik, pul qoldirsangiz – uyam bir kun sarf bo'lib tugashi mumkin. Ammo dunyoda hech qachon eskirmaydigan, yo'qolmaydigan bebaho bir boylik borki, u ham bo'lsa,

¹ Xolmo'minov M., Qolqanatov A. "Inson ma'naviyatining manbayi". "Ijodiy parvoz" gazetasi.

farzandingizga bergan bilim va hunardir. Lekin bilim va ma'rifatni qayerdan, nimadan olish mumkin? Avvalo, kitob degan xazinadan.

Bu dunyo qayg'uzorlarida qalbga chiroqdek nur ato etadigan ganj kitoblar kamnamo. Chunki, yurakdan tug'ilgan asargina yurakka etib boradi. Ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy: "O'z vujudingga tafakkur aylagil, Har ne istarsen, o'zungdin istagil" deganidek, mutolaachilar ham o'qib nimadir anglagan ziyosini o'z yaqinlariga aylaydilar.

Himmat insonning qadr-qimmatini, qalbini, aql-idrokini, butun borlig'ini namoyon qiluvchi ulug'vor xislatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, himmat tushunchasi asrlar osha qadrlanib kelgan. Xalqimizning buyuk merosi, insoniyatning ilk kitobat san'ati durdonasi "Avesto"dan tortib, adabiyotimizning bugungi namunalarida ham himmat ulug'langan. Oliyhimmatlilik xalqimiz uchun yuksak qadriyat darajasiga ko'tarilgan². "Saxovat insoniyat bog'ining serhosil daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizi, balki u sermavj dengizining bebaho gavharidir"³. "Saxovatning nihoyasi fidoyilikdir"⁴.

"Himmatning qiymati" asarida majoziy va joziy armug'on aylangan har bir satr va jumla muallifning o'giti ekanligidan dalolat. Kitobni mutolaa qilish uni o'qib tushundi, degani bo'lmaydi nazdimizda. Donolar aytganidek: "Ilmni olaverish mumkin, ammo borliqni anglash hammaga emas". Kitob mohiyatida muallif Yangi O'zbekiston davlatchiligida amalga oshirilayotgan islohotlarni tub ildizini Alisher Navoiyning lutfi hikmatlariga bog'laydi. Bu bejiz emas, albatta. Sh.Mirziyoyev o'z vaqtida alloma bobomiz hazrat Alisher Navoiy ham o'sha zamonning nidosini va davr chaqirig'ini ifoda etgan holda, "Emas oson bu maydon ichra turmoq..." deb boshlanadigan misralarni bejiz bitmagan. Bugun ham xuddi shunday: dunyo maydonida va o'z azmida qoyim turmoq, maqsadga erishmoq uchun muttasil oldinga intilish, hayotni va tafakkurni isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish lozim, deb zikr etib o'tganini yaxshi eslaymiz. Shavkat Miromonovich inson qadri tamoyilining shakllanishi xususida quyidagi fikrlarni aytadi: "Alisher Navoiy bobomizning **"Zulm**

qilma, insofli bo'l, xalq uchun adl qasri, ya'ni adolat qo'rg'onini bunyod et", deb aytgan hikmatli so'zlarida aks etgan ulug'vor g'oyalar insonning qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylanmoqda"⁵.

"Himmatning qiymati" asari orqali ham Navoiyni ko'zimizga to'tiyo aylash kabi tabarruk vazifalar yoshlarga qayta eslatilgandek. Ibrohim Yo'ldoshevning "Himmatning qiymati" kitobining kirish so'zi o'rnida: "Men ham qo'limdan kelganicha Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'lab himmat va saxovatpeshalik bilangina aloqador jihatlarni yoritishga harakat qildim, – deya siyoh to'kadi. Hikmatga va himmatga ega inson ming yil yashaydi, degan gap bejiz emas. Chunonchi, Alisher Navoiy **"Agar hikmatga bo'lsa iltifoting-ki, bo'sun Nuh umricha hayoting!"**⁶ jumlasini ta'birlaydi. Insoniyatni ma'naviy-axloqiy jihatdan boyitgan shunday ijod va tafakkur ahli vakillari borki, besh-o'n, o'n besh-yigirma asrlar o'tgan bo'lsa-da, ularning qoldirgan merosi havas uyg'otadi, o'quvchi qalbini to'qinlantirib, yayratib yashashga, insonni, undagi oliyanob fazilatlarini ulug'lashga undaydi⁷.

Biz Yangi O'zbekistonning bunyodkorlari sifatida ma'nani yetuk shaxslar bo'lib yetishish saodatini tanladik. Bu mas'uliyat va zimmamizga olingan fusunkor, viqorli sharafdir. Axloqiy tarbiyaga ko'proq yoshlar muhtojdir, deya ta'kidlaydi donolar. Donolar bunday deyshga jur'at etishi, yoshligidagi xatolari vaqt o'tib "tarbiya" bo'lganligida, deb tushunishga harakat qiladi. Shonli tarix va porloq kelajakning o'zaro uyg'unligini yaratish va bunga erishish bugungi avlodning zimmasidagi muhim vazifalardandir⁸.

"Himmatning qiymati" asarida ham yoshlar tarbiyasi haqida insonni o'ylantiradigan, do'ppini boshdan echib, mulohaza qilishga undaydigan so'zlar, bashariyatda noyoblik tusiga aylanayotgan – mas'uliyat tushunchasini yana bir karra o'zligimizga qaytarishga harakat qilgandek go'yo. Ibrohim Yo'ldoshev olim va rahbar sifatida jism-tafakkurini Ona Vatan – Yangi O'zbekiston uchun safarbar qilgan. Olim Yaratganning nazaridagi – insondir. Olim inson avvalo ilmni tabarruk va mo'tabar bilgani uchun ham azizdir. Bu asriy haqiqat qo'ng'irog'i, yillar o'tishi bilan baland ovozda jaranglayveradi. "Himmatning qiymati" ziyo tarqatishga shaylangan tongi quyosh singari abadiyatning farzandi. Ilm ulashish – savobdir. Ilm insonni ziyoda va tabarruk qiladi. Hozirda ilm ahlini asrash, o'ziligimiz va ma'naviyatimizni asrash demakdir. "Himmatning qiymati" bu jarayonda yoshlarga nihoyatda foydali va kerakli manbadir.

Kitob yozgan inson dunyoni o'zgartira oladi. Lekin texnika-texnologiyaning rivoji kitob o'qish va mutolaa madaniyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatayotgani achchiq haqiqat. Professor Q.Seydanov hozirgi yoshlar haqida qo'yidagicha izohlaydi: "Bugungi kunda yoshlarimiz qo'l telefonlar bilan telekanallarga, internet va saytlarga qarash bilan kitob o'qishga unchallik ahamiyat bermiyotgani ham birdan-bir haqiqat. Ya'ni, mutolaachilar kamayib, kuzatuvchilar ko'paygan paytdir"⁹.

² Matyoqubov K. "Oliyhimmatlilik saboqlari". "Adolat" gazetasi.

³ Yo'ldoshev I. "Mahabb ul-qulubda saxovat va himmat". "O'zDSMI xabarlarini" jurnali, 2021-yil, № 2.

⁴ Abu Rayhon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2017. – B.487.

⁵ Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. – B.464.

⁶ <https://ziyouz.uz>

⁷ Alimasov V.A., Xodjayeva B.X. Ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotda tarixiy shaxslarning roli. – T.: "Fan va texnologiya", 2016. – B.120.

⁸ Yo'ldoshev I. "Madaniyat va san'at sohasida malakali kadrlar tayyorlash – bosh maqsadimiz". "Teatr" jurnali, 2020-yil, № 4.

⁹ Seydanov Q. Abay jone Orta Aiya adabiyeti. – T.: "Adabiyot", 2020. – B.344.

*“Har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste’dodini avvalo o’zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxt-saodati, manfaati uchun to’liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur’at va samarasini hatto tasavvur qilish ham oson emas”*⁹. Shunday ekan, yaratilgan bezavol ma’naviy tafakkur nihollarini kurtak yozdirish davrlar osha charxpalak singari aylanib keladi. Qayon boqsang o’zgarish va islohotlar, daryodek avj bilan harakatga kelayotgan bunyodkorliklar. Biz tahliliy qalamga olgan mazkur “Himmatning qiymati” asarida bu ishlar g’urur bilan e’tirof etilgan. Asarda keltirilgan mutafakkirlarning hayot yo’liga, ezgu amallariga havas qildik. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev: *“Zahmatkash, fidoyi olimlarimiz – Xudo bergan odamlar, desak, xato bo’lmaydi. Ularni boshqalar bilan teng qilish mumkin emas. Bunday insonlar mingtadan, milliontadan bitta tug’iladi. Ularni asrab-avaylashimiz, har tomonlama qo’llab-quvvatlashimiz lozim. Bitta ilm namoyandasini yetishtirish uchun davlat, jamiyat 30 yil vaqt sarflaydi. Olim bo’lish uchun inson umr bo’yi harakat qiladi. O’zim ham bu sohada birmuncha vaqt faoliyat ko’rsatganim uchun buni juda yaxshi tushunaman”*¹¹, – deb olim insonlarga haqqoniy ta’rif bergan. *“Olimning nomi abadiy. Avlodlar hamisha uning kitoblaridan bahramand bo’ladi, nomini e’zozlab tilga oladi. Mana, olimlikning oliy martabasi”*¹².

*“Muqaddas kitoblarimizda, yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilik ekaniga alohida urg’u beriladi”*¹³, – deydi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. *“Himmatning qiymati” asarida ham shukronalik, saxovat, rizolik, saxovatpeshalik, dilkashlik, boqiylik, xayr-ehson kabi ezgulik nurlariga alohida urg’u berilgan. Mazkur asar kitobat bog’ining “vispubish”*¹⁴ daraxti singari barcha yoshlarga ma’nan darmon bo’lishiga ishonaman. U yoshlar tarbiyasi uchun mufassal mushohada majmuasi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Qaysi

davr bo’lsa hamki yoshlar ma’naviyatidagi tarbiya ziyolilarning emas, davlat, jamiyat, mahalla va ta’lim muassasalarining qiyin va e’tibor talab etadigan vazifasidir.

Dunyo shiddat bilan o’zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo’layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo’lishga undaydi¹⁵. Fikran anglashimizcha, Ibrohim ustoz ham yoshlarga ma’nan yordam berish maqsadida, saxovat va himmatni qayta bashariyatga eslatmoqchi va qayta jonlantirmoqchi bo’lgan. Ustozning maqolalari va kitoblarini o’qigan inson uning mufassal mushohadalar me’mori ekanligini darrov anglaydi. Mushohadalarni me’yorga keltirib yozish, qalb titirog’ini ifodalashdek gap asli. O’zbek xalqida chaqaloqqa nom berish, mas’uliyatli ish. Kitobga nom berish ham muallifdan did va mahorat talab etadi. Suhbatda Ibrohim Yo’ldoshev: *“Kitobga nom berish borasida ko’p o’ylandim. Ko’plab yor-u do’stlarim bilan maslahatlashdim. Turli nomlar tavsiya qilishdi. Ko’nglim baribir shu nomni: “Himmatning qiymati”ni buyurdi”*, – degan edi. Muallif asarida o’z kasbiy xususiyatini ham bildira olgan. Yozmishlarida kutubxonashunoslik sohasida ta’lim olgani yaqqol ma’lum bo’ladi.

Himmat – insoniyatga oliy ne’mat. Uning qiymati – yuksaklik. Kitob nomini xayolan “Mufassal mushohadalar me’roji” deya tavsifladik. Mufassal mushohadalar me’moridan – mufassal mushohadalar me’rojiga yo’l. Yangi O’zbekiston yoshlarining qo’lidan mahkam tutib, “Himmatning qiymati” asarini o’qishga da’vat etgan holda, ularning ma’naviyatini yorug’ mutolaa mirqiga chorlab qolamiz.

¹⁰ Karimov I. Barkamol avlod orzusi. – T.: “Sharq”, 1999. – B.181.

¹¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – B.592.

¹² Sirojiddinov Sh. “Bir umrlik mehnat”. “O’zbekiston ovozi” gazetasi, 2022-yil, №6 (32,700).

¹³ Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: “O’zbekiston”, 2018. – B.508.

¹⁴ Vispubish – barchaga darmon baxsh etguchni daraxt.

¹⁵ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – B.592.

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan “Stage movement and physical culture”
Nasiba ABRAYKULOVA,
associate professor of the department, “Stage movement and physical culture” Ph.D. of the
department, associate professor Han ALAM

SERVICE TRIP TO KOREA

Abstract. In this article, the purpose of the trip of the rector of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan Yuldashev Ibrahimdzhon Juraevich, Vice-Rector of the Institute Eldor Shermanov, Associate Professor of the Department of Stage Movements and Physical Culture, PhD Dr. Khan Alam, to Seoul and Suncheon in South Korea. Written about cooperation, exchange programs that will be implemented.

Keywords: purpose, opportunity, business trip, discussion, memorandum, master class, culture, art, agreements, student exchange program, business trip.

КОРЕЯГА ХИЗМАТ САФАРИ

Annotatsiya. Ushbu maqolada Janubiy Koreyaning Seul va Suncheon shaharlariga O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo‘ldoshev, institut prorektori Eldor Shermanov, “Sahna harakatlari va jismoniy madaniyat” kafedrasida dotsenti, PhD doktor Han Alamning xizmat safarining maqsadi, amalga oshiriladigan hamkorlik ishlari, almashinuv dasturlari to‘g‘risida yozilgan.

Kalit so‘zlar: maqsad, imkoniyat, xizmat safari, muhokama, memorandum, master-klass, madaniyat, san’at, kelishuvlar, talabalar almashinuv dasturi, xizmat safari.

СЛУЖЕБНАЯ ПОЕЗДКА В КОРЕЮ

Аннотация. В данной статье дано цель командировки ректора Государственного института искусств и культуры Узбекистана Ибрахим Юлдашева, проректора института Эльдора Шерманова, доцента кафедры Сценические движения и физическая культур, PhD доктора Хан Алама, в Сеул и Сунчон в Республике Южной Кореи. Написано о сотрудничестве, программах обмена, которые будут реализованы.

Ключевые слова: цель, возможность, командировка, обсуждение, меморандум, мастер-класс, культура, искусство, соглашения, программа обмен студентов, деловая поездка.



The purpose of a business trip

- The president, vice president, Korean professor of the Uzbekistan state institute of Arts and Culture visited Seoul to sign an MOU with the invitation of Sungshin Women's University in Seoul, South Korea. The president and vice-president held a master class on Uzbek culture and art.

- At the invitation of Suncheon City Office in Jeollanam-do, Korea, through an interview with Suncheon Mayor, they discussed future cultural exchange agreements with Uzbekistan state institute of Arts and Culture

- An MOU was signed with Suncheon Jeil college in Suncheon, Jeollanam-do, Korea. The agreement was signed and a master class on Uzbekistan culture and art was held by the president, vice president of Uzbekistan state institute of Arts and Culture

A place of business trip

Republic of Korea

Incheon Airport-Seoul-Suncheon-Incheon Airport

Period

October 24th (Mon) - October 29th (Sat)

About the business trip

On August 13, 2022, Professor Kim Me-suk of Sungshin Women's University of Korea visited Uzbekistan for a performance of "Karayski" at the National University of Arts and Culture in Uzbekistan. For this performance, there was great support from President Yuldashev Ibrohim and Vice-President Eldor Shermanov. Professor Han Alam and Head of




Culture, Docent Abraykulova Nasiba Erkinovna taught 10 theater arts students who passed the performance audition. As a result, the concert ended successfully.

After the successful performance, there was a discussion about the MOU agreement with Sungshin Women's University. After returning to

Korea, Professor Kim and the president of Sungshin Women's University wanted to invite Uzbekistan state institute of Arts and Culture, which had made a great contribution to the performance of 'Kareyski', to Korea. After obtaining approval from the Korean Embassy for an invitation from Sungshin Women's University, we were able to proceed with the business trip to Korea. After about a month of preparation, we were able to catch a flight to Korea on October 24.

October 24th <Monday>



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ilm-fan va madaniyat sohasidagi tashabbusi bugungi kunda keng jamoatchilikning e'tiborini tortmoqda. O'zbekistonning madaniy merosini saqlab qolish va ko'paytirish masalalari bo'yicha mahalliy ilmiy xodimlar va xorijiy mutaxassislar jalb etilgan. "O'zbekiston madaniy merosi dunyo to'plamlarida" loyihasi ushbu sohadagi hamkorlikning yorqin namunasidir. Bu haqda AQSHning Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti raisi, madaniyat va huquq masalalari bo'yicha eksperti Frederik Starr shunday deydi: **"O'zbekiston madaniy merosini ulkan aysbergga**

o'xshatish mumkin. Ko'pchilik uning suv sathidan ko'rinib turgan qismi haqida ma'lumotga ega. Hali dunyoning qancha-qancha kutubxonalarida, muzeylarida, ilmiy muassasalarida xalqimizning ming-minglab durdonalari saqlanmoqda. Bu hali ulkan tamaddunga ega bo'lgan xalqqa tegishli xazinaning bugungi kungacha kelgan qismi, xolos [4.1-b]. Demak, o'zbek milliy merosining hali o'rganilmagan jihatlari juda ko'p. Ularni sinchkovlik bilan o'rganish, tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish oliy maqsadlardan biri bo'lishi lozim.

Har bir xalq yoki elat dastavval tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib, o'ziga xos xususiyatlarini saqlab kelgan. Ma'lumki, ayrim etnoslar u yoki bu ehtiyojlarini qondirishdagi faoliyati va uslubi bilan ko'zga tashlanadi. Masalan, uzoq tarixiy davr mobaynida yerga to'shab yoki kursida o'tirishi taomni qo'lda yoki qoshiq, sanchqi bilan iste'mol qilishi, har xil ichimliklar va oziq-ovqat turlari bilan kiyim-kechagi va uy-ro'zg'or buyumlari, o'zaro muloqotdagi xususiyatlari (salomlashish usullari va mehmon kutish), bola tarbiyasi, urf-odat va marosimlari kabi juda ko'p milliy-madaniy xususiyatlari bilan nafaqat ayrim etnoslar, hatto ba'zi etnik guruhlar ham ajralib turadi.

Har bir etnos o'z navbatida ayrim qabila va urug'lar, qavm-qarindosh va jamoa, ijtimoiy guruhlar va tabaqalardan tashkil topgan. Olimlar mazkur tarixiy birliklarni yaratishda va ularni o'zaro qo'shib, jipslashtirishda asosiy omillardan eng muhimi milliy til, deb hisoblaydilar. Chunki muayyan etnik birliklarning bir-birlari bilan erkin munosabatda bo'lishi, muomala qilishi, his-tuyg'ularini izhor etishi va tushunishi, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatishda til bosh omil hisoblanadi. Chunki til tufayli nafaqat tarixiy birlik, balki umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, ayniqsa, madaniy va ma'naviy birlik o'rnatiladi. Ko'pchilik xalq va elatlarga nom ham ularning tiliga qarab berilgan [5.5.6-b].

Etnik-madaniy qadriyatlar sivilizatsiyadagi etnik

subekt hayoti tajribasini jamlaydigan an'anaviy va innovatsion elementlarning birlashmasidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, modernizatsiya qilinayotgan jamiyatda etnos madaniyati nisbatan yopiq, mahalliy madaniyatdan ochiq madaniyatga aylanadi. Bu yerda global sivilizatsiya bilan birga rivojlanib, unda integratsiya elementlarining ulushi o'sib boradi. Zamonaviy sivilizatsiya sharoitida etnomadaniy qadriyatlar muammosi ko'pgina omillarga bog'liq. Birinchi navbatda, etnosning dunyoda o'zgalarga taqlid qilmasdan o'z o'rnini topa olish qobiliyatiga, an'analar va yangiliklarni birlashtira olish, ochiqlik va iqtisodiy raqobat chaqirig'ini qabul qilish va shu bilan birga uning aqliy asoslarini saqlab qolish. Ushbu muammoni hal qilishning asosiy sharti global dunyoda etnomadaniy qadriyatlarining o'zaro ta'sir jarayonini, nimaga va qanday ma'naviy qarz olish, qabul qilish va o'zlashtirishni tushunishdir. Etnik madaniyat paradigmasini, uning rivojlanish shartini tahlil qilar ekanmiz, shu asosda haqiqatan nimaga moslashish mumkinligini anglash kerak. Ushbu sharoitda bizning jamiyatimiz ham o'zining ijtimoiy mohiyatini yetarli darajada anglashi, zamonaviy sivilizatsiya ijtimoiy o'zgarishlariga ta'sir tendensiyalarini aniqlashtirish zarur.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda shuni anglashimiz mumkinki, buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda, o'zining o'tmishini, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan komil insonlarni tarbiyalash vaqti keldi. Mustaqillikka erishgan har bir davlatning ma'naviy poydevori mustahkam bo'lgandagina, u baquvvat bo'lib, keng miqyosda taraqqiy eta oladi. Buning uchun esa ajdodlarimizning ming yillar davomida yaratgan bebaho madaniy va ilmiy meroslarini tiklash, tadqiq etish, taraqqiy ettirish va undan aql hamda idrok bilan foydalanish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shermuhamedov S., Ochilidiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Farg'ona: 2000. – B.26.
2. Корытина М.А. Этнокультуры в процессе глобализации. // Международный журнал экспериментального образования. 2015. № 9. – С.60–62.
3. “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'RB – 668 20.01.2021. lex.uz.
4. Mavrulov A. Bozorov D (va boshqalar). Sharq renessansi davri allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosi (monografiya). – Toshkent: “Sano standart”, 2017. – B.44.
5. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – T.: “O'qituvchi”, 1994. – B.320.

BUXORO TEATRI AKTRISASI NAZOKAT NE'MATOVA IJODIGA CHIZGILAR

Annotatsiya. Buxoro viloyati musiqali drama teatri salkam bir asrlik ijod yo'li davomida yetuk aktyor, rejissor avlodini tarbiyalagan maskandir. Maqolada O'zbekiston xalq artisti Nazokat Ne'matovaning teatr san'atiga kirib kelishi, ustoz-shogird an'analariga sodiqligi haqida so'z yuritiladi, yaratgan obrazlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: teatr, spektakl, musiqali drama, yo'nalish, ijodiy yo'l.

АКТРИСА БУХАРСКОГО ТЕАТРА НАЗОКАТ НЕЪМАТОВА ЛИНИИ К ЕГО РАБОТЕ

Аннотация. Музыкально-драматический театр Бухарской области – место, воспитавшее за почти столетие творчества целое поколение зрелых актеров, режиссеров. В статье рассказывается о приобщении народной артистки Узбекистана Назокат Нематовой к театральному искусству, ее верности традиции учитель-ученик, анализе созданных ею неповторимых образов.

Ключевые слова: театр, спектакль, музыкальная драма, направление, творческий путь.

BUKHARA THEATER ACTRESS NAZOKAT NEMATOVA LINES TO HIS WORK

Annotation. The Music and Drama Theater of the Bukhara region is a place that has brought up a whole generation of mature actors, directors and actresses for almost a century of creativity. The article tells about the introduction of the People's Artist of Uzbekistan Nazokat Nematova to theatrical art, her loyalty to the teacher-student tradition, and the analysis of the unique images created by her.

Keywords: theatre, performance, musical drama, direction, creative way.

O'zbekiston xalq artisti Nazokat Ne'matova 1922-yil Buxoroda tug'ilgan. U ijodiy faoliyatini dastlab havaskorlik teatridan boshlab, professional aktrisa sifatida shakllangan. 1935-yillarda maktab havaskorlik sahnasida bir qancha rollar ijro etib, mahoratini namoyish etgan. Undagi teatr san'atiga bo'lgan mehr-muhabbatni sezgan maktabdagi ustozlar, bo'lajak san'atkorga to'g'ri yo'nalish beradi. Ustozlar tavsiyasiga ko'ra, Nazokat Ne'matova 1938-yilda tanlov asosida Buxoro yosh tomoshabinlar teatriga ishga qabul qilinadi. Va uning hayotida yangi bir davr boshlanadi. Ushbu teatrdagi dastlab ommaviy sahnalarda rollar ijro qilib tajriba orttirgan yosh aktrisa, 1941-yildan Buxoro viloyati musiqali drama teatrida mehnat faoliyatini davom ettiradi. Aktrisa teatrga ishga qabul qilingan davrda Buxoro teatri repertuarida U.Hojibekovning "Arshin mol olan", A.Ostrovskiyning "Kambag'allik ayb emas", F.Shillerning "Makr va muhabbat", Sh.Xurshidning "Farhod va Shirin", H.Niyoziyning "Boy ilda xizmatchi" kabi yirik asarlari sahnalashtirilgan edi. Shu yillarda teatr jamoasi ko'plab o'zbek, rus, jahon dramaturgiyasi namunalari murojaat qilgan. Sababi, 1927–1930-yillarda Moskvada o'qib kelgan ikkinchi studiya talabalari Buxoro teatri sahnasida qator asarlarni sahnalashtirib qaytishgan edi. Nazokat Ne'matova teatrdagi ayni shu gullagan davrida jamoaga kelib qo'shilishi, uning ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Nazokat Ne'matova teatrdagi faoliyati davomida ko'plab obrazlar yaratgan. Qattiqqo'l otaning zulmlariga chidagan Gulnora, suygan yoriga sodiq va muhabbat yo'lida qancha mashaqqat bo'lsa yengishga tayyor Layli, tinchlik va ozodlik uchun o'zini qurbon qilgan Nurxon kabi qahramonlarni jonlantirishda ustozlaridan olgan

sabog'i muhim o'rin tutgan. Nazokat Ne'matova ustoz Anvara Olimova ishtirokidagi spektakllarning barchasini tomosha qilgan, repetitsiya jarayonlarini, aktrisaning ishlash uslubini kuzatgan. Shu sababli, ustoz-shogird an'analarini davom ettirishga intildi.

Nazokat Ne'matovaga faoliyati davomida turfa rollar nasib etdi. Shulardan biri, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ilda xizmatchi" spektaklidagi Jamila rolidir. Jamila aktrisa talqinida iffatli, uyatchan ayol bo'lib gavdalanadi. Ayniqsa, Solihboyning yagona farzandini Xonzoda suvga itarib yuboradigan sahnasida aktrisaning ijodiy imkoniyati ancha keng ekanligi yorqin namoyon bo'lgan. Unda aktrisa qahramonining spektakl boshidan to'planib kelgan ichki holatini bo'rttirmagan holda tabiiy o'ynashga harakat qilgan. Jamila spektaklning oxirgi pardalarida Xonzodaning barcha kirdikorlarini ochib tashlaydi va boy ulamolarga qarata yuragidagi barcha gaplarni qo'rqmasdan aytadi. Aktrisa ijrosida Jamilaning pok qalbi, haqiqat yo'lida jonini ham ayamaydigan aqlli ayol ekanligi yorqin ifodalangan. Ushbu spektaklda Anvara Olimova Hoji ona obrazini gavdalanantirar ekan, ustoz-shogird kichik kundosh Oyxonning bolasi issiq suvda kuyib qolib, dod-voy soladigan sahnasida birinchi bor partnyor sifatida sahnada ko'rindilar. Spektaklning final sahnasida Hoji ona va Jamila yana bir bor ko'rishadi. Spektaklning har ikki ko'rinishida ustoz-shogird partnyor sifatida bir-birini ichki holatlarini his qilgan holda, o'z obrazlarini hayotiy topilmalar, xatti-harakatlar bilan boyitib borishgan. Shundan so'ng, ustoz-shogird turli spektakllarda birgalikda rollar ijro etishdi.

Nazokat Ne'matova ikki yuzdan ortiq yaratgan obrazlari ichida Zinnat Fatxullin va Shukur Sa'dullaning "Vatan ishq" musiqali dramasida Narzi obrazi alohida

o'rin tutgan. Nazokat Ne'matova uchun Narzi obrazi o'zbek onasining ichki holatini chiqarib berish uchun katta kuch va mehnat talab qilgan. Asarda Narzi xolaning eri va o'g'li bilan bog'liq salbiy voqealar, aktrisaning yana ham kuchli ona bo'lishiga xizmat qiladi. Aktrisa oila a'zolari halok bo'lgan onaning ruhiy holatini ochib bergan. *“Teatrning yosh rejissori Aminjon Akobirov sahnalashtirgan “Vatan ishq” musiqali dramasi tomoshabinlarga manzur spektakllardan biriga aylandi”* [1]. Spektakl muvaffaqiyatida Narzi xola obrazi va aktrisaning xarizmatik ijrosi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. *“Vatan ishq”* spektaklida shu davrda Toshkent teatr san'ati instituti (hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti)ni bitirib kelgan R.Shukurov, J.Boboyeva, A.Mahmudovlar hamda badiiy havaskorlik to'garaklaridan yetishib chiqqan L.Ja'farova kabi san'atkorlar rol ijro etishgan.

Teatrga kirib kelayotgan yoshlarga, endilikda katta ustozlar tarbiyasini olgan san'atkorlar o'z tajribalarini o'rgata boshlaydi. Shu davrdan ustoz-shogird an'analari yangi bosqichlarga o'tganini ko'rish mumkin. Xususan, Anvara Olimovadan sahna sabog'ini olgan Nazokat Ne'matova ham ustoz sifatida yoshlarni ortidan ergashtirib, kasbiy bilimlarini o'rgatadi. Aktrisa Jumagul Boboyeva, Tamara Baqoyeva, Rayhon To'rayeva, Zevar Rahmonova uning etagini tutgan shogirdlaridandir, yana bir qancha shogirdlari respublikaning turli teatrlarida faoliyat yuritishgan.



Nazokat Ne'matova chin muhabbat tarannum etilgan xalq dostoni asosidagi *“Tohir va Zuhra”* spektaklida turli rejissorlar talqinida ko'p marotaba Zuhra rolini o'ynagan va har biriga alohida e'tibor bilan yondashgan. Buxoro teatrining ijodiy jamoasi rejissor Aminjon Akobirov boshchiligidagi *“Tohir va Zuhra”*ni yangi variantda yana qayta sahnalashtiradi va tomoshabinlar spektaklni mamnuniyat bilan qarshi oladi. Aminjon Akobirov avval sahnalashtirgan spektaklida sevgi va muhabbat hal qiluvchi voqea deb olingan bo'lsa, bu talqinida mehnatkash xalqning o'tmishini ochib berish g'oyasini ilgari surgan. Spektaklda band bo'lgan aktyorlar o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajarishga intilganlar. Tohir rolini aktyor B.Baqoyev, Xonboboxon rolini A.Qodirov, Xorazmshoh rolini J.G'ulomov musiqali dramaning mundarijasini o'z ariyalari va ijodiy izlanishlari bilan tomoshabinga yetkazib berishga harakat qilishgan. Nazokat Ne'matovaning bu galgi Zuhra jasadatli, ariyalarda malikaning xarakteri yaqqol anglashilgan. *“Aktrisa Maksim Gorkiy ta'kidlab aytganiday: “Mushohada qilish”, tekshirish, bilish, unga qo'shimcha ravishda “to'qish va ijod qilish” singari izlanishlardan samarali foydalangan”*[2].

Aktrisa o'z Zuhra bilan tomoshabinlar tomonidan *“Sahnemiz Zuhra”* degan e'tirofga ham sazovor bo'lgan. *“Tohir va Zuhra”* spektaklida ijro qilingan har bir ariyalarni tomoshabinlar yod olib, ba'zida aktyor va aktrisalar bilan birga rol ijro ham qilishgan. Bundan ko'rinadiki, *“Tohir va Zuhra”* o'z davrining yetuk bir sahna asari bo'lgan hamda san'atkorlarning obraz talqini professional darajaga etgan. Nazokat Ne'matovaning mahoratini yuzaga chiqargan yana bir omil, teatrdan Sharq mumtoz adabiyoti namunalari, jumladan, Alisher Navoiy asarlarining sahnada talqin etilishi bilan bog'liqdir. Buxoro teatrida ko'p marotaba Navoiy ijodiga murojaat qilishgan va aktrisa sahnalashtirilgan spektakllarning barchasida turli xil obrazlarni yaratgan. Navoiy asarlaridagi obrazlarning ichki dunyosini, muallif va sahnalashtiruvchi rejissorning qarashlarini ochib berishga harakat qilgan.

Rejissor Aminjon Akobirov Alisher Navoiy *“Xamsa”*sidan o'rin olgan *“Sab'ai sayyor”* dostoni asosida musiqali spektakl sahnalashtirgan. Bu spektaklda ham asosiy qahramonlarni B.Baqoyev va N.Ne'matova gavdalantirgan. *“Buxoro viloyat teatrida sahnalashtirilgan “Dilorom” musiqali dramasi spektakli teatr jamoasining ulkan ijodiy muvaffaqiyati, desa bo'ladi”* [3]. Spektaklda chin inson bo'lmoq uchun kishi o'z hayotini insoniyat xizmatiga sarf aylamog'i lozim, degan g'oya ilgari surilgan. Spektakldagi obrazlar shu g'oya asosida gavdalantirilgan va insoniylik, hayotbaxsh kuch sifatida ochib berilgan. Mag'rur va mustahkam inson ruhi va undagi kuch-qudrat asosiy qahramonlar Dilorom – N.Ne'matova, Moniy – B.Baqoyev obrazlarida mujassamlashgan.



Bu sahna asari Komil Yashin va Muzaffar Muhammedovlarning librettosi hamda kompozitor Muxtor Ashrafiy musiqasi asosida yuzaga kelgan. Spektaklda mualliflar va rejissor Dilorom va Moniy o'rtasidagi muhabbat, san'atkorlikka mehri baland ekanini ko'rsatish bilan kifoyalanmay, balki o'sha davrdagi xalqning og'ir turmushini, xalqqa qilingan jabr-zulmini, xalqning shoh va amaldorlarga bo'lgan munosabatini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratganlar. Bu spektakl har tomonlama talabga javob bergani uchun teatr repertuarida o'z o'rniga ega bo'lgan.

Nazokat Ne'matova ijodda ham, hayotda ham doimo ustozlarning o'g'itlariga amal qilgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi Asqad Muxtor aytganidek: *“Shogirdlar*

ustozlardan o'tmasa, taraqqiyot to'xtab qoladi-ku, axir? Avlodlardan avlodlarga o'tishning ma'nisi bo'lmay qoladi". Aktrisa yangi spektakl topshirish jarayonida ustozlar kabi mustaqil tayyorgarlik olib borgan. Bu ijodiy izlanishlar spektaklning badiiy yuksak hamda tomoshabop bo'lishiga xizmat qilgan. Aktrisa ustozlar yo'lini davom ettirib, shogirdlariga aktyorlik mahorati va sahna nutqi, monolog va dialogga yondashuv, partnyor bilan ishlash jarayoni, dramaturg va rejissor falsafasi, sahnadagi xatti-harakatlar, obraz yaratishda tabiiylikka e'tibor qaratish singari sahna sir-asrorlarini keyingi avlod aktyorlariga ham o'rgatgan.

Har bir insonning qalbi o'rtanmasa, yorishmasa, yoki zavqqa to'lib-toshmasa, qo'l urilgan ishga mehru-muhabbat bilan kirishilmasa, samarali natijaga erishish qiyin. Sahnada asarlari ham xuddi shunday. U jiddiy mehnat talab etib, hayotni badiiy tadqiq etishning, san'atkor qalbi ehtirosining yakuni sifatida maydonga keladi. Yangi spektakl va uni sahnalashtiruvchi ijodkorlar har gal yangi asarni ixlos bilan qo'lga olar ekan, bu aktyordan to' rejissorgacha, musiqachidan dirijorgacha, butafordan rassomgacha, xullas teatr jamoasini yana bir yangi imtihon pallalari oldidan mas'uliyatli bo'lishga chorlaydi.

K.S.Stanislavskiy ta'kidlaganidek: "Spektaklning asosi pyesadir. Hech qachon unutmangki, teatr chiroqlarining ko'zni qamashtiradigan shu'lasi, dekoratsiya va kiyimlarning hashamati, effekti, mizansahna bilan emas, balki dramaturgning g'oyalari bilan tirikdir". Buxoro teatrining ijodkorlari ham tinimsiz ijodiy ishlar davomida yangi-yangi asarlarga qo'l urdi. Xususan, dramaturg Homidjon Mo'minov, Ahmad Bobojon bilan birgalikda hind dramaturgi Balvant Gargining "Sonni va Mahval" asari asosida "Mirzo Izzat Hindistonda" nomli yangi eksperimental asar bilan o'z imkoniyatlarini kengaytirishga intildi. Bu asar vatanparvalik, sevgi, muhabbatni tarannum etuvchi drama hisoblanib, unda ham ijrochilar mahoratini charxlovchi jihatlar ko'p bo'lgan. Mirzo Izzatning o'z Ona Vataniga bo'lgan sadoqati va qattiqqo'l otaning tutqunida iztirob chekkan Sonning vafo haqidagi so'zlari, ariyalari tomoshabinlarni hayratlantirgan. Chunki spektaklda shakl, dekoratsiya, libos, musiqa, aktyorlik ijrosi, rejissor qarshlari doimiy spektakllardan ajralib turgan. Nazokat Ne'matovaning bu spektaklda yaratgan obrazi yangi ijodiy jarayonlarni ochib berishiga xizmat qildi. *"O'zbekiston xalq artisti Nazokat Ne'matova butun vujudi bilan Sonni holatida yashaydi. Unda yoqimli ovoz ham, ibo to'la nazokat ham, tomoshabinni to'liqlantiradigan ichki kechinmalarining tashqi ifodasi ham go'zal hind qizining ajoyib obrazida gavdalanadi"* [4].

Aktrisa talqinidagi Layli, Shirin, Zulxumor, Dilorom, Zuhra obrazlarini takrorini emas, balki sevgilisiga vafodor qizning yangi munosabatini, yangi obraz, yangi xarakterni shakllantira olgan. Pyesada Sonni juda



"Mirzo Izzat Hindistonda" spektaklidan sahnako'rinish. Sonni – Ne'matova, Mirzo Izzat – S.Karimov

chiroyli, aql-zakovatda tengsiz, nigohlari o'tkir, qalbi pok, vafodor hind qizi sifatida tasvirlangan bo'lib, Nazokat Ne'matova yaratgan hind qizi Sonni obrazida muallifning qarashlarini, rejissor talqinini kuchli dinamika bilan ochib bergan. Bu spektakl uzoq yillar davomida Buxoro teatri repertuaridan joy olib kelgan.

Nazokat Ne'matova ijro etgan rollar bir-biridan ajralib turadi. Aktrisa bir spektaklda Navoiyning Gul obrazini, yana bir yangi spektaklda qahramon ayol siymosini ochib bergan. Shekspir tasvirlagan Silviya bilan Ostrovskiyning Katerinasi, "Navoiy"dagi Gul bilan "Gulsara"dagi Gulsara, "Surmaxon"dagi Surmaxon va "Oltin ko'l"dagi Shohista hamda "Davron ota"dagi Muhabbatxon o'rtasida ancha farq bor. Aktrisa mana shu farqni yaxshi anglagani uchun ham doim yaratayotgan obrazlari ustida tinimsiz ishlagan. Shundan so'ng, o'zbek va jahon dramaturgiyasi namunalarida yangidan-yangi asar qahramonlarini kashf qilishga harakat qilgan. "Alpomish" dostonida Barchin, "Boy ila xizmatchi"da Jamila, "Hamza" dramasi Sanobar, K.Yashin va M.Muhammedovning "Dilorom" spektaklida Dilorom, Shekspirning "Ikki veronalik yigit" pyesasida Silviya, Molyerning "Zo'raki tabib" komediyasida Luetsinda obrazlari shular jumlasidan.

Buxoro teatri tarixida avlodlar almashinuvi jarayonida ustoz-shogird an'analari izchillikda rivojlanib bordi. Mavjud ijodiy tajribalar, uslubiy va mahorat saboqlarini avlodlardan avlodga muttasil o'tib, yangilanib borgan sababli, teatrning badiiy qiyofasi mustahkam saqlanib qoldi. Buning natijasida, aktyorlik san'atiga tayangan realistik teatrning ijro an'analari tobora haqqoniy, romantik yo'nalishlarda rivojlanib, boyib bordi.

Mustaqillik yillarida ham Buxoro teatri ijodiy an'analari izchil davom etdi. Teatr ijodkorlari tarixiy, zamonaviy, maishiy mavzudagi sahna asarlariga murojaat qildi. Bugungi kunda ijod qilayotgan Buxoro teatri jamoasi ham zamonaviy asarlarni sahnalashtirish jarayonida, teatrdagi ustozlar yaratib ketgan ijodiy an'analardan uzoqlashmagan holda badiiy izlanishlar olib boryapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Niyozmurodov A. "Vatan ishq" Buxoro sahnasida". "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1962-yil, 12-may. №93.
2. Rashidov O., Halilov M. "Buxoroda sevgi qissasi". "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1963-yil, 30-iyul. №150.
3. Niyozmurodov A., Xo'jayev S. "Dilorom Buxoro sahnasida". "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1962-yil, 10-may. №91.
4. Niyozmurodov A., Xo'jayev S. "Mirzo Izzat Hindistonda". "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1964-yil, 12-avgust. №160.
5. Niyozmurodov A. "Xalq sevgan artistka". "Buxoro haqiqati" gazetasi, 1963-yil, 5-aprel. №68.

O'ZBEKISTON DAVLAT VA XUSUSIY TELEKANALLARINING SERIAL MAHSULOTI INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek milliy teleseriallarining mustaqillik davridagi tendensiyalari integratsiya misolida tadqiq etilgan bo'lib, xorijiy tajribasi bilan qiyoslangan holda tahlil etilgan. Milliy seriallar dastlab faqat davlat buyurtmasi asosida suratga olingan bo'lsa, biroz vaqt o'tib xususiy studiyalar mustaqil ravishda seriallarni suratga ola boshlagach, bu ikki turdagi teleseriallarda integratsiya va differentsatsiya jarayoni ro'y berdi. Maqolada aynan O'zbekiston davlat va xususiy telekanallarining serial mahsuloti integratsiyasi masalasi o'rin olgan.

Kalit so'zlar: milliy serial, videofilm, video spektakl, veb-serial, mini serial, televideniye, telekanal, integratsiya, differentsatsiya, tendensiya, reklama, striming platforma, milliy video platforma, ijtimoiy tarmoq, kinostudiya, anons, maishiy mavzu, g'oya.

ИНТЕГРАЦИЯ СЕРИАЛЬНОЙ ПРОДУКЦИИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И ЧАСТНЫХ ТЕЛЕКАНАЛОВ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье исследуются тенденции узбекского национального телесериала в период независимости на примере интеграции и анализируются на основе сравнения с зарубежным опытом. Сначала национальные сериалы снимались только на основе государственного заказа, через некоторое время частные студии стали снимать сериалы самостоятельно, в этих двух типах сериалов происходил процесс интеграции и дифференциации. В статье рассматривается вопрос интеграции серийного производства государственных и частных телеканалов Узбекистана.

Ключевые слова: национальный сериал, видеофильм, видеоспектакль, веб-сериал, мини-сериал, телевидение, телеканал, интеграция, дифференциация, тренд, реклама, стриминговая платформа, национальная видеоплатформа, социальная сеть, киностудия, анонс, бытовая тема, идея.

INTEGRATION OF SERIAL PRODUCTS OF STATE AND PRIVATE TELEVISION CHANNELS OF UZBEKISTAN

Annotation. This article, the trends of Uzbek national television series during the period of independence were studied as an example of integration, and compared with foreign experience, they were analyzed. At first, national series were filmed only on the basis of the state order, after some time private studios began to shoot series independently, the process of integration and differentiation took place in these two types of TV series. The article deals with the issue of serial production integration of state and private TV channels of Uzbekistan.

Keywords: national series, videofilm, video play, web series, mini-series, television, TV channel, integration, differentiation, trend, advertising, streaming platform, national video platform, social network, film studio, announcement, everyday topic, idea.

XXI asrga kelib san'at asarlarini "qabul qilish" usuli o'zgardi. Ijtimoiy tarmoqlar televideniye bilan raqobatga kirisha boshlagach, uzluksiz reklamalar tomoshabin ongiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Bu holat, ayniqsa, xususiy kanallar tomonidan suratga olingan seriallarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Tomoshabin serial namoyish etilmasidan avval, u haqida uzoq muddat davomida turli xil ma'lumotlarga ega bo'lib boradi. Ularning muntazam ravishda "aylantirilishi" tomoshabiniga ushbu serial haqida doimiy "eslatma" berib turadi. Tabiiyki, bu yo'l orqali seriallarni yillar davomida tomoshabiniga taqdim etish imkoniyati paydo bo'ladi. Doimiy eslatish orqali

ruhiyatiga ta'sir etilgan tomoshabin uzoq muddat davomida serialning muxlisiga aylanib qolaveradi. "Umuman olganda, 1990-yillarning boshlariga qadar butun dunyo televideniye kinosi (AQShdan tashqari) o'z mamlakatlarining "davlat buyurtmasini" bajargan bo'lsa-da, asosan "muallif", notijorat kinosi muhriga ega edi"¹.

Xususiy tarmoq seriallarining vujudga kelishi Sobiq Ittifoqning parchalanishi va O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan bevosita bog'liq. Shu tariqa "ko'p qismli badiiy film" va "teleserial" atamaları mohiyati ham o'zgarib bordi. Shu sababdan ham hozirda ko'p qismli tele asarlarni umumiy – serial deb atash mumkin. O'zbek teleseriallari video spektakllar va ko'p qismli videofilmlardan orttirilgan tajriba asosida oyoqqa tura boshladi. 2006-yil kuchga kirgan "Milliy serial" kompleks ijodiy-ishlab chiqarish dasturi to'g'risida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori (hujjat kuchini yo'qotgan 22.02.2021.)² teleseriallarning

¹ Акопов А. Телесериал начала XX века в контексте традиций отечественной кинодраматургии. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения: 17.00.03. – Москва: 2011. – С.19.

² <https://lex.uz/ru/docs/-1049916>

jahon televideniye va kino san'atidagi o'rni alohida ahamiyat kasb etayotgani anglashilganini ifoda etadi.

Dastlab teleseriallar asosan "O'zbektelefilm" DUK tomonidan suratga olingan bo'lsa, keyinchalik xususiy kinostudiyalar o'z faoliyatini boshlashi munosabati bilan xususiy tarmoq seriallari shakllana boshladi. "Star Fox", "Fox Music Cinema", "Fan entertainment", "Exclusive Films", "BB Production", "Anor Films", "Studio Bekshoh" kabi xususiy studiyalar tomonidan teleseriallar suratga olindi. Bundan tashqari "Beeline TV", "iTV", "Uz TV", "Mediabay", "Biz TV", "Allplay TV" milliy platformalarning paydo bo'lishi serillarning soni orttib borishi va tomoshabin sonining oshishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

1997-yillardan boshlab xususiy kinostudiyalar asta-sekinlik bilan o'z seriallarini suratga olishni boshladi. Ayniqsa, "Shaytanat" (1998-yil, "Qalqon" studiyasi, rejissor: D.Qosimov, Yo.Sa'diyev, F.Zaynutdinov) seriali xususiy tarmoqda suratga olingan eng birinchi muvaffaqiyatli ko'p qismli televizion asar bo'ldi. Davlat telekanallari tomonidan suratga olingan ilk eng muvaffaqiyatli teleseriallar sifatida "Charxpalak" va "Ko'ngil ko'chalari" seriallarini e'tirof etish mumkin.

Mustaqillikka erishilgach, har yili turli xil jabhalarga e'tibor qaratish maqsadida, yillarga nom berila boshladi. Bu albatta, san'atda ham o'z aksini topdi. Davlatning ustuvor g'oyalarini aks ettirish maqsadida, davlat buyurtmasi asosida suratga olingan seriallarga aynan o'sha yildagi belgilangan ustuvor g'oya asos qilib olingan.

2010-yillardan boshlab xususiy telekanallarning serial suratga olish faoliyati jadallashdi. Aynan shu davrdan boshlab teleseriallar qahramonlari ma'lum bir kasbga yo'naltirilgan holda namoyon bo'la boshladi. Xususan, shifokorlar mehnat faoliyatini yoritishga bag'ishlangan "Fidoyilar", "Orzular palatasi", "Mehmonxona" shular jumlasidan. 2020-yil pandemiya davrida butun dunyo kino san'ati uchun juda tez suratda jadallashish davri bo'ldi. Bu esa o'z navbatida, ayniqsa, tele va veb-seriialarning salmog'i ortishiga olib keldi. Xorij tajribasidan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki, barcha mass media turlari kabi tele va veb-seriialarning reklamasi uning reytingiga katta ta'sir ko'rsatadi. "Amazon Prime", "Hulu", "Sony Crackle", "CBS All access", "HBO Now", "AMC", "Spotify", "Twitch", "Tubi", "Peacock", "Stan", "Pluto Tv" striming platformalari kino va seriallar faol namoyish etiladigan eng yirik tizim hisoblanadi. Xususan, bugungi kunda jahonda yetakchilik qilib kelayotgan "Netflix" platformasidagi har bir film va serial ijtimoiy tarmoqlarda treyler va tizerlarni namoyishdan ancha oldin reklama qilish orqali tomoshabinida katta qiziqish uyg'otish amaliyotini qo'llab keladi. Bu albatta, o'zining ijobiy natijasini bermokda. 2021-yil yanvar holatiga ko'ra, kompaniya butun dunyo bo'ylab 203,7 million



obunachiga ega va 2020-yilda kontent yaratish uchun 11,8 milliard dollar sarflagan³. 2016-yil 7-yanvardan boshlab Netflix Uzbekistan onlayn kinoteatri o'z faoliyatini boshladi⁴.

Davlat buyurtmasi asosida suratga olingan teleseriallarda reklama masalasi juda oqsayotganligini inobatga olsak, bu borada xususiy studiyalar (xususiy telekanallar "Sevimli", "Mening Yurtim", "Zo'r Tv" va ularning Youtube, Instagram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari) anchayin faolligi ko'zga tashlanadi. Ammo bu harakatlar yetarli emasligini xorijiy platformaning statistik ko'rsatkichlari isbot etib turibdi. Shu o'rinda davlat telekanallarining ("O'zbekiston", "Yoshlar", "Toshkent", "Mahalla", "Oilaviy") har biri ijtimoiy tarmoqlarda o'zining rasmiy sahifasiga ega ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Teleserial mahsulotlarining efir vaqtida ham yetarlicha anons qilinmasligi, albatta, reytingning xususiy telekanallarda namoyish etilayotgan seriallarga nisbatan past bo'lishida rol o'ynamoqda.

So'nggi besh yillikda xususiy tarmoqlar tomonidan suratga olingan tele va veb-seriiallarga nisbatan qizish ortib bormokda. Buning o'ziga xos sabablari mavjud bo'lib, bu ikki turdagi seriallar orasida integratsiya va differensatsiya jarayoni ro'y bermokda. Davlat buyurtmasi asosida suratga olingan teleseriallar va xususiy studiyalar tomonidan suratga olingan teleseriallarda quyidagi tafovut va mushtarakliklar mavjud:

- davlat buyurtmasi asosida suratga olingan teleseriallarda davlat bosh siyosati aks etgan g'oyalar asosiy o'rinda turadi. Xususiy tarmoqlar tomonidan suratga olingan seriallarda esa jamiyatda tabu darajasiga yetgan mavzularning ko'tarilishi (qo'shxotinlik, oilaviy zo'raonlik, seksizm), uzoq davrlar mobaynida yopiq eshiklar ortida qolgan mavzular anchayin erkin tarzda ifoda etiladi;

- davlat kanallarida suratga olinayotgan seriallarning soni tabiiyki, xususiy tarmoqlarning mahsulotlaridan anchayin kam;

- xususiy tarmoqlarda janr va mavzu jihatdan rang-baranglikka intilish davlat telekanallaridan ancha yuqori;

- ikkala tarmoqda suratga olingan seriallarda ham avlodlar o'rtasidagi muammo, g'iyohvandlik, ekstremizm, terrorizm, sudxo'rlik, poraxo'rlik, korrupsiya, fohishabozlik, qimorbozlik kabi sotsial mavzular ko'tarilmokda. Ammo peshqadamlik xususiy tarmoq seriallariga tegishli.

³ Игромания (журнал). 27 января 2021 года. https://www.igromania.ru/news/101612/Chislo_podpischikov_Netflix_prevysilo_200 mln_chelovek.html

⁴ АН Podrobno.uz. 7 января 2016 года. <https://podrobno.uz/cat/tehnp/onlayn-kinoteatr-netflix-nachal-rabotu-v-uzbekistane-/>

- maishiy mavzudagi seriallar har ikkala tarmoqda asosiy o'rinni egallaydi;

- reklama masalasida xususiy telekanallar va studiyalar davlat kanallaridan ilg'or faoliyat olib boradilar;

- xususiy kanallar 2017-yillardan beri yirik kompaniya va firmalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatgani uchun mablag' masalasida davlat telekanallaridan kamroq muammoga duch kelishmoqda. Bu holat 2017-yillardan teleseriallarda homiylik masalasining yaxshilanishi va rivojlanishi, shu yil bugungi kunda eng yuqori reytingga ega bo'lgan xususiy telekanallar "MY5", "Milliy", "Sevimli" va "Zo'r TV" kanallarining ochilishi bilan bevosita bog'liq.

Ammo bu ko'rsatkichlarning o'ziga yarasha salbiy jihatlari ham mavjud:

- ssenariylarning puxta ishlanmaganligi va ba'zan umuman ssenariyning mavjud emasligi;

- ayrim xususiy studiyalar 1-2 yil oralig'ida faoliyat yuritib keyin o'z faoliyatini tugatishi natijasida, ushbu studiyalarda suratga olingan seriallar bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarning yo'q qilinishi sababli, xususiy

tarmoqlarda yaratilgan ayrim serillar haqida tugal fikr bildirishning imkoni bo'lmaydi;

- ayrim havaskor rejissorlar tomonidan suratga olingan seriallarda maqsad, bosh mavzu qilib olingan muammoning yechimini topishda emas, balki ko'r-ko'rona sun'iy qiziqish uyg'otish orqali o'z mahsuloti reytingini ko'tarishdan iborat bo'lib qolmoqda;

- xususiy seriallarda shafqatsizlik va behayollikning avj olishi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, teleseriallarni suratga olishda dramaturgiya, rejissura masalasiga katta e'tibor qaratish bilan birga endilikda jahon tajribasini muntazam kuzatib borish va so'nggi tendensiyalar asosida faoliyat olib borish davr talabiga aylanmoqda. Teleseriallarni suratga olish tajribasi, O'zbekistonda nisbatan kech boshlanganini hisobga olganda, bugungi holatni yaxshilash uchun katta mehnat talab etiladi. Shu o'rinda davlat va xususiy telekanallar bilan hamkorlikda teleseriallarning suratga olinishi yaqin uch yillikdagi eng foydali tajribalardan biri bo'lganini e'tirof etish joiz.

“YILLAR ARMONI” SPEKTAKLIDAGI BADIY MUSHTARAKLIK

Annotatsiya. Maqolada she'riy drama muallifi Abdulla Oripovning hayoti va ijodiga bag'ishlagan “Yillar armoni” spektaklidagi badiiy mushtaraklik haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: spektakl, she'riy shakl, voqealar rivoji, badiiy mushtaraklik.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В СПЕКТАКЛЕ «ЙИЛЛАР АРМОНИ»

Аннотация. В статье размышляется о художественной общности в спектакле «Йиллар Армони», посвященном творчеству и жизни автора поэтической драмы Абдулла Орипова.

Ключевые слова: перформанс, поэтическая форма, развитие событий, художественная общность.

ARTISTIC COOPERATION IN THE PERFORMANCE "DREAM OF THE YEARS"

Abstract. The article reflects on the artistic commonality in the performance "Yillar Armoni" dedicated to the work and life of the author of the poetic drama Abdulla Oripov.

Keywords: performance, poetic form, development of events, artistic commonality.



O'zbekiston davlat drama teatrida O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligi munosabati bilan uning hayoti va ijodiga bag'ishlangan “Yillar armoni” nomli spektakl sahnalashtirildi. Dramaturg Uchqun O'sarovning poetik dramasi, yosh rejissor Rasuljon Tog'ayqulov talqinida tomoshabinlar e'tiboriga havola qilindi.

Sahnaga qo'lida qog'oz tutgan o'ychan Abdulla Oripov – aktyor Po'lat Normatov chiqib keladi va she'r o'qiy boshlaydi.

**Kimgadir yaxshi gap aytdik, birodar,
Kimdir bir umrga ranjib ham ketdi.
Kun kecha yosh derdik o'zni bir qadar,
Bugun-chi, balog'at payti ham yetdi...**

Tashqi qiyofasi, ko'rinishi, kiyinishi Abdulla Oripovga o'xshash aktyorni sahnada ko'rgan tomoshabinlar haqiqiy shoirni ko'rgandek, hayratga tushadi. Aktyorning shoirona qarashlari, she'r o'qishi muxlislar ko'ngliga kamand tashlaydi, sehrlaydi. Tajribali aktyor bir nafasda tomoshabinlar diqqatini tortib oladi. Shundan so'ng sehrlil sadolar ostida o'qilgan she'r qo'shiqqa aylanadi.

**...O, yillar armoni, yillar armoni,
Armon ko'rmadim men sizdan buyukroq...**

Shoirning sizni bizga yod bo'lib ketgan ushbu otashin satrlari bilan boshlanadigan spektakl tomoshabini ham kuldiradi, ham o'yga toldiradi. Voqealar rivojida daholar, allomalarga ham barcha zamonlar quchog'ini ochib bag'riga bosmasligini, davr chig'iriqlarining sinovi yaqqol anglashiladi. Sababi, voqealar rivoji davomida ziddiyatli kurashlar keskinlashib boradi va bosh qahramon shoirga bir inson yaxshilik qilsa, ikkinchisi poyini qirqishga shay, qamatishga tayyor ekanligi ayon bo'ladi. Natijada, shoir bir necha bor



sun'iy “ajal” qopqonidan omon qolishi tomoshabinlarni yaxshi she'r yozgan shoirni ko'rolmaslik mumkinmi, degan xulosaga olib keladi. Aktyorlar ijrosida hayot kurashsiz, qarama-qarshiliklarsiz bo'lmasligini, hatto taniqli shoirlarda ham bu jarayon oson kechmasligini anglaymiz.

Spektaklda Abdulla Oripovning bolaligini Ibrohim Hikmatjonov, Abdurazzoqning yoshligini Amirbek Rahmatullayev, Orifboy otaning yoshligini Rustam Ahmedov, keksaligini G'aybulla Jumanov, Turdixol momoning yoshligini Mahbuba Xurramova, ulg'ayganini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Madina To'xtayeva, Oybibini Yulduz Haydarova, Hanifani Ra'no Egamberdiyeva, Zulfiyaning yoshligini Samira Hikmatova, ulg'ayganini Nilufar Asomova, Umarjon Ismoilovni Azamat Hazratqulov, Muharrirni Sa'dulla Niyazov, Bibisorani Nafisa Toshmatova, kayvoni onalarni Nozima Raimbekova va To'xtaxon Surovovlar mahorat bilan ijro etgan. Voqealar rivojlanishiga yordam beruvchi talabalar rolini ijro etgan Malika Rahimova, Nazokat Muhamedova, Dinara

Toshmatova, Nargiza Baqoyeva, Begzod Zokirjonov, Karimjon Ramazonov va Ulug'bek Ro'ziyev kabi aktyorlar ijrosi tomoshabinlarni shoirning talabalik davriga yetaklaydi.

Shoir tavalludiga bag'ishlangan davlat tadbiri Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida o'tkazildi. Bu borada jurnalist Nurxon Elmirezayeva quyidagicha yozgan: "Yillar armoni" spektaklidan parcha namoyish etilganida ulug' shoirimizning aynan ijodga limmo-lim fasli – talabalik davrini aks ettirgan¹. Bu lavha talabalikni boshidan o'tkazgan har qanday yoshdagi insonni beg'ubor damlariga qaytaradi. Ayniqsa, yomg'ir sharros quya boshlagani, bahor yomg'iri ostida juft-juft bo'lib zontik tutgan yigit-qizlar bir-birlarining qo'llaridan tutgancha gitara sadosiga hamohang raqsga tushgan sahnasida badiiy fonda shoirning quyidagi misralari jaranglaydi...

***Men-ku bu dunyoni obdon o'rgandim,
Ummonidan tortib tog'igacha to.
Quvonchli kunlarni rosa ko'rgandim,
Benasib qolmadim g'amdand ham hatto.***

Buko'rinish Abdulla Oripov ijodining yorqin damlarini, nozik qirralarini, nafis tuyg'ularga boy kechinmalarini eslatadi. Uning she'rlarni yod olib ulg'aygan muxlislar sahnadagi qahramonlarga qo'shilib tanish satrlarga jo'r bo'ladi. "Yillar armoni" spektaklini tomosha qilgan insonda, Abdulla Oripovning kitoblarini qayta o'qish ishtiyoqi ortadi. Yoshlarning adib ijodiga yanada qiziqishi ortishiga, madaniy hordiq chiqarishiga, salohiyati ortib, didi shakllanib, saviyasi oshishiga spektaklning hissasi katta, albatta.

"Bolalik" sahnasi esa aka-singil o'rtasidagi beg'ubor tortishuv, janjalu yarashuvlar, onasiga arz qilishlar... tomoshabinlarni bolalikda jigarlari bilan bo'lgan voqealarni eslashiga undaydi. Sahna bezaklaridagi qishloq hayoti, uning ramziy manzaralari, tandirda yopilgan non, sokin oqshomda yulduzlar bilan sirlashish, ko'kka termilib yotish, ona mehrining beqiyosligi, yaxshilar yordami va hokazolar sizga tanish tuyg'ularni esga soladi. Chunki sahnaviy jarayon va holatlarda tabiiylik mujassam. Shu o'rinda adabiyotshunos olim Izzat Sultonning: "Teatrdan qandaydir illatlarimizdan xalos bo'lib, qandaydir fazilatlarini "yuqtirib" yoki shunday fazilatlar egasi

bo'lishni orzu etib chiqamiz"², – degan fikrlari yodimizga tushadi. Chunki spektakl namoyishi davomida ijodkorning hayotiy va ijodiy biografiasini ko'z o'ngimizda jonlanadi.

Spektaklda ijodiy jamoa o'z maqsadiga erisha olgan. Spektaklning voqealariga guvoh bo'lgan har bir inson xalqimizning sevimli farzandi, hassos shoir bilan faxrlanishi, uning she'riyatiga muhabbati ortishi va kitoblariga qayta murojaat etishi aniq! Sahna asarida ijro etilgan she'rlarning ma'no-mazmuni, tub mohiyati, dramadagi majozlar, tashbehtar, metaforalar shoirning hislarini, o'ylarini, dardini chuqur his etgan tomoshabinlarga estetik zavq bag'ishlaydi. Poetik drama janridagi bu sahna asari Abdulla Oripov hayotining, ijod yo'lining bir qismini, asosan lirikasi qamrovida yaratilgan.

Teatr jamoasi shoir obrazi talqinida millat qahramonining qiyofasini yaqqol tasvirlay olgan. Abdulla Oripov rolini ijro etgan aktyor Po'lat Normatov alloma shoirning ichki kechinmalarini, o'ylarini, hayotiy qarashlarini, umr yo'lini, quvonchu iztiroblarini keng va teran ochib bergan. Uning ijrosida shoir portreti, ijodiy uslubi, nuqtai nazari, dardli ohanglari – Abdulla Oripovcha jarangni yodga soladi. Abdulla Oripov she'rlari asosida aytilgan qo'shiqlarning voqealar bilan hamohangligi tomoshabinlarni davr muhitiga olib kiradi. Qo'shiq va ariyalarni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Munajat Teshaboyeva hamda aktyor Nodir Bekmurodov yuqori notalarda ijro etgani tahsinga loyiq.

Xulosa shuki, she'riy dramatik spektaklda she'riy nutqning, she'riy shaklning o'ziga xosligi har bir satrda so'zma-so'z, qator-qator, jumlamajumla ortib boradi. Muallifning she'rlari matbuotda chop etilishga qo'yilgan taqiqlar, adabiyot va adib ijodini tushunmaganlar, ko'rolmaganlar obrazlari bilan bog'liq tashbehtar va majozlar ifodasi ko'ngillarni zabt etadi. Natijada aktyorlar nutqi, ijrosi, mahorati tomoshabinlar qalbini larzaga soldi, hayratlantirdi. "Teatr aktyorsiz yashay olmaydi". "Aktyor ijodkordir"³. Spektaklni tomoshabin ham kulib, ham yig'lab tomosha qildi. She'riy dramadagi majozlar va tashbehtar, metaforalar kishiga estetik zavq bag'ishladi. Asar yakunida tomoshabinlar davomli gulduros qarsaklar ostida san'atkorlarga minnatdorchiilik izhor etdi.

¹ Elmirezayeva N. "Gullar armonidan "Yillar armoni" gacha". "XXI asr" gazetasi, 2022-yil 3 mart. 9 (955).

² I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: "O'qituchi", – B.281.

³ Xoliqulova G. "Sahna nutqi" – T.: 2008.



VII-BO' LIM KUTUBXONA

To'ychi BAYTURAYEV,
O'zDSMI "Kutubxona fondlari va bibliografiyashunoslik"
kafedrası mudiri, dotsent, pedagogika fanlari nomzodi

TARIXIY O'LKASHUNOSLIK NASHRLARINING YOSHLAR MUTOLAA MADANIYATIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda nashr qilinayotgan tarixiy o'lkashunoslik nashrlarining turlari, xillarining mazmuni, kitobxonlik doirasi tahlil qilingan. Kitobxonlikni belgilashda mazmun bilan birga uning kim tomonidan kimlarga ochib berilishiga alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: nashr, kitobxon, voqea, davr, zamon, makon.

ИСТОРИКО-КРАЕВЕДЧЕСКИЕ ИЗДАНИЯ И ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

Аннотация. В статье анализируются виды историко-краеведческих изданий, издаваемых в нашей стране, их содержание и читательская аудитория. При определении читательской грамотности наряду с содержанием отдельно рассматривается, кто кому ее раскрывает.

Ключевые слова: издатель, читатель, событие, период, время, место.

HISTORICAL AND LOCAL HISTORY PUBLICATIONS AND THEIR USE

Annotation. The article analyzes the types of local history publications published in our country, their content and readership. When determining reading literacy, along with the content, it is separately considered who reveals it to whom.

Keywords: publisher, reader, event, period, time, place.



O'lka tarixini o'rganish jamiyat a'zolarini ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda, inson ongining shakllanishida o'z o'rniga ega bo'lgan manbalardan biri, deyishimiz mumkin. O'lka tarixini o'rganuvchi asosiy manbalar ilmiy adabiyotlarda asosan ikki qarash mavjud bo'lishi, ular moddiy yodgorliklar va ma'naviy yodgorliklarga ajratilishi ko'rsatib o'tilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 12-yanvar kuni "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmonni imzolagan. Farmonda shunday tavsiyalar berilgan: "Ta'lim va madaniyat muassasalari uchun kitob xarid qilishga mablag'lar yetarli darajada mavjud bo'lgan manbalar hisobidan jalb etilishi, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta'lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotini o'tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish" masalasiga alohida e'tibor berilgan [1].

Shuningdek, tarixiy yodgorliklarni va ma'naviy madaniyatimizning yoshlar ma'naviyatini shakl-

lantirishdagi o'rni bo'yicha Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni o'rinli bildik: "Avvalo, badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy va jahon adabiyoti namoyondalarining yetuk asarlarini saralash, tarjima qilish ishlari puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etilmagan" [2].

Yurtboshimizning mutolaa madaniyatini yoshlar o'rtasida kengaytirishda o'lkamizning moddiy madaniyatini o'rgangan tarixchi olimlar, arxeologlar, etnograflar, tangashunoslar, antropologlar, qurilish yodgorliklarini o'rganuvchi mutaxassislar tomonidan nashr qilingan mahsullarni, o'zi yashab turgan hududlarga oid kitoblarni o'qib o'rganish bo'yicha ishlarni yo'lga qo'yish kunimizning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

O'zbekistonning qadimgi, o'rta asrlar moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganuvchi nashrlarni ilmiy, ilmiy-ommabop, darslik, yo'l ko'rsatkich, hujjatli va badiiy nashrlarga ajratishimiz mumkin. Diyorimizning moddiy madaniyatini o'rganuvchi fan arxeologiya sohasida ilmiy adabiyotlarni tayyorlagan olimlar

sifatida akademiklar Yahyo G'ulomov, M.Ye.Masson, A.Asqarov va bir qator boshqa olimlar faoliyatini ko'rsatishimiz mumkin. Bu jahonga mashhur olimlar o'z ilmiy izlanishlarida o'lkadagi dehqonchilik madaniyati, chorvachilik madaniyati, shahar madaniyati va diniy madaniyatning shakllanishini keng tahlil qilgan ilmiy-nazariy nashrlarni ko'rishimiz mumkin. Yahyo G'ulom o'lkaning sug'orish tizimlarini chuqur ilmiy tahlil qilish orqali bu mavzu bo'yicha ilmiy nashrlarni o'zbek va rus tilida, shuningdek, boshqa tillarda nashr qildirgan [4]. Bu o'lka tarixi bo'yicha etnograf olim Iso Jabborov o'lkadagi xalqlarning xo'jalik yuritish, ona tili, oila, kiyinish madaniyatini tahlil qilgan, qiziqarli ma'lumotlar berib o'tgan.

O'lkamizdagi barcha shaharlarning tarixiy kitoblariga nazar salsak, daryolarga yaqin joylarda joylashganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday kitoblarda shaharlar tarixiga oid ma'lumotlar bilan birgalikda shahardagi tarixiy, madaniy yodgorliklar, binolarning qurilgan davri, joyi, qurilishidan maqsad, bajarishda qatnashgan ustalarning nomlari, mablag'ni ajratgan shaxslarning nomlari berilgan. O'lka tarixini o'rganishda qadimgi davr, ya'ni tosh davri, bronza, mis-bronza va temir davrlarini o'rganuvchi kitoblarning ahamiyati katta. O'zbekistonning turli joylaridagi bu davr yodgorliklari arxeolog olimlar tomonidan chuqur va keng o'rganilgan. Diyorimiz janubidagi Yunon-Baqtriya, Kushonlar, Toharlar davriga oid shahar qoldiqlari Dalvarzintepa, Xolchayon, Kampirtepa, Ayritom yodgorliklaridagi ulkan binolar, saroylar, ibodatxonalar, boy oilalarning uy-joylari, hunarmandlar yashagan mavzularning moddiy va ma'naviy madaniyatlarini ochib berish orqali tahlil qilganlar. O'sha davr aholisi tomonidan yasalgan buyumlardagi tasviriy buyumlarning ilmiy tahlili berilgan surat va haykallarning insonlar hayotiga ta'sir qiluvchi g'oyalari ochib berilgan. Bu davrdagi moddiy va ma'naviy madaniyat tanga pullarning paydo bo'lishi, yasalihi ulardagi surat va yozuvlarga berilgan ilmiy tahlillar orqali o'lka xalqlarining diniy dunyoqarashi, hukmronlik turlari ochib berilgan. Bu yo'nalishda E.V.Rtveladze tomonidan nashr qilingan kitoblarni alohida ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Mazkur yo'nalishdagi nashrlar, asosan ilmiy markazlar tomonidan nashrga tayyorlanib o'rganilayotgan ilmiy izlanishlarni ma'lum qismini yoritib beradi.

O'zbekistonning janubidagi yodgorliklarni o'rganish bilan shug'ullanib, bu o'lkaning moddiy madaniyati, ma'naviy madaniyati yodgorliklarini saqlovchi Dalvarzintepa, Xolchayon, Ayritom, Kampirtepa yodgorliklarini o'rganib, o'z nomini jahon faniga qoldirgan akademik olimlar G.A.Pugachenkova, E.V.Rtveladze tomonidan qadimgi Baqtriya-Tohariston o'lkasi va Kushon podsholigi madaniyatini shakllanishiga, rivojlanishiga bag'ishlangan nashrlari mavjud. Galina Anatolevna Pugachenkovaning ilmiy ishlari Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqning qo'shni davlatlarini qadimiy va o'rta asrlardagi badiiy va moddiy yodgorliklarini o'rganishga bag'ishlangan. Ularda O'rta Osiyo va uning me'morchilik rivojlanish

xususiyatlari, Sharq memorchiligiga ta'siri, Xolchayon, Dalvarzintepa kabi yodgorliklarning o'rganilishi, Kushon san'atining kelib chiqishi, Baqtriya, parfiyaliklarning Gandhara san'atiga qo'shgan hissasi ochib berilgan. Qadimiy artefaktlar (O'rta Osiyo gliptikasi) va miniatyura san'ati, O'rta Osiyo miniatyura maktabiga mansub xorijda saqlanayotgan O'rta Osiyo rangtasviri va O'zbekistonda mavjud bo'lgan manzarali qo'lyozmalarni bezab turgan miniatyuralarni o'rganish muhim hisoblanadi [3].

Galina Pugachenkova oliy ta'lim markazlari uchun muhim manba bo'lgan Markaziy Osiyo arxeologiyasiga oid "O'zbekiston san'ati" darsligi muallifi. Hamkasblari bilan birgalikda O'zbekistonning moddiy va ma'naviy yodgorliklari ro'yxatini tashkil etuvchi bir necha jildlik kitoblar muallifi hamdir. G.Pugachenkova 60 yildan ortiq vaqt davomida Markaziy Osiyo san'ati va madaniyati yodgorliklarini izlab keladi. U 700 dan ortiq ilmiy maqolalar, monografiyalar va nashrlar muallifi bo'lib, ularning aksariyati ingliz, fransuz, nemis, italyan va boshqa tillarda nashr etilgan. O'zbekiston shaharlarida saqlab qolingani moddiy madaniyat yodgorliklarni o'rganuvchi nashrlar "Ochiq osmon ostidagi muzey" ruknida Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent va boshqa qator shaharlar bo'yicha ilmiy, ilmiy-ommabop, albom kitoblari akademik G.A.Pugachenkova tomonidan nashrga tayyorlangan.

O'rta Osiyo mintaqasi tarixi va arxeologiyasi bo'yicha yirik mutaxassislardan biri, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi E.V.Rtveladze tomonidan yozilgan kitoblar O'rta Osiyo va O'zbekistonning moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishga bag'ishlangan. E.V.Rtveladze Hindiston va Baqtriya (qo'shni viloyatlar) o'rtasidagi madaniy aloqalar muammolariga o'z ilmiy tadqiqotlarida alohida e'tibor bergan. Xususan, buddizmning bu hududga kirib borish jarayonini yorituvchi manbalari batafsil ko'rib chiqiladi. Shu munosabat bilan E.V.Rtveladze Marvdagi budda haykalining qurilishini sosoniylar davriga bog'lagan mualliflarga keskin e'tiroz bildirganligini ko'rishimiz mumkin. U bu voqeani Parfiya davrining oxiri bilan bog'lashni isbotlashga harakat qiladi. E.V.Rtveladze Qora-Kamara yozuvlarini bu yerga Rim harbiy asirlari olib kelgan mitra kulti borligidan dalolat, deb hisoblaydi. Shaharlardagi har bir yodgorlik ilmiy ma'lumotlari bilan kitobxonlarga tushunarli qilib o'zbek, rus va ingliz tillarida berilgan.

Teatr va tomosha san'ati bo'yicha M.Qodirov, E.Muxtorov, M.To'laxo'jayeva, musiqa san'ati bo'yicha F.Karamatov, A.Jumayev, Yunus Rajabiy, tasviriy san'at bo'yicha T.Mahmudov, L.I.Rempel, A.Abdullayevlarning ilmiy asarlari O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professor-o'qituvchilari hamda talabalar tomonidan foydalanilmoqda.

O'lka tarixiga oid barcha kitobxonlarga Asqad Muxtor, O'tkir Hoshimov, Said Ahmad, Shukur Xolmirzayev, Abdulla Qahhor asrlaridan ko'plab namunalar keltirishimiz mumkin. Tilab Mahmudovning "Oqar daryo oqmasmida jimgina" va "Omonat dunyo"

hikoyalarda, Toshkent viloyati Xumson qishlog'idagi tarixiy voqealar, insoniy munosabatlar, o'tgan asrning 30–70-yillardagi ijtimoiy hayot yoritib berilgan.

Maqolada ko'tarilgan asosiy masalalardan biri, bu san'at va san'at turlarining rivojlanishi, uni o'rganishga oid nashrlarni kamligi bo'lib, bu masala mutaxassislarining tahlillarida o'rganilgan. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ham san'at turlari bo'yicha adabiyotlarni nashr qilishga katta hissa qo'shayotgan maskan hisoblanadi. Institutda nashr ishlariga katta e'tibor berilmoqda. Professor-o'qituvchilarga o'z yo'nalishlari bo'yicha darslik, monografiya, ilmiy maqolalar va kitoblarni nashrga tayyorlash muhim jarayon hisoblanadi. Tarixiy o'lkashunoslik kitoblarining institut kutubxonasi

fondida mavjudligi va mana shu manbalardan talabalar keng foydalanayotgani alohida o'rganiladigan mavzu hisoblanadi.

Oliy ta'lim kutubxona va mamlakatimiz kutubxonalarida bunday mavzudagi kitoblar sonining ko'payishi, kitob mutolaasini targ'ib qilish tadbirini besh tashabbusdagi o'qish madaniyatini shakllantirish talablariga to'g'ri keladi, deb hisoblaymiz. Kutubxonadagi har bir kitobning elektron nusxalari to'planmoqda. Elektron kitoblar kelajakda barcha viloyat, tuman kutubxonalarining kitobxonlariga xizmat ko'rsatishi yo'lga qo'yiladi. Tarixiy o'lkashunoslik nashrlarini muntazam tinglab o'qish, yoshlar va talabalarning ma'naviy dunyoqarashi yuksalishida katta ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 12-yanvar.
2. Махмудов Т. Эстетика и духовные ценности. – Ташкент: «Шарк», 1993. – С.274.
3. Алимova Д.А., Ртвеладзе Е.В. (отв. ред.) Очерки по истории государства Узбекистан (сборник очерков). – Т.: «Шарк», 2001. – С.207.
4. Muhammadjonov A. Yahyo G'ulomovni xotirlab. – Т.: "Sharq", 2000. – B.248.

YANGI MA'NAVIY MAKONNI YARATISH VA KUTUBXONA- AXBOROT MUASSASALARINING IJTIMOY VAZIFALARI

Annotatsiya. Ilmiy maqolada, O'zbekistonda yangi ma'naviy makonni yaratishda kutubxona-axborot muassasalarining axborot yetkazish, madaniy, ma'naviy- ma'rifiy, ta'lim va tarbiyaviy dunyoqarashni shakllantirish vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yangi ma'naviy makon, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, targ'ibot-tashviqot, ijtimoiy vazifa, ijtimoiylashtirish, qadriyat, ijtimoiy tajriba, bilim, dunyoqarash, ma'rifiy dunyoqarash.

СОЦИАЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ БИБЛИОТЕЧНО-ИНФОРМАЦИОННЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В СОЗДАНИИ НОВОГО ДУХОВНОГО ПРОСТРАНСТВА

Аннотация. В научной статье освещены информационные, воспитательные, культурные функции библиотечно-информационных учреждений в создании нового духовного пространства в Узбекистане.

Ключевые слова: новое духовное пространство, духовно-просветительское воспитание, агитация-пропаганда, общественная функция, социализация, ценность, общественная практика, знание, мировоззрение, просвещенное мировоззрение.

SOCIAL FUNCTIONS OF LIBRARY AND INFORMATION INSTITUTIONS IN THE CREATION OF A NEW SPIRITUAL SPACE

Annotation. The scientific article highlights the informational, educational, cultural functions of library and information institutions in creating a new spiritual space in the library.

Keywords: new spiritual space, spiritual-educational nurturing, agitation-propaganda, social function, socialization, value, social practice, knowledge, worldview, enlightened worldview.



Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqich talablariga javob bera oladigan, zamonaviy va innovatsion ma'naviy makonni shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyatga egadir.

Xo'sh, Yangi ma'naviy makon nima? Ushbu savolga Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida quyidagicha javob olamiz: "Mening nazarimda, u biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir" [1.B.226].

Yangi ma'naviy makonni yaratish uchun **birinchidan**, hozirgi globallashuv jarayonida ma'naviyat va ma'rifatga, yoshlarning axloqiy tarbiyasiga va bilim olishiga alohida e'tibor qaratish zarur. **Ikkinchidan**, "ommaviy madaniyat" tarzida kirib kelayotgan turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish uchun asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayangan holda faoliyat ko'rsatish talab qilinadi. Buning uchun "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlarini va ularni amalga qo'llash uslublarini ishlab chiqish zarurdir.

Yangi ma'naviy makonni yaratishda "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasini amalga oshirishda ko'pgina madaniy-ma'rifiy muassasalar qatorida kutubxona-axborot muassasalari alohida ijtimoiy vazifani amalga oshiradi. Kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy vazifalarini aniqlash, kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyotidagi asosiy masalalardan biridir. Adabiyotlarda

ushbu masala "Kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy roli", "Kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy missiyasi" tushunchalari orqali ifodalanib, kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy muassasa sifatida tushunilishining shakllanishiga yordam beradi. Kutubxona-axborot muassasasi inson faoliyatining bilish, o'zgartirish, kommunikativ (o'zaro bog'lovchilik), badiiy qadriyatga yo'naltiruvchilik singari barcha jabhalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Kundalik hayotda kutubxona-axborot muassasasi inson tomonidan tashkil etilgan barcha muassasalar va tashkilotlar bilan o'zaro aloqadorlikda faoliyat olib boradi. Shunga ko'ra, kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy vazifasi (funktsiyasi) muammosi ushbu o'zaro aloqadorlik tizimida aniqlash zarur bo'lgan murakkab masalalardan biridir. "Funksiya" tushunchasi sotsiologik ma'noda muayyan ijtimoiy institutning yuqori darajadagi tashkiliy tizim ehtiyojlariga nisbatan bajaradigan vazifasini anglatadi.

Kutubxonashunoslik fanlarida "funksiya" tushunchasini yanada aniqlashtirib olish uchun "Kutubxona-axborot muassasasi jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?", "Jamiyat unga qanday majburiyatlarni yuklaydi?", "Kutubxona-axborot muassasasi jamiyatga qanday vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi?" degan savollarga javob berish zarur. Boshqacha aytganda, ularning jamiyat oldidagi majburiyatlari umumlashmasi bo'lib, ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatiga mos keladi. Shu bilan birga kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy funksiyalarini ularning texnologik (ishlab chiqarish) funksiyasi bilan chalkashtirib yubormaslik zarur.

Kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy vazifasi obyektga ta'sir ko'rsatish darajasiga ko'ra, ularning ichki chegarasidan tashqaridagi funktsiya bo'lib, jamiyatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Kutubxona-axborot muassasalarining texnologik funktsiyasi ta'sir ko'rsatishiga ko'ra kutubxona ichkarisidagi faoliyat bo'lib, uning ma'lum tartibda ish yuritishi va muayyan darajadagi sifatni ta'minlashi uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi.

Jamiyat axborotlashuvining hozirgi sharoitida kutubxona-axborot muassasalari ijtimoiy vazifalarining asosiy yo'nalishlarini to'g'ri belgilab olish, ular faoliyatining asosiy mazmunini, yetakchi shakllarini aniq belgilab olish imkonini beradi. Bu faqat sohaviy ahamiyatgagina emas, balki umuminsoniy ahamiyatga ham ega bo'lib, axborot jamiyat hayoti uchun moddiy manbalar singari muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqadigan bo'lsa, kutubxona-axborot muassasalarining jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifalari yanada aniqlashadi.

Hozirgi paytda jahon kutubxonashunosligida kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy vazifalari haqida turlicha fikrlar mavjuddir. Dastlabki davrlarda kutubxona-axborot muassasalarining asosiy vazifasi kitoblar va turli hujjatlarni saqlashdan iborat, deb qaralgan. Qadimgi grek tilidagi biblioteka so'zi ("biblion" – kitob, "theke" – saqlanadigan joy) kitob saqlanadigan joy ma'nosini anglatadi. Keyingi davrlarda ushbu ma'no shunday o'zgarishlarga uchradi, hozirgi paytdagi "kutubxona-axborot muassasasi" tushunchasi "kitob saqlanadigan joy" ma'nosini anglatmay qoldi.

Kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy vazifalari haqidagi tasavvurlar XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, insoniyat hayotida axborot omillarining kuchayib ketishi natijasida, katta o'zgarishlarga uchradi. Bugungi kunda kutubxonashunoslik fanidagi umumlashtirilgan xulosaga ko'ra kutubxona-axborot yetkazish, madaniy, ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni bajaradi.

Axborot yetkazish vazifasi. Kutubxona-axborot muassasasi foydalanuvchi so'roviga ko'ra kitob, jurnal, maqola, elektron ko'rinishdagi manbalar, bibliografik ma'lumotlar, axborot haqidagi axborot yetkazish orqali o'zining axborot yetkazish vazifasini bajaradi. Kutubxonalarining axborot yetkazish vazifasi "axborot yetkazish shakli (kitob, jurnal, og'zaki xabar, elektron), adabiyotlarning turlari (badiiy, ilmiy, texnik, bolalar adabiyoti)ga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshirilganligi sababli, barcha kutubxonalar uchun umumiy bo'lgan vazifa hisoblanadi" [3.B.5]. Axborot bilan ta'minlash foydalanuvchilarning umummadaniy darajasi, ma'lumoti, tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutubxona-axborot xizmatida alohida hisobiga olinishi zarur. Bundan tashqari kutubxonaning axborot yetkazish vazifasi boshqa kutubxonalar, ilmiy-texnika axboroti muassasalari faoliyati bilan chambarchas aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Madaniy vazifasi. Kutubxona-axborot muassasalarining madaniy vazifasi – foydalanuvchilarning erkin ma'naviy rivojlanishi, jahon va mamlakat madaniyati qadriyatlaridan bahramand bo'lishi, madaniy faoliyat (ma'naviy mahsulot yaratish) uchun shart-

sharoit yaratish singari barcha faoliyat yo'nalishlarining majmuidan iboratdir. Muassasalarining faoliyatini ikki tomonlama yo'nalishdagi yo'lga tenglashtirish mumkin: **birinchi yo'nalishida**, madaniy yutuqlar haqida kutubxonalar tomonidan foydalanuvchilarga axborot berilsa, **ikkinchi yo'nalishda**, yangi yaratilgan madaniy boyliklar haqida axborot yetkaziladi.

Bugungi kunda "*Jahon bo'yicha yaratilgan 6 milliondan ko'proq kitob 1 milliondan ko'proq kutubxonada saqlanmoqda*" [4.B.9]. Shunga ko'ra, har qanday ilmiy-ijodiy jarayon ushbu kutubxonalarda saqlanayotgan "insoniyat xotirasi" bilan chambarchas bog'liqlikda yuz berishini tasavvur qilish mumkin. Kutubxona-axborot muassasalari madaniy ishlab chiqarish faoliyatining qudratli quroli sifatida foydalanuvchilarning umumiy madaniyatining rivojlanishiga, milliy va jahon madaniyatining muhim yutuqlaridan oziqlanishiga, ular ongida, turmush tarzida ijtimoiy me'yorlar, an'analar, madaniyat yutuqlarining o'rin olishida muhim ahamiyatga ega. Aholi madaniyati va kutubxona-axborot muassasalari soni, ular fondining sifati, faoliyatining tashkil etilishi o'rtasida muhim bog'lanish va aloqadorlik mavjud ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Kutubxona-axborot muassasalari – madaniyat rivojlanishi va uning yutuqlarini targ'ib qiluvchi universal vositadir. Ular hujjatlarda rasmiylashtirilgan barcha madaniy yutuqlarni qamrab oladi. Kutubxona-axborot muassasalari ko'pgina madaniyat muassasalaridan farqli holda har bir foydalanuvchiga individual tarzda yondashuv imkoniyatiga egadir.

Ta'limiy-tarbiyaviy vazifasi. Kutubxona-axborot muassasalarining ta'limiy vazifasi jamiyat a'zolarini ijtimoiylashtirish, ta'lim va mustaqil ta'lim, tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashni o'z doirasiga qamrab olgan ma'naviy ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari majmuasida namoyon bo'ladi. Kutubxona-axborot muassasalari yangi ma'naviy makonda shaxsning ijtimoiylashuvida alohida va muhim rol o'ynaydi. Boshqa ko'pgina madaniy-ma'rifiy muassasalar singari ular kishilarga axborot manbalari vositasida yangilanayotgan O'zbekistan uchun xos bo'lgan qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirishga oid muhim rol ni bajaradi.

Kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiylashtiruvchilik vazifasi foydalanuvchilarning ijtimoiy hayotga kirishishlari, jamiyatga, ijtimoiy guruhga xos bo'lgan qadriyatlar, ijtimoiy tajriba, bilimlar, xatti-harakat me'yorlarini o'zlashtirish vositasi ekanligida ko'rinadi. Ijtimoiylashuv jarayoni har bir foydalanuvchiga jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lish, muayyan nuqtai nazardan yondashgan holda urf-odatlar, an'analar asosida yashash imkonini beradi. Bu esa jamiyat, uning tuzumi, hayot shakllarining saqlanishini ta'minlaydi. Kutubxona-axborot muassasasi ijtimoiylashuvning mazmuni, vositalari, usullarini belgilab olishga yordam beradi.

Kutubxona-axborot muassasalari ta'lim va mustaqil ta'lim olish bilan bog'liq bo'lgan, ahamiyati doimo oshib boruvchi rol ni bajaradi. Shuningdek, rasmiy ta'limdagina axborot saqlovchi bo'lib qolmasdan, uzluksiz ta'lim va mustaqil ta'limning ham samarali

vositasi hisoblanadi. Madaniyat, fan, texnikaning eng yangi yutuqlari haqidagi axborotlar bilan ta'minlash orqali kutubxona-axborot muassasalari kishilarning tabiat va jamiyat qonunlari, inson va tabiat o'zaro munosabatlari haqidagi bilimlarni uzluksiz boyitib boradi.

Yangi ma'naviy makonning ma'rifatli jamiyat ekanligi haqidagi tushunchadan kelib chiqiladigan bo'lsa, ma'rifatli jamiyatni qurish ma'rifiy dunyoqarashni shakllantirish bilan bog'liqdir. Ma'rifiy dunyoqarash tushunchasini to'g'ri anglash uchun dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash, ilmiy-falsafiy dunyoqarash tushunchalarining mazmunini tushinib yetish talab qilinadi. Har bir foydalanuvchi kutubxonaga qadam qo'ygunga qadar o'zining muayyan darajadagi dunyoqarashiga ega bo'ladi. Dunyoqarash o'zining mohiyati va mazmuniga ko'ra, mifologik, diniy, ilmiy-falsafiy dunyoqarash turlariga ajratiladi.

Mifologik dunyoqarash afsonaviy kuchlarni e'tirof etish bilan bog'liq bo'lsa, diniy dunyoqarash ilohiy qudratga e'tiqod bilan bog'liq va inson qalbidagi emotsional ruhiy holatlar e'tiqodning xatti-harakatlarda ifoda etilishiga bog'liq holda shakllanadi. Diniy dunyoqarashni teologiya fani o'rganadi va u olam va odam munosabati, umrning mazmuni, hayot va o'lim muammosi kabi masalalarni ilohiyot, diniy e'tiqod tushunchalari bilan bog'liq holda tahlil qilishning o'ziga xos tizimidir.

Islom madaniyati jahon madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida insonlarni do'stlik va hamkorlikka da'vat etmoqda. Umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga asoslanishga, ilm-fan asoslarini puxta o'rganishga targ'ib etadigan ta'limot sifatida namoyon bo'lmoqda. Hayot ziddiyatlarini bartaraf etish bilan bog'liq regulativ faoliyati nihoyatda muhimdir. Umuman olganda, dinning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'рни va ahamiyati beqiyosdir.

Falsafiy dunyoqarash tabiat va insoniyat jamiyati taraqqiyotining sabablari va mohiyatini, o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda tushuntirib beradi. Shuning uchun ham zamonaviy fanning eng yangi yutuqlariga, xulosalariga tayangan, ularni umumlashtirgan holda olam va odam munosabatlari haqidagi dunyoqarashni shakllantiradi. Olam haqidagi eng umumiy bilim barcha fanlarning yutuqlarini, kashfiyotlarini bir tizimga solish, bog'lanishlar, o'zaro aloqadorliklarni umumlashtirish natijasida hosil bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan islom sivilizatsiya markazi, Xalqaro Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, diniy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot-tahlil markazi, hadis ilmi markazi, "Vaqf" xayriya jamoat fondi boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish, uning asosida yoshlarni komillikka yetaklash, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashda samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu faoliyatni yanada takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-aprelda qabul qilingan "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi:

- jaholatga qarshi ma'rifat g'oyasi asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish;

- islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu-tafakkurini shakllantirish;

- dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatarga qo'yadigan buzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish;

- jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish;

- jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlik, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish;

- globallashuv sharoitida jamiyatimizdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug'dirishi mumkin bo'lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot tahliliy faoliyatini kuchaytirish;

- diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish.

Ushbu farmonda belgilab berilgan barcha ustuvor yo'nalishlar, ayniqsa, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirishda kutubxona-axborot xizmati zimmasiga alohida vazifalar yuklanadi. Bunda bir tomondan fanning buyuk kashfiyotlari orqali ilmiy-texnik yuksalish va shu asosda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotning yuz berishi tegishli adabiyotlar tavsiyasi orqali tushuntirilishi zarur. Insoniyat o'z tarixida turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tgan. Ming yillar davomida ishlab chiqish usullari o'zgaradi. XX asrda texnika, so'ngra ilmiy-texnika inqilobi boshlangach, qisqa muddatda jamiyat taraqqiyotida ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Bor yo'g'i 400 yillar avval dunyo xalqlarining yashash tarzida, ayniqsa, dehqonchilik sohasida farq juda kam hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda tafovut yer bilan osmon qadar, deya olamiz.

Insoniyatning kelajagi ham fan taraqqiyoti va uning ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham foydalanuvchilarning, ayniqsa, yoshlarning fan asoslarining o'rganishga bo'lgan intilishlari rag'batlantirilishi zarur. Ishlab chiqarishning barcha sohalarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ularning yangilarini yaratish tizimini joriy etish mamlakatimizdagi kattayu kichik barchaning burchi ekanligini muntazam targ'ib qilish zarur.

Ikkinchi tomondan, dinning jamiyat uchun zaruriy ehtiyoj ekanligini to'g'ri tushuntira bilish, dinning axloqiy tarbiya orqali iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotda tutgan o'rnini ko'rsatib bera bilish kutubxona-axborot xizmatida o'ta muhim ahamiyatga egadir. Bunda asrlar davomida ajdodlarimizning Qur'oni karim va hadislar

asosida to'g'rilik, oliyjanoblik, mardlik kabi insoniy fazilatlarini tarbiyalovchi Kodeksni ishlab chiqqanligini asoslab berishning o'ziga kifoyadir.

Ushbu Kodeksga ko'ra, har bir haqiqiy musulmon:

- *Yolg'iz Allohga topinadi;*
- *Alloh amr etgan, Rasululloh ko'rsatgan tarzda sajda qilib, ro'za tutadi, molining zakotini (rasmiy soliqlarni) to'laydi;*
- *yetimlarga, kambag'allarga va muhojirlarga, qarindoshlarga samimiy yordam beradi (silai rahm);*
- *tahlikali holatlarda o'zini yo'qotmaydi, qo'rqqulik qilmaydi, Alloh madadiga tayanadi;*
- *qiyinchilik, musibat va falokatlarini sabr bilan yengadi, Allohdan umidini uzmaydi;*
- *kattaga hurmatda, kichikka izzatda, har jonzotga shafqatda bo'ladi;*
- *ilmga intiladi, ustozlarni hurmat qiladi;*
- *ahdiga vafo qilib, boshqalarning mulkiga xiyonatdan saqlanadi;*
- *o'z zimmasidagi vazifani bekamu ko'st bajaradi;*
- *o'zini, yashaydigan va ishlaydigan joyini, buyumlarini kir va iflosdan, qalbini nojo'ya fikrlar-u tuban tuyg'ulardan, tilini nojo'ya so'zlar aytishdan saqlaydi;*
- *o'zgalarning aybini kovlab, sirlarini yoymaydi;*
- *odamlar orasida ixtiloflarni bartaraf etib, ularni tinchlantirishni burch deb biladi;*
- *bilmagan narsasi haqida hukm chiqarmaydi;*
- *o'zi va yaqinlarini zino, qimor, ichkilik ichish, riyokorlik, ikkiyuzlamachilik va chaqimchilik kabi qabohatlardan asraydi;*
- *boshqalarga qo'ldan kelgan yordamini ayamaydi, qasd va qasosdan o'zini tiyadi;*
- *noma'qul ish yoki gunoh qilib qo'ysa, darhol Allohdan mag'firat so'rab, xatosini tuzatishga tirishadi;*
- *tanballik qilmaydi, xastalarning ko'nglini oladi;*
- *ota-ona duosini oladi, Vatanini sevadi va xalqidan ajralmaslikka harakat qiladi.*

Biz ushbu axloq normalarining xalq og'zaki ijodida, ayniqsa, xalq maqollarida alohida o'rin egallaganligini ko'ramiz. Alisher Navoiy asarlari boshdan-oyoq ana shu g'oya bilan sug'orilgan. Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda, tarbiya masalasi "*biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir*" [2.B.32]. Yoshlarning haqiqiy ma'rifatga asoslangan dunyoqarashini shakllantirishda, ilmiy va diniy dunyoqarash uyg'unligi hamda fanning haqiqiy asoslari, dinning asosiy muassasalarinig biri, kutubxonadir. Ilmiy dunyoqarash davlatniig iqtisodiy-ijtimoiy qudratini oshiruvchi omil bo'lsa, diniy dunyoqarash axloqiy va ruhiy qudratini ta'minlaydi. Shu jihatdan ma'rifiy dunyoqarashni shakllantirishda ularning bir-birini to'ldiruvchi ijtimoiy ong shakllariga taalluqli ekanligi kutubxona-axborot xizmati jarayonida alohida hisobga olinishi kerak.

Kutubxona-axborot muassasalarining yangilana-yotgan mamlakatimiz hayotidagi roli ularning ijtimoiy vazifalarini qanchalik darajada samarali bajarishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ularning asosiy maqsadi, umuman jamiyat hayotiy faoliyatini, xususan, har bir foydalanuvchini alohida maqbul axborot manbalari bilan ta'minlashdan iboratdir.

Yangilanayotgan O'zbekistan sharoitida kutubxona-axborot muassasalarining ijtimoiy vazifalari har bir fuqaroni uning yoshi, jinsi, millati, ma'lumot darajasi, e'tiqodi, dinga munosabati va boshqa ijtimoiy demografik belgilaridan qat'i nazar axborotlardan erkin foydalanish huquqini ta'minlashdan iboratdir. Shuning uchun ham kutubxona-axborot muassasalari faoliyatining asosiy mazmuni jamiyatda mavjud bo'lgan mafkuraviy va siyosiy xilma-xillikni aks ettirishdan iborat bo'lishi kerak. Ushbu shart-sharoitlarni hisobga olgan holdagina kutubxona-axborot muassasalari inson huquqlari, erkin ma'naviy yuksalish, mamlakatimiz va jahon madaniyati qadriyatlaridan bahramandlik kafolati bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.464.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar (2 jildlik). – T.: "Ma'rifat", 2006. – B.272.
3. G'aniyeva D. Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli. – T.: "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi", 2009. – B.332.
4. Мелентьева Й.П. Социальные функции библиотек в современных условиях. "Библиотекарь", 2021, №3. – С.5–12.
5. Humoyun Akbar. Sim-sim. – T.: "Oydin", 2021. – B.224.
6. Abdulla Sher. Xazinaga yo'l. Mutolaa sirlari. – T.: "Oydin", 2021. – B.3–18.
7. Abdulla A'zam. Tajribalar. – T.: "Sharq", 2007. – B.272 .

AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINI TARG'IB QILISHDA AXBOROT-TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotlarini axborot-kutubxona muassasalarida targ'ib qilishda yangi axborot-texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari masalasiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, badiiy asar mutolaasi, adabiy-badiiy elektron resurslar.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОПОГАНДЕ УЗБЕКСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о возможностях использования новых информационных технологий в пропаганде узбекской классической литературы в информационно-библиотечных учреждениях.

Ключевые слова: классическая литература, чтение художественного произведения, литературно-художественные электронные ресурсы.

THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROMOTION OF UZBEK CLASSICAL LITERATURE IN INFORMATION AND LIBRARY INSTITUTIONS

Annotation. This article discusses the possibilities of using new information technologies in the promotion of Uzbek classical literature in information and library institutions.

Keywords: classical literature, reading a work of fiction, literary and artistic electronic resources.



Jamiyatda yuksak ma'naviy qadriyatlarining qaror topishi axborot-kutubxona muassasalari oldiga shaxsga e'tiborni kuchaytirish, uning umummadaniy darajasini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, odob-axloq jihatdan tarbiyalash kabi vazifalarni qo'yimoqda. Bu esa aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish kabilarni taqozo etadi [1].

Jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yosh avlodni asrlar davomida yaratilgan mumtoz adabiyot namunalari bilan keng tanishtirish va ularga bo'lgan qiziqishni shakllantirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda ushbu asarlarni targ'ib qilish, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbek mumtoz adabiyoti hozirgi kunga qadar yaratilgan turli xil janrdagi badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Lirik va epos o'tmish o'zbek adabiyotining asosiy xillari g'azal, muhammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, masal, hikoya va boshqalar keng tarqalgan adabiy janrlardir. O'zbek mumtoz adabiyoti bir qator memuar va tarixiy asarlarni ham o'z ichiga oladi. "Boburnoma" (Bobur), "Shajarai turk", "Shajarai tarokima" (Abulg'oziy), "Firdavsul-iqbol" (Munis va Ogahiy), "Tohir va Zuhra", "Bo'z o'g'lon", "Yusuf Ahmad", "Kitobi podsho Jamshid", "Qissai Farhod-u Shirin" kabi xalq kitoblarini ham o'z ichiga oladi. Chunki ularda tarixiy voqealar ko'pincha badiiy til vositasida ifodalanadi, badiiy lavhalar va she'rlar ularga yanada ko'proq badiiy tus beradi. Bu asarlar folklorda vujudga kelgan, kitobiy

adabiyotga yaqinlashtirilib qayta ishlangan yoki yozma adabiyotda paydo bo'lib, keyinchalik xalq ijodi uslubida ishlangan asarlardir [2].

O'zbek xalqi asrlar davomida bir qancha xalqlar bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'ldi. O'zbek tiliga tojik, eron, ozarbayjon, hind, arab va boshqa xalqlarning ko'pgina badiiy asarlari va tarixiy kitoblari tarjima qilindi. "Xisrav va Shirin", "Haft paykar" (Nizomiy), "Guliston", "Bo'ston" (Sa'diy), "Bahoriston", "Yusuf va Zulayho", "Salomon va Absol" (Jomiy), "Shoh va gado" (Hiloliy), "Kalila va Dimna" (hind eposi), "Ming bir kecha" (arab ertaklari), "Ravzatul-safu" (Mirxond), "Badoye' ul-vaqoe" (Zayniddin Vosify) va boshqalar shular jumlasidandir. Tarjima asarlarning ko'pchiligi aniq tarixiy sharoitning ehtiyoji, talabi hamda o'zbek yozma adabiyoti va xalq og'zaki ijodi tajribalari asosida birmuncha o'zgartirilgan va yangiliklar kiritilgan, ijodiy qayta ishlangan asarlardir. "Chor darvesh", "To'tinoma" va boshqalar shu xildagi erkin tarjima asarlardir. O'zbek mumtoz adabiyotini, jamiyat umumiy taraqqiyoti qonunlarini, o'zbek xalqining tarixan tashkil topishi hamda uning ijtimoiy-siyosiy hayotini quyidagi asosiy taraqqiyot bosqichlariga bo'lish mumkin.

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar Markaziy Osiyo mintaqasida yashayotgan barcha xalqlarni mushtarak madaniy yodgorligidir. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi va madaniyati haqida grek, xitoy, hind va arman tarixchilari kitoblarida, shuningdek, Avesto, Behistun, Bundaxishn, O'rxun-Enasoy yodgorliklari kabi turli manbalarda, Beruniy, Narshahiy va boshqa olimlar va tarixchilarning asarlarida ko'pgina qimmatli manbalar va ma'lumotlar saqlanib qolgan. Turli manbalar orqali bizga qadar

yetib kelgan adabiy yodgorliklar qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining boy va rang-barang og'zaki badiiy asarlar yaratganligidan dalolat beradi. Mitra, Anaxita, Kayumars, Jamshid kabi mif va afsonalarda kishilar baxt-saodat haqidagi orzu-tilaklarni ifodalab, yovuz kuchlarni yenguvchi qahramonlar obrazini yaratdilar. Xalq qahramonlik eposida esa vatanparvarlik hamda bahodirlik motivlari kuylanib, chet el bosqinchilariga qarshi kurash voqealari zaminida To'maris, Shiroq, Zarina kabi fidokor botirlar, Rustam, Siyovush kabi pahlavonlar obrazi yaratilgan [3].

X–XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining adabiy taraqqiyotida muhim davr hisoblanadi. Aynan bu davrda xalq og'zaki ijodining boy va xilma-xil asarlari paydo bo'lgan. Qolaversa, davriy (fors-tojik) va turkiy adabiy tillari shakllanib, bu tillarda yozma adabiyot vujudga keldi. Atoqli so'z san'atkorlari yetishib chiqdi va o'lmas badiiy asarlar yaratildi. Fors-tojik tilida boy va rang-barang adabiyot maydonda chiroy ochdi. U jahon madaniyati xazinasiga bebaho durdonalar qo'shdi. Rudakiy va Firdavsiy, Nosiri Xusrav va Umar Xayyom, Xoqoniy va Nizomiy, Sa'diy va Hofiz, Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy kabi ulkan so'z san'atkorlarini yetishtirdi. Fors-tojik tilidagi adabiyot X–XV asrlarda O'rta yer dengizidan tortib, Hindistonga qadar bo'lgan juda katta hududni qamrab oldi. Turkiy xalqlarining X–XII asrlarga oid yozma adabiyotidan nihoyatda oz yodgorliklar saqlanib qolgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari orqali yetib kelgan adabiyot namunalardan tashqari, X–XII asrlar adabiyotidan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga olib boruvchi bilim"), Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni") va Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat" va Sulaymon Boqirg'oniyning "Boqirg'on kitobi" she'rlar to'plami, "Oxir zamon" hamda "Bibi Maryam" asarlaridir.

O'rta Osiyo xalqlarining XIII asrdagi va XIV asr boshlaridagi adabiyoti ham ularni xo'jalik hayoti singari Chingizxon istilosi va uning dahshatli oqibatlarini bilan bog'liqdir. Chingizxon istilosi yozma adabiyotning taraqqiyotiga ham salbiy ta'sir etdi. Istilochilar nodir madaniyat yodgorliklarini, jumladan, san'at va adabiy asarlarni yo'q qilib tashladilar. Ilm-fan, san'at va adabiyot ahlining bir qismi janglarda halok bo'ldi. Bir qismi asir olinib, qul qilindi. Ko'pgina olim va adiblar boshpana izlab, boshqa mamlakatlarga ketishga majbur bo'lgan va o'sha yerlarda qolib ketgan. Xusrav Dehlaviy, Muhammad Avfiy, Badriddin Chochiy, Ziyonaxshabiy, Kamol Xo'jandiy shular jumlasidandir. Ushbu davrda yaratilgan badiiy asarlardan eng mashhuri Nosiruddin Burhoniddin o'g'li Rabg'uziyning 72 qissadan iborat bo'lgan "Qissai Rabg'uziy" asaridir. "Qur'on" va boshqa diniy kitoblardagi diniy-afsonaviy syujet asosida yaratilgan asarda bevosita diniy e'tiqodga aloqasi bo'lmagan hayotiy voqealardan iborat hikoyalar ham mavjud. Shuningdek, asarda yozuvchining she'rlari, g'azallari ham o'rin olgan [4].

Ushbu davrning yana bir mutafakkir – faylasuf shoiri Pahlavon Mahmuddir. U asosan Umar Xayyom izidan borib fors-tojik tilida ajoyib ruboiylar yaratdi. Uning ruboiylari xalq ichida keng tarqaldi. O'sha davr adabiyotining vakillaridan biri Badriddin Chochiy bo'lib, eski o'zbek tilida she'rlar yozdi, vaqtlar o'tib, Hindistonga kelgandan so'ng fors-tojik tilida ijod qildi. Bizgacha "Sharhi qasoidi Badri Chochiy" asari yetib keldi.

XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan davr o'zbek adabiyoti shakllanishi va taraqqiyotining juda muhim hamda sermahsul davridir. Bu davrda eski o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni asosan tugallandi. Dunyoviy adabiyot adabiy hayotning yetakchi yo'nalishiga aylandi. Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Haydar Xorazmiy, Durbek, Amiriy, Yaqiniy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih, Majlisiy, Xoja va nihoyat eski o'zbek adabiy tilining va mumtoz adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy yetishib chiqqan. O'zbek adabiyoti g'oyaviy-tematik va badiiy uslub jihatidan takomillashdi, yangi pog'onaga ko'tarildi, lirik va epik poeziyaning hamda badiiy prozaning nodir va original asarlari vujudga keldi. Yozma adabiyot bilan xalq og'zaki adabiyoti o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sir kuchaydi.

XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot. Bu davrda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining o'ziga xos ilmiy-madaniy muhiti vujudga kelgan. Uning boshida ma'rifatli hukmdor Amir Umarxon ilm, madaniyat, san'at, adabiyot, rivojiga katta e'tibor bergan. Madrasalarda o'qish, o'qitish ishlarini yaxshilagan. Har xil hunar maktablari ochilishini qo'llab-quvvatlagan. O'zi ham Amiriy taxallusi bilan o'zbek va fors tillarida ijod qilib devon tuzgan. Nodira, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshod, Anbar Otin, Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Furqat, Zavqiy Qo'qon adabiy muhitining yetuk namoyandalardir.

Adabiyot taraqqiyotida Buxoro va Xiva adabiy muhiti katta rol o'ynadi. Xivada an'anaviy she'riyat va tarixnavislik rivojlangan bo'lsa, Buxoroda tazkiranavislik, turkiy va forsiy she'riyat ravnaq topdi. Xonliklarda xalq og'zaki ijodiga qiziqish kuchayib, "Go'ro'g'li" turkumdagi o'nlab jangnomalar, tarixiy mavzudagi romantik, qahramonlik dostonlari, "Tohir va Zuhra", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sayyodxon va Hamro", "Sanobar", "Asil va Karam", "Yusufbek va Ahmadbek", "Xurshid va Malikai Dilorom" kabi dostonlarning xalq kitoblari variantlari vujudga keldi. Turdi Farog'iy, So'fi Olloyor, Boborahim Mashrab, Huvaydo, Mujrim Obid, Sayido Nasafiy, Sayqaliy bu davrning yirik shoirlari edi. Bu davrda adabiyot ham mazmun, ham shakl jihatdan yangilandi. Adabiyotga vatan, ozodlik uchun kurash, millat istiqloli mavzulari, ma'rifatparvarlik g'oyalari kirib keldi. Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar, Karimbek Kamiy, Almai, Ahmad Donish yangilanayotgan adabiyotning yetuk namoyandarlari edi. Ular o'zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdi [5].

Yuqorida qayd etib o'tilgan adib va shoirlarning asarlari bizning davrimizda bir necha bor nashr etilgan. Lekin ushbu asarlar kam nusxada chop etilganligiga, ancha eskirganligi sababli, shu bilan birga yetarli darajada izohlar, lug'atlar va boshqa tushuntirish so'zlari bo'lmaganligi sababli, ular kitobxonlar tomonidan qiyin o'zlashtirilgan. Yoshlarda esa ularni tushunishga ehtiyoj kamayib bormoqda. Natijada, ushbu asarlar yoshlar tomonidan kam o'qilmoqda. Shu bilan birga ushbu asarlar kutubxona-axborot muassasalarida kam uchraydigan, noyob adabiyotlar sifatida mavjud. Hozirgi kun talablari esa ushbu adabiyotlarni qayta chop etish, kitobxonlar jamoasiga yetkazishni kompleks tadbirlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda, Jumladan:

- *o'zbek mumtoz adiblarining asarlarini keyingi 30 – 40-yillar mobaynida chop etilganligi monitoringini yaratish va ularni axborot-kutubxona muassasalarida mavjudligini o'rganish;*

- *o'zbek mumtoz adiblari asarlarini qayta chop etish, shu soha olimlari, kutubxonachi mutaxassislar, pedagoglar, noshirlar va keng jamoatchilikdan tashkil topgan Kengash a'zolari tomonidan tanlanishi va tavsiya etilishi;*

- *chop etilishga tanlangan asarlar soha mutaxassislar tomonidan zarur izohlar, lug'atlar, so'zboshi, atamalar va boshqa tushuntirish so'zlari bilan chop etilishi, shu bilan birga noshirlar tomonidan yuqori darajada bezatish, rasmlar bilan ta'minlanishi zarur;*

- *o'zbek mumtoz adiblarining asarlarini elektron variantlarini yaratish va ularni kutubxonaxorot muassasalariga berish;*

- *axborot-kutubxonaxorot muassasalari ushbu elektron variantlarini keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlarini amalga oshirilishi kerak.*

O'zbek mumtoz adabiyoti insonning ta'sirchanligi va ma'naviy dunyosiga, shaxsining shakllanishiga ulkan estetik va axloqiy ta'sir ko'rsatadi. Kitobxon didining o'sish shartlari eng avvalo, shaxsning o'ziga, shuningdek, kitobga ham bog'liqdir. Bu bir tomondan o'qishning sifatli bo'lishi, kitobxon so'rovlarining o'ziga xosligini his qilish qobiliyatining taraqqiy eta borishi bilan bog'liq. Idrok qilish madaniyati qanchalar yuksak bo'lsa, badiiy asar tanlash darajasi ham shunchalar yuqori bo'ladi. Badiiy asar mutolaasi, ayniqsa, mumtoz adabiyotlarni mutolaa qilish estetik idrok qilishning eng murakkab turlaridan biri, deyish mumkin. So'z, obrazlar, shartli ramzlar zaminidan badiiy olamini kashf etish kitobxonning ko'tarinki tasavvuri va boy tafakkuri imkoniyatlarini to'liq ishga solishni talab etadi. Asarni idrok qilish – obrazli fikrlash qobiliyatini, badiiy tasavvurni, ijodiy kechinmani taqozo etadi. Ushbu xislatlar tug'ma bo'lmay, balki o'qish jarayonida hosil bo'ladi va kamolga yetadi. Badiiy asar kitobxonning ijodiy hamkorligiga mo'ljallangan. So'z vositasida yaratilgan badiiy obrazlar bevosita tasavvur, xotira, fikrlash orqali ta'sir ko'rsatadi. Badiiy obraz voqelikni ijodiy yaratish, "borliqni ko'rinishi", aniqlik va mavhumlik birligining hissiy ko'rgazmali shaklda aks ettiruvchi hodisa sifatida ta'kid etiladi. Kitobxon obrazlar tilini yaxshiroq tushunsa, "borliq"ni anglash qobiliyati qanchalar yuksak bo'lsa, asarni idrok etish ham shunchalar yuqori bo'ladi. Ijodiy o'qish insonning bilish, anglash yo'li kabidir.

Badiiy adabiyotni, shu jumladan, o'zbek mumtoz asarlarini ijodiy o'qishga rag'batlantirishning shakllari rang-barangdir. Ularning orasida "og'zaki badiiy tasvirlash", matnni sahnabop qilib qayta tuzish, muallifni uslubiga qarab taniy olish, matn bilan suratlarini mutanosiblash, matnni surat va bezaklar bilan davom ettira olish, o'qilgan asarni fikriy jihatdan ekranlashtirish, qahramon xulq-atvorini kuzatish va boshqalarni aytib o'tish joizdir. Ushbu shakllar metodikasining maqsadi: o'qilgan asar ta'sirida yuzaga kelgan tuyg'ularni faollashtirish va boyitish, badiiy kuzatuvchanlikni kamolga yetkazish, so'z bilan ifodalangan badiiy obrazni ko'z bilan ko'rish va eshitib his qilish darajasiga ko'tarish, kitobxonda o'qilgan narsaga nisbatan javob tarzida xayolot, taxmin va topqirlikni uyg'otishdan iboratdir.

O'qish uchun tavsiya etilayotgan adabiyotlarni tanlayotganda turli yozuvchilarning asarlarini muayyan bir izchillikda berish, ayniqsa, yaxshi natijalar ko'rsatadi. Kitob o'qish bo'yicha keyingi yillarda o'tkazilgan bir nechta sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kitobxonlar o'rtasida axborot olish manbalarini tanlashda o'zgarishlar

mavjud. Agar o'tgan asrning 60–90-yillarida axborot olishning asosiy manbai kutubxonalar bo'lgan bo'lsa, zamonaviy kitobxon kitob sotib olish, norasmiy do'stlari o'rtasida kitob almashish, yangi texnologiyalardan foydalanishni ma'qul ko'rmoqda. Buning sabablaridan biri ko'pgina kutubxonalarning badiiy adabiyotlar fondi kitobxonlar talablarini qondira olmayapti. Shu sababli, badiiy adabiyotlarni olishning bosh manbai bo'lgan kutubxonalar, mutolaani tashkil etuvchi ijtimoiy institut sifatidagi o'z pozitsiyasini yo'qotib bormoqda. Badiiy adabiyotlarni, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotining internet-resurslarini kutubxonalar amaliyotiga joriy etish strategik yo'nalish hisoblanadi. U faqat kitobxonlarni badiiy asarlarga bo'lgan talablarini qondirib qolmasdan, balki kutubxonalarni ilgari mutolaa markazi sifatidagi mavqeini tiklanishiga, regionning adabiy-badiiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Internet-resurslarni axborot-kutubxonaxorot faoliyatiga kiritishning ahamiyati, axborotga to'siqlarsiz kirib borishni tashkil qilish natijasida har tomonlama rivojlanish, erkinlik, tenglikka erishish zaruratini belgilaydi. Bu esa axborotli jamiyatning asosiy belgilari hisoblanadi. Ushbu tezislar bir qancha xalqaro hujjatlarda qayd etilgan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: YUNESKONing "Axborot barcha uchun", "Ko'p tillilikni rivojlantirish va undan foydalanish va kiberfazoga to'siqlarsiz kirish bo'yicha tavsiyalar", "Internet haqida IFLA Manifesti" va boshqalar [6].

Hozirgi vaqtda kutubxonalar va badiiy adabiyotlarni internet-resurslari o'rtasida aloqalar va o'zaro hamkorlikni o'rnatish jarayonlari ketmoqda. Axborot-kutubxonaxorot faoliyatida internet-resurslar integratsiyasi innovatsion xarakterga ega bo'lib, bular ikki yo'nalishda bormoqda.

1. Kutubxonalar o'zlarining adabiy-badiiy elektron resurslarini yaratishi.

2. Internetda o'qishga yo'l ko'rsatib borish.

Ma'lumki turli tipdagi kutubxonalarda badiiy adabiyotlar bilan ishlash bir xil darajada emas. Universal fondga ega kutubxonalargina elektron resurslar yaratish va internetda badiiy adabiyotlarni, shu jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotlarini o'qishga yo'l ko'rsatib borish imtiyoziga egadir. Bunday xulosaga turli xil kutubxonalar va idoralarga qarashli bo'lgan kutubxonalarning tizimli-funksional xarakteristikasini, moddiy-texnika bazasini va kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganish asosida kelingan. Hozirgi ijtimoiy madaniy va huquqiy holatda elektron resurslarni yaratish sohasida kutubxonalar faqat madaniy merosga oid adabiyotlarni otsifrovka qilish, o'zbek mumtoz adabiyotlarining elektron resurslarini yaratish imkoniyatiga egadirlar. Ba'zi bir viloyat kutubxonalari mahalliy mualliflar bilan shartnoma asosida kelishgan holda regionning madaniy merosiga oid materiallarni raqamlashtirmoqdalar. Hozirgi vaqtda ko'plab internet-resurslar mavjud bo'lib, ular faqat o'qishni ta'minlabgina qolmasdan, balki kitobxonlar talablarini qondirmoqda. Lekin internet-resurslar bilan ishlash strategiyasini ishlab chiqishga zarurat paydo bo'lmoqda. Kutubxonalar tomonidan badiiy adabiyotlarning elektron matnlarini taqdim etish orqali o'qishni mustahkamlash mumkin [7]. Bu esa millatning intellektual salohiyatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda alohida alohida kutubxonalar tomonidan o'zbek mumtoz adabiyotini targ'ib qilishni va kutubxonaxorot xizmatini ko'rsatishning quyidagi shakllari qo'llanilmoqda:

